

*S.Adilova, G.Narimova, Sh.Yunusova*

# O'ZBEK FILI



UCH0000003109

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

**S.Adilova,G.Narimova, Sh.Yunusova**

## **O'ZBEK TILI**

**(O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA)**



**Toshkent ~ 2019**

Ushbu o'quv-uslubiy qollanma O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tavsiya etgan (2017-yil 24-avgustdag'i 603-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan) "O'zbek tili" fani namunaviy dasturi asosida tayyorlandi. Qo'llanmada rejada belgilangan har bir amaliy mashg'ulot mavzusi bo'yicha o'quv-uslubiy materiallar jamlangan. Materiallarni tayyorlashda prof. N.Husanov va boshqalar tomonidan o'zbek tili fani bo'yicha yaratilgan O'UMdan hamda boshqa manbalardan foydalanildi.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma oliy o'quv yurtlarining ta'lim rus tilida olib boriladigan guruh talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv-uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU Kengashida muhokama etilgan va 2019 -yil 30-maydagi 10-sonli bayonnomaga qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## **SO'ZBOSHI**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lif tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori uzlusiz ta'lif tizimini rivojlantirish, mamlakatimizning izchil rivojlanib borayotgan iqtisodiyotini yuqori malakali kadrlar bilan ta'minlash, barcha hududlar va tarmoqlarni strategik jihatdan kompleks rivojlantirish masalalarini hal qilish borasida oily ta'lif tizimi ishtirokini kengaytirish yo'lidagi yana bir muhim amaliy qadamdir.

O'zbek tili bo'yicha tayyorlangan o'quv-uslubiy qo'llanma o'quv jarayonining nazariy, amaliy, ijodiy jihatlarini to'liq aks ettirib, innovatsion texnologiyalar bilan boyitilgan. Bu talabalarining fanni qulay va oson o'zlashtirishlariga yordam beradi, o'z ustida ishshashlari uchun sharoit yaratadi. O'zbek tilini o'qitish tamoyillari, mazmuni va uslubini o'zgartirib, o'zbek tilini o'rganish jarayonini tezlashtirish, talabalarning o'rta maktabda, akademik litsey va kollejda olgan bilimlarini chuqurlashtirish, takomillashtirish bilan bog'liq bo'lgan nutqiy ko'nikmalarni hosil qilish, o'zbek tilining boy imkoniyatlardan o'z mutaxassisligi bo'yicha foydalanish, fikrni to'g'ri, aniq, mantiqli ifoda etishga o'rganish ko'zda tutiladi. Shularni nazarda tutib o'quv-uslubiy qo'llanma nutqiy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan kommunikativ tamoyilga asoslanib tuzildi. Bu esa "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha HARAKATLAR STRATEGIYASI'da ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari yuzasidan "Ta'lif va fan sohasini rivojlantirish" bo'yicha "Uzlusiz ta'lif tizimini yanada takomillashtirish yo'lini davom ettirish, sifatli ta'lif xizmatlariga imkoniyatlarni oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga muvofiq yuqori malakali kadrlarni tayyorlash"ga tola mos keladi.

Qo'llanma birinchi o'ringa asosiy mavzu sifatida nutqiy mavzularning qo'yilishi bilan farqlanadi. Grammatik bilimlar fikr ifodalash vositasi bo'lib, asosiy maqsadning amalga oshishiga xizmat qiladi.

O'zbek tili ta'lifi turmush va mehnat faoliyatidagi nutq mavzulari doirasini yanada kengaytirilgan hamda ixtisoslikka moslashtirilgan tarzda o'zbekcha nutqni tinglash, so'zlash, o'qish va yozish amallarini uyg'unlashtirib o'rgatish bilan ajralib turadi. Bunda talaba oldiga ilmiy-badiiy adabiyotlarni o'qib tushunish, mutaxassislik sohasida matn yaratish, matnni shakl va mazmun jihatdan yangilash, boshqa nutq uslubiga ko'chira olish kabi talablar qo'yildi.

Qo'llanmada har bir mashg'ulotga matnlar, topshiriqlar, mashqlar, mustahkamlash uchun savollar, testlar berildi. Shuningdek, davlat tilida ish yuritish, suhbat, bahslashuv orqali mustaqil yozma ishlarni uyushtirish, matn tuzdirish talabalarining ixtisosligiga ko'ra belgilandi.

## 1-MAVZU: "O'ZBEKISTON – YAGONA VATAN"

### REJA:

- Matnni o'qish, undagi atama va iboralarning ma'nosini izohlash.
- Vatan haqidagi she'rlardan namunalar yod olish.
- Respublika baynalmilad madaniyat markazi haqida qisqa ma'lumot yozish.
- Orfoepiya qoidalari. O'zbek tilida tovushlar talaffuzi.

*1-topshiriq.* Matnni o'qing. Matni bo'yicha savollar tuzing. Reja asosida matni mazmunini so'zlab bering.

### O'zbekiston

O'zbekiston - O'rta Osiyoning markaziy qismida joylashgan. Shimoliy qismi mo'tadil, janubiy qismi subtropik mintaqaga mansub. Iqlimi ham mo'tadil iliq, keskin kontinental, hududi 447,4 ming kv.km. Aholisi 32 million kishi. O'zbekiston ma'muriy jihatdan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Andijon, Buxoro, Jizzax, Navoiy, Namangan, Samarqand, Sirdaryo, Surxondaryo, Toshkent, Farg'ona, Xorazm, Qashqadaryo viloyatlardan va Toshkent shahridan iborat ma'muriy hududlarga bo'lingan. O'zbekiston poytaxti - Toshkent shahri (aholisi 3 millionga yaqin).

O'zbekiston xalq xo'jaligidagi ilg'or texnika bilan qurollangan sanoatning yuzdan ziyod tarmoq va sohasi mavjud. Muhim strategik xomashyo - paxta va undan qayta ishlangan mahsulotlarning eksporti bo'yicha Markaziy Osiyoda birinchi va jahonda ikkinchi o'rinni egallaydi. O'zbekiston ko'pgina boshqa mahsulotlarni ham eksport qilish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda. O'zbekistonning har bir qarichi oltinga teng. Nodir qazilma boyliklarning ishga solinishi mamlakatning jahon bozoriga chiqishini ta'minlaydigan yangi sanoat tarmoqlarini, masalan, avtomobilsozlikni yaratish imkonini bermoqda.

O'zbekiston o'zining boy o'tmishi, tarixiy va ko'hna madaniyatiga ega.

Mustaqillik uchun kurashgan To'maris, Shiroq, Spitamen, Muqanna, Torobiy kabi ko'plab xalq qahramonlari tarixdan ma'lum.

O'zbekiston Amir Temur, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Zamaxshariy, Forobi, Axmad Yassaviy, Alisher Navoiy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolar yashagan tabarruk zamindir.

Xususan, Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo. O'rta va Yaqin Sharq mamlakatlarining kattagina qismini birlashtirdi. Amir Temur barpo etgan buyuk davlat ilm-fan, madaniyat va ma'rifatning behad ravnaqini ta'minladi. Hozirgi kunda turli dingga mansub 130 dan ortiq millat va elat vakillari bu diyordan makon topgan.

O'zbekiston jahon sahniga chiqdi. O'zbekiston mustaqilligini 170 dan ortiq davlatlar tan oldi, o'nlab mamlakatlar bilan diplomatik aloqa o'matildi.

O'zbekiston Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti kabi o'nlab nufuzli xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'idi.

O'zbekiston o'z davlat ramzları - bayrog'i, gerbi, madhiyasi, poytaxtiga ega.

## MILLIY MADANIY MARKAZLAR

Milliy madaniy markazlar - O'zbekistonda istiqomat qilib turgan barcha millatlar, elatlarning madaniyat, ma'naviyat, milliy urf-odatlar va an'analar sohasidagi o'zlanga xos talab va ehtiyojlarini qondirish, shu tariqa ularning O'zbekiston miqyosida yanada mustahkamroq jipslashtirishga xizmat qiluvchi ijtimoiy-ixtiyoriy tashkilotlar.

1989-yilda milliy madaniy markazlarning soni 12 ta bo'lsa, 1997-yilning oxirida ular 90, hozir esa 130 dan oshdi, shu jumladan rus, ukrain, koreys, gruzin, qozoq, qirg'iz, tatar, tojik, mahalliy yahudiylar, arman, ozarbayjon, polyak, nemis va boshqa milliy madaniy markazlari faol ish olib bormoqdalar.

Milliy madaniy markazlarning asosiy vazifalari uch yo'nalishga ega:

1) har bir millatning tili, madaniyati, urf-odatlari va rasm-rusumlarini tiklash, tarixiy Vatan bilan aloqa va munosabatlarni jonlantirish, milliy his-tuyg'ularning namoyon bo'lishiga keng yo'l ochish;

2) mustaqil O'zbekistonni o'zining haqiqiy Vatani deb bilish va unga beminnat hamda sadoqat bilan xizmat qilish;

3) Vatan bilan mushtarak hayot kechirish, uning madaniyati, tarixi va tilini o'rghanish, mustaqil davlatga nomi berilgan millat bilan do'stlikda, hamkorlikda va totuvlikda yashash. Ana shu uch yo'nalishda olib borilayotgan ishlar yil sayin yangidan-yangi shakllarda, turlarda, yo'nalishlarda rang-barang bo'lib bormoqda, shu jumladan:

- o'z milliy tarixini, madaniyatini, tilini, urf-odatlarini o'rghanish to'garaklari ishlamoqda;

- O'zbekiston tarixini, madaniyatini va tilini o'rghanish to'garaklari faoliyat ko'rsatmoqda;

- milliy musiqa, raqs va hunar to'garaklari o'z ishini kengaytirmoqda;

- milliy bayram kunlariga bag'ishlab tadbirlar o'tkazilmoqda, festivallar tashkil qilinmoqda;

- tarixiy Vatanning rassomlari, yozuvchilar, shoirlari, baxshilar, madaniyat va siyosat arboblariga bag'ishlangan ko'rgazmalar tashkil qilinmoqda;


- tarixiy Vatanдан kelgan siyosiy arboblar va madaniyat namoyandalarini bilan uchrashuvlar o'tkazilmoqda va hokazo.

Milliy madaniy markazlar O'zbekiston mustaqilligini mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqdalar. Ular haqiqiy erkinlik va ozodlik asosida ish olib borib, o'z Vatanlari O'zbekistonga va o'zbek xalqiga bo'lgan muhabbat va hurmatlarini o'z faoliyatlarini orqali namoyon qilmoqdalar.

**2-topshiriq.** Matndan foydalanib "Men nechun sevaman O'zbekistonni" mavzusida insho yozing.

**3-topshiriq.** FSMU jadvalini to'ldiring.

O'zbekiston jahondagi eng rivojlangan davlatlar orasidan munosib o'rinn egallashi uchun qanday tadbirlami amalga oshirishi kerak.



**4-topshiriq.** Nuqtalar o'miga zarur so'zлами qo'yib, gaplами o'qing va ko'chiring.  
1991- yil 1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining ... 2. ... Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) ga qabul qilingan kun. 3. ... – Toshkent shahri. 4. ... - 447,4 ming kv. km. 5. Tarkibida: Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ... , 156 ... , 123 ... , shu jumladan respublika va viloyat ... 60 , ... 104 ... mavjud.

**5-topshiriq.** O'qing va yozilishiga e'tibor bering.  
Ma'no (смысл), ta'na (упрек), san'at (искусство), singil (младшая сестра), ashula (песня), sirk, dotsent, translatsiya, sisterna, konsert, sitologiya, aksiya, ssenariy, aviatsiya, mototsikl, iyul, salut, shlapa, oktabr, noyabr.

**6-topshiriq.** So'zлами o'zbek tiliga tarjima qilib yozing.  
Грамота, парус, вкус, жизнь, широкий, новый, сто, влияние, стих, душа.  
**7-topshiriq.** Nuqtalar o'miga kerakli unlilarni qo'yib yozing.

1.Bug...ngi ishni ...rtaga q...yma. (Maqol). 2. Bog'...mizda ...lma, o'r...k, shaft...li, olx...ri va boshqa t...li m...valar o's...di. 3. B...z ushbu yang... o'q...v yil... uch...n kitob-daft...rlarn... tayyorlab qo'y...k. 4. O'zbekistonda b...lbul, ch...mchuq, q...rg'a, m...sicha singari q...shlar j...da ko'p.

#### *Eslab qoling!*

*Vatanga mehr-muhabbatli bo'lish* - g'oyat chidam, g'oyat yuksak ong talab etuvchi o'ziga xos ilm. Buni egallash ham beshikdan boshlanmog'i va oqibat so'nggi nafasga qadar davom etmog'i joiz. Vatanparvarlik - Vatanni sevmoqlikni anglatsa, bu ilmni egallagan kishi Vatanga jonini atagan komil inson martabasiga yetgan bo'ladi.

*Vatandan olganiniz - qarz, qarzni esa qaytarmoq farz*. Biz, har birimiz, Vatanni sevamiz, chunki Vatan - biz nafas olayotgan havodir.

Ona yurting — oltin beshiging.

\*\*\*

Ona yurting omon bo'lsa, rangi rofying somon bo'lmas.

\*\*\*

Kishi yurtida sulton bo'lguncha, o'z yurtingda cho'pon bo'l.

\*\*\*

O'z uying — o'lan to'shaging.

\*\*\*

Kimda o'z yurtiga bo'lmasa mehr,  
U qalban shikasta, u qalban majruh.

\*\*\*

Yurt qo'risang, o'zarsan,  
Qo'rimasang, to'zarsan.  
Yurti tinchning o'zi tinch.

\*\*\*

Yurt bilan bo'lgan yetar murodga,  
Yurtdan ayrilgan qolar uyatga.

#### Suhbat

1. 1991- yil 1- sentabrda O'zbekiston tarixida qanday voqeа sodir bo'ldi?
2. Qachon O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qildi?
3. O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Qonuni qachon qabul qilindi?
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining navbatdan tashqari oltinchi sessiyasida 1991-yil 31- avgustda qabul qilingan Bayonotida nima deyilgan?
5. Mustaqil O'zbekiston Respublikasi uchun navbatdagи ulkan tarixiy voqeа qachon sodir bo'ldi? Qanday qaror qabul qilindi?
6. O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid yana qaysi muhim sanalarni bilasiz?

**8-topshiriq.** Ushbu matnni tajima qiling. O'zbek tilidagi so'zlarning to'g'ri talaffuziga e'tibor bering. O'ziga xos nutq tovushlaridagi farqni tushuntiring.

Богат и разнообразен животный мир Узбекистана. В водах Сырдарьи и Амударьи обитают более 60 видов рыб. Обширные пустыни, влажные поймы рек, мощные горные хребты и оазисы населяют три вида земноводных, 57 видов пресмыкающихся, 91 вид млекопитающих и более 410 видов птиц.

Животный мир нашей республики, как и всей Средней Азии складывался в течении длительного времени. Одни виды животных сформировались здесь же, иные проникли в Среднюю Азию из других областей.

**9-topshiriq.** Quyida o'zlashgan so'zlarni orfoepik qoidalarga riosa qilgan holda talaffuz qiling. So'zlarining urg'ulanishiga e'tibor bering.

Abonent, aviatsiya, akkreditatsiya, aktyor, aksiz, aksioner, aksiya, aeroport, apparat, zaryad, doktor, tonna, konstitutsiya, demokratiya, professor, laboratoriya, rektor, traktor, televizor, lift, sirk, vistavka, prezidium, muzika, reduksiya, byudjet, dirijor, suflor, etud, bulleten, salut, sujet, arxitektor

**YODDA TUTING!**

Sizlagan til sevdirar, sensiragan til bezdirar.  
Tilni sizga bur — topasan, tilni senga burma — yutasan.

**Orfoepiya haqida umumiylumot**

Orfoepiya (yunoncha orthos - "to'g'ri" epos - "nutq" demakdir) adabiy talaffuz qoidalari to'plami bo'lib, u milliy til doirasida yagona talaffuz me'yorini belgilaydi. Shunga ko'ra, orfoepiya adabiy tilning og'zaki shakli bilan bevosita bog'liqdir.

O'zbek milliy tilining tarkibi nihoyatda rang-barang va murakkab bo'lib, u o'zida uchta yirik lahjani birlashtiradi. Bu lahjalardagi so'zlar talaffuzi o'ziga xos fonetik, leksik va morfologik belgilari bilan farqla-nadi: 1) qipchoq lahjasida so'z boshida adabiy tildagi y undoshi o'mida j talaffuz qilinadi: *yo'q // jo'q, yigit // jit*; adabiy tildagi g' o'mida v undoshi aytildi: *tog // tov sog // sov*; so'z oxirida k, q undoshlari tushiriladi: *kichik // kichchi, qattiq // qatti*; 2) o'g'uz lahjasida esa so'z boshida keladigan t, k jarangsiz undoshlari d, g tarzida talaffuz qilinadi: *tog // dag, kel // gal* kabi; 3) qarluq - chigil - uyg'ur lahjasining o'ziga xos fonetik xususiyatlari so'z oxiridagi q undoshning g' tarzida aytishli, ba'zan tushirilishida kuzatiladi: *qovoq // qovog'*, shuningdek, bu lahjada a unlisining o' tovushiga o'zgartirilishi ham kuzatiladi: *aka // oka* kabi.

O'zbek lahjalardagi bu kabi lahjaviy xilma-xilliklar, shubhasiz, adabiy tilning talaffuz me'yoriga ham o'zining ta'sirini ko'rsatadi. Ana shunday nutqiy tafovutlarni bartaraf etish, lahjalardagi eng maqsadga muvofiq so'z shakllarini tanlagan holda qoidalashtirish orfoepiyaning muhim vazifalaridandir.

Albatta, orfoepiya boshqa tillardan o'zlashtirilgan so'zlar talaffuzi-ni ham qamrab oladi. Xususan, o'zlashma so'zlarining orfoepiya qonun-qoidalalariga mos ravishda talaffuz qilinishi qoidalashtirilgan. Masalan, *fabrika, fakt* so'zları *pabrika, pakt* tarzda aytilsa ham, ular asliga muvofiq talaffuz qilinishi lozim.

Adabiy talaffuz me'yorlari tilning tovush tizimi asosida yaratiladi. Bu esa orfoepik me'yorlarni belgilashda tovush tizimi, uning nutqiy jarayonda turlicha o'zgarishini hisobga olishni taqozo etadi.

**Ayrim unli va undoshlar orfoepiyasi** 1. I unli *atir, ayrim, bilan* kabi so'zlarda qisqa, *biyron, siyrak* kabi so'zlar tarkibida y undoshdan avval kelganda o'ta cho'ziq; *qirq, qir, qiz*, kabi so'zlar tarkibida qattiq i tarzida talaffuz qilinadi. Ayrim so'zlarda i o'ta qisqa talaffuz qilinib tushiriladi: *qobiliyat // qobilyat, quyidagi // quydagi; azm, adl, ayol* so'zları talaffuzida esa orttiriladi, biroq yozilmaydi.

2. *U* unlisi, *buvi*, *buloq* so'zlarida qisqa; *xusumat*, *quvvat* kabi so'zlarda esa cho'ziq talaffuz qilinadi; *gul*, *guvoh*, *kuyov* kabi so'zlarda yumshoq; *qum*, *qurol*, *g'ussa* kabi so'zlarda esa qattiq talaffuz qilinadi.

Ko'rinadiki, unlilarning qattiq yoki yumshoq talaffuz qilinishi ko'p hollarda yonmayon kelgan undoshning til oldi yoki orqa ekanligi bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Xususan, *q*, *g'*, *x* kabi til orqa undoshlari ishtirot etadigan so'zlarda ular qattiq, boshqa undoshlar (til oldi, sayoz til orqa undoshlari) ishtirot etgan so'zlarda esa yumshoq talaffuz etiladi. Qiyyoslang: *qo'pol*, *g'o'za*, *o'rda*, *go'dak*, *do'l*, *jo'yak*, *ko'ngil*.

3. *B*, *v*, *g*, *d*, *z* undoshlari urg'usiz bo'g'inda, so'z oxirida jarangsiz undoshlar yonida kelganda jarangsizlashgan holda talaffuz qilinadi: *ketdi//ketti*, *kitob//kitop*, *zavod//zavot*, *barg//bark*, *aktiv//aktif*, *peshvoz//peshvos*, *izhor//ishor*.

4. *D*, *s*, *t*, *l*, *n*, *ch*, *sh*, *m* undoshlaridan oldin qo'llangan chuqur til orqa, portlovchi *q* undoshi *x* tarzida talaffuz qilinadi: *naqd//naxt*, *maqsad//maxsat*, *vaqt//vaxt*, *baliqchi//balixchi*, *oqsoq//oxsog*, *nuqson//nuksan*, *qaqshamoq* //*qaxshamoq*, *cho'qmor//cho'xmor*.

5. *K*, *g*, *ng* undoshlari oldida kelgan *n* sonori *ng*, *ng'* tarzida aytildi: *ko'lanka//ko'langka*, *ko'tarinki//ko'taringki*, *dengiz//denngiz*, *nonko'r//nongko'r*, *yong'oq//yongngooq*, *yongg'oq*, *to'ng* illamoq // *to'ng* g ilamoq.

6. Ikki unli yonma-yon kelgan so'zlarda ko'pincha y undoshi orttiriladi: *oila//oyila*, *shoir//shoir*, *rais/rayis*, *radio//radiyo* kabi.

7. Ruscha-internatsional so'zlar tarkibidagi v undoshi f undoshiga moyil talaffuz qilinadi: avtomat, avtoruchka, avtobus, ustav-ustaf, passiv-passif kabi;

8. Ayrim so'zlarning o'rtasida, oxirida qo'llangan z undoshi s undoshi tarzida aytildi: *izhor-ishor*, *iztirob-istirop*, *faraz-faras* kabi; shuningdek ruscha-internatsional so'zlarda ham shunda holat kuzatiladi: *gipnoz-gipnos*, *karniz-karnis*, *narkoz-narkos* kabi;

9. Ayrim undoshlardan oldin qo'llangan q undoshi x tarzida aytildi: *vaqt-vaxt*, *naqdnaxt*, *to'qson-to'xson*, *maqsad-maxsat*;

10. So'z oxirida kelgan k, q jarangsiz undoshlari bazan jarangli g, g' tovushiga moyil aytildi: -bilak-bilag, yurak-yurag; o'roq-o'rog', sariq-sarig' kabi; shuningdek ruschainternatsional so'zlarda ham k undoshi jarangli g tarzida aytildi: *znachok-znachog*, *galstuk-gastug* kabi.

11. Ayrim so'zlarda so'z oxirida kelgan t, d undoshlari talaffuzda tushib qoladi: *go'sht-go'sh*, *g'isht-g'ish*, *xursand-xursan*, *baland-balan* kabi;

12. Birinchi va ikkinchi bo'g'in oxirida kelgan n undoshi o'zidan keyin kelgan b undoshining tasirida m tarzida aytildi: *tanbur-tambur*, *sunbul-sumbul*, *yakshanba-yakshamba* kabi;

13. O'zlashma so'zlar so'z o'rtasida, oxirida yonma-yon kelgan ikki bir xil undoshdan biri talaffuzda tushib qoladi: *mujassam-mujasam*, *munavvar-munavar*, *taassurot-tasurot*; grammatica-grammatika, metall-metal kabi.

#### Ayrim grammatic shakllar orfoepiyasi

1. Tushum kelishik affaksi talaffuzda -di, -ti, -zi, -ri kabi fonetik variantlarga ega bo'ladi: *otni//otti*, *toshni//toshti*, *gulni//guldi*, *gapni//gappi*, *tuzdi//tuzzi*.

2. Men, sen olmoshlariga -ning, -ni, -niki affikslari qo'shilganda qo'shimcha tarkibidagi bitta n undoshi tushiriladi va shunday yoziladi: mening, seni, meniki.

3. U, bu, shu, o'sha kabi olmoshlarga -ga,-da,-dan,-day,-cha affikslari qo'shilganda n undoshi orttirilib talaffuz qilinadi va shunday yoziladi: unga, unda, bundan, shundan, shunday, o'shancha kabi.

4. Oxiri z undoshi bilan tugaydigan sonlarga dona son yasovchi -ta affiksi qo'shilganda z undoshi s tarzida talaffuz qilinadi: to'qqizta // to'qqista, o'ttizta // o'ttista; oxiri z, sh bilan tugaydigan otlarga -siz sifat yasovchi qo'shilganda ham bu undoshlar s tarzida talaffuz etiladi: boshsiz//bossiz, izesiz//issiz, ovozsiz//ovossiz; bunday holni oxiri z bilan tugaydigan ba'zi so'zlarga ot yasovchi - chi affiksi qo'shilganda ham kuzatish mumkin: zakazchi//zakaschi, arazchi//araschi, taqrizchi//taqriscchi kabi.

5. Tarkibida - n, -in, -lan affiksi bo'lgan so'zlarga -la affikslari qo'shilganda -n, -in, -lan affikslari oxiridagi n undosh m tarzida talaffuz qilinadi: kiyinmoqda//kiyimmoqda, burkanmoqda//burkammoqda, ovqatlandi// ovqallandi.

### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Orfoepiya nimani o'rganadi?
2. I, u, a, o', e, o unlilari bilan bog'liq talaffuzdag'i o'zgarishlarni misollar asosida tushuntiring.
3. Kelishik affikslari orfoepiyasiga doir nimalarni bilasiz?
4. So'z oxirida keladigan jarangli undoshlarning talaffuzda jarangsizlanishiga doir misolar keltirib tushuntiring.
5. Turli grammatic shakllarning talaffuzda fonetik o'zgarishlariga doir namunalar keltirib, sabablarini izohlang.

### Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston Respublikasining qanday Davlat ramzları bor?
2. Davlat madhiyasining muallifi kim?
3. Davlat madhiyasining musiqasini kim bastalagan?
4. O'zbekiston Davlat bayrog'i qachon qabul qilingan?
5. Davlat gerbi qachon qabul qilingan?
6. Milliy valuta qachon kuchga kirgan?
7. Vatan deganda nimani tushunasiz?
8. Vatanga muhabbat qanday namoyon bo'ladi?
9. Vatan uchun, Mustaqillik uchun kurashgan shaxslardan kimlarni bilasiz?
10. Fuqarolik burchi nima?
11. Vatanparvarlik burchi qanday namoyon bo'ladi?
12. Mashhur sarkardalardan kimlarni bilasiz?

## 2-MAVZU: “O’ZBEK TILI – DAVLAT TILI”

### REJA:

- O’zbek tili matnni o‘qib tushunish.
- “Men o’zbek tilini o‘rganyapman” mavzusida suhbat.
- Mutafakkirlarning til haqidagi fikrlaridan namunalar keltirish.
- O’zbek tilining imlo qoidalari.

*I-topshiriq.* Matnni o‘qing. Reja asosida matn mazmunini so‘zlab bering.

### O’ZBEK TILI

Odamlar til vositasida o‘z fikrlari, his-tuyg‘ularini ifodalaydilar. Jamiatning shakllanishi va rivojlanishida tilintng ahamiyali kattadir. XI asrda yashab o‘tgan Yusuf Xos Hojib tilga aql va idrok tarjimoni, deb baho bergan.

Olimlar hisobiga ko‘ra, dunyo aholisi 3000ga yaqin tilda so‘zlashadi. Ana shu tillar kelib chiqishi, lug‘aviy va grammatik jihatdan yaqinligiga qarab til oilalariga bo‘linadi. Yer yuzida 20ga yaqin til oilasi bor. Til oilari o‘z navbatida til guruhlariga bo‘linadi.

O’zbek tili oltoy tillar oilasi va turkiy tillar guruhiba kiradi. O’zbek tili O’zbekiston Respublikasining Davlat tilidir. O’zbek litiga 1989-yil 21-oktabrda Davlat tili maqomi berilgan. Bu tilda O’zbekistonda yashovchi aholidan tashqari Tojikiston, Turkmaniston, Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Afg‘onistonning shimalida va boshqa joylarda yashovchi o’zbeklar gaplashadilar.

O’zbek tili XI asrdan boshlab mustaqil til sifatida shakllana boshladi. O’zbek tilining rivojlanishida XI asrda yashab o‘tgan turkiy tilshunos olim Mahmud Qoshg‘ariy, adib Yusuf Xos Hojib. Buyuk alloma Alisher Navoiylarning hissalari kattadir.

O’zbek tilining rivojiga, ayniqsa. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng katta ahamiyat berildi.

### Lug‘at

fikr - мысль

tarjimon - переводчик

ifodalamoq - выражать

aholi - население

ahamiyat - значение

maqom - статус

aql - ум

mustaqil - самостоятельный

his-tuyg‘u - чувство, эмоция

### O’zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi (yangi tahrirda) qonuni

#### 24 ta moddadan iborat

*1-modda.* O’zbekiston Respublikasining Davlat tili o‘zbek tilidir.

*2-modda.* O’zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o‘z ona tilini qo‘llashdan iborat Konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.

*10-modda.* Korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalarida ish yuritish, hisob-kitob, statistika va moliya hujjalari - Davlat tilida yuritiladi.

## **2-topshiriq. Matnni o'qing. Matn asosida savollar tuzing**

### **O'zbek tili, o'zbek alifbosi va imlosi**

O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining davlat tilidir. Vatanimizdagi 31 millionga yaqin xalq o'zbek tilini ona tilim deydi. Bundan tashqari o'zbek tili Saudiya Arabistonida, Turkiyada, AQShda, Afg'oniston va Qoshg'arda hamda bir qancha boshqa davlatlarda yashovchi o'zbeklarning ham ona tilidir.

O'zbek (turkiy) tili qadimiy tillardandir. Dastlabki yozma yodnomalar VI-VII asrlarga oid O'rxun-Enasoy yozuvlarida uchraydi.

X-XI asrlardan boshlab o'zbek (turkiy) tilida yirik asarlar yaratila boshlandi. Jumladan, Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'atit turk", Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig", Ahmad Yugnakiyning "Hibbatul haqoyiq" asarlari.

Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Sakkokiylar turk (o'zbek) tilining rivojlanishida katta xizmat qildilar. Turk tilining rivojida Alisher Navoiyning o'rni beqiyosdir. Alisher Navoiy o'zbek tilini ham nazariy, ham amaliy jihatdan barqaror etdi.

1920-yillardan boshlab, maktab-maorif sohasida madaniyat va adabiyotda o'zgarishlar ro'y berdi. Adabiyotimizga yangi yorqin iste'dodlar kirib keldi. O'zbek tilining lug'at tarkibi boyidi, grammatik qurilishi aniqlasha bordi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1989-yil 21-oktabrdagi sessiyasi o'zbek tiliga davlat tili maqomini berdi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili deb e'lon qilindi.

O'zbekiston Respublikasi davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari faoliyatida qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublika davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasi ta'minlanadi. Bu o'zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotidagi eng yirik va muhim voqealardan biri bo'ldi.

1992-yil 2-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining o'n uchinchi sessiyasida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy qilish to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining qonuni qabul qilindi.

### **Xalqimizning yozuvlari**

Arab yozuvlari miloddan o'rtta hisob bilan ming yil muqaddam ma'lum bo'lgan. Miloddan avvalgi birinchi ming yillikning boshlaridan to milodimizning VII asrigacha, ya'ni arablar istilosigacha, xalqimiz runik yozuvidan keng foydalangan. Arab istilosigacha va undan keyin ancha vaqtgacha O'rxun-Enasoy, Avesto, Sug'd, Qadimgi Xorazm, Qadimiy uyg'ur yozuvlaridan keng foydalanilgan. Jumladan, Avesto yozuvida zardushtiylik dinining 27 jilddan iborat muqaddas kitobi, o'z davrinining haqiqiy ensiklopediyasi hisoblangan "Avesto" bitilgan. 2001-yilda Yunesko qarori bo'yicha butun dunyo bo'ylab "Avesto"ning 2700 yilligi nishonlandi. Yuqorida sanab o'tilgan har bir yozuvda ko'plab badiiy, falsafiy mazmunda yaratilgan, qadimiy rivojlangan davlatlar madaniyati o'z ifodasini topgan. Afsuski, bu asarlar, ular saqlangan kutubxonalar arab istilochilar tomonidan shafqatsiz yo'q qilingan. Lekin, xalq ongida va amaliy hayotida arab istilosigacha mavjud bo'lgan yozuvlardan foydalanish odati qisman XVI asrgacha saqlangan.

Xalqimizning arab istilosigacha bo'lgan yozuvlari tarixini o'rganish, ularning alifbo tizimi bilan ommani tanishtirish, shu yozuvlarda yaratilgan asarlarni topish va nashr etish, shu asosda millatimiz dunyoqarashini kengaytirish, tariximizning barcha ma'naviy boyliklaridan xabardor qilish mustaqillikni mustahkamlashning shartlaridan biridir.

**Eslatma.** Ma'lumki, o'zbek va tojik xalqlari asrlar davomida bir hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirganlar. Buning natijasida tojik va o'zbek tillari bir-birini boyitgan: o'zbek tili lug'atiga *barg, korxona, chamadon* kabi ko'pgina tojikcha so'zlar o'tgan; *qaymoq, qayroq, qanor, yurt* kabi ko'pgina o'zbekcha so'zlar tojik tili lug'atiga qo'shilgan. Shunday bo'lishiga qaramay, o'zbek va tojik tillarining fonetikasi va grammatic qurilishi bir-biriga o'xshamaydi. Buning sababi bu ikki tilning ikki xil til oilasiga mansubligidir; o'zbek tili oltoy tillar oilasining turkiy turkumiga, tojik tili esa hind-yevropa tillari oilasining eron turkumiga kiradi.

**3-topshiriq.** "Men o'zbek tilini o'rganayapman" mavzusida suhbat qiling.

**4-topshiriq.** "**Har bir so'z - sehr**" o'yini. Berilgan so'zlardan so'z birikmalari tuzing, shu birikmalarni hamda ularning sinonimlarini qo'llab matn yarating (ustoz, o'qituvchi, muallim; vatan, yurt, makon, diyor...).

Masalan:

Ota	Ona
O - ila boshlig'i	O - ila bekasi
T - arbiyachi	N - amuna ko'rsatuvchi
A - qlli maslahatchi	A - ziz inson
Aka	Uka
A - dolatpesha,adolatl	U - mid chirog'i
K - o'makchi do'st	K - elajak tayanchi
A - ql ko'zgusi	A - hillik namunasi
Do'st	Yor
D - ardkash birodar	Yo'-Idosh,
O' - mak ko'rsatuvchi	O - qibatli do'st
S - irdosh inson	R - ahmdil inson
T - ayanch bo'luvchi	

Ustoz	Muallim
U -	M -
S -	U -
T -	A -
O -	L -
Z -	L -
	I -
	M -

Vatan	Yurt
V -	Y -
A -	U -
T -	R -
A -	T -
N -	

**5-topshiriq.** O'ng tomondagi so'zlardan chap tomondagi so'zlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida-alohida ko'chirib yozing.

*Namuna: yuz, bet, aft, bashara, chehra, jamol, diydar, oraz, ruxsor.*

yuz	iljaydi, bet, qidirdi, aft, jilmaydi, bashara,
kuldi	axtardi, chehra, jamol, diydar, oldin, oraz,
avval	xoxoladi, quvonmoq, ruxsor, qadim,
izladi	kulimsiradi, tirjaydi, suyunmoq, quvnamoq,
sevinmoq	burun, shodlanmoq.

**6-topshiriq.** Quyida berilgan sinonim otlar qatorini davom ettiring.

Aldamchi, firibgar...  
 Baxt, iqbol...  
 Vatan, mamlakat...  
 Gulshan, guliston...  
 Dunyo, jahon...  
 Janjal, to'polon...  
 Ovoz, un...  
 Odam, bashar...  
 Ishq, muhabbat...  
 Chiqim, xarj...  
 Yuz, oraz, ruxsor...  
 O'rtoq, birodar, ulfat...  
 Hiyla, finb...  
 G'am, anduh, musibat...  
 Kuch, majol, darmon...

**7-topshiriq.** So'zлами tartib bilan qo'yib, gaplar tuzing.

1. Talabalar, jo'nab ketishdi, bugun, yordam berishga, paxtakorlarga.
2. Singlisiga, Asror, sotib oldi, bir quti qalam, bir rasm daftari.
3. Bo'lmadi, o'tgan yil, qishda, sovuq, qattiq.
4. Cho'mildik, yozda, suv omborida, Kattaqo'rg'on.
5. Olindi, bu yil, paxtadan, mo'l hosil.
6. Ikkita, gilam, biz, sotib oldik, chiroylı.
7. Singlisi, Javohirming, Madina, qiz, aqlli va kamtarin.
8. O'tadi, oqib, O'zbekistondan, daryo, ikkita, katta.
9. Ertalab, turasiz, har kuni, siz, soat nechada, uyqudan?
10. Universitetni, bitirgani, akam, yo'q, hali.

### *O'zbek tilining imlo qoidalari*

Lug'aviy, grammatik, uslubiy me'yorlar adabiy tilning ha mm a ko'rinishlari uchun xarakterli, imlo va tinish belgilarga oid me'yorlar adabiy tilning faqat yo z m a shakli uchun, to'g'ni talaffuz me'yorları esa faqat o g' z a k i nutq shakli uchun xosdir.

O'zbek adabiy tili milliy tilning bir qismi bo'lib **fonetik, leksik, grammatik** jihatdan sayqallashtirilgan, me'yorlashtirilgan tildir.

Adabiy til ikkita: og'zaki va yozma shaklga ega.

- og'zaki shakl – *orfoepiyada*

- yozma shakl – *orfografiyada* o'rganiladi

### **ORFOGRAFIYA**

Adabiy tilning yozma shaklini, to'g'ri yozuv qoidalarni (imlo qoidalarni) o'rganadi. Imlo qodalari quyidagi tamoyillarga – printsiplarga asoslanadi:

**Fonetik yozuv-** bu yozuv qoidasiga ko'ra so'z o'zak-negizida birorta fonetik hodisa kuzatiladi. Fonetik hodisalarga asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan yuz beradigan tovush tushishi, tovush almashishi, tovush orttirilishi hodisalari kiradi.

**Tovush tushishi** – bunga ko'ra asosga qo'shimcha qo'shilishi natijasida asosda unli yoki undosh tovush tushib qoladi. Masalan:

- *past, sust* so'zlariga –ay fe'l yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush tushadi: *pasay, susay*.

- *ikki, olti, yetti* kabi sonlarga jamlovchi son qo'shimchasi qo'shilsa (-ov, -ala, -ovlon) asosdagi i unlisi tushib qoladi: *ikkov, yettalasi, oltov*.

- *men, sen* kabi olmoshlariqa qaratqich va tushum kelishiklari qo'shimchasi (-ni,-ning) qo'shilsa: *meni, seni, mening, sening*.

- *bag'ir, ko'ngil, shahar* kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa ikkinchi bo'g'indagi a, i, u kabi unlilar tushib qoladi: *shahri, ko'ngli, bag'rim, burni* kabi.

**Tovush orttirilishi** – bunda asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan asos tarkibida undosh tovushlar orttiriladi:

- *achi, isi, sasi* so'zlariga –q so'z yasovchi qo'shimchasi qo'shilsa tovush orttiriladi: *achchiq, issiq, sassiq*.

- *u, bu, shu* ko'rsatish olmoshlariqa jo'nalish, o'nin-payt, chiqish kelishiklari (-ga, -da, -dan) hamda –day, -cha qo'shimchalari qo'shilsa –n tovushi orttiriladi: *unga, bunga, shunga, unda, bundan, shundan, shuncha, bunday*.

**Tovush almashishi (o'zgarishi)** – bunda asosga qo'shimcha qo'shilganda bir tovush boshqa tovushga almashadi:

- *bo ya, tara, sana, sayla, tanla* kabi so'zlariga –q yoki –v qo'shimchalari qo'shilsa, asosdagi -a tovushi -o tovushiga almashadi: *bo'yoq, sanoq, taroq, saylov, tanlov*.

- *yosh, son, ot* kabi so'zlarga –a qo'shimchasi qo'shilsa: *son+a = sana, ot+a = ata*.

- –ga, -gani, -guncha kabi –g tovushi bilan boshlanuvchi qo'shimchalar oxiri –k, q tovushlari bilan tugagan so'zlarga qo'shilsa, asos yoki qo'shimcha tarkibida tovush almashadi: *tekkuncha, terakka, chiqqani, buloqqa, ogquncha*.

- oxiri *-k,-q* tovushlari bilan tugaydigan so'zlarga egalik qo'shimchasi isi qo'shilganda asos tarkibidagi jarangsiz tovush jarangli tovushga almashadi: *buloq+i-bulog'i, yurak+i-yuragi, tilak+i-tilagi, bilak+i-bilagi*. Lekin *idrok, huquq, mashq, park*, kabi so'zlarga egalik qo'shimchasi qo'shilsa tovush almashishi yuz bermaydi: *idroki, mashqi, huquqi, parki* kabi.

**2. Morfologik vozuv** - so'z asosi va qo'shimchalarini aynan yozish demakdir. Bunga ko'ra so'z va uning qismilari talaffuzidan qat'i nazar asliga ko'ra yoziladi, ya'ni asosga qo'shimcha qo'shilishi bilan so'z tarkibida tovush o'zgarishi kuzatilmaydi. So'z va qo'shimcha aslan qanday bo'lsa, shunday yoziladi. Masalan:

- fe'lning zamon va shaxs qo'shimchasi qanday eshitilishi va talaffuz qilinishidan qat'i nazar, doim -di shaklida yoziladi: *ket+di = ketdi, borib+di = boribdi*.
- *-dan, -da* qo'shimchalari talaffuzidan qat'i nazar doim o'zgarishsiz yoziladi: *ish+da = ishda, baland+dan = balandda* kabi.
- *-iston (so'z yasovchi), -inchi(tartib son), -ib(ravishdosh), -in, -il (fe'l nisbatlari)* qo'shimchalari asos qismida -u tovushi bo'lgan so'zlarga qo'shilganda u tovushiga moyil aytilsa ham asliga ko'ra yoziladi: *kul+ib = kulib, tug'+il = tug ildi, uch-inchi = uchinchi, ur+ish = urish, gul+iston = guliston*
- qo'shma va juft so'zlar ham morfologik yozuv qoidasi bo'yicha yoziladi: *qip-qizil, har vaqt, baxt-saodat, atirgul* kabi.

**3. Shakliy vozuv** bu tamoyilga ko'ra boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar o'sha tildagi shaklini saqlagan holda yoziladi: *tramvay, institut, teatr, drama, kongress*. O'zbekcha so'zlerning boshida va oxirida ikki undosh yonma-yon kelmaydi, ular orasida qisqa i unlisi yoziladi: *qizil, bilan, sir, shimol* Ammo o'zlashgan so'zlar tarkibida ikki undosh yonma-yon keladi va shakliy yozuv qoidasiga muvofiq yoziladi: *stol, klub, prokuror, fikr, zikr*.

Yangi o'zbek yozuvining imlo qoidalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 339-sonli qarori bilan tasdiqlangan. Imlo qoidalari 7 bo'limdan iborat:

1. Harflar imlosi. U ikki qismidan iborat: unlilar imlosi va undoshlar imlosi.
2. Asos va qo'shimchalar imlosi.
3. Qo'shib yozish.
4. Chiziqcha bilan yozish.
5. Ajratib yozish.
6. Bosh harflar imlosi.
7. Ko'chirish qoidalari.

**O'zbek tilining undosh tovushlari rus tilining undosh tovushlaridan farq qiladi.**

O'zbek tilidagi o', q, g', h undoshlariga rus tilida muqobil tovushlar yo'q.

Согласный звук «К» - глубокозаднеязычный (chuqur til orqa), близкий к русскому «К».

Қалам (qalam) – карандаш	қадам (qadam) – шаг
Қора (qora) – черный	қум (qum) – песок
Қаттиқ (qattiq) – твердый, крепкий қизил (qizil) – красный	

**Согласный звук «F» - более глубокий, чем русский «г». «F» скользит между основанием языка и нёба:**

Гунча (g'uncha) – бутон	гор (g'or) – пещера
Фалла (g'alla) – зерно	ғам (g'am) – горе
Фазал (g'azal) – газель	ғоя (g'oya) – идея

**Согласный звук «Х» - мягко скользящий.**

Ҳаёт (hayot) – жизнь	ҳакиқат (haqiqat) – правда
Ҳаво (havo) – воздух	ҳайкал (haykal) – монумент
Ҳосил (hosil) – урожай	баҳо (baҳo) - оценка

**В узбекском языке есть один носовой звук (burun tovushi), который в орфографии передается стечением букв – «нг»**

Онг (ong) – разум	минг (ming) – тысяча
Бонг (bong) – колокол	тэнг (teng) – равный
Тонг (tong) – рассвет	кенг (keng) – широкий

**Согласный звук «Ж» - орфоэпия этого звука мягче чем в русском языке:**

Жаҳон (jahon) – мир	Жаҳонгир (Jahongir) – имя
собств.	жонажон (jonajon) - родной

**Произношение звука «Ж» в заимствованных словах не изменяется:**

Абажур (abajur) – абажур	журнал (jurnal) – журнал
Жаргон (jargon) – жаргон	инженер (injener) – инженер

**В узбекском языке звук (Щ) произносится как «щч» или «ч»:**

Шедрин – шедрин (shchedrin)	борщ – боршч (borsh)
Щетка – чётка (cho'tka)	мешкан – мешчан (meshchan)

**В узбекской орфографии (на письме) и орфоэпии (на слух.) русский гласный «ы» произносится через «И»:**

Выставка – виставка (vistavka)	мышьяк – мишьяк
(mishyak)	
Сыр ~ сир (pishloq)	румын – румин
(rumin)	

**Согласный звук «Ц» произносится твёрдо, употребляется в заимствованных словах. В латинской орфографии русская буква ц передается в разных словах по-разному:**


Цирк – sirk	цемент – cement
Центр – sentner	милиция - militsiya

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. Turkiy tilda ijod qilgan qanday buyuk ijodkorlarni bilasiz?
2. “O’zbekiston Respublikasining davlat tili haqidagi qonun” qachon qabul qilingan?
3. Davlat tili haqidagi qonun nechta moddadan iborat?
4. “Lotin alifbosiga asoslangan o’zbek alifbosini joriy etish to’g’risida”gi qonun qachon qabul qilindi?
5. O’zbek tili qanday tillar oilasiga kiradi?

У-8566/4

17



6. Eski o'zbek adabiy tilining asoschisi kim?
7. Xalqimiz qanday yozuvlardan foydalangan?
8. Qadimiy turkiy yozuv yodgorligi qanday nomlanadi?
9. O'zbek kirill alifbosiga qachon va nima sababdan o'tilgan?
10. O'zbek tili qaysi tillardan ko'p so'z o'zlashtirgan?
11. O'zbek (turkiy) tilidan boshqa tillarga qanday so'zlar o'zlashtirilgan?

### **3-MAVZU: MILLIY QADRIYATLAR – MILLAT IFTIXORI**

#### **REJA:**

- Milliy urf-odatlarni ta'riflash.
- O'zbek tilida so'z yasalishi.

*I- topshiriq.* Matnga munosabat bildiring

#### **Navro'z**

Navro'z (forschada "navro'z" yangi kun ma'nosini anglatadi) - Turkiston, O'rta va Yaqin Sharqda yashovchi o'zbek, ozarbayjon, tojik, hind, fors va boshqa xalqlarning qadimiy va an'anaviy yangi yil bayrami. Quyosh hisobida yilning birinchi kuni bo'lib, bahorgi tun va kunning tengligiga, ya'ni 21-22 martga to'g'ri keladi. Tarixiy manbalarga qaraganda, Navro'zni bayram qilib o'tkazish Ahmoniyalar davri (miloddan avvalgi VI-V asrlar)dan boshlangan. Keyinchalik, Navro'zda islom dinining ayrim marosimlarini ham o'tkazish odat tusiga kiritilgan. Qadimda Navro'z bayrami 6 kun davom etgan, dalalarga ko'chatlar ekilgan, ko'chalar tozalanib, hasharlar uyuştirilgan, xullas, hammayoq pokiza etilgan. Navro'zga atab yoshlari yangi kiyimlar kiyganlar. Bayram kunlari har xil shirinliklar, sumalak, turli ko'katlardan somsa, chuchvara kabi taomlar pishirilgan.

Navro'z kunlarida turli ommaviy o'yinlar, poyga musobaqalari, bog'larda sayllar, maydonlar, konsert zallari va teatrлarda san'atkorlar, shoirlar, yozuvchilarining chiqishlari bo'ladi, ota-onalardan, qarindosh-urug'lardan xabar olinadi, yoru birodarlarnikiga mehmonga boriladi. Navro'z kunlari gina-qudratlar unutlib, kishilar yaxshilikka intiladilar, yetim-yesirlarga va nogironlarga yordam berib, marhumular qabrlarini ziyyarat qilib, tartibga soladilar.

O'zbekistonda 1989-yildan Navro'zni keng nishonlashga e'tibor berildi. 1990-yildan boshlab, O'zbekiston hukumatining qaroriga binoan, 21-mart - Navro'z milliy xalq bayrami sifatida belgilanib, dam olish kuni deb e'lon qilindi.

#### **Mehmono'stlik**

Mehmono'stlik - ulug'axloqiy fazilat. Xalqimizda "Mehmon kelgan uy – barakali", "Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan", "Mehmon – uyning ziynati" kabi ko'plab maqol va hikmatlar bejizga aytilmagan. Xalqimiz mehmono'stlikni yaxshilik ramzi deb biladi. Uyiga tez-tez mehmon kelib turgan oilaning mahallada obro'si ortadi. Ularning farzandlarida ham xushfe'llik, samimiylilik kabi yaxshi sifatlar shakllanadi.

Mehmon kutish fazilat hamda o'ziga xos mas'uliyat talab qiladigan vazifa.  
Mehmon kutishning bir qancha odoblari bor.

Avvalo, uyga kelgan mehmonni ochiq chehra bilan kutib olish hamda uni uyga taklif qilish lozim bo'ladi. Mehmonning oldiga dasturxon yozildi. Birinchi bo'lib dasturxonga meva-cheva tortilgani yaxshiroq. Dasturxonga qo'yilgan ne'matlar odamning qo'li yetadigan joyda bo'lishi, faqat yeyiladigan ne'matlar qo'yilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehmonni taomga taklif qilish, ammo bu ishda haddan oshmaslik kerak. Mehmonning huzurida sukutni cho'zib yubormaslik hamda go'zal suhbatlar qilish lozim bo'ladi. Mezbon mehmon o'tirgan xonaga kirib chiqayotganda xursandligini izhor qildi. Mehmonni uzoq vaqt yolg'iz qoldirmaydi, shuningdek, mehmonning yonida uydagi yosh bolalarga yomon munosabatda bo'lmaydi. Mehmon izn so'raganda, izn beriladi va ochiq chehra bilan kuzatib qo'yiladi.


Mehmondo'stlik bag'rikenglik, jo'mardlik, saxovat, yuksak insonparvarlilik, shirinsuxanlik kabi go'zal axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Axloq va nafosat manbai hisoblangan mehmondo'stlikda insonparvarlik, odamiylik, do'stlik va o'rtoqlik, poklik va ozodalik kabi odob qoidalari buloq bo'lib qaynaydi. Asrlar mobaynida xalqimizga xos bo'lgan mehmondo'stlik, kelgan mehmonni samimiy kutib olish, unga hurmat-ehtirom ko'rsatish kabi go'zal fazilatlar xalqimiz tarixida ming yillardan beri o'rinn olib kelayotgan an'analarimizdandir. Yusuf Xos Xojib "Qutadg'u bilig", ya'ni "Saodatga eltvuvchi bilim" nomli asarida ham mehmondo'stlik fazilatiga alohida to'xtaladi:

Agar sen chorlasang uyingga mehmon,  
Oldin taraddud qil, ey dono inson.  
Pok bo'lzin oshu non, uy-joy, to'n-to'shak,  
Bergan tuzing manzur bo'lmos'i kerak.  
Yemoq-ichmoq bo'lzin pokiza, ezgu,  
Qo'l cho'zganda bo'lzin havas va orzu.  
Taklif etmasang-ku aybi bir bo'lar,  
Chorlasang, u ko'rib, bimi ming qilar.  
Do'stu qardoshlarining uzoq va yaqin –  
Barini chorla, to o'tagin haqqin.  
Kelivchisi kelar, kelmasa agar,  
Shu sabab dili ko'p shodlanib qolar.

**2- topshiriq.** O'zbekiston hududi Navro'z bayramida qanday bo'lishini ta'riflab bering.

**3- topshiriq.** Xalq sayli mavzusida bayon yozing.

### An'ana va udumlar mavzusi bo 'yicha klaster tuzish qoidasi



### An'ana va udumlar mavzusi bo 'yicha «Tushunchalar tahlili» metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod talabalarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o'zlashtirish darajasini aniqlash, o'z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadidiga qullaniladi.

#### O'tkazish bosqichlari:

- ishtirokchilar mashg'ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- talabalarga mavzuga yoki bobga tegishli bo'lgan so'zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi (individual yoki guruhli tartibda);
  - talabalarlar mazkur tushunchalar qanday ma'no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo'llanilishi haqida yozma ma'lumot beradilar;
  - belgilangan vaqt yakuniga etgach o'qituvchi berilgan tushunchalarning to'g'ri va to'liq izohini o'qib eshitiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
  - har bir ishtirokchi berilgan to'g'ri javoblar bilan o'zining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o'z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### *Topshiriq*

1. Ota-onaga hurmat deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy an'analaringizni bilasizmi?
3. Siz qanday milliy urf-odatlarni bilasiz?
4. O 'z milliy urf-odatlarining haqida gapiring?

### **Tushunchalar tahlili**

Tushunchalar	Sizningcha bu tushuncha qanday ma'noni anglatadi?	Quyidagi tushunchalarning kasbingizdagi ahamiyati qanday?
O'zaro hurmat		
Milliy an'ana		
Yordam so'rash		
Milliy qadriyat		
O'zbekona andisha		
Insониј fazilat		

**4- topshiriq.** Yordamlashish mavzusidagi vaziyatni ifodalovchi dialog tuzing.

**5-topshiriq.** Quyidagi hadislarni o'qing va tahlil qiling.

1. Ishni puxta va chirolyi bajaruvchi odamni Tangri do'st tutadi. 2. Uch kundan ortiq arazlashib yurish islomda yo'q. 3. O'lib ketganlarni yomonlab haqorat qilmanglar, chunki ular qilmishlariga yarasha mukofot yoki jazo oladigan joyga ketganlar. 4. Uylaringizdagi yonib turgan o'tni o'chirmasdan uyquga ketmanglar! 5. O'q otish mashqida jonli narsani nishon qilib qo'y manglar! 6. Kimki birovga yomonlik qilsa, shu dunyoning o'zidayoq jazosini ko'radi. 7. Rahm qilmaganga rahm qilinmaydi, kechirmaganni kechirilmaydi va birovning uzrini qabul qilmaganning tavbasi ham qabul qilinmaydi. 8. Biror kasbu hunar orqasidan rizqu nasibaga ega bo'lib yashayotgan odam, shu kasbni beuzr o'zgartirmasini! 9. Kimki ota-onasining roziligini olgan bo'lsa, unga qanday yaxshi! Tangri uning umrini uzaytiradi. 10. Kimki birovning yozayotgan yoki kelgan xatini beruxsat o'qishga intilsa, go'yoki u do'zaxga intilgan bo'ladi.

**6-topshiriq.** "Navro'z" so'ziga sinkveyn tuzing.

### **“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi**

Maqsad – kategoriyaga tavfsif berish


- 1-qator – tushuncha - ot
- 2-qator – 2 so'zdan iborat sifat
- 3-qator – 3 so'zdan iborat fe'l
- 4-qator – 4 so'zdan iborat munosabat
- 5-qator – 1 so'zdan iborat sinonim

**7-topshiriq.** Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Hashar – sharq xalqlari orasida keng tarqalgan udumlarimizdan biri bo'lib, qadimdan o'zbek xalqi hayotida muhim o'rinni tutib kelgan. Hashar – bu ko'pchilikning bir yoqadan bosh chiqarib, bir maqsadda birgalashib harakat qilishidir.

Qadim zamonalarda ota-bobolar qishloqlarda xo'jalik ishlarini ko'p hollarda hashar yo'li bilan bitirib olishgan. Yozloqlarda ko'milgan toklarni ochish, kesish, tarash, bog'bellash, xashak-somon toplash, bog'hosilini yig'ib-terib olish, katta ariq, kanallar boshlab kelish, shox ariqni qish arafasida kovlab tozalash kabi og'ir ishlarning hammasi hashar yo'li bilan bajarilgan.

**8-topshiriq.** Venn diagrammasidan foydalanib o'zbek xalqi va boshqa xalqlarning urf-odatlarini taqqoslang va tahlil qiling.



**9-topshiriq.** “Milliy urf-odatlar” mavzusida insho yozing.

**10-topshiriq.** Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling va sarlavha toping.

Национальный узбекский танец необычайно выразителен. Он олицетворяет собой всю красоту узбекской нации. Главные отличия узбекского танца от других танцев народов Востока – это, во-первых, акцент на сложные и выразительные движения рук, а во-вторых – богатая мимика. Различают два вида узбекского танца – традиционный классический танец и народный (фольклорный) танец.

Классический традиционный узбекский танец – это искусство, которое культивируется в особых танцевальных школах, а затем демонстрируется на большой сцене. Можно выделить три школы узбекского танца: ферганскую, бухарскую и хорезмскую. Танцы ферганской группы отличают мягкость,

плавность и выразительность движений, лёгкий скользящий шаг, оригинальные движения на месте и по кругу. Бухарский танец также отличает резкость движений, откинутые плечи и очень красивый золотошвейный костюм. Оригинальные и самобытные движения отличают хорезмский стиль.

В народном узбекском танце представлены практически все регионы, здесь царит необыкновенное разнообразие. Эти танцы ожидают на всех семейных, деревенских, городских праздниках. Эти танцы передаются от поколения к поколению, в них сохраняются старинные танцевальные традиции.



**B/B/B JADVALI** - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlanadiradi.

#### TALABALAR:

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida, kichik guruhlarda jadvalni rasmyylashtiradilar.

"Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.

O'qituvchi bayonini tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar

#### Xalq bayramlari va sayllari nomlari

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

#### O'zbek tilida so'z yasalishi.

Tilning lug'at tarkibi doimo o'zgarish, rivojlanishdadir. Ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalarda paydo bo'lgan yangi-yangi tushunchalarni nomlash ehtiyoji tufayli tilda yangi so'zlar paydo bo'ladi.

Yangi so'zlar ikki xil yo'l bilan vujudga keladi:

1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyati asosida.
2. Boshqa tillardan so'z olish asosida.

**Har bir tilning ichki imkoniyati asosida** yangi so'zlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga qo'shimcha qo'shish usuli yoki so'z qo'shish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tushunchasini ifodalash ehtiyojimi qondirish uchun kompyuter so'ziga o'zbek tilida oldindan «ma'lum mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini ifodalovchi -chi qo'shimchasidan foydalanildi. *Kompyuterchi* «kompyuter bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini bildirdi.

Tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga ma'lum yasovchi vositalar qo'shish bilan yangi so'z hosil qilinishiga so'z yasalishi hodisasi, shunday hodisani o'rGANADIGAN tilshunoslik bo'limiga esa so'z yasalishi deyiladi.

Bu bo'limning o'ziga xosligini quyidagi jadvalda ko'rshimiz mumkin:

Yangi so'zlar ikki xil yo'l bilan vujudga keladi:	
1. Har bir tilning o'z ichki imkoniyati asosida.	Har bir tilning ichki imkoniyati asosida yangi so'zlarning hosil qilinishida shu tilda oldin mavjud bo'lgan so'zga qo'shimcha qo'shish usuli yoki so'z qo'shish usuli katta ahamiyatga ega. Masalan, kompyuter hayotimizga kirib kelishi munosabati bilan uning nomi ingliz tilidan to'g'ridan to'g'ri olingan. Endi «kompyuter bilan ishlovchi shaxs» tushunchasini ifodalash ehtiyojimi qondirish uchun kompyuter so'ziga o'zbek tilida oldindan «ma'lum mashg'ulot bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini ifodalovchi -chi qo'shimchasidan foydalanildi. <i>Kompyuterchi</i> «kompyuter bilan shug'ullanuvchi shaxs» ma'nosini bildirdi.
2. Boshqa tillardan so'z olish asosida.	✓ chorpoya, olov, taxt, chopon, kissa, dasta, xo'roz, ro'za, donishmand, xushovoz, badjahl, dazmol, buqa – <i>tojik tilidan</i> ; ✓ a'lo, she'r, shoir, maorif, sehr, ruxsat, qoida, sur'at – <i>arab tilidan o'zlashgan</i>

#### SO'Z YASALISH USULLARI

1.	<b>Affiksatsiya (morphologik) usuli</b>	yasashga asos qismaga so'z yasovchi qo'shimchalarni qo'shish orqali so'z yasash. Bu usul bilan sodda yasama so'zlar yasaladi	gul+dor, dor+boz, soat+soz, mahobat+li, zirq+ira, ko'p+lab, mard+larcha, ser+gap, dir+illa, sen+sira, bar+kamol, no+'rin...
2.	<b>Kompozitsiya (sintaktik) usuli</b>	so'zlarni qo'shish orqali. Bu usul orqali qo'shma, juft va takroriy yasama so'zlar hosil qilinadi.	bug'doyrang, qiymataxta, sotib olmoq, sayr aylamoq, qo'shma korxona, ishlab chiqarish; achchiq-chuchuk (salat), oldi-sotdi (savdo); elas-elas (zo'rg'a), bosdi-bosdi (ishni yopish)...

So'z yasalishi tilshunoslikning mustaqil sohasi bo'lib, u yangi so'z yasash, so'z yasash usullari va vositalarini o'rghanadi. Tildagi so'zlarning yasalish tarkibini hamda ularning yasalish usullarini aniqlash bu bo'limning asosiy vazifasidir.

*So'z yasash usullari:* Qanday usul bilan bo'lsa-da, yangi so'z hosil qilishga so'z yasalishi deyiladi. Hozirgi o'zbek tilida so'z yasalishining turli usullari mavjud. Ular quyidagilar:

1. Semantik usul.
2. Fonetik usul.
3. Abbreviatsiya usuli.
4. Affiksatsiya usuli.
5. Kompozitsiya usuli.

**11-topshiriq.** Quyidagi so'zlarning tub yoki yasama ekanligini aniqlang. Yasama so'zlarni ajratib olib yasalish usuliga ko'ra tahlil qiling.

Abadiy, abadiylik, ajoyib, azoblantirmoq, bitta, bichim, bodroq, bodring, vajohat, vajohatli, zarpechak, ibo, iboli, ignasimon, ilgak, illat, ilgor, kahrabo, ketkazmoq, lavlagi, lavozim, loyqa, mazluma, mehr-oqibat, mo'ylov, narigi, naqqosh, noaniq, oynasoz, olxo'ri, olcha, orombaxsh, pufak, puchqoq, ro'molcha, savag'ich, taglama, tagli, ulugvor, umumiy, chapak, chaqaloq, sholipoya, shuhrat, iguhratli, ezgu, ezgulik.

**12-topshiriq.** Quyidagi berilgan so'zlar yordamida affiksatsiya hamda kompozitsiya usulida yangi so'zlar yasang, yasalmaning tarkibini ajratib ko'rsating.

**Namuna:** *Gul:* *gulli* (*gul + li*), *gul s i z* (*gul + siz*), *gulchi* (*gul + chi*), *gulla* (*gul+la*), *gultuvak* (*gul + tuvak*), *gulsapsar* (*gul-sapsar*), *gulchambar* (*gul + chambar*).

Bir, bog', bil, bo'l, sez, ich, ko'k, yaxshi, bosh, gaz, qisqa, mehnat, joy, barg, gul, ish.

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. Milliy qadriyat deganda nimani tushunasiz?
2. O'zbek milliy urf-odatlari deganda nimani tushunasiz?
3. Qanday o'zbek milliy urf-odatlarini bilasiz?
4. Oilangizda, mahallangizda Navro'zni qanday nishonlaysiz?
5. Navro'z necha ming yillik tarixga ega?
6. Milliy qadriyatlarimizga qachondan e'tibor berila boshlandi?
7. Sumalak qanday tayyorlanishini bilasizmi?
8. Mehmono'stlik nima?
9. Mehmono'stlik qanday axloqiy fazilatlarni o'zida mujassamlashtiradi?
10. Yusuf Xos Xojib o'zining qaysi asarida mehmono'stlik fazilatiga alohida to'xtalgan?

#### **4-MAVZU: TARIX VA ZAMONAMIZ**

##### **REJA:**

- Tarixiy asar yoki filmlardan biri haqidagi taassurotlar.
- Tarixiy shaxslardan birini tasvirlash.
- Tilning leksik qatlamlari.

**1- topshiriq.** Matnni o'qing. Matnga munosabat bildiring va so'zlab bering.

##### **Tarix va zamonamiz**

Tarixiy xotira – inson ma'naviyatining ajralmas qismi, o'tmishni bilish, uni qadrlash, undan saboq olish natijasi. Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi, ularni dilga jo etib, bunyodkorlik va yaratish yo'lidan izchil borishga undaydi.

Buyuk mutafakkir Beruniy ta'kidlaganidek, «O'tmish kelajakning kalitidir». Mustaqillik tufayli xalqimiz tili, madaniyati, urf-odatlari, an'analarini, qadriyatlarini, bir so'z bilan aytganda, o'z tarixini bilish imkoniga ega bo'ldi.

Tarixni ilmiy o'rganish natijalari hozirgi O'zbekiston zamini jahon sivilizatsiyasining beshiklaridan biri bo'lganini ko'rsatadi. Bu qadimiylar madaniyat o'chog'idan ko'plab atoqli allomalar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib chiqqan. Jahon sivilizatsiyasining rivojida yurtimizning salmog'i katta. Qadim zamonlarda qurilgan murakkab suv inshootlari, shu kungacha qimmatini yo'qotmagan asori-atiqalarimiz bu zaminda azaldan dehqonchilik, hunarmandchilik, me'morchilik va shaharsozlik madaniyati yuksak bo'lganidan dalolat beradi. Eng qadimgi tosh yozuvlar, bitiklardan tortib kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, falakiyot, me'morchilik, dehqonchilikka oid minglab asarlar bizning beqiyos madaniy va ma'naviy boyligimiz, faxrimizdir. Bunday katta madaniy merosga ega bo'lgan xalqning kelajagi ham porloq bo'lishi aniq.

Tarixiy xotira qanchalik boy, mazmunli bo'lsa, xalq shunchalik uyushgan, hamjihat, ulug'vor ishlami bajarishga qodir bo'ladi. Tarixiy xotiraning o'ziga xos jihatlaridan yana bir o'z o'tmishidan faxrlanish tuyg'usidir. Dunyoda hududi O'zbekistondan bir necha marta katta bo'lgan ba'zi davlatlar ham aholisi o'troq bo'lib yashashni boshlagan moziyning azaliyligi, o'nlab shaharlarining tarixi 2500 yildan ortiqroq ekanligi bilan g'ururlana olmaydi.

Bir so'z bilan aytganda, tarix shunday manbaki, u insonning o'zini anglash, jamiyat oldidagi burchi, ajdodlar ruhi oldidagi mas'uliyatini to'g'ri tushunishiga, istiqbolni to'g'ri belgilashga imkon beradi.


«O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. Inson uchun tarixdan judo bo'lish hayotdan judo bo'lish demakdir».

- Mat mazmuniga doir savol va topshiriqlar*
1. *Tarixiy xotirani aks ettiruvshi atamalarni yozing.*
  2. *Matndagi oxirgi fikr asosida munozara tashkil qiling.*

**2-topshiriq.** “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” mavzusida insho yozing.

**3-topshiriq.** Biror tarixiy hikoyani ifodali o‘qing, tarixiy so‘zlarning ma’nosini izohlang. Ko‘rgan tarixiy joyingiz, muzeyingiz haqida gapirib bering. Hozirgi kunda tarixiy obidalarga qanday e’tibor berilyapti? Shu haqda maqola yozing.

**4 - topshiriq.** “Q anday?” sxemasini to‘ldiring.



*Ushbu eskirgan so‘zlarning hozirgi o‘zbek tilidagi ma’nosi va shaklini bilib oling!*

<b>iqlim</b> — mintaqqa, region
<b>muxtasar</b> — kichik
<b>oshliq</b> — oziq-ovqat
<b>farovon</b> — mo‘l-ko‘l, serob
<b>girdogirdi</b> — atrofi
<b>suyi</b> — suvi
<b>jonibida</b> — janubida

**pora** — qism  
**qo‘rg‘on** — shahar  
**turki** — turkiy, turk  
**lafzi** — so‘zi, gapi\_\_

**5-topshiriq.** Berilgan so‘zlar qaysi tillardan o‘zlashtirilganligini lug‘at yordamida aniqlang.

Paraxod, saodat, obyekt, ruchka, sehr, bioximiya, monitoring, dazmol, muomala, shoir, parta, qoida, maorif, xo‘roz, badjahl, ruxsat, oftob, chopon, jild, kompyuter,skaner.

**6-topshiriq.** Berilganlardan so‘zlar yasang. Sinonim va antonim qo‘shimchalardan foydalaning.

Suv, o‘t, ot, tosh, oila.

**7-topshiriq.** Quyidagi sodda, qo‘shma va just so‘zlar ishtirotida gaplar tuzing.

Savat-savat, paxtazor, sinfdosh, yeryong‘oq, mehmondo‘s, to‘q qizil, qo‘l qo‘ymoq, sotib olmoq, bir yuz sakson, bola-chaqa, kundan kunga.

**8-topshiriq.** Berilgan so‘zlarning qaysi tilga oid ekanligini ko‘rsating (arabcha,forscha,ruscha)

*Dastro‘mol, vazir, aeroport, diagramma, biologiya, induksiya, jurnalist, dasturxon, davlat, ilm, ta‘limot, kafit, kift, opera, balkon, nay, dutor, duradgor, nazariya, g‘alaba, muallif, amor, daraxt, orden, lirika, klub, jo‘xori, sabzavot, juvoz, xabar, ta‘lim, harf, kitob kulol, yog‘, go‘sht, dars, asbob, tarjimon, olloh, tabib,, osh, non, javob, traktor, bank, kilovatt, vatan, imorat.*

**9-topshiriq.** Siz o‘qiyotgan fakultet haqidagi universitet yoki institutingizning Internet saytiga kiritilishi mumkin bo‘lgan ma‘lumotlarni yozing. Ushbu ma‘lumotlarni boyitish uchun fotosuratlar tanlang. Nima uchun ularni tanlaganiningizni izohlang. Matnda uchragan o‘z qatlama va o‘zlashgan qatlama oid so‘zлarni izohlang.

#### Tilning leksik qatlamlari.

O‘zbek tili lug‘at tarkibida o‘z va o‘zlashgan qatlama. Hozirgi o‘zbek tili lug‘at tarkibidagi so‘zlarning paydo bo‘lishi va kelib chiqish manbayi turlichadir.

Har bir til o‘z lug‘at tarkibi va grammatik qurilishiga ega bo‘ladi. Biroq xalqlar orasidagi ijtimoiy-siyosiy va lisoniy aloqalar ularning tillariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Bu holat, ayniqsa, tilning lug‘at tarkibida yaqqol seziladi. Barcha tillar singari o‘zbek tilida ham bu hodisa yuz bergan bo‘lib, buning natijasida tilimizning lug‘at tarkibida o‘ziga xos qatlama bilan birga boshqa tillardan o‘zlashgan qatlama ham ko‘plab uchraydi.

O'z qatlamga turkiy tillar uchun umumiyligi bo'lgan so'zlar bilan birga o'zbek tilining o'ziga xos bo'lgan so'zlar kiradi. Masalan: *tog'*, *tosh*, *yer*, *suv*, *oq*, *gora*, *bosh*, *bir*, *ikki*, *uch* kabi.

Shuningdek, o'z qatlarni o'zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil qilingan yasama so'zlar ham tashkil etadi. Bular:

a) o'zbekcha so'zlardan o'zbekcha qo'shimchalar yordamida yasalgan so'zlar: *suvoqchi*, *temirchi*, *temirchi*, *qo'llanma*;

b) o'zlashma so'zlardan o'zbek tili vositalari yordamida hosil qilingan so'zlar: *limonzor*, *mardlik*, *ovqatlanmoq*;

d) boshqa tillardan o'tgan yasovchi vositalar yordamida o'z va o'zlashgan so'zlardan hosil qilingan so'zlar: *tilshunos*, *kitobxon*, *ultratovush* kabi.

Demak, yasama so'z qismlaridan biri o'zga tilga oid bo'lsa ham, yasalma so'z shu tilning o'zida yaratilgan bo'lsa, bu so'z o'z qatlamga tegishli so'z hisoblanadi.

Boshqa xalqlar bilan uzoq yillar davomida yonma-yon yashash, o'zaro siyosiy-ijtimoiy, savdo-sotiq aloqalarining olib borilishi natijasida o'zbek tiliga juda ko'p tillardan ma'lum miqdorda so'zlar o'zlashgan. Bular:

Tojikcha: *osmon*, *oftob*, *bahor*, *barg*, *kam*, *chala*, *agar*, *ham*...

Arabcha: *kitob*, *maktab*, *xalq*, *hayot*, *amma*, *rais*, *xuquq*, *ovqat*, *nomus*, *shifo*.

Ruscha baynalmilal: *brigada*, *televizor*, *agronom*, *radio*, *teatr*, *leksiya* singari so'zlardir.

O'tmishda arab va tojik tillaridan so'z o'zlashtirish faol bo'lgan. So'z o'zlashtirish asosan ikki usul bilan yuz beradi: 1) So'z aynan olinadi. 2) Kalkalab olinadi. Kalkalab olishda so'zning o'zi emas, uning ma'nosi o'zlashtiriladi. Bunda:

1. Boshqa til so'ziga xos ma'no zamirida ona tili materiali bilan yangi so'z yasaladi: *darslik* (uchebnik), *qatnashchi* (uchastnik). So'z o'zlashtirishning bunday usuli to'liq *kalka* deyiladi.

2. So'z tarkibida o'zga tilga oid so'z bilan birga o'z til qismlari ishtiroy etadi: *hamkurs* (sokursnik), *sportchi*. Bu turdag'i kalkalar *yarim kalka* deyiladi.

3. Semantik kalka. O'zbek tilida bir qancha so'zlar shu ma'noda qo'llanadigan begona tildagi so'zlarning ma'nolariga qarab, yangi ma'nolar olib semantik, ya'ni ma'no jihatidan kengaygan (semantik kalka). Misollar: *akkumulyator* o'tirib qoldi (o'tirdi-sel, jonli so'zlashuv nutqida), *quyon* – biletisiz yo'lovchi, *bu yigit imtihonda yiqildi* (provalilsya) kabi.

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbek tili leksikasining o'z va o'zlashgan qatlamlari haqida nimani bilasiz?
2. Kalka nima? To'liq kalka, yarim kalka va semantik kalka haqida gapiring.
3. Zamonaviy qatlamning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Istorizm va arxaizmlarga nimalar kiradi?
5. Umumiy va chegaralangan leksikaning guruqlariga nimalar kiradi?
6. Jargon va argolar haqida nimalarni bilasiz?
7. Emotsional-ekspressiv jihatdan o'zbek tili leksikasi qanday turlarga bo'linadi?

## S-MAVZU: ULUG' AJDODLARIMIZ

### REJA:

- Mashhur allomalardan biri haqida taqdimot tayyorlash.
- Buyuk allomalarimizning asarlari ro'yxatini tuzish.
- Atamalar va ularning vujudga kelishi.

*I-topshiriq.* Matnni o'qing, mazmunini gaprib bering. Matndagi atama va iboralarning ma'nosimi izohlang.

### Abu Rayhon Beruniy (973-1048)

Jahon, xususan, Sharq madaniyati va fanining yorqin siymolaridan biri Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy 973-yilda Xorazmda tug'ildi.

Beruniy Xorazmshoh Ma'mun rahbarligida Urganchda vujudga kelgan o'z davrining yirik ilmiy markazlaridan biri - Ma'mun akademiyasida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik esa har xil sabablarga ko'ra G'azna shahriga ketishga majbur bo'ldi, ona yurtidan yiroqda ham yirik fan va jamoat arbobi sifatida katta obro'qozondi.

Abu Rayhon Beruniyning o'rta asrlar fanlariga, xususan, astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geografiya, geologiya, falsafa, xronologiya, fanlar tarixi va boshqa fanlarga qo'shgan ulkan hissasi uni butun dunyoga tanitdi. U ilmiy tabiatshunoslikka asos solgan allomalardan biri bo'lib, turli sohalarda o'z davri uchun taajjubga soluvchi fikrlar, xulosalar va ilmiy farazlarni olg'a surgan ediki, ular bir necha asrlardan so'ng Yevropa ilmida o'z isbotini topdi. Aniq ilmiy yondashuv asosida mashhur yunon mutafakkiri Aristotel qarashlarini rivojlantirdi, zaif tomonlariga esa tanqidiy nuqtai nazardan yondashishga harakat qildi.

Beruniy komil insonparvar shaxs sifatida xalqlar do'st, inoq va birdamlikda yashashi uchun kurashdi, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Allomaning Hindiston va boshqa mamlakatlarda amalga oshirgan keng ilmiy-tadqiqot ishlari xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik, madaniy, ilmiy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan edi.

Beruniy ulkan meros, o'z davri ilm-fanining turli sohalariiga oid 160 dan ortiq asarlar, bir necha tillardan qilingan tarjimalar, turli yozishmalar qoldirdi. Ular orasida jahon fanida eng ishonchli va muhim manbalar sirasiga kiritilgan "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Geodeziya", "Hindiston", "Mas'ud qonuni", "Mineralogiya" ("Saydana") kabi asarlari alohida o'rin tutadi. O'rta asrlardan boshlab uning asarlari lotin, fransuz, ingliz, nemis, fors, turk tillariga o'girildi.

O'zbekiston olimlari Beruniy merosini o'rganishga katta hissa qo'shamoqdalar. Asosiy asarlarini qamragan ko'p jildlik saylanma nashrlar o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan chop etildi. Hozirgi kunda ulug'alloma merosiga jahon miqyosida qiziqish tobora ortib bormoqda. O'zbekistonda fan va texnika sohasidagi eng yaxshi asarlari uchun beriladigan Davlat mukofoti Beruniy nomi bilan ataladi. 1973-yilda Yunesko tashabbusi bilan Beruniy tavalludining 1000 yilligi jahon miqyosida keng nishonlandi.

## AL-FARG'ONIY

Al-Farg'onyi Ahmad ibn Muhammad (Farg'ona vodivsida tug'ilgan, taxminan 861- yili (ba'zi ma'lumotlarda 865-yili) vafot etgan, tavallud sanasi esa aniq emas) Al-Xorazmiy bilan bir vaqtida Bag'doddagi "Bayt-ul hikma" ilmiy markazida ilmiy ishlar bilan shug'ullangan. Kitoblari o'rta asrlarda Yevropa universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik va qo'llanma hisoblanib, muallifning ism-nasabi "al-Farg'oniy"ni lotinchasiga "Alfraganus" deb ataganlar. Al-Farg'oniy "Alfraganus" nomi bilan dunyoda mashhur va ma'lumdir.

Al-Farg'oniying asosan oltita kitobi jahon bo'ylab tarqalgan:

1) "Kitob fy usul ilm an-Nujum". Bu risolaning asl qo'lyozmalari matni bir xil bo'lib, besh xil nom ostida saqlanib kelmoqda. Chunonchi, "Almajisti"ga bag'ishlangan astronomik risola, "Falak sferalari sababiyati", "Ayama-jisti" (Almagest), "Ilm al-haya" (Astronomiya ilmi). Bu qo'lyozmalar Angliya, Fransiya, AQSH, Marokash, Misr va Rossiya kutubxonalarida saqlanib kelinmoqda. Asar 1145 yili va 1175 yili lotin tiliga tarjima qilingan, chunki o'sha davrda lotin tili Yevropa mamlakatlarida mushtarak fan tili hisoblangan, har bir diqqatga sazovor yirik ilmiy asar shu tilda chop etilgan, lotin tili orqali butun fan olamiga tarqalgan va ma'lum bo'lgan. Asar 1193, 1533, 1590 va 1910 yillarda atoqli olimlar va noshirlar rahbarligida Yevropaning turli mamlakatlarida chop etilgan.

2) "Al-Farg'oniy jadvallari" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).

3) "Oy Yerning ustida va ostida bo'lganida vaqtini aniqlash risolasi" (qo'lyozmasi Qohirada saqlanmoqda).

4) "Usturlob bilan amal qilish haqidagi kitob" (qo'lyozmasi Hindistonda saqlanmoqda).

5) "Yetti iqlim hisobi" (qo'lyozmasi Germaniyada saqlanmoqda).

6) "Usturlob yasash haqidaga kitob" (qo'lyozma nusxalari Fransiya yoki Germaniyada topilishi mumkin, chunki 1919 yilda asarni Eydeman nemis tilida nashr etgan).

Samoviy jismlar harakatini Nyuton va Laplas massa harakatining dinamikasi shaklida, Kepler esa geometrik yo'sinda bayon etgan bo'lsa, al-Farg'oniy ulardan bir necha asr avvalroq jadvallar qonuniyati shaklida izohlagan. Jadvalning fazilati va imtiyozi - uning jonli mushohadaga ochiq ekanlidir.

Stereografik proeksiyalar nazariyasining kashfiyotchisi ham al-Farg'oniyidir. Quyosh, Oy, sayyoralar va yulduzlarning, binobarin, umuman osmonning bo'lajak manzarasini bilish uchun geometrik-kinematik usul astronomiya fanining umumiyligi usuli sifatida qabul qilib olingan bo'lsa, jahon munajjimlik fanining bunday umummaxrajga kelishida al-Farg'oniy topgan va asoslagan usturlob (Yevropachasiga - astrolyabiya) asbobining ahamiyati katta bo'lgan.

## "KEYS STADI"

**O'quv moduli:** "Atamalar va ularning vujudga kelishi"

**Keysning asosiy maqsadi:**

Jamiyatda sodir bo'lgan har qanday voqelik yoki o'zgarish, birinchi navbatda, tilda o'zini namoyon etishi, tilshunoslikning muhim tarkibiy qismi ekanligini

ko'rsatib berish hamda tahlil qilish, atamalarning til taraqqiyoti jarayonidagi o'mni va ijtimoiy hayotdag'i rolini belgilash, bu sohadagi muammolarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish.

**O'quv faoliyatidan kutiladigan natijalar:**

- keys mazmuni bilan oldindan tanishib chiqib, tayyorgarlik ko'rish;
- atamalarning vujudga kelishi tilshunoslik ilmi oldida turgan vazifalarini ko'rsatib berish;
- atamalarning til taraqqiyoti jarayonidagi o'mni va ijtimoiy hayotdag'i rolini belgilash;
- atamalarni adabiy ta'lif jarayoniga tatbiq etishning afzalliklarini yoritib berish;
- muammoli vazifalarni yechishda nazariy bilimlarini qo'llash;
- muammoni aniqlab, uni hal qilishda yechim topish.

**Ushbu keysni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun oldindan talabalar quyidagi bilim va ko'nikmalarga ega bo'limoqlari zarur:**

**Talaba bilishi kerak:** atamashunoslik, fan-texnika taraqqiyoti, insonning mehnat va ijtimoiy faoliyati bilan uzyvy bog'liqligi, tilning lug'at tarkibi, uning leksik-semantik sistemasi doimo o'zgarib borishini, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holda kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlar arxaik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'mmini yangi so'zlar egallahagini, fanlar integratsiyasini, tilning tabiatini, til taraqqiyoti qonuniyatlarini, iqtisodiy jarayonni.

**Talaba amalga oshirishi kerak:**

- mavzuni mustaqil o'rganadi;
- muammoning mohiyatini aniqlashtiradi;
- g'oyalarni ilgari suradi;
- ma'lumotlarni tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqib, mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadi;
- o'z nuqtayi nazariga ega bo'lib, mantiqiy xulosa chiqaradi;
- o'quv ma'lumotlar bilan mustaqil ishlaydi;
- ma'lumotlarni taqqoslaydi, tahlil qiladi va umumlashtiradi;

**Talaba ega bo'lmog'i kerak:**

- kommunikativ ko'nikmalarga;
- taqdimot ko'nikmalariga;
- hamkorlikdagi ishlarni ko'nikmalariga;
- muammoli holatlarni tahlil qilish ko'nikmalariga.

**Keys-stadi:**

**Vaziyat.**

Mustaqillikka erishganimizda so'ng, tilimizdag'i ko'pgina atamalarni o'zimizning til xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, nomini o'zgartirishga talab kuchaydi. Va bu holat amalda namoyon bo'ldi. Natijada tilimizdag'i atamalarning nomi ozgartirildi. Masalan, jurnalni oynoma yoki gazetani ro'znama, institutni-oliygoh, stadionni-o'yingoh, aeroportni-tayyoragoh deb oldik. Keyinchalik bu atamalar yana o'z holatiga qaytdi.

**Vaziyatni baholash uchun savollar:**

1. Nima uchun atamalar ozbek tiliga o'zgartirildi?
2. Nima uchun atamalar yana o'z holatiga qaytarildi?
3. Sizningcha qaysi holat to'g'ri deb o'ylaysiz?

**Guruhlarda keysni yechish bo'yicha yo'riqnomalar:**

1. Guruh sardorini tanlang.
  2. Individual yechilgan keys vaziyatlar bilan tanishib chiqing.
  3. Aqliy hujum yordamida guruh a'zolari tomonidan taklif etilgan muammoni yechish usul va vositalarining ro'yxatini tuzing.
  4. Jamoaviy tarzda muammoni yechish g'oyalarini baholang va sizning fikringizcha ustun bo'lganlarini tanlang.
  5. Muhokama qiling va aniqlang: kim guruh ishi natijalarini taqdim etadi, guruh yetakchisimi yoki butun guruh a'zolrimi?
  6. Boshqa guruh taqdimotlarini quyida keltirilgan baholash mezonlari va ko'rsatkichlari yordamida baholang.
- Bajarish vaqt: guruh ishi – 20 daqiqa, taqdimot – 10 daqiqa.

**Yo'riqnomani quyidagi jadval ko'rinishida ham taqdim qilish mumkin:****1. Keysni yechish uchun talabalarga yo'riqnomalar:**

Ish bosqichlari	Maslahat va tavsiyalar
1.Keys va uning axborot ta'minoti bilan tanishish	Keys bilan tanishish. Vaziyat haqida tushuncha hosil qilish uchun mayjud axborotni diqqat bilan o'qib chiqish. O'qish paytida vaziyatni tahlil qilishga shoshilmaslik.
2.Berilgan vaziyat bilan tanishish	Ma'lumotlarni yana bir marta diqqat bilan o'qib chiqish. Muhim satrlarni belgilash. Bir xatboshidan ikkinchisiga o'tishdan oldin uni ikki-uch marta o'qib, mazmuniga kirib borish. Keysdagি muhim fikrlarni qalam yordamida belgilash.
3.Muammoli vaziyatni tahlil qilish	Asosiy muammo va kichik muammolarga diqqatni jalb qilish. Asosiy muammo nimaga qaratilganini aniqlash. Muammoning asosiy mazmunini ajratib olish. Muammoli vaziyatni tahlil qilish – obyektning holatini aniqlash, asosiy qirralariga e'tibor qaratish, muammoli vaziyatning barcha tomonlarini tahlil qilish.
4.Muammoli vaziyatni yechish usul va vositalarini tanlash hamda asoslash	Ushbu vaziyatdan chiqib muammoni yechish harakatlarni izlab topish maqsadida quyida taqdim etilgan "Muammoli vaziyat" jadvalini to'ldirishga kirishish. Muammoni yechish uchun barcha vaziyatlarni ko'rib chiqish, muqobil vaziyatni yaratish. Muammoning yechimini aniq variantlardan tanlab olish, muammoning aniq yechimini topish. Jadvalni to'ldirish. Keys bilan ishslash natijalarini yozma shaklda ilova qilish.

**Keys yechimi uchun taklif etilgan g'oyalar taqdimoti chizmasi**

Muammo (asosiy va kichik muammolar)	Yechim	Natija
1. Nima uchun atamalar o'zbek tiliga o'zgartirildi?	Davlat tili haqidagi qonunning 7-moddasida davlat tomonidan o'zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishi, shu jumladan, unga hamma e'tibor qilgan ilmiy- texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta'minlaydi deyilgan.  Shundan kelib chiqqan holda, mustaqillikka erishganimizda so'ng, barcha fan sohalari qatorida o'zbek tiliga ham milliy mentalitetimizdan kelib chiqqan holda milliy ruhni singdirishga talab kuchaydi.	Fan-technika, xalq xo'jaligi, qishloq xo'jaligi, ijtimoiy-siyosiy sohaga doir ilmiy tushunchalarni aniq ifodalashda atamalarning ahamiyati katta.
2 Nima uchun atamalar yana o'z holatiga qaytarildi?	Atamalarning o'zbekcha shaklini topish borasida qilinadigan ishlar ko'p. Bu sohada maqbul variantlarni aniqlash, mutaxassislar tomonidan olib borilayotgan tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirish, tadqiqot ishlarini kuchaytirish kerak.	Jurnalni oynoma yoki gazetani ro'znama deb, olsak, jurnalxon, gazetxon so'zlarini nima deyish kerak, mazmunidagi muammolar yuzaga keldi.
3.Sizningcha, qaysi holat to'g'ri deb o'ylaysiz?	Hozirgi demokratik davlat qurayotgan davrimizda yangi atamalarni joriy qilish ma'muriy-buyruqbozlik yo'li bilan emas, balki ishontirish, ilmiy va amaliy jihatdan u yoki bu atamaning qo'llanishi zarurligini asoslash yo'li bilan ish olib borish zarur.	Ayni bir tushunchaga berilgan turli atamalarning maqbul variantini tilimizning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda tanlash maqsadga muvofiq.

**"T-chizmasi"**

Tilning lug'at tarkibi, uning leksik-semantic sistemasi doimo o'zgarib boradi, ayni zamonda, jamiyat uchun keraksiz holda kelgan tushuncha yoki predmet nomlarini ifodalab kelgan so'zlar arxaik so'z sifatida iste'moldan chiqib, uning o'rmini yangi so'zlar egallaydi. Lekin iste'moldan chiqqan so'zlar miqdori yangi paydo bo'lgan so'zlarga nisbatan ancha kam bo'ladi. Lekin, ba'zi hollarda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Albatta, lug'aviy birliklaming iste'moldan chiqishi lingvistik va ekstralengvistik omillar asosida, tilning tabiatи, til taraqqiyoti qonuniyatlari asosida ro'y beradi.

**T-chizma.** T-chizma munozara vaqtida qo'shaloq javoblar (ha/yo'q, tarafdar/qarshi) yoki taqqoslash zid javoblarni yozish uchun universal grafik organayzer hisoblanadi. Masalan, "Atamalar va ularning vujudga kelishi" matnini "tarafdar va qarshi" tamoyiliga asoslanib o'qilganidan so'ng, kichik guruhlar quyida keltirilganidek, T-chizmani tuzishi va besh daqiqada keyin, chizmaning chap tomonida atamalarning vujuga kelishi uchun besh daqiqa ichida qancha o'ylab topish mumkin bo'lgan shuncha sababni yozishi mumkin. So'ngra besh daqiqa mobaynida ular bu fikrga qarshi imkonli boricha ko'p sababni keltirishlari kerak. Ana shu vaqt oxirida ular yana besh minut mobaynida o'z T-chizmalarini boshqa juftlik chizmalari bilan taqqoslashlari mumkin.

Atamalarning vujudga kelishi sabablari	Atamalarning vujudga kelishiga qarshi sabablari
Jamiyat va tabiatdagi narsa-hodisalarning yo'qolishi bilan ularning ifodachisi bo'lgan so'zlar ham yo'q bo'ladi, hozirgi til strukturasidan (lug'at sistemasidan) chiqadi va tarixiy so'zlarga aylanadi.	Tilning takomillashuvi jarayonida narsa-hodisaning mohiyatini aniq, to'la va to'g'ri ifodalay olmaydigan lug'aviy birliklar iste'moldan chiqib, ularning o'mini hodisani aniq, to'g'ri va to'la ifodalaydigan lug'aviy birliklar egallaydi.

#### 1. "Chalkashtirilgan mantiqiy zanjirlar ketma-ketligi" metodi.

Masalan, "Atamalar va ularning vujudga kelishi" mavzusi bo'yicha amaliy mashg'ulot o'tkazilayapti, deylik. Dastlab, o'qituvchi doskaga nutq uslublariga xos atamalarni chalkashtirilgan holda yozib qo'yadi. So'ngra, talabalardan mazkur atamalarni qaysi nutq uslubiga xosligiga qarab, tasniflashni taklif etadi.

1. Atama	13. Suv
2. Hikoya	14. Daraxt
3. She'r	15. Mashina
4. Munozara	16. Ota-onা
5. Yuklatilsin	17. Ruda
6. Elektr	18. Qazilma
7. Atomlar	19. Tasdiqlansin
8. Diametr	20. Jism
9. Harakat	21. Hokimiyat
10. Maktab	22. Qaror
11. Ilyustratsiya	23. Partiya
12. Demonstratsiya	24. Ijro

So'zlashuv	Ilmiy	Badiiy	Rasmiy	Ommabop
1, 10, 13, 14, 15, 16	6, 7, 8, 9, 11, 12, 13, 15, 17, 18, 20	2, 3, 4	5, 19	22, 23, 24


### **Atamalar va ularning vujudga kelishi (Venn diagrammasi)**

Umumiylar so'zga tilimizdag'i barcha so'zlar olinadi (mustaqil, yordamchi, alohida so'zlar).

So'zda esa mustaqil co'z turkumlari nazarda tutiladi.

Atama, bilan umumiylar so'zda atamaning umumiyligi farqlanadi. Masalan, Navo-iy – Navoiy.

Atama bilan so'z munosabati so'zning leksik ma'nosi bilan atamaning individual (atamatik) ma'nosini farqlaydi.



**Konseptual jadval.** Yozma ish oldidan materialni uyuşdırishning yana bir usuli bor, bu – konseptual jadval. Uchta va undan ko'p jihatlar yoki savollarni taqqoslash taqozo etilganida ushbu usul ayniqsa foydali bo'ladi. Jadval quyidagicha tuziladi: vertikal bo'yicha taqqoslanadigan narsalar, gorizontal bo'yicha esa – ushbu taqqoslash bajariladigan xususiyat va xossalalar joylashtiriladi.


Masalan, konseptual jadval orqali atamalar va ularning vujudga kelishini taqqoslab ko'rsatish mumkin.

Atamalar	Nutq uslublariga oid	Fan-texnikaga oid	Ijtimoiy-siyosiy yoki badiiy
lahim	Ilmiy uslub	Konchilik atamasi	-
tashbeh	Badiiy uslub	-	Badiiy atama
hokimiyat	Ommabop uslub	-	Ijtimoiy-siyosiy atama

### **Klaster**

"Klaster" metodi. "Klaster" (g'uncha, to'plam, bog'lam) metodi puxta o'ylangan strategiya bo'lib, uni o'quvchi (talaba)lar bilan yakka tartibda, guruh asosida tashkil

etiladigan mashg'ulotlarda qo'llash mumkin. Klasterlar ilgari surilgan g'oyalarni umumlashtirish, ular o'rtasidagi aloqalarni topish imkoniyatini yaratadi.



**1-mashq.** Lug' atdan foydalaniib, mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug'atini tuzing. Ularning ma'nosi va qo'llanishi haqidagi ma'lumotlarni puxta o'zlashtirib oling.

**1-topshiriq.** Quyidagi atamalarni sharhlang va ingliz tilidagi tarjimasini yod oling.

Lotin yozuvida	Kirill yozuvida	Ingliz tilida
siyosat	сиёсат	policy
olimlik	олимлик	learning, erudition
ajdod	аждод	ancestor, forefather
mutafakkir	мутафаккир	thinker, intellectual
shoir	шоир	poet
musulmon	мусулмон	moslem
atama	атама	term, designation
tilshunos	тилшунос	linguist
tadqiqot	тадқиқот	investigation, research, analysis
ma'naviy	маънавий	1) spiritual; 2) moral

**2-topshiriq.** Oilangiz a'zolarining kasb-hunariga oid 7-8 ta so'z yozing. Bu so'zlar qaysi kasb-hunarga xos ekanligini aytинг.

**3-topshiriq.** Tilshunoslik faniga oid atamalarni izohi bilan yozing. Namuna: Orfoepiya -(yunoncha orthos - "to'g'ri" epos - "nutq" demakdir) adabiy talaffuz qoidalarni o'rGANuvchi tilshunoslikning bo'limi.

Fonema, leksikologiya, grammatika, orfografiya, morfologiya, metafora, kelishik, omonim, atama, antonim, olmosh, unli, undosh, leksikografiya, stilistika, fe'l, matn.

**4-topshiriq.** Grammatik-o'yin topshiriq. Ikki guruuhga bo'linib, mutaxassisligingizga oid atamalardan foydalanib, tez aytish bo'yicha so'z zanjiri tuzing. Namuna: huquqshunoslikka oid atamalar.

I guruh	II guruh
amnistiya	audit
terror	reglament
tergovchi	investitsiya
arxiv	viza
aliment	tender

**5-topshiriq.** Quyidagi atamalar ishtirokida gaplar tuzing.

Gaz, kub, harakat, kvadrat, ot, integral, ildiz, hol, fe'l, magnit, ruboiy, vodorod, ammiak.

**6-topshiriq.** Quyidagi so'z va so'z birikmalarining o'zbekcha muqobilini toping, ulani o'zbek tiliga tarjima qiling.

Учебный план, история, традиция, переподготовка кадров, учебная программа, высшее образование, повышение квалификации.

**7-topshiriq.** Quyida berilgan atamalarni tarix, matematika, botanika sarlavhalari ostida yozib chiqing.

Milod, urug'chilik, xonlik, kalendar, kurtak, tub son, ra'no-guldoshlar, mikroskop, quldorchilik, hujayra, kesma, ildizpoya, tenglama.

#### Atamalar va ularning vujudga kelishi.

Ilmiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, ma'lum fan, ishlab chiqarish sohasidagina qo'llaniladigan va asosan o'sha soha kishilari tushunadigan maxsus so'zlar terminlar – atamalar sifatida qaraladi.

«Hozirgacha termin tushunchasi tilshunoslikda turliqa talqin qilinmoqda – deb qayd etishadi «O'zbek tili leksikologiyasi» asarining mualliflari. – Ba'zi tilshunoslar terminga ilm va texnikaga oid so'z va iboralarining emas, barcha uy-ro'zg'or asboblari nomlarini, ishlab chiqarishning hozirgi darajasidagi qurollarinigina emas, balki o'tmishdagi ibtidoiy qurollarning barcha nomlarini, shuningdek, kustarchilik kasb-hunarga oid so'zlarni ham kiritadilar.

Agar masala shu taxlitda qo'yiladigan bo'lsa, har bir konkret predmet nomini termin deb atash lozim bo'lar edi. Gap terminning aniq bir ma'noni ifodalashida emas, bu jihatdan qaraladigan bo'lsa, kasb-hunar leksikasining ilmiy-texnikaviy terminlardan deyarli farqi yo'q, termin har qanday tushunchaning aniq atamasini sifatidagina emas,

balki ilmiy tushunchani ifodalovchi vosita sifatida asosan yozma shaklda maydonga keladi».

Demak, «*atama*» so‘zini «*termin*» tushunchasi ma’nosida qo‘llaganimizda, *uni umuman narsa-predmetlar, voqeal-hodisalarining nomi sifatida emas, balki aniq bir ilmiy tushunchani ifodalaydigan va ma’lum bir fan sohasiga tegishli bo’lgan birliliklarni anglashimiz lozim.*

Shu ma’noda kasb-hunarga oid so‘zlar atamalardan farqlanadi. Bu haqda quyiroqda to‘xtalamiz.

O‘zbek tilshunosligida *atamalarni o’rganishga doir ko’pgina ishlar amalga oshirilgan. Ko’plab ilmiy kitoblar, risolalar, lug’atlar, ilmiy vailmiy-ommabop maqolalar yozilgan, dissertatsiyalar himoya qilingan.* Bu borada 200 dan ortiq lug’atlarning nashr etilishi fanimizning katta yutug‘i hisoblanadi. O‘zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi, «*Lotin yozuvni asosidagi o’zbek alifbosiga o’tish to’g’risida*»gi Qonunning qabul qilinishi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi *Atamalar qo’mitasi* olib borayotgan yirik hajmidagi ishlar atamashunoslik sohasining yanada yuqori bosqichga ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi.

Atamalarning shakllanishi ham xalqning tarixi qadar qadimiydir. To‘nyuquq, Kultegin, Bilga hoqon singari bitiktoshlarda xalqimiz mashg‘ul bo‘lgan hunarlarga oid atamalarni uchratamiz. Ular xalq tomonidan yaratilgan afsonalarda, qahramonlik qo’shiqlarida ham mavjud bo‘lgan. Ularni mujassam qilgan Mahmud Qoshg‘ariyning «*Devonu lug’otit-turk*» asari ularning bizgacha yetib kelishida katta tarixiy vazifani bajargan.

Shunday qilib, mana shu kabi tarixiy-ilmiy-badiiy manbalar orqali biringa jismoniy tarbiya va sportga oid *kurash, chopish, sakrash, chavandozlik, yoy, kamon, o’q otish, mengan, menganlik, eshkak, kema, suzish, o’zish, o’yin, tepish, tepki, to’p, to’r, chavgon, qanot, qilich, kema yoki shaxmatga oid shatranj, shohmot/shaxmat, shoh shax, farzin, rux, fil, o/asp. piyoda/sipoh, mot, pot/pat, dona, oq/qora, katak, qanot, yurish, kishi, hujum* singari ko‘plab atamalar bizgacha yetib kelgan. Bu hol ijtimoiy hayotning barcha sohalariga tegishli.

Mana shu tarzda har bir davrda jamiyatning taraqqiyoti bilan bog‘liq holda sohaviy atamalar ham son, ham sifat jihatdan takomillashib bordi. Uning taraqqiyotida XIX asrning II yarmidan keyingi davr va yana oradan yuz yildan ortiq vaqt o’tib O‘zbekistonning mustaqillikka erishgan davri alohida o‘rin tutadi. Mana shu davr ichida jahonda yuz bergen o‘zgarishlar O‘rta Osiyo, jumladan O‘zbekistonda ham sanoatning o’sishiga, dunyoviy fanlarning qaytadan rivojlanishiga sabab bo‘ldi. *Falsafa, huquq, tarix, filologiya, sotsiologiya, kimyo, fizika, matematika, biologiya, geografiya, sanoat, qishloq xo’jaligi, tibbiyotga oid maxsus atamalar shakllandi va ular tilimizga kirib keldi.* Bunda rus tilining ta’siri katta bo‘lganligidan ko‘z yumib bo‘lmaydi.

Atamalarning o‘zbek tilida son jihatdan ko‘pchilikni tashkil etishi ularni mavzuviy guruhlarga bo‘lib o‘rganishni taqozo qiladi. Chunki o‘zbek atamashunoslari S. Ibrohimov, S. Akobirov, Olim Usmon, R. Doniyorov, H. Shamsiddinov, A. Madvaliyev va boshqalar ta’kidlaganlaridek, bunday tahlil atamalarning umumiy boyligini ko‘rsatishga, ularni ma’lum bir tartibga keltirishga ko‘maklashadi, sohalarga bo‘lib o‘rganishni osonlashtiradi.

***Atamalarni dastlab ikki katta guruhga ajratish to'g'ri bo'ladi:***

1. Umumiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

2. Xususiylik xususiyatiga ega bo'lgan atamalar.

*Umumiylik atamalar sirasiga bir terminologik tizimning barcha yo'nalishlari uchun tushunarli bo'lgan atamalar kiradi. Masalan, sportdagi musobaqa, sovrin,sovundor, yutuq, g'alaba, birinchilik, championat, ko'rik, trener, hakam atamalarini sportning barcha turlanda bernalol qo'llash mumkin. Fizikaga oid issiqfik, temperatura, jism, elektr, magnit, gaz, harakat, energiya, maydon singari atamalar haqida ham shu gaplarni aytish mumkin.*

*Xususiy atamalar esa faqatgina bitta mavzuviy guruh doirasida amal qiladi. Masalan, yuqorida keltirilgan fizikaga oid atamalar uning barcha sohalarida qo'llanishi mumkin bo'lgani holda, gravitatsiya, diod, termosier, kondensatsiya, kapillyar hodisalar singari atamalar yok ikimyoga oid gidroksid, oksid, sulfat kislotosi, xlorid kislotosi kabi atamalar tor ixtisos doirasida qo'llaniladi. Bunday holatni fanlarning barcha yo'nalishlari va sohalarida kuzatish mumkin.*

**Mustahkamlash uchun savollar**

1. Atama deb nimaga aytildi?

2. Atamalar va ularning vujudga kelishi haqida nima bilasiz?

3. Atamalar necha guruhga ajratilgan?

4. Umumiylik atamalar deb qanday atamalarga aytildi?

5. Xususiy atamalar deb qanday atamalarga aytildi?

**6-MAVZU: VATAN VA VATANPARVARLIK**

**REJA:**

➤ Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida.

➤ "Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozish.

➤ Ijtimoiy-siyosiy leksika.

***I-topshiriq.*** Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

**VATAN**

Vatan (arabcha "vatan" - ona yurt) - inson yashab turgan, unib-o'sgan joy, hudud, ijtimoiy muhit, mamlakat.

Vatan bir-birini taqozo etuvchi tashqi muhit va ichki kechinmalar hamda tushunchalarni o'z ichiga oladi. Tashqi muhit nuqtai nazaridan Vatan kishi yoki avlodlar tug'ilib o'sgan va kamol topgan joy, zamin, o'lkadir. Vatan ostonadan boshlanadi, deb bejiz aytmaydi xalqimiz. Biroq kishi ulg'aygan sayin, uning Vatan haqidagi tushunchasi ham kengayadi. Natijada tili, e'tiqodi, urf-odatlari va milliy sifatlari bir bo'lgan avlodlar yashagan va yashayotgan geografik muhit Vatanni ifoda etadi. Ichki tushuncha va kechinmalarni ko'zda tutib fikr yuritsak, Vatan tarixiy rivojlanish jarayonida paydo bo'lib, tashqi muhit va davrlar ta'sirida shakllangan va

o'zgarib kelgan ijtimoiy-ruhiy tuyg'udir.

Millatlar va elatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarning o'sishi avvallari faqat bir elat yoki millat uchun Vatan bo'lgan o'lkani bu o'lkada yashab turgan barcha elat va millatlar uchun Vatanga aylantiradi. Respublikamizda hozir yashayotgan yuzdan ziyod millat va elatlarning O'zbekistonni o'z Vatani deb bilishi ham ana shunday jarayonlar va o'zgarishlar natijasidir. Shu boisdan, Vatan tushunchasi tor milliy qarashlardan kengroq bo'lib, u bir joy, zamin, o'lkada yashayotgan kishilarni ulaming millatidan qat'i nazar birlashtiruvchi ijtimoiy tuyg'udir. 1920-yillarda yurtimizdan chet ellarga ketishga majbur bo'lgan vatandoshlarimizning farzandlari va nevaralari ham O'zbekistonni o'z Vatani deb biladilar. Bu o'rinda milliy-ma'naviy tushunchalar va an'analar ko'proq ta'sir qilayotgani ayondir.

Vatan, eng avvalo, obyektiv muhit, borliq, zamin bilan bog'liq bo'lGANI uchun kishi ongida aniq tasvir, qiyofa, siymolar tarzida shakllanadi. Mavhum Vatan yo'q. Vatan har doim aniq ko'rinishga ega bo'ladi. Shuning uchun ham u kishidan aniq va maqsadli munosabatlarni talab etadi. O'zaro bir-birimizga, ota-bobolarimizga, tariximizga, yon-atrofimizni qurshagan tabiatga va farzandlarimizga bo'lGAN munosabatlar oxir-natijada Vatanga bo'lGAN munosabatlarimizdir.

Xalq madaniyati, an'analari, urf-odatlari, milliy ong ham Vatan tushunchasi bilan mustahkam bog'liq. Kishining shakllanishida ushbu qadriyatlar yetakchi o'rin tutgani sababli, ular Vatan tushunchasiga bog'lanib qolishi tabiiy. Demak, Vatan kishining, avlodlarning butun hayoti, turmush tarzi, ongi, o'mishi va kelajagi bilan bog'liq bo'lGAN keng qamrovli tushunchadir.

## VATANPARVARLIK

Vatanparvarlik - kishining o'zi tug'ilib o'sgan, kamol topgan joy, zamin, o'lkaga bo'lGAN mehr-muhabbatini, munosabatlarini ifoda etadigan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlari, fazilatlaridir. Vatanparvarlik aniq muhitda, zaminda va mavjud ma'naviy-axloqiy qadriyatlar asosida shakllanadi. Shaxs vatanparvarlik tuyg'usini yaratmaydi, balki uni tayyor holda qabul qilib, asta-sekin o'z ongiga singdiradi. Chunki vatanparvarlik uzoq tarixiy rivojlanish jarayonida shakllanadigan ijtimoiy tuyg'udir.

Vatanparvarlik kishilarning ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy xislatlarining, fazilatlarining yuksak darajada namoyon bo'lischidir. Zero, ular negizida ota-bobolardan meros qolgan zaminni sevish, urf-odatlarni, qadriyatlarni saqlash, el-yurt ravnaqi uchun chin dildan mehnat qilib, Vatanni dushmanlardan himoya qilish, har qanday qaramlikdan ozod etish, hatto, zarur bo'lsa, uning ozodligi va mustaqilligi uchun jonini ham ayamaslik kabilar yotadi. Vatanparvarlik el-yurt manfaatlariga xizmat qilish, el-yurt manfaatlarini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish demakdir.

Fidoyilik vatanparvarlikning bosh belgisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining mustaqil davlat sifatida mustahkamlanishi, uning iqtisodiy, ma'naviy-madaniy taraqqiyoti, mehnatkashlarning tezroq farovon hayotga erishishi uchun tinmay mehnat qilishi va izlanishini fidoyilik deyishimiz mumkin. Fidoyilik Vatanga bo'lGAN sadoqatdan, muhabbatdan boshlanadi. Istagan sohada vatanparvarlik

tuyg'usini namoyon qilish mumkin. Tabiatni muhofaza qilish, ota-bobolarimiz qoldirgan madaniy meroslarni toplash, o'rganish, avaylab saqlash va targ'ib qilish kabilar ham vatanparvarlik hisoblanadi.

Vatanparvarlikning oliv ko'rinishi jasoratdir. Jasorat kishining Vatan va yurtdoshlari uchun o'z manfaatlardidan, kerak bo'lsa, jonidan ham kechib namoyon etadigan yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlaridir. Jasorat xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi, Vatan himoyasi uchun qilingan uzoq mehnatda ham, o'zimi fido qilishni talab etadigan favqulodda holatlarda ham namoyon bo'lishi mumkin.

Vatanparvarlik o'zbek xalqining milliy tuyg'usini rivojlantirish, milliy yuksalish g'oyalarini targ'ib qilish, mamlakatimizda yashayotgan turli elat va millatlar o'rtaсидаги do'stlik, tinchlik va ahillikni mustahkamlash uchun kurashishda ham namoyon bo'ladi. Xuddi shuningdek, u O'zbekistonda demokratiya va hurfikrlilikning qaror topishiga g'ov bo'layotgan hollarga qarshi kurashishni ham o'z ichiga oladi.

Vatanparvarlik hissini uyg'otish, mustahkamlash va uning talqinini kengaytirish - mustaqil O'zbekiston fuqarolarining muhim vazifasi ekanligi shubhasizdir.

**2-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Ona, yurt, o'lka, tashqi muhit, ijtimoiy tuyg'u, chet el, vatandosh, xalq madaniyati, turmush tarzi, kelajak.

**3-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'z va iboralaming ma'nosini izohlang.

zamin, mehr-muhabbat, ma'naviy-axloqiy qadriyatlar, urf-odatlar, el-yurt ravnaqi, shaxsiy manfaat, fidoyilik, madaniy meros, sadoqat, jasorat, xalq farovonligi, ilm-fan va madaniyat ravnaqi.

**4- topshiriq.**

Tarixda o'z jasorati bilan nom qoldirgan qahramonlar haqida hikoya tuzing.

**5-topshiriq.**

"Vatanparvarlik nima?" mavzusida esse yozing.

**6-topshiriq.**

Davriy nashrlardagi maqolalar asosida fidoiyligi bilan tanilgan zamondoshlitsrimiz haqida ma'lumot tayyorlang.

**7-topshiriq.** Qo'shma gaplarni davom ettiring.

Shahrimiz kundan-kunga shunday o'zgardiki ... U shunday yaxshi ishlaydiki ... Eshik yanayam katta ochildi, ... Aziza xonaga yugurib kirdi-yu, ... Institutga kirmaguncha, ... Kosmik raketalarining muvaffaqiyatli uchirilishi shuni ko'rsatdiki, ...

**8-topshiriq.** Nuqtalar o'miga mos so'z va so'z birikmalarini qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing, so'ng ularni rus tiliga tarjima qiling. Gapda so'z tartibiga e'tibor bering.

1.1991-yil 1-sentabrda O'zbekiston hayotida... . 2. Mustaqillik... . shu palladan boshlab bu muhim sana ... . 3. ... O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi

O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligini e'lon qilish to'g'risida qaror qabul qildi. 4. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to'g'risida ... .

### **Ijtimoiy-siyosiy leksika.**

Ijtimoiy-siyosiy matnlarning leksik tarkibida ikki quyi tizim – ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiyani farqlaymiz.

Ijtimoiy-siyosiy terminologiya tushunchasi ostida jamoatchilik tafakkurida ijtimoiy-siyosiy hayotning muayyan tushunchalariga munosib so'z yoki so'z birikmalarini tushunamiz. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya emotsional betaraf va siljimasdir. Ijtimoiy-siyosiy leksika o'ziga maskuraviy vazifani bajaruvchi emotsional bo'yodkor leksik birliklarni o'zida qamrab oladi.

Tematic jihatdan ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiya nihoyatda turli. Ijtimoiy-siyosiy leksika va ijtimoiy-siyosiy terminologiya ko'p jihatdan bir-biriga to'g'ri keladi.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Vatanparvarlik insonning qanday harakatlarda namoyon bo'ladi?
2. Vatanparvarlik tuyg'usi qachon fazilatga aylanadi?
3. Bu tuyg'u qanday tarbiyalanadi?
4. Buyuk vatanparvar ajdodlarimiz haqida gapirib bering.
5. Ijtimoiy-siyosiy leksika deb nimaga aytildi?

## **7-MAVZU: MUZEYLAR – O'TMISH VA KELAJAK ORASIDAGI KO'PRIK**

### **REJA:**

- Jahonning mashhur muzeylari haqida qiziqarli ma'lumotlar tayyorlash.
- Soha muzeyi haqida matn tuzish.
- Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi.

*I-topshiriq.* Matnni o'qing va unga sarlavha tuzing.

Muzeylar... Bu madaniyat maskanlari yosh avlod uchun katta ahamiyatga ega. Chunki, muzeylarimizda bizning shonli va sharafli o'tmishimiz, tariximiz aks etgan. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I. A. Karimov : "Tarixsiz –kelajak yo'q" – deganlaridek, tariximizni bilish, uni o'r ganish bizning oliy va sharafli burchimizdir. Bunday paytlarda, bizga tarixiy muzeylarimiz katta yordam beradi. 1996-yil 18-oktabr kuni Sohibqiron tavalludining 660-yilligi munosabati bilan Amir Temur xiyoboniga tutash hududda Temuriylar tarixi davlat muzeyi barpo etildi.

Muzeyning balandligi 31, diametri 70 metr. Muzey gumbazini yoritib turgan "Zumrad" deb nomlangan muazzam qandilning og'irligi ikki tonnadan oshadi. Unga besh yuzta yoritgich jamlangan. Muzey uch qavatdan iborat. Birinchi qavatida xazinaxona, kutubxona, anjumanlar zali, ma'muriyat joylashgan. Ikkinci qavatdagi devor markazidan davlatimiz rahbari Islom Karimov g'oyasi asosida miniatyurachi rassomlar S.Qoraboyev, G.Kamolov, X.Nazirov, T.Boltaboyev tomonidan ishlangan "Buyuk Sohibqiron – buyuk bunyodkor" deb nomlangan panno joy olgan. Uchinchi qavatda Markaziy Osiyoning ilk Uyg'onish davridan to Sohibqiron davrigacha va temuriylar hayotidan hikoya qiluvchi eksponatlar, rang-barang osori atiqalar o'rinni oshadi. Dastlab muzey fondidan 600 eksponat joy olgan bo'sha, bugungi kunda ularning soni uch yarim mingdan oshadi.

Muzeyda turli mavzularda ko'rgazmalar tashkil etish yaxshi ana'anaga aylangan. "Noyob qo'lyozmalar xazinasidan", "Amir Temur – Klavixo – Samarqand", "Xorijdagi merosimiz", "Samarqand durdonalari", "Shohruhiya topilmalari" kabi ko'rgazmalar shular jumlasidandir. Muzey xodimlarining sa'y-harakati bilan "Temuriylar davri madaniy yodgorliklari", "Amir Temur va temuriylar davri: yangi tadqiqotlar" to'plamlari nashr qilindi. Ayni paytda "Temuriylar davri madaniy yodgorliklarining O'zbekistonda va xorilda o'rganilishi", "O'rta Osiyoda kitobat san'ati (temuriylar davrida yaratilgan asarlarning qo'lyozma va toshbosma nusxalari)" kabi mavzularda tadqiqotlar olib borilmoqda O'tgan davr mobaynida muzey xalqimuzning qutlug' qadamjolaridan biriga aylandi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy –ma'rifiy maskanlardan biri bo'lib, bu yerga doim o'qituvchi va o'quvchilar muzeyni tomosha qilish, uni o'rganish va o'zlariga bir olam zavq, taassurotlar olish uchun tashrif buyurishadi. Muzeyga kirar ekansiz, milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz, an'analarimiz aks etgan tarixiy buyumlarga, jihozlarga duch kelasiz.

Mamlakatimizga tashrif buyurgan oly va yuqori martabali mehmonlar, rasmiy delegatsiyalar vakillari yurtimizning boshqa diqqatga sazovor joylari qatori Temuriylar tarixi davlat muzeyini ham katta qiziqish bilan tomosha qiladi. Muzeyga tashrif buyuruvchilar orasida davlat, hukumat va parlament delegatsiyalari, xalqaro tashkilotlar vakillari, ishbilarmonlar, fan va madaniyat namoyandalari, sayyoohlarning ko'pligi tariximizga xorilda ham qiziqish tobora ortib borayotganidan dalolatdir.

**2-topshiriq.** Matnni o'qing. Yana qanday muzeylar haqida bilasiz?

### O'zbekistondagi muzeylar

O'zbekistonda muzeylarni yangi tarixi 1992-yildan boshlandi va shu yilning o'zida juda ko'plab yangi muzeylar tashkil etildi masalan buyuk o'zbek shoirlaridan biri Boborahim Mashrabning muzeyi Namanganda tashkil etildi, yana Xorazmda hofiz Hojixon Boltaboyev nomi bilan ataluvchi maqomchilar muzeyi, Urganch shahrida „Xorazm amaliy san'ati va tarixi“ muzeyi, Buxoroda „Temirchlik muzeyi“, Samarqand viloyatida xalq kuychisi (baxshisi) Islom shoir Nazar o'g'lining uy muzeyi tashkil etildi<sup>[1]</sup>. Keyinchalik 1993-yilda ham bir nechta muzeylar o'z ishlarini yo'lga qo'ydilar, ular orasida Toshkentda ochilgan O'zbekistondagi birinchi huquqshunos olima ayol Xadicha Sulaymonova muzeyi, mashhur raqqosa Mukkarramaxonim Turg'unboyeva muzeyi, mashhur cho'pon, mehnat

qahramoni Jonboy Bashmanov muzeyi Navoiyning Tomdi tumanida tashkil etildi. 1994-yilda xalq rassomi Muhiddin Rahimov muzeyi, 1996-yilda juda katta ahamiyatga ega bo'lgan O'zbekiston gidrometerologiya muzeyi, Salim Hamidovning uy muzeyi 1997-yilda tashkil etildi<sup>[2]</sup>. E'tiborga loyiq voqealardan biri 1996-yil 1-sentabrda Osiyoda yagona bo'lgan Olimpiya shon shuhrati muzeyi ochilishi bo'ldi, bu muzey O'zbekistonlik sportchilarining jahon miqyosida erishgan yutuqlari va ishtiroklari haqida ko'plab ma'lumotlar beradi. O'zbekistonda muzeylar rivojiga 1998-yil 12-yanvarda qabul qilingan „Muzeylar faoliyatini tubdan yaxshilash va takomillashtirish to'g'risidagi“ qonun juda katta ahamiyatga ega bo'ldi, shundan keyin muzeylar davlat muhofazasiga olindi va muzeylarni yanada rivojlantirish haqida dastur ishlab chiqildi va ular davlat budjeti tomonidan qo'llab quvvatlandi. 1998-yilda O'zbekmuzey tashkiloti tashkil etildi va 1999-yilda muzeylar hayotidan xabar beruvchi Moziydan sado jurnalni tashkil etildi. Bu jurnal uch tilda O'zbek, Rus va Ingiliz tilida chop etila boshlandi. 1999-yilda O'zbekistonda davlat tasarrufidagi muzeylar soni 81 taga yetdi, ulardan 15 tasi tarix muzeyi, o'lkashunoslik muzeylari soni 23 tani va 10 ta badiiy muzeylar, 20 ta memorial, 8 ta adabiyot, 4 ta tibbiyot muzeylarini tashkil etildi. O'zbekistondagi 10 ta yirik shahar tarixiy shaharlar ro'yxatga olingan hisoblanadi masalan: Buxoro, Samarqand, Xorazm, Qo'qon va boshqalar. Ayniqsa, Samarqand juda ham tarixiy obidalarga boy shahar hisoblanib har yili juda ko'p xorijiy mehmonlar tashrif buyuradi.

Hozirda O'zbekiston madaniyat vazirligi tasarrufidagi muzeylar 1 350 ming eksponatga ega.

Vikipediya, ochiq ensiklopediya

**3-topshiriq.** O'zbekiston muzeylaridan biri haqida taqdimot tayyorlang.

**4-topshiriq.** Quyidagi so'zlar qaysi sohaga oidligini aniqlang va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Tuproq, o'g'it, tarkib, eritma, qotishma, ma'dan, modda, xossa, reaktiv, ekologiya, biokimyo, mikroelement, kislota, asos, zarracha, xususiyat, qutbsiz, toshko'mir, neft, gaz, efir, sellyuloza, oqsil, kalsiy, magniy.

**5-topshiriq.** Atamalarni aniqlab, ularning qaysi sohaga oidligini ayting. Ko'p ma'noli so'zlardan farqini tushintiring.

Kelishik, kesim, element, modda, konstitutsiya, ozodlik, president, hujayra, oqsil, boks, final, ring, sinonim, dirijor, nota, duet, affiks, daraxt, kurtak, barg.

**6-topshiriq.** Gazetadan iqtisodga oid atamalar qo'llangan xabarni ko'chirib yozing.

**7-topshiriq.** Quyidagi gaplarni lug'at yordamida tarjima qiling.

Прошу дать отпуск, прошу оказать материальную помощь, прошу освободить от сельхозработ, прошу помочь в решении жилищного вопроса, прошу разрешить сдать досрочно экзамены.

**8-topshiriq.** So'roqlar o'miga qavs ichidagi so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qilib ishlating.

(nima?) berishingizni so'raymiz (заключение врача, врачебная справка, направление, паспорт, отпуск) ; (qayerga?) kiritishingizni so'rayman (список, штат, резерв); ariza (kimga?) yozilgan (директор, начальник); arizani (kim?) yozgan (слушатель, работник милиции).

**B/B/B  
JADVALI**

**B/B/B JADVALI** - Bilaman/ Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonmi beradi. Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Talabalar:

1. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.
2. "Mavzu bo'yicha nimalami bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar.
3. Topshiriqni tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.
4. Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limni to'ldiradilar.

O'ZBEKISTON MUZEYLARI		
<i>Bilaman</i>	<i>Bilishni xohlayman</i>	<i>Bilib oldim</i>
+	?	-

**Sohaviy terminlar va ularning qo'llanishi.**

**Atamalar** – ilm-fan, texnika, san'atga xos so'zlardir. Atamalar ilmiy nutqda qo'llaniladi. Masalan, teorema, sinus, tenglama, kasr, integral.

**Atamalar va kasb-hunarga xos leksika**

So'zlar atamalarga hamda kasb-hunarga xos so'zlarga bo'slinadi. Atamalar ma'lum bir fanga oid bo'lib, shu sohaga tegishli so'larni tashkil etadi. Ma'lum bir kasb-hunarga oid so'zlar ham majudki, ular asosan shu kasbning so'zlari hisoblanadi.

Masalan, tikuvchilikka oid so'zlar – igna, qaychi, ip, andoza, chok, angishvona, astar.

Ixtisoslikka oid so'zлами nutqda to'g'ri tanlash va qo'llash ham nutq madaniyatining, ham kasbiy bilimdonlikning muhim sharti hisoblanadi.

**So'z tanlashda quvidagilarga e'tibor beriladi:**

- so'zning lug'aviy manusini bilgan holda tanlash;
- tanlangan so'zni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- so'zning suhbatdoshlarga tushunarli bo'lishini hisobga olish;
- so'zning ma'no xususiyatlariga asoslanib, uni nutq maqsadiga muvofiq tarzda tanlash;
- so'zni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;
- baynalmilal atamani adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq holda tanlash;
- so'z, atamani matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

**Ixtisoslikka oid matn tuzishda quvidagilarga e'tiborni qaratish lozim:**

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinni joylashtirish;
  - so'z va atamalarni imlo me'yorlariga rioya qilgan holda yozish;
  - kasbdoshlarga unchalik tanish bo'limgan yoki faol qo'llanmaydigan atama, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
  - ixtisoslikka oid atamalarni boshqa tillarda o'zlashtirish va so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
  - kasb-hunar so'zлари va atamalarining o'rinsiz takroalanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish va boshqalar.

**«Qanday?» iyerarxik diagrammasi**

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi asosida faoliyatni tashkil etish qoidalari:

1. Vujudga kelgan muammoning sababini aniqlash zarur, ammo ana shu muammoni qanday yo'llar bilan hal etish mumkin degan savolga javob berishni o'rganish muhim vazifalardan biridir. «Qanday?» iyerarxik diagrammasi ana shunday hollarda samarali natija beradi.

«Qanday?» iyerarxik diagrammasi muammo haqida butunligicha umumiylasavvurga ega bo'lishga imkon beradigan savolarning mantiqiy zanjiri ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ketma-ket ravishda «Qanday?» savolini qo'yish orqali siz faqat muammoni hal etishning barcha imkoniyatlarini tadqiq etibgina qolmay, balki ularni amalga oshirish usullarini ham o'rganasiz.

1. Diagramma strategik darajadagi savol bilan ish boshlaydi. Muammoni hal etishning quiyi darajasi birinchi navbatdagi harakatlar ro'yxatiga mos bo'ladi.

2. O'ylamay, baholamay va ularni o'zaro solishtirmay tezlikda barcha g'oyalarni yozish lozim bo'ladi.


3. Diagramma hech qachon tugallanmaydi: unga yangi g'oyalarni kiritish mumkin bo'ladi.

4. Agarda savol sxemada bir qancha «shoxlar»da qaytarilsa, demak u nisbatan muhimdir. U muammoni hal etishning muhim qadami bo'lishi kerak.

5. Yangi g'oyalarni qanday grafik ko'rinishda qayd etishni o'zingiz tanlab oling( daraxt, kaskad va b.) Bunda muammo shajarasini ko'z oldingizda namoyon bo'ladi.

6. To'g'ri mulohaza qilish va xulosalar chiqarish orqali muammoning yechimini topish yengil kechadi.

#### «Qanday?» iyerarxik diagrammasining sxematik ko'rinishi



#### Mustahkamlash uchun savollar

1. Matn tayyorlashda nimalarga e'tibor berish lozim?
2. Ixtisoslikka oid matn deganda qanday matn tasavvuringizga keladi?

3.Sohangizni izohlovchi matn yaratishda nimalarga e'tibor berish lozim?

## 8-MAVZU: KELAJAK - BILIMLI YOSHLAR QO'LIDA

### REJA:

- "Iqtidorli yoshlar" mavzusida bog'lanishli matn tuzish.
- "Mening tengdoshlarim" mavzusida dialog tuzish.
- O'zbek tilida sinonimlar.

*I-topshiriq.* Matnni o'qing va uni gapirib bering.

### O'zbekiston yoshlari

O'zbekiston - yoshlar mamlakati. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekiston aholisining 60 foizdan ortig'ini yoshlar, ya'ni o'ttiz yoshdan oshmaganlar tashkil qiladi. Bu - boshqa mamlakatlarning ko'rsatkichlaridan ikki-ikki yarim barobar ko'p. Demak, har yili yarim milliondan oshiq yangi tug'ilgan go'daklar aholi qatoriga qo'shilmoqda.

Respublikadagi 31 million aholining deyarli 19 millioni yoshlardir. O'zbekiston davlati bu omillarni inobatga olgan holda, yoshlar haqida doimiy g'amxo'rlik qilmoqda: 1991-yil noyabrida O'zbekiston Respublikasining "Davlat yoshlari siyosatining asoslari to'g'risida"gi Qonuni qabul qilindi; undan keyin ikki oy o'taro'tmas, 1992- yil yanvarida jismoniy tarbiya va sport to'g'risida, 1992-yil iyulda maorif va o'quv-o'qituv masalalari bo'yicha qonunlar e'lon qilindi. 1996-yil aprelida Respublika Prezidentining Farmoni bilan "Kamolot" yoshlari jamg'armasi ta'sis etildi. 1997-yil yanvarida esa Respublika Prezidenti Farmoniga binoan "Umid" iste'dodli yoshlarni rag'batlantirish jamg'armasi ta'sis qilindi, so'ngra "Iste'dod" tashkiloti ishga kirishdi. O'zbekiston, mustaqil davlatlar orasida birinchi bo'lib, "Sog'lom avlod uchun" ordeni hamda dasturini e'lon qildi, serfarzand oilalarga turli yordam, ko'mak yo'llarini yaratdi va yaratmoqda. Bu borada o'zini o'zi boshqarish organlariga, mahallalarga keng yo'l ochib berilgan.

Mustaqil O'zbekistonning yoshlari siyosati quyidagi asosiy yo'nalishlardan iborat bo'lishi kerak:

1. Yoshlarni jismongan va aqlan sog'lom bo'lib o'sishini ta'minlash.
2. Ularga tadbirkorlik, ishchanlik, mustaqil fikr yuritish qobiliyatini hayotdagি birinchi qadamlaridanoq singdirish.
3. Har bir yoshni o'z Vataniga mehr va muhabbat, sadoqat va fidokorlik ruhida tarbiyalash.
4. Bu mehr-muhabbat va sadoqatning ildizi chuqur bo'lishi uchun yoshlari o'z yurti tarixini, urf-odatlari va rasm-rusumlarini, uning jahon sivilizatsiyasi maydonidagi o'mini har tomonlama bilishini ta'minlash.
5. Sport va jismoniy tarbiyani rivojlantirish, sportdan mamlakat va millatni ulug'lovchi xolis vosita sifatida foydalanish.

Yoshlarni tarbiyalashda birinchi o'ringa yangi texnika, texnologiya va fan yutuqlarini o'zlashtirish qo'yilishi lozim. Bu omillami tadbirkorlik va ishbilarmonlik

bilan uyg'unlashtirish, ularning birligiga erishish O'zbekiston oldida turgan asosiy vazifani - zamonamizning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lish vazifasini amalga oshirishni tezlashtiradi. Istibdod yillarida hukmron mafkura amri bilan biz insoniyatning ko'pchiligini tashkil qilgan va fan, texnika, texnologiya sohasida tub o'zgarishlarni qo'lga kiritayotgan bozor munosabatlariiga asoslangan mamlakatlardan uzilib qoldik, iqtisodni mafkuraga bo'yusundirdik. Uning ustiga-ust fuqarolar ongidan xususiy mulk, shaxsiy tashabbus va tadbirkorlik ko'nikmalarini hamda hissini uzilesil siqib chiqarish maqsadida izchil ish olib borildi.

Yosh avlod bilan tarbiyaviy ish shunday olib borilishi kerakki, u o'zining birinchi qadamlaridanoq o'z Vatanining, uning yer osti va yer usti boyliklarning egasi ekanligini va shu Vatanning gullab-yashnashi uning mehnatiga, tadbirkorligiga bog'liq ekanini chuqur anglab yetsin.

- a) matn yuzasidan savollar tuzing;
- b) matnnig mazmunini kengaytirib so'zlab bering;
- d) odob-axloq mavzusidagi hikmatlarni yoddan aytинг.

**2-topshiriq.** Quyidagi gaplarda so'z tartibining buzilishi bilan bog'liq uslubiy xatolarni aniqlang, ularni o'z o'rniqa qo'yib, tahrir qilib ko'chiring.

1. Astoydil fermer xo'jaligi a'zolari mehnat qilmoqdalar. 2. Biz xalq shevalarini tasvirlaymiz va o'rganamiz. 3. Texnika – chinakam dehqonning do'sti. 4. U suv ichdi va qaynatdi. 5. Muhammarr bo'lib ishlayman jurnalda. 6. Nigora Ahmedovaning yaqinda quvonchli hodisa hayotida yuz berdi.

**3-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring va tarjima qiling.

1. Yoshmisan sen keksani hurmat ayla, O'zing ham qariysan, hozirdan o'yla. (*F. Attor*). 2. Yoshlik – bu orzu. Bu ishonch. Bu jasoratga intilish. Bu lirika va romantika. Bu kelajakka tuzilgan ulkan rejadir. Bu istiqbolning boshlanishi. (*N. Hikmat*). 3. Yoshlik shu narsa bilan baxtiyorki, uning kelajagi bor. (*N. V. Gogol*). 4. O, yoshlik! Yoshlik! Ehtimol, butun latofating siri hamma narsani uddalayman, deb o'ylash imkoniyatiga ega bo'lgan ligingdadir. (*I. S. Turgenev*). 5. Beozor yoshlik yillaridan kamolotning vazmin yo'llariga otlanar ekansiz – hamma narsani, insonga xos barcha harakatlarni o'zingiz bilan birga ola keting, yo'lda qoldirmang: keyin uni o'midan siljita olmaysiz. (*N. V. Gogol*). 6. Yoshligingni asra. Dunyoda undan yaxshi palla yo'q. Undan qimmatliroq narsa yo'q. (*M. Gorkiy*). 7. Befoya o'tgan yoshlik – musibatdir. (A. Qo'nonboyev). 8. Hayot har bir kishiga ulkan va bebahohu tuhfa in'om etadi, bu kuch-quvvatga to'la yoshlik, bilim va kurashga chanqoqlik, ishonch va orzu-umidga to'la o'spirinlikdir. 9. Keksaga ko'mak ber suyangan tog'ing, Buni tushunarsan qarigan chog'ing. (*N. Hisrav*).

**4-topshiriq.** Ilm-fan, kasb-hunarga doir maqollami tarjima qiling va esda tuting.

Bilim – baxt keltirar.  
Bir yigitga yetmisik ikki hunar oz.  
Boylikning kaliti ilm.  
Ilm – aql chirog'i.

F.

Otalar so'zi – aqlning ko'zi.  
Ko'p o'qigan olim bo'lsa,  
Ko'pni ko'rghan dono bo'lur.  
Tikansiz gul bo'lmas,  
Mashaqqatsiz – hunar.  
Yuz hunarni chala bilguncha  
Bir hunarni to'la bil.  
Hunar bo'lsa qo'lingda,  
Non topilar yo'lingda.  
Dono o'ylab aytar,  
Nodon – o'ynab.  
Aql bilan odob – egizak.  
Bilagi zo'r birmi yiqar,  
Bilimi zo'r – mingni.  
Ilmsiz bir yashar,  
Ilmli ming yashar.

**5-topshiriq.** Quyidagi maqollarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Лучше поздно, чем никогда. 2. Волков бояться - в лес неходить. 3. Сперва подумай, а потом говори. 4. Курить - здоровью вредить. 5. Рыбак рыбака видит издалека. 6. Постепенно - людей насмешишь. 7. Кто вчера солгал, тому и завтра не поверят. 8. Берегись козла спереди, лошади сзади, а лихого человека со всех сторон. 9. Любишь кататься - люби и саночки возить. 10. Не трудиться - хлеба не добиться. 11. Век живи, век учись. 12. Кончил дело - гуляй смело. 13. Не откладывай на завтра то, что можно сделать сегодня. 14. Семь раз отмерь, один раз отрежь.

**6-topshiriq.** Gazeta va jurnaldan ta'lim yoki madaniyat mavzusidagi maqolani o'qing, til xususiyatiga ko'ra boshqa nutq uslubidan farqlanishini izohlang va daftaringizga yozing.

**7-topshiriq.** Bo'sh vaqtinigizni o'tkazish rejasini tuzish va uni xat orqali ota-onangiz yoki do'stingizga bildiring.

**8-topshiriq.** Do'stlaringiz tashabbusi yoki ular davrasida sodir bo'lgan biron qiziqrarli voqealari haqida hikoya yozing.

**9-topshiriq.** "Yoshlar tashabbusi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

**10-topshiriq.** Ginnesning kitobidan joy olishga loyiq voqealar haqida matn tayyorlang.

**11-topshiriq.** Matnni o'qing. Turli xalqlarning salomlashish odobi va uslubi haqida ma'lumot to'plang. To'plangan ma'lumotlaringiz asosida matn tuzing.

Odobning boshi salomdan boshlanadi. Siz erta turib, bobo-yu bivingizga albatta salom berasiz. Ota-onangizni salom bilan qarshilaysiz. Amma-yu xolangiz, tog'a-yu amakingizni ham. Kichik uka-singillaringiz o'z navbatida sizga salom berishadi. Bog chada, maktabda, ko'cha-kuyda, jamoat harakatida kattalarga u tanish-begona demay, salom berasiz. To'g'ri qиласиз, "salom - Xudoning qarzi", deydi keksalar. Salom insoniylikning ham boshi. Hatto siz yaxshi bilgan ertakda ham yalmog'iz kampirday fe'li buzuq salom bergan qizchaga, "gar saloming bo'limganda ikki yamlab, bir yutardim", deydi. "Salom" kalomi uchun uni kechiradi.

Salomlashish - qadimi odat. Dunyodagi barcha madaniy xalqlar o'zaro insoniy munosabat, muomala va muloqotni salomdan boshlashadi.

Biz, o'zbeklar, barcha islom dunyosi xalqlari singari bir-birimizni ko'rganimizda "assalomu alaykum" deya qo'l olishib ko'rishamiz. "Assalomu alaykum" iborasi arabcha "sizga tinchlik tilayman" degan ma'noni bildiradi. "Vaalaykum assalom" esa "sizga ham tinchlik tilayman" javob salomi sanaladi.

### **12-Topshiriq. Internet saytlaridan O'zbekiston yoshlari bilan bog'liq mavzularda yangiliklar to'plang.**

#### **O'zbek tilida sinonimlar.**

Sinonimlar(yunoncha synonimon-bir xil nomli so'zidan olingen) fonetik tarkibi har xil, ma'nolari bir xil yoki bir-biriga yaqin bo'lgan so'zlardir. Ma'nodoshlikning so'zlar asosida yuzaga kelgan turi leksik (lug'aviy) sinonimlar deyiladi. Masalan, *nomus* - *vijdon*, *dangasa* - *yalqov* - *ishyoqmas* – *tanbal* so'zlari leksik sinonimlardir. Bunday so'zlar, odatda, bir xil so'z turkumiga mansub bo'ladi. Ularning bir umumiyligi ma'no doirasida bog'lanishi esa, **sinonimik qator** deb yuritiladi. Masalan, *vaqt* - *payt* - *zamon* - *fursat* - *mahal* - *chog'* - *kez* - *mavrid* - *palla* - *muddat* - *dam* so'zlari o'zaro sinonimik qator hosil qilgan. Sinonim qator tuzishda asos qilib olingen so'z **dominant** (bosh so'z) deb yuritiladi. Dominanta odatda uslubiy jihatdan betaraf va umumiste'mol so'zlaridan bo'lib, sinonim so'zlar lug'atida birinchi o'rinda beriladi. Masalan, *yuz* - *bet* - *aft* - *bashara* - *turq* - *chehra* - *oraz* - *ruxsor* sinonimik qatoridagi *yuz* so'zi betaraf - dominant bo'lib, *aft*, *bashara turq* salbiy, *oraz*, *chehra*, *ruxsor* esa ijobjiy munosabat ifodalash uchun xizmat qiladi.

Sinonim qatoridagi so'zlar quyidagi xususiyatlari ko'ra o'zaro farqlanadi:

1.Sinonim qatoridagi so'zlar nutqning biror uslubiga xoslanganligi bilan ham o'zaro farqlanadi. Masalan, *doim*, *hamisha*, *nuqul*, *birday* so'zlari ko'pincha so'zlashuv uslubida, mazkur sinonim qatorga mansub bo'lgan *yakkash*, *mudom* so'zlari esa kitobiy uslubda ko'proq ishlatalishi bilan boshqa ma'nodoshlardan farqlanadi.

2.Sinonimik qatoridagi ba'zi so'zlar hozirgi tilga nisbatan eskirgan bo'lishi ham mumkin. Shuningdek, ulardan ba'zilari shevalarga xosligi bilan ham ajralib turadi. Masalan: *mard*, *jasur*, *botir*, *yovqur*, *jaysan*. Bu sinonimlardan *yovqur* so'zi eskirganligi, *jaysan* esa tarixiy – dialektalligi bilan farqlanadi.

3.Sinonimik qatoridagi so'zlar o'zaro adabiy tilga yoki shevaga xosligi bilan farqlanishi mumkin. Masalan, *qidirmoq*, *axtarmoq*, *izlamoq*, *istamoq* sinonimik qatoridagi istamoq so'zi shevaga xosdir.

Sinonimlar fikrni aniq, maqsadga muvofiq tarzda ifodalash vositalari bo'lib, xuddi mana shu omil ularni yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Sinonimlar yuzaga kelishi va ma'nolariga ko'ra quyidagi turlarni tashkil qildi:

1. **To'liq (sof) sinonimlar.** Aynan bir tushunchani anglatish va nutq jarayonida biri o'mida ikkinchisini ishlatish mumkinligi bilan ajralib turadi. Ular ko'pincha boshqa tillardan kirib kelgan o'zlashma so'zlarning o'zbekcha so'zlar bilan ma'nodoshligi asosida hosil bo'ladi: *kuch* (o'zb.) - *qudrat* (ar.), *ot* (o'zb.) - *ism* (ar.), *ko'klam* (o'zb.)-*bahor* (toj.), *tuman* (o'zb.)-*rayon* (rus). Shuningdek, *fazo-kosmos*, *muhammarrir-redaktor* kabi faqat o'zlashma so'zlardan tuzilgan sinonimlar ham to'liq sinonimlardir.

2. **Ma'noviy sinonimlar.** Bir-biridan nozik ma'nolari ya'ni ijobiy, salbiyligi yoki uslubiy va boshqa jihatdan farqlanuvchi ma'nodosh so'zlardan tashkil topadi. Masalan, *kuldi*, *jilmaydi*, *tirjaydi*, *iljaydi*, *ishshaydi* kabi ma'nodosh so'zlar kulish harakatining darajasiga hamda ijobiy va salbiy bo'yodkorligiga ko'ra *chiroyli*, *go'zal*, *xushro'y*, *ko'hli*, *ko'rkmam*, *barno*, *suluv*, *zebo*, *latif* kabi sinonimlar esa ijobiy bo'yog'ining darajasiga ko'ra farqlanadi.

3. **Shartli sinonimlar.** Muayyan matndagina ma'nodoshlikka ega bo'ladigan sinonim so'zlardir. Ular ko'pincha she'riyatda kuchli his-tuyg'u ifodalovchi vositalar sifatida qo'llaniladi: *Nega kerak shu chiroy*, *shu o't*, *Shu yoniq yulduzni ko'zga yashirmoq* (H.O.) Parchadagi *chiroy*, *o't*, *yoniq yulduz* o'zaro ma'nodosh so'zlar sifatida ishlatilgan shartli sinonimlardir. Bunday sinonimlar mumtoz adabiyotda *qadsarv*, *lab-la'l*, *yuz-oy*, *hilol* kabi tashbehtar asosida ham keng qo'llaniladi.

Sinonimlar tuzilishiga ko'ra a) sodda: *tez-chaqqon-ildam*; b) juft: *sog'-salomat*, *el-yurt*; v) birikmali: *yuzi qora-beti qora-ori yo'q* shaklida uchraydi.

Xullas, sinonimlar tilning lug'aviy boyligini, ko'rkmiligini belgilovchi vositalardan biri bo'lib, ular nutq jarayonida o'rinsiz takrordan, uslubiy g'alizliklardan saqlanishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston aholisining necha foizdan ortig'ini (30 yoshdan oshmagan) yoshlar tashkil qildi?
2. Davlatimiz tomonidan yoshlarga qanday e'tibor berilyapti?
3. O'zbekistonning yoshlar siyosati qanday yo'nalishlardan iborat bo'lishi lozim?

## 9-MAVZU: ZAMONAVIY DUNYODA TA'LIM

### REJA:

- Turli mamlakatlarning ta'lrim tizimlari haqida ma'lumot tayyorlash.
- Chet elliq talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozish.
- Til va terminologiya.

*I-topshiriq.* Matnni o'qib, undagi termin va iboralaming ma'nosini izohlang.

Istiqlol yillarda mamlakatimizda ta'lrim tizimi tubdan isloh etilib, ertangi kunimizning munosib davomchilar bo'lgan barkamol avlodni voyaga yetkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti Islom Karimov rahnamoligida qabul qilingan sohaga oid qonunlar, farmonlar, davlat dasturlariga binoan ko'plab ta'lrim muassasalari yangidan qurildi, ta'mirlandi, eng zamonaviy o'quv anjomlari bilan ta'minlandi. Bugungi kunga kelib esa prezidentimiz S.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldagagi «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi farmoniga binoan ta'lrim va ilm-fan sohasini yanada rivojlantirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi. Bunda xalq ta'limi tizimida keng islohotlami amalga oshirish orqali ta'lim-tarbiya sifatini oshirish, yangi maktab binolari barpo etish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash, ulami zamonaviy o'quv-laboratoriya uskunalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va o'quv-metodik qo'llanmalar bilan to'liq ta'minlash kabi qator masalalar amalga oshirilishi ko'zda tutilgan. Umumiy o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirishda qator fanlar, jumladan, chet tillar, matematika, fizika, informatika, kimyo, biologiya fanlarini chuqurlashtirilgan tarzda o'qitishga alohida e'tibor qaratiladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda zamon talabiga mos, yuksak intellektual salohiyatlari, yangicha dunyoqarash va mustaqil fikrli mutaxassislar tayyorlash uchun ko'pgina imkoniyatlar yaratilmoqda. Bugungi tez o'zgaruvchan iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy hayot ta'labasi yoshlar dunyoqarashini shakllantirishda yangi pedagogik interfaol metodlardan keng foydalanishni taqozo qiladi. An'anaviy mashg'ulotlar olib borish asta-sekin o'z o'mini intensiv va interfaol metodlarga, noan'anaviy dars o'tish usullariga bo'shatib bermoqda. Bugungi kunda o'qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo'llanilishi ta'lrim oluvchilarni o'quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda.

Hozirda ta'lrim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu esa pedagoglardan o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashishlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi o'quv jarayonida ta'lrim vositalari asosida pedagog faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi. Endi pedagogdan:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;

- ta'lismat natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lish talab etiladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, o'quv materiallarining talabalar tomonidan qabul qilinishi va ularning xotirasida saqlanib qolish darajasi o'qitish usullariga bog'liq ekan. O'qituvchi o'qitish jarayoniga yangi ta'lismat texnologiyalarini kiritib, noan'anaviy ta'lismat usullaridan: "Konferensiya darsi", "Seminar darsi", "Aralash darstar", "O'yinchoqlar yordamida dars o'tish", "Kasbga bog'lab dars o'tish", "Badiiy adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish", "Evrika" (O'ylab top); ta'larning qiziqarli faol usullaridan: "Kichik va katta guruhlarda ishlash", "Rolli o'yinlar", "Sahna ko'rinishi", "Krossvordlar yechish", "Zakovat savollari", "Test-sinov" topshiriqlari, "Turli tarqatma materiallardan foydalaniib dars o'tish", "Sinkveyn o'yinlari"; shuningdek, ta'larning innovatsion (yangi) usullari: "Modifikatsiyalashgan ta'lismat", "Improvizatsiya", "Aqliy hujum", "Debat", "Taqnidiy tafakkurni rivojlantiruvchi usul", "Klaster usuli", "Muammoli vaziyat", "Muayyan holat, vaziyatni o'rganish, tahlil qilish", "Har kim har kimga o'rgatadi", "Nuqtayi nazaring bo'lsin", "Multimediya" va boshqalarni qo'llashi muhimdir"!

Bu borada ta'lismat jarayonida multimedia vositalaridan foydalanishning istiqbolli yo'nalishlarini keng joriy etish yo'lga qo'yilmoqda. Ta'limga multimedia vositalaridan foydalangan o'qituvchi nazari bilimlarni zamoniviy texnika vositalari yordamida namoyish etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu yangilik va ta'bir joiz bo'lsa, ilg'or usul talabalarda qiziqish uyg'otadi, mavzularni puxta o'zlashtirishlariga xizmat qiladi, individual qobiliyatlarini rivojlantirishga, tafakkurini boyitishga, bilimlarni oshirishga yordam beradi. Multimedia resurslari yordamida talabalar u yoki bu mavzuni tezroq o'zlashtiradilar, o'quv jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, zamonaviy ta'lismi taskil etishdagi muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak kafolatli natijalarga erishish ekan, bunda multimedialar ishonchli vosita bo'la oladi, deb hisoblaymiz. Istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yaratishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir.

**2-topshiriq.** Turli mamlakatlarning ta'lismat tizimlari haqida ma'lumot tayyorlang.

**3-topshiriq.** Chet elliq talabalar hayoti aks ettirilgan badiiy asar yoki film haqidagi taassurotlarni yozing.

**4-topshiriq.** Turli ta'lismat muassasalari haqida polilog tuzing va uni instsenirovka qiling.

**5-topshiriq.** Gaplarni tarjima qiling, gaplarda odadtagi tartibga e'tibor qiling.

1) Чтобы стать горняком, он поступил в горный институт. 2) Наш староста выступает на собраниях мало. 3) Карима долго готовилась к докладу. 4) В этом году наш завод выполнил план досрочно. 5) Вчера в нашем институте было встрече с металлургами. 6) К сожалению, мы опоздали на концерт.

**6-torshiriq.** O'qing va yozilishiga e'tibor bering.

<sup>1</sup> Ibragimova M., Shermatova H. Ta'lismat jarayonida faol usullarni qo'llash. Uzluksiz ta'lismat - Toshkent. 2005, 5-son, - 16-17 b.

A'lo (отличный), ta'na (упрек), san'at (искусство), singil (младшая сестра), ashula (песня), sirk, dotsent, translatsiya, sistema, konsert, sotsiologiya, aksiya, ssenariya, aviatsiya, mototsikl, iyul, salyut, shlyapa, oktabr, noyabr.

**7-torshiriq.** Qavsda berilgan so'zlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. (Пусть каждый) o'z ishini bajarsin. 2. (Каждый из нас) o'z ishlarimizning farzandlarimiz. 3. (Никто) va (ничто) unutilmaydi. 4. Hozir (каждый из нас) har joydamiz. 5. Ular bilan (всякий) qiyinchilikni yenga olamiz.

#### Til va terminologiya.

Hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy hamda ilmiy-tehnik tub o'zgarishlar davrida yangi-yangi fanlar va tushunchalar yuzaga kelmoqda. Jumladan, o'zbek tilida ham yangi terminlar paydo bo'lmoqda, ilgaridan ishlatib kelingan qator leksemalar yangi ma'nolar kasb etmoqda. Shu boisdan leksikologiya, xususan, terminologiya oldida qator muhim masalalarini yechish vazifasi turibdi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy masalalarini yanada chuqurroq o'rganish, terminlar yaratish va ularni qo'llashni til qonuniyatlar asosida tartibga solish davlat ahamiyatiga molik muammoga aylandi. Shuning uchun ona tilimizning turli terminologik tizimlarini yanada teraroq tadqiq etish, ularni terminologiyaning xilma-xil masalalari bo'yicha atroficha tadqiq qilish, bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Respublikamiz mustaqil deb e'lon qilingandan keyin, bu sohadagi ahvol butunlay o'zgardi. Tashqi iqtisodiy aloqalar yanada rivojlanib ketdi. Dunyoning juda ko'p mamlakatlari bilan xilma-xil aloqalarga keng yo'l ochildi. Bu omillar o'zbek tilida yangi-yangi terminlarning paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. Bu yangi terminlar sirasida iqtisodiy terminologik tizim ham o'ziga xos o'rinni egallab kelmoqda. Shu boisdan fan va texnika taraqqiyotining hozirgi bosqichida iqtisodiy terminlarni ham tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

"Termin" tushunchasiga yuklangan mazmun quydagicha belgilarga asoslanadiki, bular terminlarni umumiste'moldagi so'zdan farqlash uchun yetarli deb o'laymiz:

- 1) termin – umumadabiy tilning maxsus vazifa bajaruvchi bir turi bo'l mish ishlab chiqarish, fan va texnika tiliga mansub lisoniy birlik, bir so'z yoki birikmadir;
- 2) termin – konkret narsa-predmet, ashyo, mavhum tushunchalarning maxsuslashtirilgan nomidir;
- 3) termin uchun muayyan ta'rif (definitsiya) zaruriydirki, uning yordamida tegishli tushuncha mazmunini aniqroq ifodalash, tushunchaning birini ikkinchisidan chegaralab ajratish imkonini beruvchi, ayni mahalda ma'lum tushunchani muayyan tasnifiy qatorga joylashtirishga yo'l qo'yuvchi, farqlovchi belgilarni ravshanroq ko'rsatish mumkin.

Demak, terminologiya muayyan fanning tushunchalar tizimi bilan o'zaro munosabatda bo'lgan terminlar jami sifatida ta'riflanadi. Har qanday tushunchalar tiziniga muayyan terminlar tizimi to'g'ri keladi. Terminologik tizimlar fan taraqqiyoti bilan birgalikda rivojlanib boradi. Terminlar umumiste'moldagi so'zlardan farqli ravishda joriy qilinib ularning qo'llanishi ma'lum darajada nazorat ostida bo'ladi. "Terminlar paydo bo'lib qolmaydi", aksincha, ularning zaruriyati

anglangan holda “o‘ylab topiladi”, “ijod qilinadi”. Masalan, bo‘lajak iqtisodchilarning yozma yoki og‘zaki nutqida *kartel*, *kliring*, *tovar oboroti*, *mayda mulkchilik*, *mablag’ ajratish*, *renta* kabi tor doiradagina qo‘llaniladigan terminlar ishlatalishi tabiiy bir holdir. O‘z-o‘zidan ayonki, bu xildagi terminlar iqtisodiyotdan uzoqroq biror kasb egasining nutqida ishlatilmaydi. Shu bilan birga, iqtisodiyot sohasining qator terminlari ham borki, ular muayyan til egalarining deyarli barchasi nutqida bab-baravar ishlatalaveradi: *Bozor*, *mol*, *savdo*, *savdo-sotiq*, *pul*, *haridor*, *bozorchi*, *olib-sotar*, *chaygovchi* kabilalar shular jumlasidandir.

Ta‘kidlash lozimki, nafaqat iqtisodiyot balki fan-texnika, ishlab chiqarishning xilma-xil soha va terminlar majmui, ya‘ni yig‘indisi terminologiya deb ataladi. Masalan, matematika terminologiyasi, tibbiyot terminologiyasi, iqtisodiyot terminologiyasi va boshqalar.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Prezidentimiz S.M.Mirziyoyevning 2017-yil 7-fevraldaggi qaysi farmoniga binoan kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi?
2. Farmonda xalq ta’limi tizimida nimalarga e’tibor qaratiladi?
3. Hozirda pedagoglardan o‘z mehnat faoliyatiga qanday yondashishlar talab etilmoqda?
4. Qanday noan‘anaviy ta’lim usullarini bilasiz?
5. Multimedia vositalaridan foydalaniш deganda nimani tushunasiz?

#### 10-MAVZU: KITOB MUTOLAASI

##### REJA:

- O‘qilgan kitoblar to‘g‘risida dialog tuzish va uni instsenirovka qilish.
- Erkin va turg‘un birikmalar.

**I-topshiriq.** Matnni o‘qing hamda uni gapirib bering. Kitobni tavsiya qilish usullari haqida fikr bildiring.

Insonning bilimli, tarbiyali, kasb-hunarli va albatta baxtli va davlatli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do’st bo‘lish, hamisha kitob o‘qish va kitob mutolaasini umr bo‘yi kanda qilmaslikdir. Ayniqsa, yoshlarning baxtu kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitobning alohida o‘mi bor. Chunki yaxshi kitob insonda Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ularini yuksaltirib, yaxshilik hamda ezzulikka undaydi. Buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy hazratlari yozganidek: “Kitob – beminnat ustoz, bilim va ma’naviy yuksalishga erishishning eng asosiy manbai ”.

Xalqimiz tilida kitob o‘qish orkali bilim va munosib ta’lim-tarbiya olish, ilm-fan bilan shug‘ullanish, kasb-hunar o‘rganishning ahamiyatiga doir maqollar juda ko‘p. Jumladan, “Kitobsiz aql – qanotsiz qush”, “Baxt belgisi – bilim”, “Bilim – aql chiroq‘i”, “Go‘zallik – ilmu ma’rifatda”, “Ilm baxt keltirar, bilim taxt keltirar”, “Hunar – oqar buloq, ilm – yonar chiroq”, “Oltin olma, bilim ol, bilim olsang, bilib ol”. Bunday purhikmat naqllarni yana uzoq davom ettirish mumkin.

Mustakillik yillarida matbuot, noshirlik va axborot sohasining mustahkam huquqiy asosi yaratildi. Xususan, bu borada 10dan ortiq qonun va 30dan ortiq qonunosti hujjati qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2017-yil 12- yanvarda imzolangan "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi ana shu ezgu ishlarni yangi, yanada yuksak bosqichga ko'tarishga qaratilganligi bilan g'oyatda ahamiyatlidir.

Farmoyishda qayd etilganidek, bugungi kunda yurtimizda zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi ishlab turibdi. Istiqlol davri arxitekturasining noyob inshooti – poytaxtimizdagi muhtasham "Ma'rifat markazi"da joylashgan Milliy kutubxona fondida qariyb 8 millionta kitob va boshqa manbalar, jumladan 450 mingtadan ortiq kitobning elektron versiyalari, elektron darslik va qo'llanmalar mavjud. Elektron kutubxonaning ma'lumotlar bazasi o'zbek, rus va ingлиз tillarida yaratilgan. Shuningdek, 14 ta viloyat axborot-kutubxona markazi, tuman markazlari va shaharlardagi ta'lim muassasalarida 200 ga yaqin axborot-resurs markazi tomonidan aholiga axborot-kutubxona xizmatlari ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Yurtimizda kitoblar nashri bilan bir qatorda, ularning savdosi va targ'ibotiga qaratilgan ta'sirchan amaliy qadamlar ham qo'yilmoqda. Xususan, hozirgi paytda "Kitob olami", "Sharq ziyokori" va "O'zdavkitobsavdota'minoti" majmuualari tomonidan kitob savdosi xizmati ko'rsatilmoqda. Xususan, Markaziy Osiyoda yagona bo'lgan "Kitob olami" majmuasiga qarashli zamonaviy kitob do'konlari nafaqat Toshkent shahrida, balki Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlar markazlarida ham ishlab turibdi.


Mamlakatimizda "Adabiyotga e'tibor – ma'naviyatga, kelajakka e'tibor" shiori ostida har yili respublika "Kitob bayrami" tadbirlarini o'tkazish yaxshi an'anaga aylangan. Aytish joizki, u shbu ma'naviy-ma'rifiy tadbir davlatimiz tomonidan adabiyotni rivojlantirishga qaratilayotgan e'tibor va erishilayotgan natijalarni keng jamoatchilikka etkazish, xalqimiz, jumladan, yoshlarning kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, ijodkorlar va kitobxonlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilash, kitobga bo'lgan ehtiyojini to'liq qoplashda o'z samaralarini bermoqda.

Globallashuv davrida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizga shunchalik singib ketdiki, nafaqat kundalik faoliyatimiz, balki ijtimoiy-iqtisodiy sohalar rivojini ham ularsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Axborot texnologiyalarining bu qadar jadal taraqqiy etishi kitobxonlikka ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda. Bugun jahondagi ko'pgina bosma nashrlarning adadi kamayib, ularning onlayn versiyasi ko'proq o'qilmoqda. Dunyoning eng boy kutubxonalarida saqlanayotgan bosma manbalarning aksariyati elektronlashtirib bo'lindi. Bu jarayonlar mamlakatimizdagi kutubxonlarda ham izchil kechmoqda. Internet va boshqa vositalar jadal rivojlanayotganiga qaramay, insonning ong va tafakkurini charxlash, ma'naviy olamini boyitish, ezzulikni targ'ib etishda bosma kitobning o'mi bundan keyin ham saqlanib qolaveradi. Binobarin, kitob asrlar davomida axborot saqlovchi eng samarali vosita vazifasini bajargan. Qolaversa, ming yil oldin Samarkand qog'ozida bitilgan qo'lyozmalar hozir ham insoniyatga ma'rifat nurini sochmoqda. Zero, kitob — qalb

chirog'i, tafakkur qanoti. Ayniqsa, bosma kitobdan taralayotgan va elektron nashrdan topib bo'lmaydigan o'ziga xos yoqimli hidni tuyib, varaqlash asnosida mo'jizaviy sahifalarning sirli shitirlashidan ko'ngil cheksiz zavqqa to'lgan holda, kitob mutolaa qilish, uning mazmuni haqida tengdoshlar bilan fikrashishning huzur-halovati tamoman o'zgachadir. Sohibqiron Amir Temur ta'biri bilan aytganda, «Kitob (bitig) barcha bунyodkorlik, yaratuvchilik va aql-idroknning, ilmu donishning asosidir, hayotni yaratuvchi murabbiyidir». Shu ma'noda, shaklidan qat'i nazar, barcha kitoblar milliy o'zligimiz hamda umuminsoniy qadriyatlarni targ'ib etishga xizmat qilishi ayni muddao.

**2-topshiriq.** O'qilgan kitoblar to'g'risida dialog tuzing va uni instsenirovka qiling.

**3-topshiriq.** O'qigan kitoblaringiz ro'yxatini tuzing va ularga qisqacha tavsif bering.



**4-topshiriq.** Lug'atdan foydalanib, berilgan birikmalarga sinonim so'zлами va, agar bo'lsa, antonimlarni toping.

Qo'y og'zidan cho'p olmagan, chumoliga ozor bermaydigan, ilonning yog'ini yalagan, kapalagi uchdi, boshi qotdi, yulduzni benarvon uradi.

**5-topshiriq.** Quyidagi turg'un birikmalar ishtirokida gaplar tuzing va ularning ruscha muqobilini yozing.

Bosh ko'tarmoq, yetti o'lchab bir kesmoq, izdan chiqmoq, iziga tushmoq, ipsiz bog'lamoq, yo'l bermoq, kavushini to'g'rilib qo'ymoq, og'ziga urmoq,

tepasida turmoq, katta gapirmoq, tirnoq orasidan kir qidirmoq, tomdan tarasha tushganday, aravani quruq olib qochmoq, terisiga sig'may ketmoq.

**6-topshiriq.** Berilgan maqollarni o'qib, ma'nosini tushuntirib bering.

Kitob – aql qayrog'i.

Kitob ko'rmagan kalla – giyoh unmagan dala.

Kitobsiz aql – qanotsiz qush.

**7-topshiriq.** Nuqtalar o'miga kerakli kelishik qo'shimchalarini qo'yib, matnni ko'chirib yozing.

### KITOBLAR – JON-U DILIM

Mashhur kishilar... bini "O'zimdag'i barcha yaxshi fazilatlar uchun kitob... minnatdorman", - degan edi.

Chindan ham, kitoblar inson... yaxshilik... boshlaydi. Men ham kitob... juda yaxshi ko'raman. Kichkinaligimda ertaklar... sevib o'qirdim. Ularda xalq donoligi aks etgan. "Ur to'qmoq", "Uch og'a-ini botirlar" kabi o'zbek ertaklari... ham o'qiganman.

Hozir ko'proq sarguzashtli hikoya va qissalar... sevib o'qiyman.. Men o'zbek tili... ham bemalol o'qiyman. Hozir Xudoyberdi To'xtaboyev... "Sariq dev... minib" kitobi... ikkinchi marta o'qiyapman. O'zi odatim shunaqa: kitob yoqib qolsa, qayta-qayta o'qiyveraman.

Siz-chi, siz ham kitob... sevasizmi?

### Suhbat

#### Kutubxonada

- Kechirasiz, sizda biror kitobning bor yoki yo'qligini qanday bilsa bo'ladi?
- Bu juda oson. Katalogdan qaraysiz. Agar kitob bizda bo'lsa, u albatta katalogga kiritiladi.
- O'zbek tilidagi kitoblar katalogi qayerda?
- U kiraverishda, o'ng tomonda. Marhamat, qarab ko'nng.
- Mana, topdim, bor ekan.
- Qani, ko'raylik-chi. Bu juda qiziq kitob. Hozir olib kelaman.
- Rahmat.

#### Erkin va turg'un birikmalar

Nutqda ikki yoki undan ortiq so'zlarning o'zaro ma'no va grammatik jihatdan bog'lanishidan tuzilgan birikmalar qo'llaniladi.

Bunday birikmalarning ayrimlari nutq jarayonida tuziladi, ayrimlari esa tilda tayyor birikma shaklida mavjud bo'ladi. Ular bir-biridan o'ziga xos belgilari bilan farq qiladi.


Nutq jarayonida tuzilgan birikma kamida ikkita mustaqil so'zdan tashkil topadi va murakkab tushuncha ifodalaydi. Bunday so'z birikmasi ifodalaydigan tushuncha tarkibidagi so'zlarning ma'nosi asosida yuzaga keladi: qiziqarli asar. Bunday so'z birikmasi tarkibidagi so'zlar ayrim-ayrim so'zlarga ajrala oladi: qiziqarli asar – zerikarli asar. Shuning uchun ular erkin so'z birikmasi deb yuritiladi.

Tilda ko'p vaqt bir qolipda qo'llanaverib, bo'linmaydigan holga kelib qolgan birikmalar mavjud: og'zi qulog'ida. Demak, so'z birikmalari ikki xil: a) erkin so'z birikmasi; b) turg'un so'z birikmasi. Turg'un birikmalar ikki xil: a) birikmali atamalar; b) iboralar.

Iboralar oddiy birikmadagi so'zlarga shaklan o'xshab qolishi yuumumkin. Masalan, oyog'ini tiradi-o'z ma'nosida erkin birikma, oyog'ini tiradi «ko'nmad» ma'nosida turg'un birikma. Shuningdek, qo'li ochiq «saxiy» (turg'un birikma) qo'li ochiq «panjalari yoyilgan» (erkin birikma), tarvuzi qo'lting'idan tushdi birikmasi ham turg'un va erkin birikma ma'nolarini ifoda etadi.

So'z birikmasi va turg'un bog'lanma gapda ayni shaklda qo'llanishi mumkin: *boshiga yetmoq, yaxshi ko'rmoq, qulog'iga quymoq, o'z yog'ida qovurmoq, po'stagini qoqmoq, to'nini teskari kiymoq, bo'yniga qo'ymoq, tarvuzi qo'lting'idan tushmoq, kapalagi uchib ketmoq* kabi birliklar erkin birikma bo'lganda tushuncha, turg'un bog'lanma bo'lganda bitta lug`avy ma'no anglatadi.

### Mavzu bo'yicha



### Mustahkamlash uchun savollar:

1. O'zbek tilining boyish manbalari. Misollar keltiring.
2. Rus tilidan kirib kelgan so'zlarga misollar aytинг.
3. Umumxalq so'zlar va ularga misol keltiring.
4. Atamalarga misollar keltirning.
5. Kasb hunarga oid so'zlarga misollar keltiring.
6. Qaysi kutubxonalarga a'zosiz?
8. Qanday gazeta va jurnallarga obuna bo'lgansiz?
9. Bu gazetaning ruknlarini sanab bering?
11. So'nggi siyosiy yangiliklarni aytib bering.
12. So'nggi madaniyat yangiliklarini aytib bering.
13. Siz sevgan yozuvchi kim?

## 11-MAVZU: ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O'ZBEKISTON MILLIY KUTUBXONASI

### **REJA:**

- Universitet kutubxonasi haqida matn tuzish. Elektron kutubxona bilan ishlash bo'yicha tavsiyalar yozish.
- Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari.

**1- topshiriq.** Matnni o'qing. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

### **Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi**

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi axborot va madaniy-ma'rifiy muassasa bo'lib, kutubxonachilik, bibliografik, ilmiy tadqiqot, ilmiy-metodik va axborot faoliyatini olib boradi. Kutubxona fondi mazmunan universal milliy va xorijiy matbuotning noyob to'plamidir. Kutubxona faoliyatining bosh maqsadi butun insoniyat bilimini aks ettirgan, avvalo, O'zbekistonga va uning milliy manfaatlariga taalluqli hujjatlaming universal fondini yig'ish, saqlash hamda jamiyat foydalanishi uchun taqdim etishdir.

Noyob va nodir nashrlar fondi kutubxona kitob kolleksiyanining faxridir. U 250 mingdan ortiq nashrdan iborat. Ularning 15 mingdan ortig'i nodir kitoblar hamda qo'lyoznalaridir. Kutubxonaning o'ta noyob to'plamida O'rta Osiyoning 1917-yilgacha bo'lgan tarixi, etnografiysi, madaniyati va geografiyasiga oid o'ziga xos entsiklopediya bo'lgan 594 tomlik noyob «Turkiston to'plami» hamda A.P.Kun tuzgan 4 qismdan iborat 10 tomlik 1200 noyob fotosuratlami o'z ichiga olgan Turkiston o'lkasi aholisining turmush tarzi, urf-odatlari to'g'risidagi «Turkiston albomi» alohida o'rinn egallaydi.

Respublika tarixi bo'yicha XIX asrning oxiri XX asrning birinchi choragidagi o'lakashunoslik mavzusidagi adabiyotlar, birinchi Turkiston vaqtli nashrlari, qo'lyozma kitoblar kolleksiysi, muqaddas kitob – Qur'onning turli nashrlari tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otadi. Buyuk ajdodlarimiz Al-Buxoriy, Att-termiziy, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshbandiy, Al-Xorazmiy, Al-Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur asarlari kutubxona fondida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda. Cho'lon, Fitrat, U.Nosir, Hamza, G.Gulom, A.Qahhor va boshqa ijodkorlarning hayotligida chop etilgan asarlarning ilk nashrlari xam shular jumlasidandir.

Kutubxonada qadimiy rus kitoblaridan XVI asr matbaa san'ati yodgorligi, Ivan Fedorov tomonidan 1581 yilda Ostrog shahrida bosilgan «Ostrojskaya bibliya» kitobi, 1647 yilda Moskvada cherkov-slavyan shrifti bilan bosilgan dunyoviy mazmündagi «Uchenie i xitrost ratnogo stroeniya pexotnix lyudey» birinchi rus kitobi, Petr davri kitoblari-Leontiy Magnitskiyning «Arifmetikasi (1703 yil), Buyuk Petr davri «Xmochnovskaya rukopis» va boshqalar mavjud. Rus adiblaridan A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, A.P.Chekhov, A.N.Tolstoylarning asarlari xam kutubxonaning beباho boyligidir.

G'arbiy Yevropa kitoblarining nodir kollektisyasida 1489-yilda Nyurnbergda bosingan «Devyataya Nemetskaya bibliya» inkunabuli, B.Erbeloning 1697-yilda Parijda nashr qilingan «Vostochnaya biblioteka»si mavjud. Xorijiy tillardagi adabiyotlar fondi 75dan ziyod tillardagi ijtimoiy-siyosiy, gumanitar, tabiiy-ilmiy va texnika masalalariga oid nashrlar bo'lib, bugungi kunda ularning soni 350 mingdan ortiq nusxani tashkil etadi.

Kutubxonaning San'at bo'limi o'ziga xos notali-musiqaviy asarlar to'plamini, o'zbek klassik va jahon musiqasi gramplastinka yozuvlarini, 150 mingdan ortiq tasviriylar va amalii san'at nashrlarini uzida jamlagan.

Texnikaga doir adabiyotlar (2 mln.dan ortiq nusxada) ham mazmuniga ko'ra o'ziga xos bo'lib, me'moriy-texnik hujjatlar, sanoat kataloglari (qog'ozda) to'plami 33700 nusxdan ortiqdir.

Avtomatlashtirish yangi axborot texnologiyalari bo'limi yagona avtomatlashgan kutubxona tizimini qo'llaydi va rivojlanadir, elektron katalog hamda elektron ma'lumotlar bazasini yaratishda metodik yordam beradi. 1988 yildan kutubxonachilik jarayonini avtomatlashtirishga, 1999 yildan Rossiya Davlat Ilmiy texnika kutubxonasining IRBIS avtomatlashtirilgan axborot dasturidan foydalangan holda vatanimiz va chet el yangi nashrlarining elektron katalogini yaratishga kirishildi. Kutubxonaning elektron katalogi bugungi kunda 25 mingdan ortiq yangi adabiyotlarning bibliografik yozuvlari va davniy nashrlarning analitik yozuvlarini saqlaydi. Kutubxona o'z ma'lumotlar bazasini yaratmoqda va "Curret Content", "MicroMedex", "Medine", EBSCO va ma'lumot bazalari bilan ishlash imkoniyatidan unumli foydalanmoqda.

Kutubxona o'z nashriyot va bosmaxonasiga ega bo'lib, noshirlik hamda matbaa faoliyati bilan shug'ullanadi. Kutubxona 1923 yildan boshlab bosma asarlardan majburiy nusxa ola boshlagan. 1948 yilda kutubxonaga Alisher Navoiy nomi berilgan. Kutubxona 1956 yildan buyon xalqaro kitob almashuvini amalga oshirib, uning sheriklari jahoning 24 mamlakatidan 30 dan ortiq tashkilotlardir. Kutubxona yirik xalqaro kutubxonachilik tashkilotlari: IFLA, Yevroosiyo kutubxonalar Assotsiatsiyasi, elektron kutubxonalar va yangi axborot texnologiyalarini ishlab chiqaruvchilar hamda foydalanuvchilar xalqaro Assotsiatsiyasining a'zosi.

Kutubxona ko'plab xalqaro tashkilotlar va jamg'armalar bilan, shuningdek, O'zbekistonda akkreditatsiya qilingan chet mamlakatlarning elchixonalarini bilan mustahkam ijodiy aloqalar o'rnatgan bo'lib, madaniyati, diniy qarashlari va tarixiy ildizlari turlicha bo'lgan xalqlarning yaqinlashishiga o'zining hissasini qo'shamoqda. Hozirgi kunda kutubxona fondi jahoning 75 tillarida deyarli 10 mln. nusxaga etgan.

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi respublikamizdagি barcha kutubxonalarga kutubxonashunoslik, bibliografiyashunoslik va kitobshunoslik sohalari bo'yicha metodik rahbarlik qiladi.



*2- topshiriq.* Matnni o'qing va reja tuzing.

#### *Alisher Navoiy nomli kutubxona*

Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Davlat kutubxonasi O'rta Osiyodagi eng yirik va boy kutubxonalardan biridir. U 1870-yilda ochilgan. O'sha vaqtida uning fondida 2000 ta kitob va jurnallar bor bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda kutubxona fondida 70 tildagi 4,5 million tom kitoblar mavjud. Kutubxonaga har yili 250 mingdan ortiq nashrlar kelib tushadi. Bu yerda beباho madaniy boyliklar saqlanadi, xususan, kutubxonada XV-XVII asrlarda nashr qilingan tarix, jug'rofiya, harbiy ishlarga oid nodir kitoblar, O'rta Osiyo va O'zbekiston haqidagi adabiy asarlar to'plangan. Qadimgi va nodir kitoblar bo'limida Fyodorovning "Apostol", Petr I buyrug'iiga asosan tuzilgan I.F. Magnitskiyning "Arifmetika"(1703-y.), M.V. Lomonosovning "Rossiya grammatikasi" asarlari saqlanadi.

Kutubxonaning kitoblar fondidan har yili 20 mingdan ortiq kitobxonlar foydalananadilar.

Kutubxona roppa-rosa soat 10da ochiladi. Dastlabki kitobxonlar o'z o'quv chiptalarini ko'rsatgan holda navbatchidan nazorat qog'ozlarini olib umumiy zalga yo'l oladilar. Bir vaqtning o'zida ilmiy, o'smirlar, periodik, xorijiy adabiyotlar zallari, qo'lyozmalar, nodir kitoblar bo'limlari hamda mikrofilmlar zali ish boshlaydi.

Kutubxonaga har kuni yuzlab kitoblar, jurnallar, broshura, gazeta va jadvallar keltiriladi.

Kataloglar bo'limida 70 tilda yozilgan kitoblarning nomi yozilgan kartochkalar yig'ilgandir. Ularda kitoblarning muallifi, nomi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili hamda betlar miqdori ko'rsatilgan. Ba'zi o'rinnlarda kartochkada\_kitobning qisqacha mazmuni, ya'ni annotatiya ham berilgan. Katalogda kartochkalar turli sohalar: falsafa, iqtisod, matematika, fizika, kimyo, texnika, badiiy adabiyot bo'yicha ajratilgan holdadir. Biror kitob bo'yicha buyurtma berish uchun katalogdan shu kitobning shiffrini topish kifoya qiladi. Kutubxona o'z ishini kechqurungi soat 10 da tamom qiladi. Kitobxonlar o'z kitoblarini topshirib, uylariga ketadilar. Sizchi, aziz talaba, ushbu kutubxonaga a'zo bo'ldingizmi? Bo'limasa, bugunoq a'zo bo'lishga shoshiling!

**3-topshiriq.** Nuqtalar o'miga tegishli qo'shimchalarni qo'yib, gaplami ko'chiring.  
1. Men bu badiiy kitoblar... do'stim... oldim. 2. Dugonam... hovlisi oldi...  
vositachilik, xo'jalik mollari va oziq-ovqat do'konlari bor. 3. Biz dushanba kuni  
avtobus... Toshkent... jo'naymiz. 4. U o'rtog'i bilan kutubxona... chiqdi. 5. Siz  
hovlingiz... qanday mevali va manzarali daraxtlar ekkansiz? 6. Biz dars... so'ng  
stadion... futbol ko'rgani boramiz. 7. Siz bu matn... lug'at yordami... tarjima  
qildingizmi? 8. Siz qanday asarlar... yoqtirasiz?

**4-topshiriq.** Badiiy asarlarga bag'ishlangan internet saytlarining ro'yxatini tuzing.

**5-topshiriq.** Iboralarning ruscha muqobilini toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Sanamay sakkiz deydigan, chumchuq pir etsa, yuragi shir etadigan, yulduzni  
benarvon uradigan, yerga ursa ko'kka sakramoq.

#### Frazeologizmlar – nutqimiz ko'rki

tanilmoq	-	ko'zga ko'rinmoq
to'satdan	-	tomdan tarasha tushganday
top-toza	-	yog' tushsa yalaguday
tinchidi	-	ko'ngli joyiga tushdi
chaqqon	-	oyoq-qo'li yengil
astoydil	-	yeng shimarib

**6-topshiriq.** Quyida keltirilgan mavzularda dialoglar tuzing. Dialoglarda  
frazeologizmlardan foydalaning.

a) bozorda savdolashish; b) taksi haydovchisi bilan "kelishish" va yo'ldagi  
suhbat; d) go'zallik salonidagi kelishmovchilik; e) kimyoviy tozalash shaxobchasida;  
f) to'y liboslari salonida, g) tukuvchi huzurida; h) dorixonada; i) talabalar  
oshxonasida.

**7-topshiriq.** Quyidagi birliklar turg'un birikma va erkin birikma doirasida  
shakldoshlik hosil qila oladi. Ulami misollar bilan izohlang.

1) bo'yniga ilmoq; 2) tarvizi qo'lting'idan tushmoq; 3) to'nini teskari kiymoq; 4)  
qo'li ochiq; 5) tosh otmoq; 6) ko'zi ochilmoq; 7) ustidan chiqmoq; 8) qo'li kaltalik  
qilmoq; 9) boshiga ko'tarmoq; 10) ko'z yummoq; 11) qo'li uzun; 12) bel bog'lamoq.

## Frazeologik birliklarning turlari va uslubiy xususiyatlari

Frazeologizmlarning eng asosiy belgilari:

1. Frazemaning tarkibida ikki yoki undan ortiq leksema qatnashgan bo'ladi.
2. Frazema yaxlit bir lug'aviy ma'noni ifodalaydi.
3. Frazemaning tarkibidagi so'zlar o'z leksik ma'nolarini yo'qotgan bo'ladi.
4. Frazema gapning tarkibida yaxlitligicha bir sintaktik vazifada keladi.
5. Frazemani boshqa tilga so'zma-so'z tarjima qilib bo'lmaydi, u yaxlitligicha tarjima qilinadi.

Frazemalar ikki turga bo'linadi: frazeologik butunlik va frazeologik chatishma.

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning ma'nolari asosida izohlanib, umumlashgan ko'chma ma'no ifodalaydigan frazemalarga frazeologik butunliklar deyiladi: *belni mahkam bog'lamoq, qo'l ko'tarmoq (bolaga), yog' tushsa yalagudek*.

Ma'nosi tarkibidagi so'zlarning leksik ma'nolari bilan bog'lanmaydigan, ular asosida izohlanmaydigan frazemalarga frazeologik chatishmalar deyiladi: *xamir uchidan patir, ko'z tagiga olib qo'ymoq, yo'lga ko'z tiknoq, oyog'ini qo'lga olib yugurmoq*.

### Aqliy hujum uchun savollar

Qaysi kutubxonalarga a'zosiz?

Qaysi asarlarni o'qigansiz?

Siz sevgan yozuvchi/shoir kim?

Qaysi mavzudagi kitoblarni o'qishni yoqtirasiz? Kitobning inson hayotidagi ahamiyati nimada? Sevimli qahramoningiz kim? Nima uchun? Uning qaysi fazilatlari sizga yoqadi?

Eng oxirgi o'qigan kitobingiz qaysi?

### "SINKVEYN" texnologiyasi haqida tushuncha

"SINKVEYN" – bu besh satrdan iborat bo'lib, unda berilgan tushuncha birinchi satrdan to to'rtinchi satrgacha kengayib boradi. Birinchi qatorda mavzu (kalit so'z) beriladi, ikkinchi qatorda unga bir yoki ikkita aniqlovchi tanlanadi. Uchinchi qatorda uni harakat-holat (fe'l) bilan to'ldiriladi. To'rtinchi qatorda so'z har xil usul bilan yoyiq gapga aylantiriladi. Beshinchi qatorda kalit so'zning ma'nodoshi (sinonimi) keltiriladi.

So‘z	1 daraja	2 daraja	3 daraja	4 daraja	5 daraja

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Frazeologiya qanday bo’lim?
2. Iboraga to’liq tavsif bering.
3. Frazeologizmlar qanday xususiyatlarga ega?
4. Frazeologizmlarning shakl va ma’no munosabatiga ko‘ra qanday turlari bor?

#### **12-MAVZU: ADABIYOT – MA’NAVİYATNI YUKSALTIRUVCHI MANBA**

##### **REJA:**

- Adabiyot haqidagi hikmatli so‘zlardan namunalar yozish.
- Nutq uslublari. Badiiy uslub va uning xususiyatlari.

**1- topshiriq.** Matnni o‘qing. Matndagi termin va iboralarning ma’nosini izohlang.

##### **Adabiyot — ma’naviyatni yuksaltiruvchi manba**

Asrlar mobaynida badiiy ijod, badiiy adabiyot – milliy ma’naviyatimiz ko‘zgusi bo‘lib kelgan. Buni o‘zbek she’riyatining gultoji deya e’tirof etilgan Mir Alisher Navoiy davridan to bugungacha o’tkir qalam sohiblari yaratishgan badiiy ijod mahsullariga payvand milliy qadriyatlarimiz, ma’naviyatimiz rivoji misolida kuzatishimiz mumkin.

Sobiq mustabid tuzum davrida milliy qadriyatlarimizga, ma’naviyatimizga, jumladan, milliy adabiyotimizga ham beshafqat tajovuz qilingan edi. Adabiyotimizning XX asr boshlaridagi asl darg’alaridan Abdulla Qodiriy, Cho’lon, Usmon Nosir kabi o’nlab yozuvchi shoirlari qatag’on qurbanib bo’lgani millat qalbidagi bitmas jarohatdir.

Ona Vatanimiz mustaqilligi butun jamiyatga qaytadan hayot baxsh etdi! Nomlari, asarlari taqiqlab qo‘yilgan yozuvchi va shoirlarimizning xotirasi e’zozlanib, ularning adabiy merosi qaytadan tiklandi. Katta hayot tajribasiga ega bo‘lgan yozuvchilarimiz o’tish davrining qiyinchiliklariga qaramasdan, qalb amri bilan o‘z ijodiga sodiq qolib,

milliy o'zligimiz hamda ma'naviy qadriyatlarimizni tiklash va yuksaltirish yo'lida faol xizmat qilib kelmoqda.

Chinakam yozuvchi odamlarning dardu g'ami bilan yashashi, xalq ichiga kirib borishi, o'zi uchun ilhomni, yangi mazvularni shu hayotdan, unda bo'layotgan o'zgarishlardan olishi kerakligi kunday ravshan. Biroq, bugungi shiddat bilan o'zgarayotgan zamonning o'zi o'rtaqa ulkan va dolzarb muammolarni qo'yayotganini ham aslo unutish mumkin emas. Bunday muammolarni ta'lim va tarbiya, ma'naviyat, madaniy hayotni rivojlanтиrish orqaligina hal etish mumkinligini chuqrur anglaymiz. XXI asming qanchalik shiddati ekanini ko'rib turibmiz. Bugun har qanday axborot, yangilik zumda kurrai zaminga nur kabi taralmoqda. Adabiyot bo'stonida yaratilgan badiiy asarlar ham internet nashrlari orqali juda tezlik bilan o'quvchilarga etib bormoqda. Shu asnoda intellektual salohiyat, tafakkur va ma'naviyat asri o'zining shaklu shamoyilini topmoqda. Shunga monand adabiyot ixlosmandlarining ongu tafakkuri ham o'zgacha shakllanmoqda. Biz ilgari ko'rmagan, duch kelmagan ayrim muammolar ham shu asnoda paydo bo'layotir. Bu — milliy mentalitetimizga to'g'ri kelmaydigan yot g'oyalari bilan bog'liq muammolar hisoblanadi.

Aytish o'rinniki, masifikuraviy tahididlar badiiy adabiyotlar orqali ham kirib kelayotganidan aslo ko'z yumib bo'lmaydi. Ana shunday murakkab va tahlikali zamonda yozuvchilar ertangi kunimizni o'ylab, odamlarni ezgulikka, insof-diyonat, mehr-oqibatli bo'lishga da'vat etadigan asarlar yaratishi g'oyat muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Bugunning yoshlari o'zlarini qiziqtirgan axborot va ma'lumotlami asosan internet orqali olyapti. Shunday ekan, ana shu ta'sirchan zamonaviy axborot vositalari yordamida ham adabiyotimizni keng targ'ib etish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda aytish mumkinki, bugungi kunda milliy internet tarmoqlarimizda qator veb-saytlari bu borada salmoqli vazifalarini amalga oshirmoqda. Demak, bundan buyon o'zbek tilidagi internet adabiyotini shakllantirish, shoir va yozuvchilarimizning o'z veb-saytlariga ega bo'lismiga erishish nafaqat adabiy jarayonga, kerak bo'lsa, butun ma'naviy-ma'rifiy hayotimizga kuchli ta'sir o'tkazishi shubhasizdir. Yoshlarining ongida manaviy bo'shilq hosil bo'lmasligini ta'minlash ham bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Dunyoning turli mintaqalarida ziddiyatlar va beqarorlik kuchaygan, ixtiloflar davom etayotgan bir sharoitda biz yoshlarimizni — o'z farzandlarimizni turli zararli tasirlardan himoya qilishimiz zarurligini yoddan chiqarmasligimiz kerakligini takidlaydi. Ijod ahli esa o'z iste'doddari bilan odamlarning ongi va dunyoqarashi, madaniy saviyasini yuksaltirishga qodirdir. Yozuvchilar doimo hayot bilan hamnafas bo'lishi, o'z xalqining dardi bilan yashashi, haqiqat va adolatga sadoqat bilan xizmat qilishi zatur. Zero, milliy adabiyot — ma'naviyat poydevori hisoblanadi. Shunday ekan, chinakam ijod va iste'dod mahsuli bo'lgan asarlarni keng kitobxonlar ommasiga etkazish davr talabidir. Bu ezgu yo'lida ijodkorlar, nashriyotlar, bosma nashrlar tahririylari qo'lni qo'lga berib, barcha mavjud vositalardan unumli foydalanshlari maqsadga muvofiq.

**2- topshiriq.** Mashhur adabiy qahramonlar haqida taqdimot tayyorlang.

**3-torshiriq.** O'zbek tiliga tarjima qiling. Qaysi uslubga xosligini aniqlang.

Показал себя с лучшей стороны, требователен к себе и окружающим, является председателем ученического совета, активно участвует в общественной жизни коллектива, пользуется заслуженным авторитетом, страстный, интересуется химией.

**4-torshiriq.** O'zbek tiliga tarjima qiling.

Принял для обмена, принял драгоценностей на сумму..., получил от ... 10 (десять) упаковок, принял на хранение

**5-torshiriq.** Gaplarni o'qing. Qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang.

Tollaming ko'm-ko'k soch popuklari qizlarning mayda o'nligan kokillariday selkillab tusha boshladı. Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning namli yuzlari kuldı.

Atomlar kimyoiy bo'linmaydigan zarralardir. Bir xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalar oddiy moddalar deyiladi. Ularga vodorod va kisloroddan tashqari grafit, oltingugurt hamda barcha turdag'i metallar: temir, mis, magniy va boshqalar kiradi. Har xil turdag'i atomlardan tashkil topgan moddalar murakkab moddalar deyiladi. Suv, karbonat angidrid, mis (II) oksidi shular jumlasidandir.

**6-topshiriq.** Berilgan gaplardagi nuqtalar o'rniغا fikrga mos tarzda kiritmalar, ilova birikmalar qo'shing, gap bo'laklarini uyushiq yoki ajratilgan bo'laklar hisobiga kengaytiring.

1 ..., men «muboraknomasi»ni o'qitib ko'rgan ekanman. (S.Ahmad). 2. Onajonim, ... men ham bir kun shavqqa to'larman. (A.Oripov). 3. Bir ko'rdim men uni - shunchalar go'zal, oydan-da go'zaldir, ... go'zal!» (Cho'lpon). 4. Har birimiz o'z maktabimiz, ... esladik. 5. Nahotki, u erta-indin uzoq ayrılıq boshlanishini ... ..., yuragi ezilmaydi. (O). 6. Boyagi yigitning, ... qo'li gul ekan. 7. Biz Toshkentdan janubga - ... tomonga qarab yura boshladik.

**7-topshiriq.** Matning tushirib qoldirilgan o'rinlarini o'z so'zlarigiz bilan to'ldiring. O'z fikringizni, matning asosiy mazmuniga bog'lovchi vositalami ajratib ko'rsating.


Hayot go'zal, yashash maroqli. Biroq inson uchun ... Shu bois bo'lsa kerak, inson borki, hamma vaqt imkon qadar bu dunyoning go'zalliklaridan ko'proq bahra olishga, u ... intilib yashaydi. Bu istak esa ba'zida odamzodga baxt keltirsa, ... Insoniyatning eng zaif tomoni ham shunda, menimcha. ... u amal qilayotgan ko'plab zararli odatlarning oxir-oqibatini bilsa-da, ... Bugun yoshlар orasida ommalashib borayotgan chekish odati ham ayni yuqorida fikrimizga dalil. E'tibor bergen bo'lsangiz, yoshlарimiz ruju qo'yayotgan sigareta tutunlari ... singari tobora farzandlarimizning katta qatlamini o'z iskanjasiga olmoqda. YUrtimizda ... e'tibor berilayotgan bir paytda kelajagimiz vorislari bo'lgan o'g'il-qizlarimizning bu qadar o'zlarini zaharlashlariga nima sabab bo'lmoqda? Aytish joizki, farzandlarimizning

har qanday illatga ruju qo'yishlarida, avvalo . . . bosh omil bo'lib xizmat qiladi. Shu o'rinda bir misol keltirib o'tsam

### Badiiy uslub

Badiiy adabiyot o'zining alohida uslubiga ega. So'zni badiiy asar g'oyasiga, mazmuni va yo'nalishiga moslab ishlatish badiiy uslubni keltirib chiqaradi. Badiiy asarlar tili badiiy uslubda bo'ladi. Ma'lum bir voqelikni badiiy tasvir vositalari orqali obrazli ifodalovchi va shu yo'l bilan tinglovchiga estetik ta'sir etuvchi nutq uslubi – badiiy uslub sanaladi. Obrazlilik va estetik ta'sir etish badiiy uslubning muhim belgisidir. Unda tilning badiiy vositalari bilan birga frazeologik birikmalar ham qo'llanadiki, bu holat ilmiy uslubga daxldor emas. Masalan: *Martning oxirgi kunlari. Ko'k yuziga suzib yurgan bulut parchalari ostobni bir zumda yuz ko'yga solyapti. Ostob har safar bulut ostiga kirib chiqqanda, bahor kelganidan bexabar, hanuz g'aflatda yotgan o't-o lanni, qurt-qumursqani uyg'otib avvalgidan ham yorug'roq, avvalgidan ham issiqroq shu'la sochayotgandek tuyiladi.*

Badiiy ijodda lirika, nasr va drama kabi adabiy turlar mavjud bo'lib, ular ham uslubiy jihatdan o'ziga xoslikka ega. Badiiy uslubda o'xshatish, sifatlash, metafora, mubolag'a va boshqa qator tasvir vositalari, obrazli so'zlar ishlatiladi. Masalan: *Paxta yoppasiga ochilib, uni paxta terish mashinalari terishga boshladi.* Bu jumla ommabop (publisistik) uslubda berilgan. *Oppoq choyshab elpinganday jilvalanib turgan paxtazorda zangori kemalar javlon ura boshladi,* jumlesi esa badiiy uslubga xosdir. Badiiy uslubga yuz-oraz, bino-koshona, vatan-diyor kabi so'zlar bilan almashtiriladi va matnga obrazli ruh beriladi. Badiiy uslubda yozuvchi tilda mavjud bo'lgan barcha vositalardan foydalanishi mumkin. Tasvirlanayotgan davr ruhini aks ettirish uchun eskirgan va yangi paydo bo'lgan so'zlarni, qahramonlar fe'l-atvorimi ko'rsatish maqsadida noabadiy til qatlamlariga xos so'zlarni qo'llashi mumkin. Shuningdek, badiiy uslubda tilning ichki lekisk resurslari – dialiektizm, professionalizm, jargon, arxaizm va boshqalardan ham keng foydalaniladi.



## CHO'LPON ( 1897 – 1938 )

*Adabiyot yashasa, millat yashar.*

*( Cho'lpon )*

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon avval eski maktabda, so'ngra Andijon va Toshkent madrasalarida tahsil ko'rdi. Zamonning talabini ilg'agan uning otasi – Sulaymonqul o'g'lini rus-tuzem maktabida ham o'qitdi. Bo'lajak shoir muntazam shug'ullangani va tabiiy iste'dodi tufayli turk, fors, arab, rus tillarini puxta o'rgandi va bu tillardagi adabiyotlarni doimo mutolaa qilib bordi. Shu bois unda adabiyotga havas erta uyg'ondi va yoshligidan she'rlar ijod qila boshladi. Cho'lponning dastlabki asarlaridayoq rus bosqinchilar zulmi ostida ezilayotgan Turkiston xalqiga bo'lgan cheksiz muhabbat yorqin ko'zga tashlanadi. U xalqini ozod va baxtli ko'rishni juda-juda istardi. Buning uchun odamlarni ma'rifatdan, ilmu fandan bahramand qilish kerak, deb hisoblardi.

Cho'lpon 1917-yilning fevralida Rossiyada sodir bo'lgan inqilobga katta umid bilan qaradi. Lekin bu inqilob Turkiston o'lkasiga chin ozodlik bermadi. O'sha yilning oktabrida ro'y bergan to'ntarish esa shoirming so'nggi umidlarini ham yo'qqa chiqardi. U o'z she'rlarida xalqning zabun holini aks ettirib, xalqni bunday holatdan qutqarish yo'llarini izlaydi. Jumladan, u o'zining "Ko'ngil" she'rida inson tirik ekan, zulmga bo'yin egmasligi, shu zulmning moddiy timsoli – kishanni kiymasligi lozim, deb biladi:

Tiriksen, o'lmagansen,  
Sen-da odam, sen-da insonen.  
Kishan kiyma,  
Bo'yin egma,  
Ki sen ham hur tug'ulg'onson !

Cho'lpon mislsiz she'riy kashfiyotlardan tashqari, «Kecha va kunduz» nomli birinchi o'zbek roman-dilogiyasining muallifidir. Afsuski, romanning ikkinchi kitobi Cho'lpon qamalgan paytda yo'q qilingan va hozirgacha topilgan emas. Birinchi kitob – «Kecha» mustaqillik sharofati ila qayta nashr qilindi.

Cho'lponning 1926 yillarda yaratgan "Yorqinoy" dramasi badiiy jozibasi va mavzu nuqtai nazaridan hozirgacha o'z ta'sir kuchini yo'qotmay kelmoqda. Abdulhamid Cho'lpon o'zbek o'quvchilarini jahon adabiyotining durdonalari bilan tanishtirish borasida ham salmoqli ishlarni amalga oshirdi. Shekspiring "Hamlet", Pushkinning "Boris Godunov" va "Dubrovskiy", Gogolning "Tergovchi", Gorkiyning "Ona" kabi asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilib, zamonaviy o'zbek tarjima maktabiga asos soldi.

Cho'lpon haqiqat va hurlikni e'tiqodiga aylantirgan ijodkor edi. Shu sababli ham milliy zulmni milliy tenglik deb e'lon qilgan hukmron millatlarga uning ijodi yoqmas edi. Ular shoirdan xalq baxtiyor, erkin va ozod yashamoqda deb kuylashni talab etishdi. Haqiqat kuychisi va erk farzandi – Cho'lpon bunday qila olmadidi.

Shu sababdan shoir 1937- yilning 13-iyulida qamoqqa olindi, uzoq qiyonoqlar va tahqirlardan so'ng, 1938- yilning 4- oktabrida Toshkent yaqinida otib tashlandi.

## Mustahkamlash uchun savollar

1. Badiiy asar tilini qaysi fan tekshiradi?
2. Ayni kuz vaqt. Mayin shabada esadi. Yaproqlar oltin rangda. Dala va bog'larda ish qizg'in. Dehqon bog'da anor ko'myapti. U kuchli qadoq qo'llari bilan anorning tikanli tanasini, hurpaygan novdalarini bog'layapti. Anor tupini poxolga o'rav, tuproq bilan ko'myapti.  
Yuqoridagi badiiy tasvirdan asosiy fikr ifodalangan gapni toping.
3. Asosan badiiy uslubga xos bo'lgan izn (izn bermoq) so'zining sinonimini toping.
4. Quyidagi matn qaysi uslubga tegishli?  
Jo'yaklarda suv bir hovuch ko'z yoshiday miltirab oqib turibdi. Quyosh qaymoq surtilgan shirmon nondek ufqqa qizarib bota boshladi

## 13-MAVZU: OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI

### REJA:

- Ommaviy axborot vositalarining faoliyati haqida fikr bildirish.
- "XXI asrda axborotning o'mni" mavzusida esse yozish.
- Publitsistik uslub va uning xususiyatlari

**I-topshiriq.** Matndagi termin va iboralaming ma'nosini izohlang va bahsmunozarada ishtirok eting.



Mamlaakkatimizda istiqlolning ilk yillardan demokratik huquqiy davlat qurish va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, axborot va so'z erkinligini ta'minlash, ushbu sohani liberallashtirish O'zbekistonda demokratik, huquqiy davlat va kuchli fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim ustuvor yo'nalishi sifatida belgilandi. 1991 yili

O'zbekistonda 395 ta OAV faoliyat yuritgan bo'lsa, bugun ularning soni 1437 taga etdi. Ayni vaqtida, mavjud nodavlat bosma OAV jami bosma OAVning 62,7 foizini tashkil etmoqda. 1990 yilda 9 nashriyot bor edi, bugun ularning umumiy soni 112 ta. Yaratilayotgan imkoniyatlar tufayli matbaa korxonalarining soni ham yil sayin ortib bormoqda: 1990-2016 yillardagi bosmaxonalar soni 149 tadan 1719 taga etdi.

Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari uchun turli imtiyozlar belgilashga qaratilgan qonunchilik tobora takomillashtirilmoqda. Xususan, 2011- yil 30-dekabrda qabul qilingan "Ommaviy axborot vositalarini yanada rivojlantirish uchun qo'shimcha soliq imtiyozlari va afzalliklari berish to'g'risida"gi qaror buning yorqin isbotidir. Mazkur qaror axborot sohasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha OAV imkoniyatini kengaytirib, iqtisodiy asoslarini mustahkamlamoqda. Zero, iqtisodiy erkin, baquvvat va mustaqil ommaviy axborot vositalari jamoatchilikka tahliliy, tezkor va xolis ma'lumot etkazib berish imkoniga ega.

YuNISEF bilan hamkorlikda ona va bola salomatligini muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy ahamiyatga molik dasturlar ommaviy axborot vositalarida har tomonlama va sifatlari yoritib borilmokda. «Sog'lom bola yili» va Bola huquqlari to'g'risidagi konventsianing 25 yilligi munosabati bilan bola huquqlari muhofazasiga bog'liq masalalarni yorishsha ommaviy axborot vositalari salohiyatini kuchaytirish loyihasi amalga oshirildi. Mazkur loyiha doirasida o'tgan yilda 1400 dan ortiq hududiy jurnalistlar ishtirokida 70 seminar-trening va davra suhbatlari tashkil etildi. Umuman, xorijiy ekspertlar ishtirokida 30 dan ziyod seminar-treninglar, davra suhbatlari va anjumanlar tashkil etilib, ularda besh yuzdan ortiq axborot xizmatlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

2015 yilda "O'zbekistonda Internet jurnalistikasini rivojlantirishning dolzarb masalalari" mavzusida respublika konferentsiyasi o'tkazilgani ayni muddao bo'ldi. Buning natijasida fond yuqori malakali jurnalist, tahvilchi va sharhlovchilar tayyorlash, nufuzli xalqaro media kompaniyalar, xorijiy hamkasblar bilan samarali ijodiy aloqalar o'rnatishtirilishi, yosh mutaxassislarining kasb mahorati va tajribasini oshirish borasida izchil ishlarni amalga oshirdi.


Ko'z o'ngimizda yangi axborot jamiyatni shakllanmoqda. Axborot strategik va iqtisodiy resursga aylanmoqda. Axborot jamiyatining taraqqiyoti davlatlarning barqaror iqtisodiy rivojini ta'minlash, fuqarolarning turmush darajasini oshirish, mamlakatlar va mintaqaviy birlashmalar taraqqiyotining muhim va ustuvor sharti sifatida belgilanmoqda. Bugun media-makonda axborot jurnalistik faoliyatning yangi turi – onlayn jurnalistikasining rivojlanib borayotganini inkor etib bo'lmaydi. Uning kelajakdagagi istiqboli mamlakatdagagi demokratik islohotlar, bozor munosabatlari va ta'lim sohasidagi islohotlarga bevosita bog'liq. Internet jurnalistikasi bugun o'zining ilk taraqqiyot bosqichlarini boshidan o'tkazmoqda. Bu jurnalistlarga taklif etilayotgan cheksiz imkoniyatlar beruvchi texnologiyalar orqali namoyon bo'layotir.

Bugun hayotning o'zi OAV oldiga fikrlar xilma-xilligi, mamlakatimiz va xorijda ro'y berayotgan voqeа-hodisalarni hisobga olgan holda, xalqimiz tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning ochiq va oshkorraligini yanada to'liq ta'minlash, O'zbekistonda hayotga tatbiq etilayotgan tashqi hamda ichki siyosatni yanada faol yorish vazifasini qo'yamoqda. Buning uchun mamlakatimizda barcha shart-sharoit

yaratilgan. Bunday keng imkoniyatlarga ega bo'lgan va fuqarolik jamiyatining muhim institutlaridan biri hisoblangan O'zbekiston ommaviy axborot vositalari bugungi kunda jamoatchilik fikrini ifoda etadigan, hayotimizning barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish yo'lida harakatga kelтирувчи kuch bo'lishi, mamlakatimizning har bir fuqarosi Vatanimiz taqdiri uchun o'z mas'ulligini his etgan holda el-yurtimizning yanada ravnaq topishiga hissasini qo'shishga intilishiga ko'maklashishi lozim.

**2-topshiriq.** Teleko'rsatuvlar va radioeshittirishlar, gazeta va jurnallardagi materiallar hamda reklama matmlarini tahlil qiling.

**3-topshiriq.** Quyidagi tavsiyalar bilan tanishing. Sizningcha, jumalist qanday bo'lishi kerak? Shu mavzuda matn tuzing.



#### JURNALISTIKANING 10 QOIDASI

1. *Jon-dildan ishlang!* (Ish nimadan boshlanadi? Qiziqish va xolislik. Jon kuydirish — muvaffaqiyat kaliti. Yangilik nima?)
2. *Eng mux'mini aytung!* (Muhimlik mezonlari. Istiqbolni ko'rish. Yangiliklarni baholash.)
3. *Rejali ishlang!* (Axborot maydonini chegirib olish. Manbalarni topish. Kelishib ishlash. O'z manbalarining oshkor etmang! Manbalarga tanqidiy munosabat.)
4. *Tayinli narsa haqida gapiring!* (Muvofiqlashtirish. Tomchida quyosh aks etadi. Tafsilotlar. Metonimiya va metafora.)
5. *Tayyorlanmoq va eshitmoq!* (Hozirlanish. Savolni to'g'ri qo'yish. Tabu – taqiq Tinglash kobiliyati. Xulq masalasi.)
6. *Voealar oqimiga to'sqinlik qilmang!* (Qahramoningizni ko'p ovora qilmang! Muhit. Qahramon va operatorlar o'rmini belgilash. Baholash.)
7. *Til madaniyatiga rioya qiling!* (Efirdagi yangiliklar. Matn-ssenariy. Mas'ul muharirlarning o'mi. Tabu – taqiq. Suhbatda fe'l zamонлари. Teleekran tili.)

8. *Yangi versiyalarni toping!* (Yangilanish va barqarorlik. Ovoz ohangi. Televizorda hikoya qilish san'ati. Hayajonli kadrlarni izohlash. Musiqa va surat. Hududiylidkan umummilliylikka)

9. *Boqealap tasvirida xolislik* (Dilemma, ya'ni bir-biriga zid ikki dalil. Jurnalistikada axloqiy tamoyillar. Ommaviy axborot vositalari hokimiyati.)

10. *Zamon bilam hamnafaslik* (Axborot inqilobi. Kompyuterlar hujumi. Xalq hokimiyati. Jurnalista yangicha talablar. Chegaralarning ochilishi.)

Erik Fxtelius

**4-topshiriq.** "XXI asrda axborotning o'mi" mavzusida esse yozing.

#### **Publitsistik uslub va uning xususiyatlari.**

Publitsistika (lat. «xalq, omma») davming eng muhim, dolzarb masalalarini o'quvchilarga, tinglovchilarga, tomoshabinlarga gazeta-jurnal, radio, televideniye orqali yetkazish, ommani jonlantirish, kishilarning ongiga atrofda sodir bo'layotgan voqealarni singdirish, ularning ijtimoiy qarashlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Ommaviy axborot vositalarida (gazeta-jurnal, radio, televideniye), Oliy majlis yig'inalarda, turli xil anjumanlarda qo'llaniladigan nutq uslubi *publitsistik uslub* sanaladi. Publitsistik uslub ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: 1) yozma shakl; 2) og'zaki shakl; Ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan bosh *maqolalar, felyeton va pamphletlar, murojaatnomalar, chaqiriqlar, deklaratsiyalar* publitsistik uslubning yozma shakliga mansubdir. Radio va televideniyeda chiqayotgan siyosiy sharhlovchilar, notiqlarning nutqlari esa publitsistik uslubning og'zaki shaklidir.

Publitsistik uslubning o'ziga xos xususiyati shundaki, u muayyan ijtimoiy masalalarga faol munosabatda bo'lish, hozirjavoblik, ta'sirchanlik belgilariiga ega. Bunday nutq uslubida ijtimoiy-siyosiy tushunchalarni ifodalovchi so'zlar ko'proq qo'llaniladi. M., isyon, irqchilik, qo'poruvchilar, siyosiy tanglik, bitim va boshqalar.

Publitsistik uslub - matbuot, radio, teleko'rsatuvga xos bo'lgan tildir. Bu uslub rasmiy va dolzarb xabarlar, axborotlar, e'lonlar, reportaj, bosh maqolalardan iborat bo'ladi. Ularda fikr kichik hajmdagi ommabop jumlalar orqali ifodalanadi. Zarur o'rinda asoslar keltiriladi. Shuning uchun ham rasmiy xabarlarda «*muxbirimizning xabar berishicha, elchixona xodimining so'ziga ko'ra, muxbirimiz voqealro'y bergen joydan xabar beradi ...*» va hokazo iboralar qo'llanadi. Har bir xabarga ta'sirli, xabarning asosiy mohiyatini ifodalovchi sarlavhalar qo'yiladiki, bu hol o'quvchining diqqatini jalb qiladi. («*Qonun barchaga barobarmi?*», «*Kafolat va'da emas*», «*Chetlatilgan mutaxassis*», «*Tuya ko'rdingmi – yo'q*», «*Chumichuq so'ysa ham qassob so'ysin*»). Ayrim hollarda vaqtli matbuotda felyeton, kichik hikoyalari, romandan parchalar ham beriladi. Bu holda ommabop uslub badiiy uslub bilan qo'shilib ketadi. Ommabop uslub kundalik ijtimoiy hayot ko'zgusidir. Ommabop uslubni shakllantiruvchi vositalar ijtimoiy-siyosiy atama va birikmalar bo'ladi: *fuqarolik burchi, iqtisodiy tejarkorlik, siyosiy vaziyat, siyosiy va ijtimoiy kuchlar, iqtisodiy vaziyat, hukumat tangligi* va b. Publitsistik uslub ommaviy axborot vositalari uslubidir. Bu uslubning muhim xususiyati **axborot berish va ta'sir qilish**, soddalik, tushunarilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilishdir. Publitsistika bir qancha janrlarga ega.

Publitsistik uslub – tashviqot-targ’ibot ishlari olib boriladigan, asosan, ijtimoiy-siyosiy hayot yoritiladigan nutq ko’rinishidir. Publitsistik uslub o’zining obraziligi, hissiy-ta’siri xususiyati bilan badiiy uslubga; yorqinligi, aniqligi va terminologik leksikasi bilan ilmiy uslubga yaqin turadi. Ijtimoiy-siyosiy masalalaming yoritilishi, tahvil uslubi, ijtimoiy-siyosiy masalalarini hal etishga undashning faolligi, o’ziga xos terminlar, asosan siyosiy terminlamning ko’p qo’llanilishi singari xususiyatlar publitsistik va ilmiy uslubning o’xshash tomonlaridir.

Publitsistik va badiiy uslubning ham o’xshash tomonlari mayjud. Ikkala uslubda ham obrazli ifodalar, tasviriy vositalardan ko’proq foydalaniladi. So’z va terminlar siyosiy ma’nosining badiiy uslub elementlari bilan qorishgan, uyg’unlashgan holda ifodalaniishi publitsistik nutqning salohiyatini yanada ko’taradi va uning ta’sirchanligini oshiradi. Publitsistik uslubda ijtimoiy-siyosiy terminlar, gazeta va jurnallarga xos maxsus ifodalar, birikmalar, qat’iy qoliplashgan qurilmalarning tez-tez qo’llanilishi bu uslubning o’ziga xos xususiyatlaridandir: *mustaqillik, ichki tahdid, tashqi tahdid, sovuq urush, ochiq ovoz, yopiq ovoz, buyuk xizmatlari uchun, rasmiy vizit bilan, miliy istiqlol mafkurasi, xalq e’tiqodi, buyuk kelajakka ishonch, shaxs bilan davlat munosabatlari, jamiyatimizning faol ishtirokchisi, mafkuraviy bo’shliq, xavfsizlikka tahdid* va h.k.

Publitsistik uslubda hissiy-ta’siri so’zlar va birikmalardan, maqol va hikmatli so’zlardan unumli foydalaniladi. Maqol va hikmatli so’zlar bu uslubda sarlavha nomi bo’lib ham keladi hamda mazkur uslubning yanada yorqinroq bo’lishini ta’minlaydi. Masalan, *Yaxshidan bog’ qoladi. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. Mard maydonda sinaladi. Vatan, el manfaati muqaddasdir.*

#### **Mavzu tahlili**

Onlayn jurnalistikasi		Axborot jurnalistikasi	
afzalligi	kamchiligi	afzalligi	kamchiligi

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nutq uslublari qanday turlarga bo’linadi?
2. Publitsistik uslub qanday munosabatlar uchun xizmat qiladi?
3. Rasmiy uslub qanday holatlarda ishlataladi?
4. Publitsistik va badiiy uslubning qanday o’xshash tomonlarini bilasiz?

## 14-MAVZU: INTERNET HAYOTIMIZDA

### REJA:

- Internet madaniyati haqida.
- Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.

*I-topshiriq.* Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

**INTERNET** (ingl. **Internet**, lat. **inter** – orasida va ingl. **net** – tarmoq), minglab tarmoqlarni, shu jumladan, qurolli kuchlar, hukumat tashkilotlari, ta'llim muassasalari, xayriya tashkilotlari, sanoat korxonalari, barcha turdag'i korporatsiyalar, shuningdek, jismoniy shaxslarga tarmoqqa kirish imkoniyatini havola etuvchi tijorat korxonalarining (xizmat ko'rsatish provayderlarining) tarmoqlarini barobar ulab turadigan Butun jahon kompyuter tarmog'i.

Internetga kirish turlari orasida **online** va **offline** kirish turlari ajralib turadi. Birinchi kirish turi Tarmoqdan real vaqt rejimida foydalanish imkonini beradi. Ikkinci turida esa Tarmoqqa doir ishlari oldindan tayyorlanib, unga ulangach, tayyor ko'rinishdagi ma'lumotlar uzatiladi yoki qabul qilib olinadi. Tarmoqqa kirishning bunday turi aloqa kanallarining sifati va ish tezligiga nisbatan yuqori talablarqo'ymaydi, biroq faqat **e-mail** – elektron pochtadagina foydalanish imkonini beradi.

Internet vositasida o'zaro ulangan aksariyat kompyuter tarmoqlarida saqlanayotgan axborot niyoyatda ulkan elektron kutubxonani vujudga keltiradi. Kompyuter tarmoqlari orasida taqsimlangan ma'lumotlarning g'oyat katta miqdori muddaoli axborotni qidirib topish yoki hosil qilishni qiyinlashtiradi. Internetda olib boriladigan qidiruv amallarini engillashtirish uchun tobora takomillashtirilgan vositalar ravnaq topib bormokda.

### INTERNETNING VUJUDGA KELISH TARIXINI BILASIZMI ?

Internet, yuborilayotgan xabarlar yo'naliшини dinamik ravishda o'zgartirish yo'li bilan harbiy harakatlar davrida kompyuter tarmoqlariga omon qolish imkonini beruvchi usullarni sinab ko'rish maqsadida AQSh Mudofaa vazirligi tomonidan **1969 yili** amalga oshirilgan maxfiy tadqiqot natijasida yuzaga keldi. Eng birinchi bunday tarmoq Kaliforniyadagi uchta tarmoqni Yuta shtatidagi bitta tarmoq bilan Internet-protokol (**Internet Protocol** yoki qisqacha **IP**) deb nom berilgan qoidalar to'plami bo'yicha birlashtirgan **ARPAnet** tarmog'idir.

**1972 yili** AQSh Mudofaa vazirligiga aloqador universitetlar va tadqiqot tashkilotlariga ushbu tarmoqqa kirish huquqi berilganidan so'ng, u o'z ichiga 50 dan ortiq universitet va tadqiqot tashkilotlarini qamrab olgan butun boshli tarmoqqa aylanib ketdi.

**1973 yili** ushbu tarmoq Angliya va Norvegiyadagi tarmoqlarni o'z ichiga mujassam etib, **xalqaro miqyosga chiqdi**. **Yana 10 yil o'tgach** esa, Internet-protokol mahalliy tarmoqlarni ham, global tarmoqlarni ham qo'llab-quvvatlovchi kommunikatsion protokollar to'plami (**TCP/IP** – uzatishni boshqarish protokoli (tarmoqlararo protokol)) evaziga kengaytirildi. Shundan so'ng, oradan ko'p vaqt o'tmay superkompyuter markazlarning beshtasini o'zaro bog'lash maqsadida AQShning milliy ilmiy fondi **National Science Foundation (NSF)** tomonidan **NSFnet** yaratildi.

TCP/IP protokoli joriy etilishi bilan bir vaqtida yangi yaratilgan ushbu tarmoq Internetning "o'zagi" (**backbone**) sifatida ARPAnet o'mini egalladi. Internetning ommalashib ketib, ravnaq topishiga, shu jumladan, biznes yuritish muhitiga aylanib qolishiga **World Wide Web** ning (WWW, Butun jahon o'rgimchak inining) paydo bo'lishi qudratli turki bo'ldi. Zero ushbu **gipermatnlar tizimi** Internet tarmog'i bo'ylab sayohat tezligini oshirib, uni intuitiv (ichki his bilan) tushunarli holatga keltirib qo'ydi. Hujjalarni gipermatn orqali bir-biri bilan bog'lash g'oyasi ilk bor 1960 yili Ted Nelson (Ted Nelson) tomonidan ilgari surildi. Biroq, o'sha davr kompyuter texnologiyalarining holati ushbu g'oyani hayotga tatbiq etish imkonini bermagan edi.

Bugungi kunda siz bilan biz WWW ostida idrok etadigan tushunchalar asosini 1980 yili Tim Berners-Li (Tim Berners-Lee) tomonidan Evropadagi elementar zarralar fizikasi laboratoriyyada (**European Laboratory for Particle Physics**, Evropa yadroviy tadqiqotlar markazida) gipermatnlar tizimini yaratish bo'yicha olib borilgan ishlar jarayonida yaratildi. Natijada 1990 yili ilm ahli e'tiboriga **giperishoralar** (**hyperlinks**) bilan o'zaro bog'langan matnli onlayn fayllarni ko'rib chiqish imkonini beruvchi eng birinchi **matnli brauzer** (**browser**) havola etildi.

1991 yili ushbu brauzerdan foydalanish huquqi keng ommaga ham berildi, biroq uning ilmiy doiralardan tashqariga chiqish sur'ati past kechdi. Internet rivojining yangi bosqichi 1993 yilda, AQShning NCSA, National Center for Supercomputing Applications – superkompyuterlarga oid ilovalar milliy markazida 1992 yili amaliyotdan o'tayotgan talaba Mark Andresen (Marc Andreessen) tomonidan ishlab chiqilgan Mosaic grafik brauzerining birinchi Unix-naqli paydo bo'lishidan boshlandi.

1994 yili Windows va Macintosh operatsion tizimlar uchun mo'ljallangan Mosaic brauzeri, ko'p o'tmay Netscape Navigator va Microsoft Internet Explorer brauzerlarining naqli paydo bo'lishi – WWW shuhratining, demakki Internetning dovrug'i go'yo portlash ta'siridek oshib, dastlab AQShda, so'ngra butun dunyoda ommalashib ketishiga sabab bo'ldi.

1995 yili NSF Internet uchun mas'uliyatni xususiy sektor zimmasiga yukladi va ayni shu fursatdan e'tiboran Internet bugungi kunda siz bilan biz tanish bo'lgan Internet tarmog'i sifatida mavjud bo'lib kelmoqda.

**2-topshiriq.** Ta'lim jarayonida eng ko'p foydalaniladigan internet saytlari ro'yxatini tuzing va tavsiya qiling.

**3-topshiriq.** Internet madaniyati haqida matn tuzing.

**4-topshiriq.** Internetdan foydalanish to'g'risida polilog tuzing va uni inssenirovka qiling.

### Og'zaki-yozma uslub va uning xususiyatlari.

Funksional uslub – ma'lum doiradagi odamlarga xos, ma'lum maqsadga qaratilgan muloqot uslubi sifatida talqin etiladi, ya'ni inson harakatining o'ziga xos qonuniy jihatlariga taalluqli holatlar uchun og'zaki uslub, ilmiy uslub va hokazo. Zamona viy tillardagi funksional uslublar o'ta murakkab va xilma xildir. Ta'kidlab o'tish kerakki, uslub yozma va o'gzaki turlarga bo'linish bilan birga ishlatalishiga qarab jamoatchilik uchun qo'llanishda turli shakllarga bo'linib ketadi.

Til kishilik jamiyatida fikr almashish, aloqa-aratashuvning eng asosiy vositasidir. U yozma va og'zaki nutq jarayonida o'z ijtimoiy vazifasini bajaradi. *Nutqning adabiy va shevalarga xos ko'rinishlari bor. Adabiy nutq* so'z san'atkorlari – yozuvchilar, shoirlar, olimlar tomonidan ishlangan, qat'iy me'yordarga ega bo'lgan nutq ko'rinishidir. Adabiy nutqda har bir so'z va qo'shimchaning talaffuzi, imlosi, qo'llanilishi, ma'nolari aniq me'yorlar bilan chegaralangan. Bu me'yorlarni buzish qo'pol xato sanaladi. Odatda, barcha rasmiy yozishmalar, hujjatlar, o'qitish ishlari, matbuot xabarlari adabiy nutqda amalga oshiriladi. Adabiy nutq me'yorlарini buzish nafaqat savodsizlik va madaniyatsizlik, balki o'z ona tiliga nisbatan humatsizlik belgisidir.

Adabiy nutqning muayyan sohadagi muloqot uchun moslashilgan, bir qator o'ziga xos xususiyatlari bilan farqlanib turadigan ko'rinishlari – uslublari mayjud.

Buni ushbu parcha misoldida ko'ramiz:

– *O'rtoq rafiqam! Ijozat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!* (Abdulla Qahhor)

Abdulla Qahorning «Nutq» felyetonida notiq o'z uyida tur mush o'rtog'iga «*O'rtoq rafiqam!*» deb murojaat qiladi. Bu bilan personajning xarakteri ochiladi va o'quvchi kulgisini qo'zg'atadi. Buning sababi shundaki, ma'lum nutqiy vaziyat uchun xoslangan uslub boshqa nutqiy vaziyatda qo'llangan.

Ko'rindiki, ona tilimizning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish uchun uning so'z boyligi-yu, grammatik qonun-qoidalarini bilishgina kifoya qilmaydi. Buning uchun adabiy tilimizdan ma'lum nutqiy vaziyatga muvofiq ravishda foydalana olish ko'nikmasiga ham ega bo'lish lozim<sup>2</sup>.

**FSMU texnologiyasi asosida quyidagi savolga javob bering**

**Internetning ijobiylari va salbiy jihatlariga qanday omillar ta'sir qiladi?**

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Hayotimizda internetning qanday o'mni bor?
2. Yoshlar internetdan, asosan, nima maqsadda foydalanishadi?
3. Internet orqali ta'qib etish deganda nimani tushunasiz?
4. Internet orqali yosh avlod tarbiyasining buzilishi oldini olish uchun, sizningcha, qanday choralar qo'llash mumkin?

<sup>2</sup> M.Dedaxanova, A.Dadaxonov. O'zbek tili fanidan ma'lumotnomasi. –T., "Yangi kitob", 2016., 470-bet.

## 15-MAVZU: O'zbekiston va jahon

### REJA:

- O'zbekiston a'zolik qilayotgan xalqaro tashkilotlar haqida
- Rasmiy diplomatik uslub va uning xususiyatlari.

**1-topshiriq.** Matndagi termin va iboralaming ma'nosini izohlang. Matnni qisqartirib so'zlab berish.

### Birlashgan Millatlar Tashkiloti

Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) - Yer yuzida tinchlikni va xavfsizlikni ta'minlash, davlatlaming va millatlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish maqsadida 1945-yilda ikkinchi jahon urushida fashizm ustidan g'alaba qozongan mustaqil davlatlarning ixtiyoriy birlashishi asosida tuzilgan xalqaro tashkilot. Shunday xalqaro tashkilot tuzish zarurati Birinchi jahon urushidan keyinroq ma'lum bo'la boshladi.

1943-yilda Tashqi ishlar vazirligining qo'shma kengashida bu fikr aniq ifodalandi. BMTning Nizomi 1944-yilda to'rt davlat (Buyuk Britaniya, AQSH, Xitoy va sobiq Sovet Ittifoqi) vakillarining Dumbarton-Oksdag konferensiyasida ishlab chiqildi va 1945-yil iyunida San-Fransiskodagi Ta'sis konferensiyasida imzolanib, 1945-yil 24-oktabrdan kuchga kirdi.

1945-yilning 24-oktabri shu boisdan BMT kuni sifatida nishonlanadi.

Tabiiyki, BMTga turli davlatlar turlicha yondashadilar. Shu sababli o'z faoliyat davrida BMT siyosiy kuchlarning kurash sahnasi bo'lib keldi. Jumladan, sobiq Sovet Ittifoqi BMT minbaridan sinfiy va mafkuraviy kurash vositasi sifatida foydalanishga intildi. Ammo oxir-oqibatda BMT xalqlar va mamlakatlar o'rtasida tinchlik, hamkorlik munosabatlarini kengaytirish va mustahkamlash vositasi sifatida tanilmoqda. Buni sobiq Yugoslaviya, Iroq, Falastin-Isroiil va Afg'oniston misollarida, mustamlakachilikni barbob etishda, davlatlarning mustaqilligini himoya qilishda va boshqa shu kabi vaziyatlarda ko'rish mumkin.

BMT o'z tarkibiga ko'ra 6 asosiy organ, shuningdek, bu asosiy organlarga ko'maklashish uchun tuzilgan ma'lum miqdordagi qo'mita va komissiyalardan iborat.

*Bosh Assambleya* - BMTning eng nufuzli organidir. Uning har yili sentabr oyida chaqiriladigan sessiyalarida BMTga a'zo barcha davlatlarning delegatsiyalari qatnashadilar.

*Xavfsizlik kengashi* 15 davlat vakillaridan tashkil topadi. Ularning 5 tasi doimiy a'zo (AQSH, Rossiya, Xitoy, Fransiya va Buyuk Britaniya), qolganlari har ikki yilda almashinib turadilar. Xavfsizlik kengashi davlatlar o'rtasidagi tortishuvlar, tajovuz va aggressiyaning oldini olish, yangi a'zolar qabul qilish va boshqa masalalarni o'rganadi, qarorlar qabul qiladi yoki tavsiyalar beradi.

*Iqtisodiy va ijtimoiy kengash* xalqaro va ijtimoiy hamkorlik sohalariga oid masalalar bilan shug'ullanadi. *Vasiylik kengashi* tobe hududlar masalalarini nazorat etib boradi. *Xalqaro sud* esa xalqaro siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, hududiylar masalalarni hal etishda yuzaga kelgan barcha muammolar bo'yicha, vaziyat talab qilganda, o'z

fikrini aytadi yoki hukmini chiqaradi. BMT *Kotibiyati* tashkilotning kundalik ishini ta'min etadi.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi BMTga 1992-yil 2- martda qabul qilindi. O'zbekiston BMT minbaridan Markaziy Osyo hamda Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash, Markaziy Osiyoni yadro qurolidan ozod zonaga aylantirish, narkobiznesga va ekstremizmning har qanday turiga qarshi kurashda barcha davlatlar xatti-harakatlarini muvosiflashtirish, Markaziy Osiyoda ekologik vaziyatni sog'lomlashtirish maqsadlarida, ya'ni umummanfaat yo'lida foydalanmoqda, bu faoliyatlarning samaradorligini oshirish, miqyoslarini kengaytirish davr talabi ekanligini asoslab, bu masalalarni o'rtaga tashlamoqda.

### **Yunesko**

Yunesko - Birlashgan Millatlar Tashkilotining ta'lim, fan va madaniyat masalalari bo'yicha tashkiloti. U BMTning ixtisoslashgan muassasalaridan biridir. Yuneskoning tarixi Ikkinci jahon urushidan so'ng, 44 davlat vakillari Londonda konferensiyaga yig'ilib, ushbu tashkilotning ta'sis etish Ustavini qabul qilishlaridan boshlanadi. Uning amaliy faoliyati esa 1946-yil 20-noyabrdan boshlangan. Qarorgohi - Parijda. Tuzilish davrida 28 davlat a'zo bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda unga 186 ta davlat a'zo. Yunesko yarim asrdan oshiq davr ichida eng katta nufuzli xalqaro tashkilotlardan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi 1993-yil 29-oktabrda Yuneskoga a'zo bo'ldi.

Yuneskoning asosiy maqsadi - tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash, ta'lim, fan va madaniyatni yuksaltirishga xizmat qilishdir. Yunesko Ustavi bo'yicha: "BMT Ustavida e'lon qilingan irqi, jinsi, tili va dinidan qat'i nazar, barcha xalqlar uchun adolatga, qonuniylikka, inson huquqlari va asosiy erkinliklariga umumiy hurmatini ta'minlash maqsadida ta'lim, fan va madaniyatini rivojlantirish orqali xalqlar hamkorligiga ko'maklashish tashkilotning ustivor vazifasidir". Bu g'oyalalar mustaqil O'zbekiston siyosatiga to'la mos keladi.

Yunesko umuminsoniy qadriyatlarni o'rghanish va targ'ib etish tashkilotidir.

Yunesko doirasida Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolarning 1000 yillik, Mirzo Ulug'bekning 600 yillik, Amir Temurning 660 yillik tantanalar, Toshkent shahrining 2000 yilligi butun jahon miqyosida keng nishonladi. 1997-yili Yuneskoning jahon madaniy boyliklari ro'yxatiga kiritilgan Xiva va Buxoro shaharlarining 2500 yilligi nishonlandi, Shaxrisabz va Marg'ilon shaharlari bo'yicha tadbirlar tayyorlanmoqda. Mustaqil O'zbekistonning Yunesko bilan hamkorligi yil sayin o'sib bormoqda.

**2-topshiriq.** Xalqaro tashkilotlarning qisqartma nomlari ro'yxatini tuzing.

**3-topshiriq.** Berilgan gaplami namunada ko'rsatilgandek ko'chiring.

*Namuna: Xat yozish uchun qog'oz oldim. - Xat yozishga qog'oz oldim.*

1. Yangi filmni ko'rish uchun kinoteatrga borish kerak.
2. Dori olish uchun dorixonaga bordim.
3. Yozda dam olish uchun soyga tushar edik.
4. Chana uchish uchun Chimyonga bordik.
5. Kechqurunlari sayr qilish uchun Milliy bog'ga boramiz.

**4-topshiriq.** "Tinchlik" so'ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

**"Sinkveyn" (5 qator) texnikasi**  
**Maqsad - kategoriyasiga tavfsif berish**

- 1-qator – tushuncha - ot
- 2-qator – 2 so'zdan iborat sifat
- 3-qator – 3 so'zdan iborat fe'l
- 4-qator – 4 so'zdan iborat munosabat
- 5-qator – 1 so'zdan iborat sinonim

**5-topshiriq.** BMT faoliyati haqida taqdimot tayyorlang.

**6-topshiriq.** "O'zbekistonning tashqi iqtisodiy aloqalari" mavzusida insho yozing.

**7-topshiriq. Namunaga qarab davom ettiring**

**Namuna: A'lachi talabalar mukofotlandi**

1. Universitet binosi juda chiroyli .....
2. Faol o'qituvchilar sovg'alar bilan .....
3. Bugun xotin-qizlar yig'ilishi .....
4. Muhtojlarga moddiy yordam .....
5. Ertaga darsda yangi mavzu .....
6. Bu xat kim tomonidan ..... noma'lum.

**RASMIY DIPLOMATIK USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI.**

Diplomatik hujjatlar shakli va so'z qo'llanishi jihatidan o'ziga xos ko'rinishga ega. Ularni yozishda hujjatning qay shaklda bo'lishi muhimdir. Ma'lumki, diplomatik yozishmalar bir davlatdagi oddiy korxonalar yoki tashkilotlar orasida bo'lmaydi. Ular boshqa-boshqa davlatlar o'rtaida bo'lgani uchun hujjat yuborilayotgan mamlakatning an'analari hisobga olinadi. U yoki bu davlatga hujjatning qaysi turi yuborilayotgan bo'lsa, xuddi shu turi bilan javob qaytariladi. Diplomatik hujjatlarga bayonot, nota, rasmiy xatlar, ilova xatlar, yarimrasmiy shaxsiy xatlar, diplomatik bayonnomma, qaydnoma, memorandum va boshqalar kiradi.

Diplomatik yozishmalarda hujjat yuborilayotgan mamlakatning nomlanishida, shaxsning ismi-sharifi va lavozimini yozishda, unga qilinayotgan murojaat ifodalarida xatoga yo'l qo'yilishi mumkin emas, chunki xatolar bepisandlik, humatsizlik sanaladi. Bu hujjatlarning tashqi ko'rinishi ham benuqson bo'lishi, fikr aniq, to'g'ri, mantiqiy, izchil, asosli va ikkinchi tomonning xususiyatlarini hisobga olgan holda bayon etilishi zarur.

Asli rasmiy uslubda bo'yoq dor so'zlar ishlatalmaydi. Biroq diplomatik yozishmalarda bo'yoq dor so'zlar bo'lishi taqozo qilinadi. Unda maqtov ifodalar: hurmatli janob, janobi oliylari, Sizga bo'lган hurmatimga ishonch bildirgaysiz, bosh ustiga, boshimiz ko'kka etdi, eng samimiy tabrik, ezgu tilaklar ila, Sizga chuqur hurmat bilan, minnatdorlik izhor etaman kabilar faol ishlataladi.

Rasmiy uslubda jargonlar, shevaga oid so'zlar, eskirgan so'z va birikmalar odatda ishlatalmaydi. O'mi bilan arxaizm va istorizmlardan foydalaniлади: shahzoda, shoh, malika, janob, hazrati oliylari kabilar

Akt – biror ishni, yuridik faktni tasdiqlovchi rasmiy hujjat.

Bayonot – diplomatik munosabatlar, muzokaralar, xalqaro ahvol va shu kabilar haqida manfaatdor tomonlar va umum axboroti uchun og'zaki yoki yozma ravishda e'lon qilingan rasmiy bildirish va shu haqdagi hujjat.

Deklaratsiya – biror muhim siyosiy masala yuzasidan rasmiy suratda e'lon qilingan bayonnomma, hukumat yoki partiya tantanali ravishda e'lon qilgan asosiy qonun-qoidalar.

Diplomatik – diplomatiyaga, davlatning chet mamlakatlari bilan bo'ladigan munosabatlariga va diplomatlarga oid.

Tashrif – rasmiy suratda biror elda, biror shaxs huzurida qisqa fursatda bo'lish.

Kassatsiya – sud hukmidan norozi bo'lib, ishni qayta ko'rish to'g'risida yuqori sud tashkilotlariga shikoyat qilish yoki ariza.

Kodeks – huquqning biror sohasiga oid tartibga solingan qonunlar to'plami.

Nota – bir davlatning ikkinchi bir davlatga yuboradigan rasmiy xati.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Qanday xalqaro tashkilotlarni bilasiz?
2. O'zbekiston qaysi xalqaro tashkilotlarga a'zo?
3. Siz O'zbekistonni qanday xalqaro tashkilotlarga a'zo bo'lishini hohlar edingiz?
4. BMT qanday tashkilot va u qachon tashkil etilgan?
5. BMTning Nizomi qaysi davlat vakillari tomonidan ishlab chiqildi?
6. BMT nechta asosiy organdan iborat? Uning vazifalari nimalardan iborat?
7. O'zbekiston BMTga nechanchi yilda qabul qilindi?
8. Yunesko qanday tashkilot?
9. O'zbekiston Yuneskoga qachon a'zo bo'ldi?
10. Yunesko keyingi yillarda qanday tadbirlarni amalga oshirdi?
11. Yuneskoning asosiy maqsad va vazifalari nimalardan iborat?

## 16-MAVZU: XXI ASRDA INNOVATSIYALAR

### REJA:

- Kasb sohasidagi innovatsiyalar haqida ma'lumot.
- Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.

**I-topshiriq.** Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang. Matnni qisqartirib so'zlab berish.

### XXI asrda innovatsiyalar

Hozirgi vaqtida «Innovatsiya tushunchasi» juda keng qo'llanilmoqda. Innovatsiya so'zi inglizcha so'z bo'lib, «innovation» yangilik kiritish degan ma'noni bildiradi, ya'ni tizim ichki tuzilishini o'zgartirish, deb ta'riflanadi. Innovatsiya amaliyot va nazariyaning muhim qismi bo'lib, ijtimoiy-madaniy ob'ekt sifatlarini yaxshilashga yo'naltirilgan ijtimoiy sub'ektlarning harakat tizimidir.

Innovatsiyalar dolzarb, muhim ahamiyatga ega bo'lib, bir tizimda shakllangan yangicha yondashuvlardir. Ular tashabbuslar va yangiliklar asosida tug'ilib, ta'lim mazmunini rivojlanirish uchun istiqbolli bo'ladi.

Shuningdek, umuman ta'lim tizimi rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Innovatsiya — ma'lum bir faoliyat maydonidagi yoki ishlab chiqarishdagi texnologiya, shakl va metodlar, muammoni echish uchun vangicha yondashuv yoki yangi texnologik jarayonni qo'llash, oldingidan ancha muvaffaqiyatga erishishiga olib kelishi ma'lum bo'lgan oxirgi natijadir. Bugun ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni quyidagicha tasniflash mumkin:

- faoliyat yo'nalishiga qarab (pedagogik jarayondagi, boshqaruvdag'i)
- kiritilgan o'zgarishlarning tavsifiga ko'ra (lokal, modulli, tizimli)
- kelib chiqish manbaiga ko'ra (shu jumoa uchun ichki yoki tashqaridan olingan)

Innovatsiyalar odatda bir necha muammo kesishgan paytda vujudga keladi va umuman yangi masalalarni hal qiladi, pedagogik jarayonning uzlksiz yangilanib borishga olib keladi. Ta'lim tizimidagi har qanday yangilik innovatsiya bo'la olmaydi. Shu sababli «novatsiya» va «innovatsiya» tushunchalari o'rtasidagi asosiy farqlarni ko'rsatib o'tish zarur. Buning uchun islohot faoliyatining aniq shakli, mazmuni va ko'lami asos bo'lib xizmat qiladi. Agar faoliyat qisqa muddati bo'lsa va yaxlit tizim xususiyatiga ega bo'lnasa, o'z oldiga muayyan tizimdagi faqat ba'zi elementlarini o'zgartirishni vazifa qilib qo'ygan bo'lsa, u holda biz novatsiya bilan muloqot qilayotgan bo'lamic. Agar faoliyat ma'lum kontseptual yondashuv asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa va uning natijasi o'sha tizim rivojlanishiga yoki uning printsipial o'zgarishiga olib kelsagina innovatsiya deya olamiz. Novatsiya amaldagi nazariya doirasida amalga oshiriladi, ko'lam va vaqt bo'yicha chegaralanadi, metodlar yangilanadi va natijasi avvalgi tizimni takomillashtiradi. Innovatsiya esa tizimli, yaxshi va davomli bo'ladi, ma'lum amaliyotda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi, amaliyot sub'ektlari pozitsiyalarini to'la yangilaydi. Bunda faoliyatning yangi yo'nalishlari ochiladi, yangi texnologiyalar yaratiladi, faoliyatning yangi sifat natijalariga erishiladi, natijada amaliyotning o'zi ham

yangilanadi.

Ta'lim jarayonidagi innovatsion o'zgarishlar, ta'lim tizimiga har qanday yangilikning kiritilishi bevosita o'qituvchi faoliyatini yangilash va o'zgartirish orqali amalga oshirilishi ham atroficha o'r ganilgan.O'qituvchi innovatsion faoliyat xususiyatlarini o'rganib chiqqan pedagogik olimlar fikrlariga tayangan holda, quyidagilarni innovatsion faoliyatning asosiy belgilari deb hisoblash mumkin;— ijodiy faoliyat falsafasini egallashga intilish;—pedagogik tadqiqot metodlarini egallash;—mualliflik kontseptsiyalarini yaratish qobiliyati;—tajriba-sinov ishlarini rejalashtirish va amalga oshira olish;—o'zidan boshqa tadqiqotchi-pedagoglar tajribalarini qo'llay olish;—hamkasblar bilan hamkorlik;—fikr almashish va metodik yordam ko'rsata olishlik;—ziddiyatlarning oldini olish va bartaraf etish;— yangiliklarni izlab topish va ulami o'z sharoitiga moslashtirib borish.Innovatsion faoliyat davrida yangiliklar, innovatsiyalar, tom ma'noda ta'lim jarayoniga kirib keladi. Shu sababli ta'lim tizimidagi innovatsiyalarni pedagogik jarayonga kiritish 4 bosqichda amalga oshiriladi:1.Muammoli tahlil asosida aniqlash. 2.Mo'ljallanayotgan ta'lim tizimini loyihalash. 3.O'zgarishlar va yangiliklarni rejalashtirish. 4.O'zgarishlarni amalga oshirish.Innovatsion faoliyatga tayyorlashdan maqsad — o'qituvchining yangilikka intiluvchanligini, mustaqil o'z ustida ishlash ko'nikmasi va malakasini shakllantirish, yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol metodlardan foydalaniib, dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarni o'tkazish malakasini takomillashtirishdan iborat.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion faoliyat — yangi ijtimoiy talablar bilan an'anaviy me'yorlarning mos kelmasligi yoxud amaliyotning yangi shakllanayotgan me'yoring yuzaga kelgan me'yor bilan to'qnashuvchi natijasida vujudga kelgan qator muammolarni echishga qaratiladi. Innovatsiyalar doimiy ravishda pedagogik faoliyatga yangiliklar olib kirish orqali ta'lim rivojiga hissa qo'shadi, pedagogik faoliyatga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchining innovatsion faoliyati butun pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a boshlovchi, taraqqiy etiruvchi kuch vazifasini bajaradi va ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi.

Shuning uchun ham innovatsiyani har bir o'qituvchi tushunib, o'qib va o'rganib, o'zining pedagogik faoliyatiga olib kira olsa, ta'lim standartlarida ko'rsatilgan me'yoriy talablar amalga oshadi. O'qituvchi innovatsiya faoliyatga tayyor bo'lib, darsga eng so'nggi yangiliklarni olib kirib, o'quvchiga qiziqarli va uni ehtiyojiga mos ravishda tashkil etsagina, sifat va samaradorlikni kafolatlashi mumkin.

O'zbekiston ilm-fani bugungi kunda o'zgarib borayotgan bozor talablariga javob beradigan, yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqarishga yo'naltirilgan innovatsion iqtisodiyotning texnologik bazasini yaratish borasida ulkan imkoniyatlarni namoyon etmoqda.

**2-topshiriq.**Turli sohalarga oid innovatsiyalar haqida ma'lumot to'plang.

**3-topshiriq.**"Zamondoshlarimizning kashfiyotlari" mavzusida taqdimot tayyorlang.

**4-topshiriq.**Quyidagi lingvistik va matematik atamalarni alohida ustunlarga yozing va ular ishtirokida ilmiy uslubga xos matn tuzing.

**Kelishik, qo'shuv, ayiruvchi, unli tovush, ko'paytirish, bo'lish, undosh tovush, aylana, sifat, fe'l, oddiy kasr, mahraj, olmosh, gap, o'nlik, aniqlovchi, tenglama, to'ldiruvchi, masala, so'z birikmasi.**

**S-topshiriq.** Siz o'r ganayotgan asosiy fanga taalluqli terminlardan 10 tasini yozing, ular bilan so'z birikmalari va gaplar tuzing.

#### **Ilmiy uslub va uning xususiyatlari.**

Fan va texnikaning turli tarmoqlariga doir ilmiy asarlar, darsliklar ilmiy uslubda yoziladi. Ilmiy matn ilmiy va ilmiy-ommabop matnlarga ajratiladi. Ilmiy matnda gap bo'laklari tartibi adabiy til qoidasiga qat'iy amal qilgan holda qo'llanadi. Ilmiy matnda har bir fan sohasiga oid atamalarning qo'llanilishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. *Masalan*, iqtisodiyotda *kredit, moliya, pul, sug'urta, narx, tannarx, hisob, taftish, aylanma* kabi terminlar ishlataladi. Ilmiy-ommabop matnlarda atamalar tizmasidan, ilmiy bayonchilikdan qochiladi. Bayon etilayotgan fikrning barchaga baravar tushunilishi ta'minlash maqsadida tushunilishi qiyin bo'lgan atamalar murakkab tushunchalar o'miga aniq va batafsil tasvirlardan foydalaniladi.

Ilmiy uslubning janrlari – monografiya, maqola, annotatsiya, dissertatsiya, darslik, ma'ruza, ma'lumotnomasi.

Ilmiy uslub va uning xususiyatlari. Ilmiy uslubga mantiqiylik, aniqlik, ilmiy atamalarning keng qo'llanishi xos bo'lib, barcha ilmiy asarlar, jumladan, maktab darsliklari ham shu uslubda yoziladi. Fan va texnika tili ilmiy uslub deyiladi. Daliliy munosabatlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalarga asoslanuvchi, har bir fan sohasining o'ziga xos atamalariga tayanuvchi, fikrni aniq va mantiqiy izchil bayon qiluvchi uslub ilmiy uslubdir. Ilmiy uslubning asosi atama, ta'riflar, qoidalar, qonunlardir. Atamalar faqat bir ma'noda qo'llanilib, o'zi ifodalayotgan tushunchaning tub mohiyatini ko'rsatadi, masalan *o'zak, negiz, yasovchi qo'shimcha, turlovchi va tuslovchi qo'shimchalar, shakl yasovchilar* kabi atamalar so'z tarkibiga oid lingvistik tushunchalarni ifodalaydi. Masalan: *Har qanday grammatik ta'rif yoki qoidada uchta tushuncha birlashgan boladi: tushunchaning mohiyati, xususiy va umumiy tomoni.* (Ona tili darsligidan). *Nuklein kislotalar dastlab hujayra yadrosidan ajratib olingenligi sababli* («nukleis» - «yadro») nuklein kislotalar deb atalgan.

Hozirgi vaqtida *nuklein kislotalar faqat yadroda emas, balki xloroplast va mitokondriyda ham mavjudligi aniqlangan* (Biologiya darsligidan). *Jismni tashkil qilgan molekulalar xoatik harakatining kinetik energiyasi bilan ularning o'zaro ta'sir potensial energiyalarining yigndisi jismning ichki energiyasini tashkil qiladi* («Fizika» darsligidan).

Ilmiy uslub ham o'z ichida ikki guruhga bo'linadi:

- 1) sof ilmiy uslub.
- 2) ilmiy-ommabop uslub.

Ilmiy uslubda fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid ilmiy asarlar, darslik va o'suv qo'llanmalari yoziladi. Bu uslub aniq, daliliy ma'lumotlar asosida chiqarilgan ilmiy xulosalar (qoidalar, ta'riflar)ga boy bo'lishi bilan boshqa uslublardan farqlanadi. Ilmiy uslub ham adabiy tilning ko'rinishi bo'lib, bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ham ega: monologik belgilari bilan boshqa uslublardan ajralib turadi;

obrazli tasvirlar bilan emas, balki aniq ma'lumotlarning *xolis*, *umumilashgan* xususiyatlarni ta'riflash, tushunchalarga muvofiq keladigan terminlar bilan ish ko'radi. Kitobxonning his-tuyg'usiga emas, ongiga ta'sir etadi.

Ilmiy uslubda har bir fanning o'ziga xos terminlaridan foydalaniadi. Masalan, *jinoyat*, *jazo*, *afv*, *hukm*, *ozodlikdan mahrum etish*, *davlat tili*, *davlat chegarasi*, *unitar davlat*, *tergov*, *alibi*, *kodeks* yurisprudentsiya tarmoqlarida; *jamiyat*, *ong*, *tafakkur*, *mushohada* falsafada va h.k. Ilmiy uslubda so'zlar asosan o'z ma'nosida qo'llanadi, qoida yoki ta'rifning mazmunini ochishga xizmat qiladigan ajratilgan bo'laklar, kirish so'z va birikmalar, shuningdek, qo'shma gaplardan ko'proq foydalaniadi.

Ilmiy uslubda qo'shma gaplardan *shu sababli*, *shunday bo'lsa*, *bunday vaqtida*, *shunga qaramasdan* kabi vositalar yordamida bog'lanuvchi ergash gapli qo'shma gaplar ko'proq ishlataladi. Chunki bunday gaplar sabab va natija hamda boshqa munosabatlarni aniq ifodalay oladi. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar bu uslubda kamroq ishlataladi.

Ilmiy matn qurilishining mantiqiy izchil bo'lishi unda boshlanmalar, gap qismalarini bog'lash uchun *shunday qilib*, *shu sababli*, *bundan keyin*, *ko'rindiki*, *shunga ko'ra*, *shu bilan birga*, *aytilganlarga ko'ra* kabi so'z va so'z birikmalarini qo'llaniladi. Ko'p qo'llaniladigan *birinchidan*, *bir tomonidan*, *ikkinci tomonidan*, *xullas*, *demak* shaklidagi kirish so'z va birikmalar ham yuqoridagi maqsadlarga xizmat qiladi.

Ilmiy uslubda fikrning aniq bir shaxs tomonidan bayon qilinayotgani sezilmaydi. Unda ko'proq fe'lning majhul nisbatidan foydalaniadi: *dalillar keltirilgan*, *tajriba o'tkaziladi*, *foydalaniladi*. Yuqorida ko'rib o'tilgan xususiyatlar ilmiy uslubning lisoniy belgilariadir. Bu belgilar mazkur uslubning boshqa uslublardan farqini ko'rsatuvchi asosiy xususiyatlar hisoblanadi.

**«TA'LIMDA INNOVATSIYA» ma'rzasiga oid «T-sxema» metodi namunasi:**  
noan'anaviy darslarni tashkil etish

Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari

### Xulosa

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. Ilmiy uslubning o'ziga xos holatlari haqida gapiring.
2. Ilmiy uslubda yozilgan gap tuzing.
3. Quyidagi gap qaysi uslubga xos?

Ko'mirning to'la yonishi natijasida karbonat angidrid hosil bo'ladi, bunda uglerod kislorod bilan oksidlanadi.

4. Ushbu matn qaysi uslubda yozilgan?

Trapetsiyaning o'rta chizig'i asoslariiga parallel va ular yig'indisining yarmiga teng

5. Ilmiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari haqida gapiring.

6. Ilmiy-ommabop asarlarga xos xususiyatlarni izohlang.

7. Ilmiy tadqiqot asarlariiga misollar keltiring.

8. Ilmiy uslubga xos terminlarga misollar keltiring.

## 17-MAVZU: DAVRIMIZNING GLOBAL MUAMMOLARI

### REJA:

➤ Insoniyat oldida turgan global muammolar to'g'risida

➤ Maqola va uning turlari.

**I-topshiriq.** Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirok eting.

### Davrimizning global muammolari

XX asming ikkinchi yarmida insoniyat oldida juda ko'p va murakkab muammolar vujudga keldiki, ularning asosiy qismi ta'sir doirasining miqyosi va ahamiyatiga ko'ra global muammolar nomini oldi. Butun dunyoni qamrab olgan, insoniyatning bugungi kuni va kelajagiga xavf soluvchi, yechimini topishda barcha davlatlar va xalqlarning hamjihatlik bilan birgalikda harakatini talab qiluvchi muammolar global muammolar deb ataladi.

Global muammolar - umumbashariy hayot va taraqqiyot bilan bog'liq hozirgi zamon muammolaridir. Ular jumlasiga jahon termoyadro urushining oldini olish, xalqaro terrorchilikka qarshi kurash va barcha xalqlar uchun tinchlikni ta'minlash; rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'tasida ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot darajasidagi tafovutni bartaraf etish, ochlik, qashshoqlik va savodsizlikni tugatish, rivojlanayotgan mamlakatlarda aholining tez sur'atlar bilan ko'payayotganligini tartibga solish, atrof-muhit halokatlari tarzda ifloslanib borayotganligining oldini olish; insoniyatni kerakli resurslar — oziq-ovqat, sanoat xom ashyosi, energiya manbalari bilan ta'minlash, fan va texnika taraqqiyoti salbiy oqibatlarga olib kelishiga yo'il qo'ymaslik kabilalar kiradi.

Global muammolarni 4 guruhga ajratish mumkin:

1) xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolar — jahonda rivojlangan, rivojlanib kelayotgan va qoloq mamlakatlarning mayjudligi. Hozirgi kunda jahon siyosiy tartibotini belgilashda dunyodagi 7 rivojlangan mamlakatning mavqeい katta. Bu mamlakatlar bilan qoloq mamlakatlar orasidagi tafovut g'oyat kuchaydi. Taraqqiy qilgan mamlakatlarda demokratik qadriyatlar rivojlangan bo'lsa, qoloq mamlakatlarda avtoritarizm, demokratiyaga zid bo'lgan ijtimoiy munosabatlari avj oldi, xalqaro xavfsizlikka qarshi tahdidlar paydo bo'ldi. Buni terrorchilik, ekstremizm ko'rinishlari vujudga kelganligi tasdiqlaydi;

**2) xalqaro iqtisodiy munosabatlarda paydo bo'lgan global muammolar** — jahon xo'jalik tizimi vujudga kelib, unda asosan iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar ustunligi qaror topdi. Iqtisodiyoti haddan tashqari rivojlangan mamlakatlar, transnatsional korporatsiyalar jahon iqtisodiyotini boshqarayotgan bir paytda, ikkinchi tomonda ularga qaram, iqtisodiyoti juda ham past darajadagi mamlakatlar mavjuddir. Jahonda iqtisodiy va ilmiy-teknikaviy taraqqiyot yutuqlariga qaramasdan boy va kambag'al mamlakatlar o'rtasidagi farq o'sib bormoqsa. XX asr oxirida rivojlangan mamlakatlar jahon yalpi milliy mahsulotining 86%ini ishlab chiqargan bo'lsa, kambag'al davlatlar atigi 1%ni ishlab chiqardi. Ayrim mamlakatlar rivojlangan davlatlardan juda katta miqdorda qarzga botdi. Natijada ular siyosiy jihatdan mustaqil bo'lsada, iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlarga qaramdir. Juhon iqtisodiy munosabatlaridagi globallashuvning salbiy oqibatlari ham mavjud. Mas, milliy bozorni siqib qo'yadi, ishsizlikni, fermerlarning sinishini kuchaytiradi. Bu globallashuvga qarshi harakatni keltirib chiqardi — Yevropaning bir necha shaharlarida norozilik namoyishlari bo'lib o'tdi. Global iqtisodiy jarayonlar jahon miqyosida harakat qiluvchi moliyaviy iqtisodiy jinoyat guruuhlarini vujudga keltirdi;

**3) ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar** — jahon aholisi muttasil ko'payib borishi natijasida Osiyo va Afrika mamlakatlarida oziq-ovqat, ichimlik suv tanqisligi kuchayib, bu hol boshqa mamlakatlarda ham kuzatilayotgani, jahon aholisining muayyan qismi ocharchilikni boshdan kechirayotgani, savodsiz ekanligi, axborot-tehnologiya va umuman fan-tehnika inqilobi samaralaridan bahramand emasligi, butun insoniyatga xavf tug'diruvchi kasalliklar (mas, OITS) tez tarqalayotganligi shunday muammolar sirasiga kiradi;

**4) inson va tabiat o'rtasidagi munosabatlarning buzilishi natijasida vujudga kelgan global muammolar** — ular qatoriga dengiz va suv havzalarining bulg'anishi, o'rmon maydonlarining tobora qisqarishi, atmosfera ozon qatlamining yo'qolib borishi kabilar kiradi. Xatarli kimyoiy moddalarining haddan tashqari ko'p ishlatilishi natijasida ekin ekiladigan yerlarning katta qismi yaroqsiz holatga kelish xavfi kuchaydi. Sobiq SSSRda q.x. sohasida texnokratik siyosat yuritilishi oqibatida Orol dengizi suvi kamayib, g'oyat mushkul ekologik muammolarni keltirib chiqardi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I. Karimov o'z asarlarida, turli xalqaro anjumanlarda so'zlagan nutqlarida Markaziy Osiyoda global muammolarning kelib chiqish sabablari va ulami bartaraf etish yo'llarini ko'rsatib berdi, bu muammolarni hal qilish xalqaro xavfsizlik va barqarorlikni ta'minlashning muhim sharti ekanligiga jahon jamoatchiligi e'tiborini qaratdi.

Global muammolarning soni taxminan o'ntadan qirq-elliktagacha boradi. Lekin shularning ichida asosiy, eng muhim integral muammolarning soni o'ntadan oshmaydi. Ular quyidagilardan iborat:

1. Rivojlanayotgan mamlakatlarni qolqqlikdan chiqarish muammosi.
2. Tinchlik va quralsizlanish, yangi jahon urushining oldini olish muammosi.
3. Ekologik muammo.
4. Demografik muammo.
5. Energetik muammo.
6. Xomashyo muammosi.
7. Oziq-ovqat muammosi.

8. Dunyo okeanidan foydalanish muammosi.
  9. Koinotdan tinch maqsadlarda foydalanish muammosi.
- Rivojlanayotgan mamlakatlarni qoloqlikdan chiqarish global muammolarning eng muhimidir. Mazkur muammoning dolzarbligi dunyo siyosiy xaritasida qoloq mamlakatlar soni va salmog'ining kattaligi hamda mavqeining sezilarli holda oshganligi bilan bog'langan.

Hozirgi vaqtida jahonda mayjud barcha mamlakatlarning 30 foizga yaqini qoloq hisoblanadi. Shularning 3/4 qismi Afrikada, 1 tasi Janubiy Amerikada va qolgani Osiyoda joylashgan. Iqtisodiy qoloqlik mazkur mamlakatlarda siyosiy beqarorlik hamda ijtimoiy tengsizlik, irqiylig va diniy ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Urush va tinchlik muammosi XX asr ikkinchi yarmining deyarli 40 yili mobaynida haqli ravishda insoniyatning eng muhim muammosi bo'lib kelgan. 80-yillarning ikkinchi yarmi va 90-yillarda dunyo siyosiy xaritasida bo'lib o'tgan chuqur va miqyosli o'zgarishlar G'arb bilan Sharq o'rtaasida vujudga kelishi mumkin bo'lган global yadro urushi xavfni amalda yo'q bo'lishiga sabab bo'ldi. Bunday holat ushbu xavfni tarqatuvchi mamlakatlar Rossiya va AQSh hamda NATO davlatlarida harbiy-siyosiy sohada aniq amaliy tadbirlarni hayotga tatbiq etish bilan bog'langandir.

Demografik muammo ham global muammolarning eng muhim hisoblanadi. Ushbu muammolar rivojlanayotgan mamlakatlarda yuqori darajada tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan, rivojlangan mamlakatlarda esa juda past darajadagi tug'ilish va tabiiy ko'payish bilan bog'langan. Buning oqibatida birinchi guruh mamlakatlarida aholi va mehnat resurslari soni tez o'smoqda, ikkinchi guruh mamlakatlarda esa aholi va mehnat resurslari soni past sur'atlarda o'smoqdaki, ular murakkab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

**2-topshiriq.** Insoniyat oldida turgan global muammolar to'g'risida taqdimot tayyorlang.

**3-topshiriq.** Global muammolardan biriga bag'ishlangan publitsistik maqola yozing.

**4-topshiriq.** So'zлarni kerakli shakllarda qo'llab, matn tuzing.

Biz, yo'l, ket, etdik, atrof, ko'm-ko'k, o't, bilan, havo, qoplangan, edi, ochiq, birdan, qo'zg'aldi, shamol, shox, kuchli, daraxt, qattiq, tebratdi, osmon, qora, bulut, bo'l, paydo, to'xta, asta-sekin, yo'q, boshla, tobora, kuchaydi.


#### **Maqola va uning turlari.**

**Maqola** – publitsistik uslubga xos janr. Maqlolada kundalik ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan voqeа-hodisalar tahlil qilinadi; nazariy, ommaviy jihatdan umumlashtiriladi; davlat siyosati, iqtisodiyot, texnika, fan va madaniyatda erishilgan yutuqlar ilg'or ish tajribalari aks ettiriladi. Turli nuqsonlar tanqid qilinadi. Matbuotda **bosh maqola, nazariy va targ'ibot maqola, muammoli maqola** keng qo'llaniladi. **Bosh maqola** (yoki tahririyat tomonidan yoziladigan maqola) tahririyatning eng mas'uliyatli maqolasi hisoblanadi. Ushbu maqlolada ichki va xalqaro hayotga doir muhim masalalarni o'quvchilarga yetkazish – asosiy vazifa hisoblanadi. Bunday

maqola ma'lum bir masala yuzasidan yo'l-yo'riq ko'rsatishi kamchiliklarni ochib tashlashi, har bir ishning asosiy haqiqiy yo'lini belgilab berishi lozim. Prezident farmonlari, Oliy Majlis qonunlari, Vazirlar Mahkamasi tomonidan qabul qilinadigan davlat va hukumat hujjatlari, qarorlari, qonurlari davming dolzarb masalalarini bosh maqolada yoritiladi. **Nazariy maqola va targ'ibot maqolaning asosiy vazifasi** mustaqillik, milliy g'oya, istiqlol mafkurasining asoslarini va prinsiplarini; ilmiy maqolaning vazifasi fan, madaniyat, texnika yutuqlarini tushuntirish, ommalashtirish, o'quvchining g'oyaviy, ilmiy saviyasini oshirishdan iborat. **Muammoli maqolada** esa imunozara va bahs asosiy o'rinda bo'ladi hamda muallif o'z qarashlarini o'rtaga tashlaydi. Maqola so'zi keng ma'noda gazeta, jurnal, radio, televideniye, shuningdek, to'plamlardagi ilmiy asarlarga nisbatan ham qo'llaniladi.

#### **"DAVRA SUHBATI" METODI**

Mavzuni moderator boshlaydi, qolganlar aylana bo'ylab o'z fikrlarini ketma-ket davom ettiradilar. Barcha fikr-mulohazalar tinglab bo'lingach, mavzu muhokama qilinadi. Bu esa ishtirokchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi. Metodning o'g'zaki va yozma shakllari mavjud. Mavzu yuzasidan ushbu metodni qo'llang.



#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Maqola deb nimaga aytildi?
2. Maqolaning qanday turlari mavjud? Ularni farqlang.
3. Global muammo deganda nimani tushunasiz?
4. Global muammolarlami qanday guruhlarga ajratish mumkin?
5. Xalqaro siyosiy munosabatlarda vujudga kelgan global muammolarga misollar keltiring.
6. Ijtimoiy sohada vujudga kelgan global muammolar qanday bo'ladi?

## **18-MAVZU: TABIAT VA INSON**

#### **REJA:**

- Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida.
- Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.

**1-topshiriq.** Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.

#### **INSON TABIATGA MUHTOJ**

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag'rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go'zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo'yish tuyg'usini uyg'otish eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o'ziga zarur bo'lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o'zlarini o'rabi turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lib, uni to'xtovsiz o'zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bir tomonдан, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko'payishi,

shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og'ir sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini kimyo lashtirish natijasida biosfera, havo va suv iflosanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofligini ta'minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko'pchilikning xabari bor: Orol dengizi qunib borishi bilan bog'liq tabiat muvozanatining buzilishi, chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan oqilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an'anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro'z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiiy go'zallikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yerga, suvgaga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga bo'lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

**2-topshiriq.** "Bir nihol" she'rini yod oling.

## BIR NIHOL

**Erkin Vohidov**

Yurtdoshim, bog'ingga bir nihol qada,  
Bu nihol nomini Yaxshilik ata.  
Niholing yoniga bir gul ekib qo'y,  
U gulning ismini Go'zallik deb qo'y.  
Gul-u niholingga baxsh etib hayot,  
Suv ber va bu suvgaga Mehr deb qo'y ot.  
Sendan farzandingga bog' qolsin, ey do'st,  
Bog'ing Vatan degan nom olsin, ey do'st.

**3-topshiriq.** Savollarga javob bering:

1. Inson tabiatni qanday qilib boyitadi?
2. «Jonli tabiat» iborasini nimani tushunasiz?
3. Qaysi qush (daraxt, hayvon)larni yoqtirasiz? Nima uchun?
4. Suvni isrof qilmaslik degani nima?
5. Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish degani-chi?
6. So'nggi yillarda sayyoramiz iqlimi qanday o'zgardi?
7. Buning sababi nimada?
8. Uyingizda qanday jonivorlar bor? Ularga munosabatingiz qanday?
9. Mamlakatimizdagi tog'lar haqida ma'lumot bering.
10. Umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolar nimalardan iborat?

11. Uvaysiyning anor haqidagi chistonini eslang va o'zingiz O'zbekistonda o'sadigan biror o'simlik haqida topishmoq o'ylab toping

»

**4-topshiriq.** Matuni o'qing va so'zlab bering. Matni qaysi uslubda yozilganini ayting.

### TABIATNI KUZATING

Siz hech tabiatni, o'simliklar dunyosini kuzatganmisiz? Daraxt yaproqlari qanday paydo bo'lishini, gul butoqlaridan mevalar qanday hosil bo'lishini, gullarning qanday ochilishini bilasizmi?

Men gullami juda sevaman. Uzoq vaqt o'tirib ularni kuzataman. Namozshomgullarning ochilib-yopilishi, aturgul g'unchalarining sekin-asta kattalashishini ko'rish kishiga betakror zavq bag'ishlaydi. Gullar, albatta, ko'zlarini yummaydi, mushaklari charchamaydi, ammo ular ham biz kabi dam oladi. Ular ham tunda uqlashadi. Kun bo'yi quyosh nurlaridan oziq oladi va shu oziq bilan o'sadi. Quyosh bolmasa, tunda o'simliklarda hech qanday jarayon yuz bermaydi. Ular kunni kutib uqlaydi<sup>3</sup>.

### Ekologik xavf

XX asrda texnikaning rivoji, xalq xo'jaligi va kundalik turmushni kimyo lashtirish, Yer yuzida aholi sonining keskin ko'payishi oqibatida tabiat bilan inson o'rta sidagi muvozanatning buzilishi, yer, suv va havoning inson hayotiga zararli darajada ifloslanishi natijasida ekologik tanglik xavfi paydo bo'ldi.

Buning birinchi sababi jamiyatga motorlarning keng ko'lamda kirib kelishi bo'lib, XIX asrning oxiri - XX asrning ilk yillaridan boshlandi; keyingi yuz yil ichida dunyo motorlar olamiga aylandi: hozirgi davrda jahon bo'yicha necha million avtomobil, paroxod, parovoz, lokomobil, samolyot, mototsikl, yaxta, kemacha, turli yoqilg'ida va yonilg'ida ishlaydigan elektrostansiyanlar, isitish qurilmalari va hokazolarni sanab adog'iga yetib bo'lmaydi. Yoqilg'ida va yonilg'ida ishlaydigan har bir motor yoki motorli inshoot, aslida, insonga kerakli kislorodni iste'mol qiluvchi raqibdir. Motorlar tutab, bir tomondan, insonga yengillik va qulaylik tug'dirsa-da, ikkinchi tomondan, atrof-muhitni ifloslantiradi, inson yashayotgan muhitni izdan chiqarib, uni turli kasalliklarga duchor qiladi.

Ekologik tanglik xavfi yuzaga kelishining ikkinchi manbai - kimyo lashtirish, qishloq xo'jaligida, chorvachilikda, sanoatda, transportda yaxshi ko'rsatkichlarga erishish maqsadida kimyoviy moddalaridan keng foydalanishdir. Bu jarayon O'zbekistonda ham namoyon bo'ldi, sariq kasali bo'yicha respublikamizning jahonda "yetakchi" o'ringa chiqishiga olib keldi, turli kasalliklarning keng tarqalishiga sababchi bo'ldi. Ekologik tanglik xavfi o'sishining uchinchi sababi - aholining talablari va unga ko'rsatiladigan maishiy xizmatning takomillashishi natijasida paydo bo'ladigan iflos chiqindilaming ko'payishidir (turli ishlatilgan qog'oz, karton, quticha, butilka, flakon, oziq-ovqat qoldiqlari va hokazolar).

Jamiyat hayoti izchil ilmiy negizda tashkil qilinib, u fan tavsiyalari va tibbiyot


<sup>3</sup> Muhiddinova X.S. va b. O'zbek tili. - T.;2006,79-6et.

qonunlari asosida olib borilsa, ekologik tanglik xavfini kamaytirish va asta-sekin zaruriy muvozanatga erishish mumkin.

O'zbekistonda ekologik tanglik xavfi, ayniqsa, katta e'tiborni talab qiladi. O'zbekiston - qadimiy boy sivilizatsiyaning markazlardan biri. Uning aholisi zinchoylashgan va yil sayin o'sib bormoqda. Keyingi yuz yil ichida (1897-1997) O'zbekistonda aholi soni o'n barobar o'sdi. Ammo suvni iste'mol qilish, aholiga xizmat ko'rsatish madaniyati takomillashishi bilan, sug'oriladigan yerlar sathi kengayishi sababli, o'n besh barobar o'sdi. Suv beradigan manba esa o'sha ikkita - Amudaryo va Sirdaryo. Ko'z o'ngimizda yuzaga kelayotgan bu nomutanosiblik ekologik ahvolni yanada jiddiyashtirishi mumkin.

**5-topshiriq.** O'zingiz voyaga yetgan shahar yoki qishloqning tabiatи haqida so'ziab bering. Yil fasllarida tabiat qanday o'zgarishini tasvirlang. Bunda atov gaplar, undov so'zlar, kirish konstruksiyalar, undalmalardan va tilning tasviriy vositalardan foydalaning.

**6-topshiriq.** Quyidagi rasmlarga qarab turli uslublarda nutq tuzishga harakat qiling. Nutqingizda yurtimiz tabiatи, tabiat hodisalari, ekologik muammolarga oid ma'lumotlarni keltiring.



## «INSON TABIATGA MUHTOJ!» MAVZUSI BO' YICHA SLAYDLAR

### “Inson tabiatga muhtoj” matni ustida ishlash.

«Inson – tabiat farzandi», - deydi dono xalqimiz. Inson tabiat bag'rida vujudga keladi va kamol topadi. Kishilar qalbida go'zallikni his etish, uni ardoqlash, borliqqa mehr qo'yish tuyg'usini eng muhim vazifalardan biridir.

Havo, suv, oziq-ovqat, sanoat uchun xomashyo kabi o'ziga zarur bo'lgan hamma narsani inson tabiatdan oladi. Odamlar o'zlarini o'rabi turgan tabiiy muhit bilan doimiy aloqada bo'lib, uni to'xtovsiz o'zgartirib borishadi.

Biroq inson tabiatga ikki tomonlama: ijobiy va salbiy ta'sir o'tkazmoqda. Bir tomonidan, inson tabiatni boyitadi. Ikkinchidan, aholining keskin ko'payishi, shaharlarning kengayishi, yangi industrial markazlarning vujudga kelishi, ayniqsa, mashinasozlik va og'ir sanoatning rivojlanishi, qishloq xo'jaligini kimyolashtirish natijasida biosfera, havo va suv ifloslanib, tabiiy muvozanat buzilib bormoqda.

Atmosferani toza saqlash, flora va faunani qirilib ketishdan asrab qolish, suv havzalarining sofligini ta'minlash va hokazolar barcha davlatlar ishtirokida hal etilishi kerak bo'lgan dolzarb xalqaro vazifalardir.

Diyorimizdagi ekologik muammolardan ko'pchilikning xabari bor. Orol dengizi qunb borishi bilan bog'liq tabiat muvozanatining buzilishi, chuchuk suv miqdorining kamayib borishi, sanoat hududlari va shaharlardagi havoning zaharlanishi...

Tabiat inson uchun xizmat qilar ekan, undan ogilona va odilona foydalanish kerak.

Xalqimizda an'anaviy tabiat va mehnat bayramlari keng nishonlanadi. Masalan, Navro'z, gullar bayrami, lola sayli, qushlar bayrami, qovun sayli, obodonlashtirish tadbirlari kabilar yosh avlodda atrof-muhitni asrab-avaylab, tabiyi go'zallikning qadriga yetish tuyg'ularini shakllantiradi. Ekologik tarbiyani amalga oshirishda madaniy-ma'rifiy, targ'ibot va tashviqot ishlarini yanada kuchaytirish zarur.

Yerga, suvgaga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga bo'lgan munosabatimizni yaxshilash orqaligina ona tabiatimizni asrab qolish mumkin. Inson tabiat farzandi ekan, farzandning onaga mehribonlik qilishi umuminsoniy burchdir.

#### «Insert» texnikasi

• **Metodning maqsadi:** Mazkur metod talabalarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilmalmi o'zlashtirilishini engillashtirish maqsadida qo'llaniladi, shuningdek, bu metod talabalar uchun xotira mashqi vazifasini ham o'taydi.

• **Metodni amalga oshirish tartibi:**

O'qituvchi yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matnni talabalarga tarqatadi;

Tabalalarga individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o'z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilari orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgililar	1-matn	2-matn	3-matn
“V” – tanish ma'lumot.			
“?” – mazkur ma'lumotni tushunmadim, izoh kerak.			
“Q” bu ma'lumot men uchun yangilik.			
“_” bu fikr yoki mazkur ma'lumotga qarshiman?			

Belgilangan vaqt yakunlangach, o'quvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to'liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg'ulot yakunlanadi.

#### ОХРАНА ВОДЫ

Вода — это жизнь. Она нужна и для людей, и для живой и неживой природы. Поэтому человек должен следить за чистотой воды и водоёмов. Чистая вода нужна для питья. В воде, загрязнённой сточными водами фабрик, заводов и жилищ, гибнут растения и животные. Большой вред водоёмам приносит

загрязнение нефтепродуктами. От них погибают рыбы и другие животные, которые служат им кормом. Нефть смачивает оперение водоплавающих птиц. Оно теряет воздух и птицы погибают от охлаждения тела. Закон об охране природы запрещает спускать в водоёмы вредные отбросы и сточные воды.

**7-topshiriq.** Dunyoda va O'zbekistonda mavjud ekologik muammolar haqida esse yozing.

**8-topshiriq.** "Orol fojiasi" mavzusida taqdimot tayyorlang.

#### **Intervyu olish va intervyu berish qoidalari.**

"Intervyu" so'zi inglizcha interview – uchrashuv degan ma'noni anglatib, publitsistika janri sanaladi. Ko'rsatuv ishtirokchisi bilan savol-javob jarayonida dolzarb masalalar yuzasidan o'quvchiga qiziqarli ma'lumot berish intervyu hisoblanadi. Xususiyatiga ko'ra u har doim odamlarning muayyan voqeа, hodisalar, hayot tendensiyalariga doir fikrlarini yoritishga qaratilgan<sup>4</sup>.

Mazmun-mohiyatiga ko'ra bu janming bir necha turlari mavjud: "intervyu-monolog, intervyu-xabar, intervyu-doilog, intervyu-lavha, intervyu-fikr va anketalar". A.A.Tertichniy fikricha, ushbu janming "axborot intervyu, blis-so'rov, savol-javob, tahliliy intervyu, tahliliy so'rov, suhbat turlari ham mavjuddir".

Teleintervyu har doim ham tom ma'noda faqat suhbatdan iborat bo'lmaydi. Uning shakli journalist niyati va uni amalga oshirishda qanday usul tanlashi bilan bog'liq. Suhbatga hisobot yoki reportaj, sharh unsurlari, turli badiiy manzaralar, musiqali lavhalar ham qo'shilishi mumkin.

Intervyu – savollar va javoblar sistemasidir. Jurnalning vazifasi – imkon qadar javob suhbatdoshning nuqtayi nazarini bildirish, unga o'z fikrlari va "sharh"larini tiziqshtirmaslikdan iboratdir<sup>5</sup>.

Intervyu jarayonida muxbirning o'z fikrini suhbatdosh so'zlarini bilan tasdiqlatishga urinishi noto'g'ridir. Intervyu olishda savol berish mahorati juda muhim rol o'yynaydi. Mazkur jarayonda mohirona berilgan savollar natijasida ko'rsatuv mazmun-mohiyati ochib beriladi.

Xulosa qilish mumkinki, hatto yaxshi journalist qo'lidagi material ham, agar uning mazmuni shakliga bo'ysunmasa, ko'p hollarda sun'iy chiqadi. Gap kerakli mazmunni teleauditoriyaga samarali tarzda yetkaza bilishda. Janr aynan shunga xizmat qilishi kerak, ya'ni mazmun janrga bo'ysundirilishi mumkin emas, aksincha, oxir-oqibatda mazmun va uni ochib berish usullari janr xususiyatlari ko'rsatuvda o'z ifodasini qanday topishini belgilaydi. Demak, janr sof shaklda bo'lishi ham, boshqa janrlaming unsurlarini qamrab olishi ham mumkin.

<sup>4</sup> Н.М.Ким. Жанры современной журналистики СПб.: Изд. В.А.Михайлова.; с. 147.

<sup>5</sup> А.А.Грабельников. Работа журналистов прессы. М.: 2001., с. 219.

<sup>6</sup> А.А.Тертычный. Жанры периодической печати. М.: Аспект Пресс., 2000, с. 80-115.

<sup>7</sup> Редколлегия: Г.В.Кузнецов В.Л.Цвик, А.Я.Юровский. Современная журналистика. Учебник. – М.: МГУ, 1998; с. 137.

**9-topshiriq.** Quyidagi savollar bilan murojaat qilib bir-biringizdan intervyyu oling va intervyyu bering.

### **SAVOLLAR**

1. O'zbekiston hududida o'simliklarning qancha turi mavjud?
2. Ular qay holatda o'sadi?
3. O'zbekistonning tabiatini qanday?
4. O'zbekistonda tog'lar, qir-adiriar, daryolar, suv omborlari, o'rmon va cho'llar bormi?
5. Cho'llarda qanday o'simliklar o'sadi?
6. Toglarda qanday daraxtlar o'sadi?
7. Inson hayoti uchun o'simliklarning qanday ahamiyati bor?
8. O'zbekistonda eng ko'p ekiladigan qanday o'simliklarni bilasiz.
9. Qanday mevali daraxtlarni bilasiz?
10. O'simliklar yana qanday xususiyatlarga ega?
11. Insoniyat o'simliklarning bu xususiyatidan qachondan beri bahramand bo'lib kelyapti?
12. Madaniy ekinlar ham shifobaxsh xususiyatlarga ega bo'ladimi?
13. Doimo sog'lom bo'lishning garovi nima?
14. Yovvoyi o'sadigan dorivor o'simliklardan qaysilarini bilasiz?
15. Shifobaxsh o'simliklar tarkibida zaharli moddalar ham bo'lishi mumkinmi?
16. Agar ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli modda ozgina ko'paysa nima boladi?
17. Zaharli moddasi bo'lgan o'simliklardan qaysilarinibilasiz?
18. Ulami yig'ayotganda qanday ehtiyoj choralarini qo'llash kerak?
19. Hayot manbai bo'lgan o'simliklarga qanday munosabatda bo'lishimiz lozim?
20. Siz o'zingiz qanday o'simliklarni ekib, parvarish qilasiz?

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. Nima uchun „Suv — hayat manbayi“ deyiladi?
2. Suvning tozaligini saqlash va uni isrof qilmaslik uchun nima qilish kerak?
3. Siz ariqlar, anhorlar va ko'llardagi suvni toza saqlash bo'yicha qanday takliflar bera olasiz
4. Intervyyu olish va intervyyu berish qoidalari haqida nima bilasiz?
5. Intervyyuning necha turi mavjud?

## 19-MAVZU: INSON VA SALOMATLIK

### REJA:

- Salomatlik haqidagi o'zbek xalq maqollaridan namunalar.
- Reportaj tayyorlash.

*1-topshiriq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga tarjima qiling.*

### ЧТО ВЛИЯЕТ НА ЗДОРОВЬЕ ЛЮДЕЙ?

Абул Баракат Кадыри ибн Мухаммад Насруллах (XV в.) в своей книге «Качкули Султания» («Книга султанов») пишет:

Следующие факторы плохо влияют на здоровье людей:

- употребление спиртных напитков, курение;
- неосторожное отношение с животными (ставить перед ними пищу, воду, которую человек хочет позже употребить);
- пересчур много кушать, есть слишком горькую пищу;
- расчесывать свои волосы чужой расческой;
- оставлять открытой посуду с чистой водой, вообще, с пищевыми продуктами;
- шить иголкой одежду, в которую в данный момент одет человек;
- быть злым и коварным, всегда думать о плохом.

А следующие факторы благоприятно влияют на здоровье людей:

- мало есть, мало говорить, меньше спать, дышаться приятными духами, часто купаться;
- часто чистить зубы, чисто и красиво одеваться, вовремя стричь волосы и ногти;
- быть приветливым и искренним, добрым и радушным во всех отношениях, помогать слабым и малоимущим людям.

*2-topshiriq. Matnni o'qing va o'zbek tiliga taijima qiling.*

### БИЛАСИЗМИ? - ЗНАЕТЕ ЛИ ВЫ?

Врачевание в Средней Азии являлось очень древней и почетной профессией. Врачи табибы передавали свои знания из поколения в поколение. Каждый табиб занимался узкой специализацией, были такие, как табиб-терапевт, лечащий травами, костоправ и другие. Больные в зависимости от своей болезни ходили к тому или иному табибу. Врачами назначалась диета для больных. Многие приёмы лечения используются и по сей день<sup>8</sup>.

*3-topshiriq. Yuqorida ko'rsatilganlardan tashqari, yana qaysi holatlar inson salomatligiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi haqida fikringizni yozma bayon eting.*

*4-topshiriq. Savollarga javob bering:*


1. Parhez nima? Siz parhez qilasizmi?
2. Qanday kasalliliklarni bilasiz?
3. Sog'liqni qanday asraymiz?

<sup>8</sup> Muhiddinova X.S. va b. O'zbek tili. - T.;2006,65-бет.

4. Qanday sport turi bilan shug'ullanasiz?

**5-topshiriq.** "Salomatligimiz o'z qo'llimizda" mavzusida esse yozing.


**6-topshiriq.** Suratda ko'rsatilgan tana a'zolarini o'zbek tiliga tarjima qiling.



**7-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Donolarning salomatlik haqidagi fikrlarini yod oling.

1. Jismoriy mashqlar bilan doimo mo'tadil shug'ullanib borgan kishi hech qanday davoga muhtoj bo'lmaydi. (*Ibn Sino*). 2. Odamning salomatligi tashqi sharoit bilan chambarchas bog'langan. (*Ibn Sino*). 3. Agar havoda chang va tuman bo'lmasa edi, kishi ming yil yashagan bo'lardi. (*Ibn Sino*). 4. Olti narsa kishi yuzini o'zgartiradi: kutilmagan shodlik, birdan kelgan g'am, g'azab, uyqu, mastlik va qarilik. (*Kaykovus*). 5. Ko'p demak birla bo'limg'il nodon, ko'p yemak birla bo'limg'il hayvon. (*A. Navoiy*). 7. Badan rohati sog'liqda, aql rohati bilminda. (*Fales*). 8. Kasal bo'lмаган uncha sog'liqning qadriga yetmaydilar. (*Fuller*). 9. Har bir istakning tub maqsadi - sog'liqdir. (*At-Tabariy*). 10. Isitma - shifo beruvchi jarayondir. (*Kullen*). 11. Men hayotda ikkita baxtsizlikni bilaman: u ham bo'lsa vijdonsizlik va bemorlikdir. (*L.N.Tolstoy*). 12. Bizning xatomiz shundaki, o'z salomatligimiz haqida faqat uni yo'qotganimizda, ya'ni mexanizm sinib, uni tuzatish kerak bo'lqandagina qayg'uramiz. (*K. Bikov*). 13. Umringni uzaytirishni istasang, taomni kamaytir. (*V. Franklin*).

**8-topshiriq.** "Nima uchun?" sxemasini to'ldiring.



**9-topshiriq.** Matnni o'qing. O'zingizni fe'l-atvoringiz haqida so'zlab bering.

**Kishi fe'l'i va qon**

Olimlar fikricha, qon guruhi kishining fe'l-atvori va o'ziga xos xususiyatlarini belgilaydi. Bu fikrni yapon olimi Poshitakening millionlab kishilar hayotini o'rganish xulosalari tasdiqlaydi.

Nomi o'rganilib, xulosa qilgan qon guruhlari bo'yicha kishilarning fe'l-atvorlari quyidagicha:

Birinchi guruh: siz peshqadamlikka o'chisiz. Oldingizga qo'ygan maqsadga erishmaguncha tinchimaysiz. Olg'a harakat qilishda to'g'ri yo'naliш belgilay olasiz. O'z kuchingizga ishonasiz, lekin ehtiroslardan ham holi emassiz. Kamchiliklarinigiz ham bor. Siz o'ta rashkchi va shoshqaloqsiz. Bundan tashqari, siz juda izzattalabsiz.

Ikkinchi guruh: Siz muvozanat, osoyishtalik va tartib-intizomni yaxshi ko'rasiz. Odamlar bilan yaxshi ishlay olasiz. Bundan tashqari, siz ta'sirchan, madaniyatli va ochiqko'ngilsiz. Sizning kamchiliklarinigiz o'jarligingiz va asablariningizni boshqara bilmasligingizda.

Uchinchi guruh: Siz shakllangan shaxsiyatparastsiz, o'z xohishi bo'yicha ish qiluvchisiz. Hamma narsaga tez moslasha olasiz, xayolparastlikdan uzoqsiz. Lekin sizning o'zboshimchalik bilan ish qilishingiz ba'zi vaqtida xalaqt qilishi mumkin.

To'rtinchi guruh: Siz tinch va xotirjamsiz, kishilar sizni sevadilar va siz bilan o'zlarini erkin his qiladilar. Ularning vaqtini choq qilishni bilasiz. Lekin ayrim vaqtarda qiziqqonsiz. Ba'zan esa uzoq vaqt ikkilanib, bir qarorga kelishga qynalasiz.

**Bilasizmi...**

Odam tanasida 80 grammga yaqin temir, 150 gramm natriy, 1000 gramm kalsiy, 60 gramm magniy, 65 foiz, ya'ni umumiy og'irlikning 45 kg. miqdorida kislorod, 10 foiz – 7 kg. miqdorda vodorod, 0,02 foiz ftor bo'ladi.

Inson o'rtacha 70 yil umr ko'rsa, shundan 23 yilini uslash, 13 yilini kishilar bilan so'zlashish va 6 yilini ovqatlanish uchun sarf qilar ekan.

Bir kishi o'rtacha iqlim sharoitida yil davomida bir tonnaga yaqin suv iste'mol qiladi.

### TARQATMA MATERIALLAR

Nima deb o'ylaysiz nimalarga amal qilinsa uzoq umr ko'rish mumkin? O'z fikr-mulohazangizni bildiring.

**Qanday omillar inson salomatligiga ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi?**

Ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

Salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar;

## **Rolli o'yin**

Talabalarai guruhlarga bo'lgan holda har bir guruh uchun ma'lum kasallik turi yozilgan kartochkalar tarqatiladi. O'quvchilar ushbu kartochkada belgilangan kasallik qaysi shifokor qabuliga bonshi kerakligini aniqlaydilar va shu tarzda "Shifokor qabulida" mavzusida dialog tuzib, rolli o'yninga kirishadilar.

***Tumov***

***Yurak sanchig'ida***

***Oshqozon og'riganda***

***Tomoq og'rig'i***

***Oshqozon og'riganda***

***Tomoq og'rig'i***

***Tish og'riganda***

***Shamollahsha***

***Shamollahsha  
(bolalar shifokori)***

***Ko'z kasalliklarida***

***Shamollahsha  
(bolalar shifokori)***

***Ko'z kasalliklarida***

***Tanada toshmalar  
paydo bo'lganda***

***Yod tanqisligida***

## SHIFOKOR QABULIDA



Oftalmolog  
Kardiolog  
Lor  
Nervopatolog  
Terapevt  
Pediatr  
Endokrinolog  
Dermatovenerolog  
Stomatolog

### Reportaj tayyorlash.

Reportaj (ing. report — yetkazmoq, xabar qilmoq) — jurnalistikaning informatsion janr turi. “Reportaj – telejournalistikaning eng keng tarqalgan, ta’sirchan, yetakchi janridir... Reportaj – muxbir o’zi guvoh bo’lgan yoki qatnashgan biron-bir voqeа haqidа matbuotda, radio va televideniyeda tezkor ma'lumot beradigan jurnalista janri”<sup>9</sup>.

Demak, bu janrda jurnalist (reportyor) bevosita o’zi ishtirok etgan, shohidi bo’lgan, ko’rgan voqeа-hodisalar haqidа zudlik bilan yorqin, atroficha xabar beradi. Bunda, odatda, muallif voqealarni o’z tilidan bayon etadi. Reportajda barcha informatsion janrlar (lavha, hisobot, suhabat va sh.k.) unsurlari qo’shilib ketadi. Unda badiy obrazlar, tarixiy dalillardan keng foydalaniladi.

Ommaviy axborot aloqa vositalari turi (matbuot, radioeshittirish, teleko’rsatuv)ga qarab materiallarni reportaj orqali yoritishning ayrim o’ziga xos xususiyatlari bor. Matbuotda (asosan, gaz.da) reportaj voqeaband va mavzuli (turli vaqtda bo’lgan voqealar bir mavzuga birlashtirilib bayon etiladi) bo’lishi mumkin. Bunday reportajlar, odatda, voqealar bo’lib o’tgan joylardan olingan fotosuratlar bilan bezatiladi. Matbuotda fotoreportajlar ham keng tarqalgan. Radio orqali beriladigan reportajda voqealar obrazli, jonli so’zlar bilan tavsiflanib, hamma vaqt xronologik izchillik saqlanadi. Teleko’rsatuvlardagi reportajda ekranda namoyish etilayotgan voqealar sharhlab beriladi.

Reportajning ayrim turlariga to’xtalib o’tsak:

<sup>9</sup> Редколлегия: Г.В.Кузнецов, В.Л.Цвик, А.Я.Юровский. Телевизионная журналистика. Учебник. – М.: МГУ, 1998; с. 190-191.

**Rasmiy muammoli reportaj** tez-tez uchrab turadi. Markazida biror ijtimoiy muammo turadigan bunday reportaj rasmiy tadbirlardan journalist tomonidan tayyorlanadi.

Janning yana bir ko'rinishi **maxsus reportaj**. Uni maqsadli reportaj deb atasa ham bo'ladi. bunday material tahrriyatning maxsus topshirig'iga binoan tayyorlanadi. Ammo ba'zi olimlar reportajning bu turini muammoli reportaj deb atab, unda nafaqat katta vazifalar rivoji ko'rsatilishi, balki barcha muammolar mujassamlashtirilgan bo'lishi kerak, deya tushuntradi<sup>10</sup>.

**Sport reportaj** turi voqeа haqida bevosita hisobot ekanligi bilan ajralib turadi.

Shuningdek, bayram reportaji, lirik reportaj, criminal reportaj (Rossiyada ko'p uchraydi), mavzuli reportaj ko'rinishlari ham uchrab turadi<sup>11</sup>.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Reportaj so'zining manosi nima?
2. Reportajning boshqa publisistik janrlardan farqi nimada?
3. Reportajda qaysi informatsion janrlar unsuri qo'shilib ketadi?

### **20-MAVZU. HUQUQIY MADANIYAT**

#### **REJA:**

- Matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash.
- "Qonunlarni o'rganish va ularga rioya qilish" mavzusida matn tuzish.
- Rasmiy-idoraviy uslub va uning xususiyatlari.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing, termin va iboralarning ma'nosini izohlang. Matndagi asosiy fikni so'zlab bering

#### **HUQUQIY MADANIYAT**

Huquqiy madaniyat- umumiylar madaniyatning muhim qismi bo'lib, quyidagi asosiy tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. Davlat tomonidan xalq va jamoat birlashmalari nuqtayi nazarlarini ham ifodalovchi huquqiy siyosatning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi. Bu siyosat davrning ruhini huquqda ifodalashi lozim. Masalan, mustaqillik va bozor munosabatlari bilan bog'liq masalalar va vazifalar huquqiy siyosatdagi bosh yo'naliishlardandir.
2. Yuksak darajada rivojlangan yuridik fanlarning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy madaniyatning muhim qismidir.
3. Keng va faol huquqiy ong huquqiy madaniyatning bir qismi bo'lib, u davlat va huquqiy ruhiyat va huquqiy mafkura jiddiy o'r'in tutadi.
4. Huquqiy madaniyat - bu insonlarning davlat va huquq haqidagi muhim bilimlarni egalab olganlik darajasidir.
5. Ilgari erishilgan va to'plangan barcha huquqiy tajriba, huquqiy yodgorliklar va ularning ommaga tarqatilishi huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.

<sup>10</sup> Qarang: Г.В.Кузнецов. Так работают журналисты ТВ М.: 2004., с. 68.

<sup>11</sup> Bu haqida qarang: Р.Алламберганова. Telejurnalistika janrlari (Qoraqalpog'iston televideniyesi misolida). – "Yangi asr avlod", 2014., 25-34-betlar.

6. Amaldagi me'yoriy huquqiy hujjatlar: Konstitusiya, qonunlar, kodekslar, farmonlar, qarorlar va boshqa huquqiy manbalar huquqiy madaniyatning asosini tashkil etadi.
7. Huquq ijodkorligi madaniyati, huquq me'yorlarini yaratish masalasi, yuridik texnika darajasi, masalan, deputatlar va apparat xizmatchilarining huquqqa yondashuvi qanchalik yuqori va xolisona bo'lsa, huquqiy madaniyat ham shunchalik yuksak bo'ladi.
8. Huquqni amalga oshirish ishlarining tashkil etilishi qanchalik yuqori bo'lsa, u huquqiy madaniyatga ham o'z ijodiy ta'sirini ko'rsatadi va aksincha.
9. Huquqiy madaniyatning yana bir qismi - huquqni amalga oshiruvchi davlat idoralari va mansabdar shaxslarning huquq me'yorlari talablari darajasida hamda doirasida o'z huquqi, burchlarini bajarishi, ularni anglab olishidir.
10. Mamlakatning davlat va jamiyat hayotidagi qonunchilik darajasi, hammaning qonun va sud oldida tengligi huquqiy madaniyatning ajralmas qismidir. Huquqiy madaniyatni muntazam boyitib borish uchun quyidagilar muhim ahamiyat kasb etadi: yuksak malakali sud-adliya kadrlarni tayyorlab borish; barcha oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktab, litsey va kollejlarda huquq haqidagi bilimlarni o'rgatish-o'manish, mazkur fanlardan imtihonlar joriy etish, radio, televide niye, vaqtli matbuotda huquqiy bilimlarni keng targ'ib va tashviq qilish; aholining mustaqil ravishda huquqiy bilimlarni o'rganishi uchun qonun hujjatlarini muntazam chop etib borish; sud, prokuratora, militsiya organlarining ish tajribasi ommalashtirib borish; adliya va huquqshunoslik fanlarini rivojlantirish, oshkoralikni ta'minlash; boshqa davlatlarning huquqiy tajribasini o'rganish va ulardan foydalanish; badiiy adapbiyotda, san'atda huquqiy bilimlarni tarqatish; huquqiy xulqni rag'batlantirish. Xullas, Huquqiy madaniyat inson madaniyatining muhim qismi, uning bilan o'zaro bog'liqdir. Huquqiy madaniyat tarixan asta-sekin shakllangan ijtimoiy voqealarni bo'lib, hozirgi davrda rivojlangan huquqiy davlatlarning va ular fuqarolarining zaruriy xislati va taraqqiyot omiliga aylandi. Rivojlangan mamlakatlar bu borada sezilarli yutuqlarga erishdilar va ularning har bir fuqarosi har bir masalada qonunlarga suyanib ish olib boradi, o'z haq va huquqlari davlat yoki ayrim shaxslar tomonidan buzilgan taqdirda, ularning darajasi va mavqeidan qat'iy nazar, sud orqali adolatli yechimga erishadi.

#### TUSHUNCHALAR TAHЛИI

Tushunchalar

Sizningcha bu  
tushuncha qanday  
ma'noni anglatadi?


Quyidagi  
tushunchalarning  
sohangizdag'i ahamiyati  
qanday?

Huquq			
Burch			
Konstitusiya			

Hujjat tili			
Rasmiy uslub			
Ixtisoslik leksikasi			

**2-topshiriq.** "Qanday?" sxemasini to'ldiring.

Talaba-yoshlar o'z huquq va burchlarini bilishi uchun "Qanday?" chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak?



**3-topshiriq.** Matn qaysi nutq uslubida tuzilganligini aniqlang

**Fuqarolarning asosiy huquq va burchlari**

Fuqarolarning asosiy huquqlari - jahondagi rivojlangan, ma'rifatparvar, demokratik davlatlarda xalqlarning huquqiy va haqiqiy tengligini, har bir fuqaroning erkinligini ta'min etish bo'yicha tajribasini o'rganish natijasida O'zbekistonda fuqarolarning huquqlari va burchlari aniqlandi. Mustaqil O'zbekistonning demokratik mohiyati, avvalo, uning xalq manfaatlarini himoya qilishida namoyon bo'lmoqda. Inson huquqlarini va erkinliklarini rivojlantirish va takomillashtirish mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining asosiy tamoyilidir. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida va qonunlarida belgilangan huquq, erkinlik va burchlarning joriy etilishi, ularning qonuniy huquq va manfaatlarini davlat tomonidan qo'nqlanishida o'z ifodasini topadi va ular uch guruhgaga bo'linadi:

I. Ijtimoiy-iqtisodiy huquqlar: mehnat qilish, dam olish, bilim olish, moddiy ta'minot kabi huquqlardan iborat.

II. Siyosiy huquq va demokratik erkinliklar: fuqarolarning jamoat birlashmalariga, siyosiy partiyalarga uyushish huquqi, saylash va saylanish huquqi, so'z va matbuot erkinligi, majlis va mitinglar, namoyishga chiqish huquqlaridan iborat.

III. Uy-joy daxlsizligi, shaxsiy huquqlar.

Bu huquq va erkinliklar O'zbekiston davlatida fuqarolar erkin rivojlanishining asosiy omilidir.

*Eslab qoling!*

**Huquqiy madaniyat**— bu qonunni tushunish, bilish, hayotga tatbiq etish, ijrosini ta'minlash, har bir shaxsning, fuqaroning ijtimoiy hayotda faol ishtiroki va bunday faollikni boshqalardan ham talab qilish jarayonidir.

**4-topshiriq.**

O'z huquq va erkinliklaringizni bilasizmi? Shu haqda o'rtog'ingiz bilan suhbatga kirishing.

**5-topshiriq.** "Baxtimiz qomusi" mavzusida insho yozing.

**6-topshiriq.** Matmi o'qing, yozma tarjima qiling.

Burch va sadoqat quyida ayniqsa namoyon bo'ladi:

- Ona Vatanni himoya qilish - fuqarolik burchi;
- fidoyilik ko'rsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;
- yurt chiroyiga chiroy qo'shish, uning boyligi yo'lida fidoyilik ko'rsatib mehnat qilish - vatanparvarlik burchi;
- ota-onaga sadoqat va ularga xizmat qilish - farzandlik burchi.

Sadoqat bilan burchni tarixda yashab o'tgan ulug'kishilar bag'oyat qadrlaganlar, kishidagi eng oljanob fazilat deb bilganlar. Masalan:

"O'z burchingni ado et, o'sha zahoti o'zingni anglaysan". (*I.Gyote*).

Burchingni unutma, u yagona dil navosidir. Burchsiz hayot ham, ehtiros ham yo'q. (*A. Blok*).

**7-topshiriq.** Umumxalq leksikasiga kirgan huquqiy terminlar lug'atini tuzing.

**8-topshiriq.** Testlarni rus tiliga tarjima qiling va javobini toping.

**O'zbekiston davlati va huquqi asoslari fanidan savollar**

1. O'zbekiston Konstitutsiyasining 9-moddasida jamiyat va davlat hayotining eng muhim masalalari xalq muhokamasiga taqdim etiladi, umumiy ovozga (referendum)ga qo'yiladi, deb ko'rsatilgan. Ayting-chi, nimalar umumxalq ovozi bilan hal qilinadi?

2. O'zbekiston Respublikasi terma komandasining a'zosi N. endi 18 yoshga to'lib, hayotida birinchi marotaba saylovga qatnashishi kerak edi. Lekin musobaqa uchun boshqa shaharga ketishi tufayli N. saylovga qatnasha olmayman deb achindi.

Ayting-chi, N. saylovga qatnashadimi? Agar qatnashsa, qanday turda o'z huquqini amalga oshiradi?

3. M. ismli fuqaro, Yakkasaroy tuman prokuraturasiga qo'shnisi S. o'z sheri bilan birlgilikda jinoyat qilishga tayyorgarlik ko'rayotganligini ma'lum qildi. Prokuror tergovchiga S. ni hibsga olishni buyurdi.

Ayting-chi, prokuror to'g'ri buyruq berdimi? Tergovchi Konstitutsianing qaysi moddasiga qarshi harakat qildi?

4. O. ismli fuqaro ishdan qaytib uyiga kelganda ayrim buyumlari o'g'irlanganligini ko'rdi, o'g'ri shu mahallada yashovchi M. ekanligiga ishonch hosil qilib, uning eshigini buzib, uyidan mol-mulkini olib chiqib ketdi. Ayting-chi, O. Konstitutsianing qaysi moddasiga xilof harakat qildi? U qanday ish ko'rmog'i qonuniy?

5. A. ismli xizmatchi ishdan bo'shash to'g'risida „o'z roziligi” bilan deb ariza yozdi. Bir qancha vaqt o'tgach direktor chaqirib arizani qayta yozishni va ishdan bo'shash sababini ko'rsatishni talab qildi. A. rozilik bermadi. Bu vaziyatda kim haq?

#### Lug'at

xalq muhokamasi - всенародное обсуждение  
umumxalq ovozberishi - всенародное голосование, референдум  
jinoyat - преступление  
hibsga olmoq - арестовать  
qonunga xi洛 harakat- противоправное (незаконное) действие  
sovucconlik - хладнокровие

#### RASMIY-IDORAVIY USLUB VA UNING XUSUSIYATLARI.

Diplomatik yozishmalarda, iqtisodiy, yuridik munosabatlar ifodasi bo'lgan hujjatlarda, davlat idoralari, sudlar, savdoga doir muomalalarda rasmiy stil ishlataladi. Rasmiy stil ish yuritish hujjatlarida qo'llanadi. Bunga ariza, tushuntirish xati, e'lon, tarjimayi hol, ishonch qog'oz, tilxat, hisobot, notalar, buyruq va farmonlar, farmoyishlar, taklifno ma, rasmiy xatlar, tijorat yozishmalari kabilar kiradi. (Bu qog'ozlarning qanday yozilishi haqida M.Aminov, A.Madvaliyev, N.Mahkamov, N.Mahmudovlarning «Ish yuritish» degan kitobidan har tomonlama ma'lumot olish mumkin).

Bu stilda adabiy me'yorga qat'iy rioya qilinadi, shevaga hos so'zlar, jargonlar, har hil stilistik bo'yoqqa ega bo'lgan so'zlar ishlatalilmaydi. Bu stil qisqa, aniq, lo'ndaligi bilan o'ziga hoslikni ko'rsatib turadi. Jumlalar ham inversiyasiz bo'lishi lozim. Gaplarda ta'sirchanlik bo'lmaydi. Rasmiy stilda yoziladigan ayrim hujjatlar shtampga o'xshash maxsusus tartib va shakl bilan yoziladi. Masalan, rasmiy xatlar, ariza, tushuntirish xati, bildirgi, ma'lumotnomalar, qarorlarni ko'rsatish mumkin.

Hujjatlar stilida ot turkumiga oid so'zlar ko'p qo'llanadi. Hatto, fe'l so'zlar ishlataliganda, uning otga yaqin shakli harakat nomidan foydalaniadi. Masalan, *qabul qilishingizni so'rayman, qarorning bajarilishi, stipendiya tayinlash, talabalar safiga tiklash* kabilar.

Fe'llar majhul nisbatda va buyruq-istak mayli shaklida qo'llanadi. Bajarilsin, tayinlansin, amalga oshirilsin, qaror qilindi, ko'rib chiqildi, eshitildi kabilar. Agar pul, buyum miqdori ko'rsatilishi lozim bo'lsa, oldin raqam bilan qavs ichida harflar bilan yoziladi.

#### SAVOLLAR

1. Rasmiy stilning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
2. Rasmiy stilning qanday ko'rinishlari bor?
3. Rasmiy stilning fonetik, leksik, grammatik xususiyatlari deganda nimani tushunasisiz?
4. Nima uchun ayrim hujjatlarning sintaktik qurilishi murakkab bo'ladi?
5. Diplomatik hujjatlar qaysilar va ularning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

#### Mustahkamlash uchun savollar

1. O'zbekiston konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?
2. Konstitutsiyamizdagи qaysi modda boshqa hech bir mamlakat konstitutsiyasida berilmagan?

3. Demokratiya nima?
4. O'z huquq va erkinliklaringizni bilasizmi?
5. Yurt oldidagi burchingiz nimalardan iborat?
6. Ota-onal oldidagi burchingiz-chi?
7. Huquqiy madaniyat nima?

## 21-MAVZU. O'ZBEKISTONDA OLIV TA'LIM

**Reja:**

- Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlash.
- O'zbekistonidagi oliy ta'lismu muassasalarini haqida ma'lumot tayyorlash.
- Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar.

**1-topshiriq.** Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang. Matnni kengaytirib so'zlab bering.

"Ta'lism to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi ijodkor, ijtimoiy faol, ma'naviy jihatdan boy shaxsniga shakllantirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh malakali kadrlarni tayyorlashdan iborat strategik maqsadga erishish uchun nazary asos bo'ldi va zamin yaratdi.

Kadrlar tayyorlash tizimida ta'lismi tubdan isloh qilish hamda zamonaviy innovatsion texnologiyalarni samarali qo'llash yo'lida oliy ta'lismu muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnika, o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ta'minlash, davlat ta'lism standartlarini takomillashtirish, yangi o'quv adabiyotlarini yaratish, eng asosiysi, kadrlarning kasb malakasi va mahoratini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar asosida samarali ta'lismi shakllantirish va rivojlantirish yo'llarini ishlab chiqish zaruriyati ortmoqda. Milliy ta'lismi isloh etishda innovatsion jarayonlarni qo'llashni faollashtirish va samaradorlikni oshirish masalasini hal etmay turib muvaffaqiyatga erishib bo'lmaydi.

Respublikamizda uzlusiz ta'limga joriy etilishi ta'lismi sohasining boshqaruvi organlari zimmasiga bir qator vazifalarni hal etish va ularni doimo takomillashtirib, rivojlantirib borishni taqozo etmoqda. Bu o'rinda ta'lismi jarayonini sifatlari me'yoriy-huquqiy hujjatlar bilan o'z vaqtida ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr ichida quyidagi sohalarda qonunchilikka oid va me'yoriy hujjatlar qayta qabul qilindi:

- Ta'lismi tarbiya tizimini boshqarish;
- Ta'lismi jarayonini mazmunan isloh qilish;
- Moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minot;
- Pedagog va ilmiy-pedagogik kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;
- Ta'lismi xizmatlari bozorini rivojlantirish;
- Ta'lismi va kadrlar tayyorlash sohasida xalqaro aloqalar;
- Chet tillarini o'rganish;
- Elektron kutubxonalar yaratish va yagona tarmoqqa birlashtirish;
- Ta'lismi sohasida ijtimoiy va moliyaviy davlat yordamini ta'minlash va boshqalar.

Oliy ta'lim sohasida orttirlgan tajribalar asosida O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi me'yoriy-huquqiy hujjatlari doimiy ravishda takomillashtirilmoqda.

Bugungi kunda respublikamizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlari bo'yicha vazifalar echimi belgilangan:

- oliy ta'lim tizimini isloh qilishning zamонавиу bosqichida innovatsion jarayonlarni qo'llash va amalga oshirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish;

- respublikada oliy ta'lim muassasalarini samarali boshqarishning jaxon standartlariga asosan ta'limda sifat menejmenti usullarini samarali qo'llash;

- globallashuv va milliy iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida innovatsion texnologiyalami qo'llash asosida ta'lim tizimi sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlami tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarining samarali innovatsion strategiyalar yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- respublika oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirishda samarali xorijiy tajribalarni o'rGANISHNING ijobiy natijalarini respublikada qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

- oliy ta'lim tizimida me'yoriy-huquqiy xujjalarni takomillashtirishda erishilgan tajribalarni yanada ommalashtirish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha tavsiyalar va ishlannalar ishlab chiqish;

- milliy ta'lim tizimini modernizatsiyalashurish sharoitida respublikada oliy ta'lim muassasalarida zamонавиу ta'lim xizmatlari turlarini kengaytirish;

- oliy ta'lim muassasalarida innovatsion jarayonlarni rivojlantirish asosida fan va ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani yanada kuchaytirish;

- respublika oliy ta'lim muassasalari faoliyatiga innovatsion mexanizmlarni tatbiq etish asosida ta'lim sifatini oshirish bo'yicha istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash va amalga oshirish kabilar.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, bugungi kunda oliy ta'lim tizimida malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash dolzARB ijtimoiy-iqtisodiy masala bo'lib, oliy ta'lim tizimida mutaxassislarini tayyorlash jarayoniga o'quv-tarbiya faoliyatini tashkil etishning yangicha yondashuvlarini joriy etish, "Ta'lim to'g'risida"gi qonunga muvofiq ta'limni boshqaruv organlarining vakolat sohalari aniqlanmoqda. Ta'limning me'yoriy-huquqiy asoslari rivojlanmoqda. Ta'lim muassasalarining ta'lim jarayonini tashkillashtirish va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini yuritishdagi huquq va erkinligini kengaytirish ta'minlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarorini ijro etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017/2018 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilish to'g'risida"gi qarori qabul qilindi.

Ushbu qarorga binoan 2017/2018 o'quv yili uchun oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul bo'yicha umumiy kvota bakalavrlar uchun 66316 nafar, shu jumladan, davlat grantlari bo'yicha 18194 ta va to'lov-kontrakt asosida 48122 ta, magistrlar uchun 5000 nafar, shu jumladan, davlat grantlari bo'yicha 1556 ta va to'lov-kontrakt asosida 3444 ta etib belgilandi.

Shuningdek, ushbu hujjatda maxsus sirtqi bo'lim negizida ishlab chiqarishdan ajralmagan holda bilim olishni ta'minlash maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universitetining maxsus sirtqi bo'limida 100 nafar, shu jumladan, davlat grantlari bo'yicha 15 ta va to'lov-kontrakt asosida 85 ta, Navoiy davlat konchilik institutida to'lov-kontrakt asosida 90 nafar va Toshkent temir yo'l muhandislari institutida -to'lov-kontrakt asosida 80 nafar bakalavriat tayyorlash nazarda tutilgan.

Bundan tashqari, ushbu qaror bilan 2017/2018 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari buyurtmalariga binoan, yuqori malakali tibbiyot kadrlariga ehtiyoj katta bo'lgan hududlar uchun O'zbekiston Respublikasining tibbiyot oliy ta'lim muassasalariga davlat grantlari asosida bakalavriat yo'nalishi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashning maqsadli qabul kvotalari tasdiqlandi.

Ushbu qarorda belgilab berilgan maqsad va vazifalar yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiladi. Shuningdek, 2017-2021-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining strategik rivojlanishining beshta ustuvor yo'nalishi doirasida olib borilayotgan islohotlami izchil amalga oshirishga zamin yaratadi.

**2-topshiriq.**O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida ifodalang.

**3-topshiriq.**Oliy ta'lim muammolariga bag'ishlangan ilmiy maqola yozing.

**4-topshiriq.**Quyidagi tayanch so'zлами yod oling:

**Institut** - [lot. institutum - o'matish, tuzish, ta'sis etish] - ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi.

**Universitet** - [nem. universität<lot. universitas, universitatus - jami, barchasi; majmua] - tarkibida bir qancha yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, ayni yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa. Toshkent davlat pedagogika universiteti.

**Kafedra** - [yun. kathedra - o'rindiq, kursi] - ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma; minbar.

Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ish olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. Tillar va nutq madaniyati kafedrasi.

**Fakultet** - [nem. fakultät<lot.facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat] - oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi.

**Fan** - [ ilm, bilim; tarmoq] - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. Fan yutuqlari. 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari.

**Ta'lim** - [ilm berish; ma'lumot] - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. Oliy ta'lim.

**Talaba** - [talab qiluvchi] - oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurti

### **o'quvchisi.**

**Professor** - [lot. professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy] - oliy o'quv yurtlaridagi eng malakali o'qituvchilarining, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. Kafedra professori. O'quv - o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan, o'qish va o'qitishga taalluqli. O'quv soati.

**Xorijiy** - [tashqi, ajnabi] - mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldag'i. Xorijiy davlat. Xorijiy matbuot.

**Yo'nalish** - Hayot, faoliyatdagi muayyan yo'l. Ilm-fan va boshqa sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog'i. Ilm fanning biror yo'nalishi.

**Muassasa** - [idora, korxona, tashkilot] - xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot. Davlat muassasalarini.

**4-topshiriq.** O'zbekiston Respublikasidagi ta'lim bosqichlari haqida so'zlab bering, ularni chizmada tasvirlang.

**5-topshiriq.** Quyidagi so'zlamning sinonimlarini toping. Diyor, mustaqillik, sog'liq, yutuq, qiyin, bellashuv, ixlosmand, kuylamoq, qurmoq.


**6-topshiriq.** Nuqtalar o'miga zarur so'zlarni qo'ying va daftaringizga ko'chiring.

1. Marg'uba bugun ..... kiyib kelibdi.
2. Piyola ..... edi, shuning uchun u sinmadi.
3. ..... kosa ..... kosaga nisbatan ancha qimmat turadi.
4. Men ertaga do'konga borib ..... va ..... sotib olmoqchiman.
5. Bolalarga ovqatni ..... qoshiqda yedirish kerakmi yoki ..... qoshiqda?
6. ..... xat taxta bizga zarur edi.
7. Bizning qandilimiz ..... bo'lgani uchun biror narsaga tegib ketsa jaranglab ketadi.
8. ..... ro'mol to'qiyman, maktab borib o'qiyman (qo'shiqdan).

So'zlar: *lama, palto, sopol, chinni, atlas ko'yluk, ipak ro'mol, yog'och, temur, metall, billur.*

**7-topshiriq.** Guruhlarga bo'linib, O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarining nomlarini qisqartma otlar shaklida "Kim ko'p biladi?" musobaqasi tashkil eting.

Sizningcha, quyida berilgan chizma O'zbekistondagi ta'lim bosqichlarini aks ettira oladimi?



#### **Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar.**

Uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlar. Tilimizda barcha uslublarda teng qo'llanadigan so'zlar bo'lishi bilan birga, faqat ayrim nutq uslublari uchun xoslangan so'zlar ham mayjud. Shuning uchun so'zlar ana shu belgiga ko'ra ikki guruhga bodinadi: 1) uslubiy betaraf so'zlar (m., so'zlamoq, gapirmoq, uy, daftар, ovqat va boshqalar); 2) uslubiy xoslangan so'zlar (mazkur, binobarin, dudoq, erin, qaroq, nigoh, tashlamoq, bayortnomma, nota va boshqalar).

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ma'lum nutq uslubiga xoslanish-xoslanmaslik belgisiga ko'ra *uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga* bo'linadi. Ayrim nutq uslubidagina qo'llaniladigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lмаган so'zlar esa uslubiy betaraf so'zlardir.

Olim na'matakka ilmiy izoh bersa, shoir esa unga badiiy tus beradi, metafora, o'xshatish, jonlantirish, leksik vositalar bilan shoirona kuylaydi. *Us hub* - so'zlovchi va yozuvchining ifodalananayotgan fikrga, voqeа, hodisaga Shaxsiy munosabatidir. Shu yo'l bilan ayni bir jumlada qo'shimcha uslubiy (modal) mazmun ham ifodalanadi. Masalan: *Ol, jiyan, yo'l yurib kelgansan*. Bu jumlada so'zlovchi suhbatsoshga qarindoshligini bildirishi bilan birga, unga o'z mehribonligini ham ko'rsatmoqchi. Odatda, so'zning asl, tub (denotativ) ma'nosi va uning qo'shimcha, ko'chma (konnotativ) ma'nosi bo'ladi. Uslubshunoslik, uslub, sinonimiya, so'z, so'z birikmasi va gapning ana shu qo'shimcha (modal) ma'nosini o'rganadi. Gapda uslubiy (modal) mazmun maxsus so'z va iboralar (undalma, kirish so'z, sinonimlar, frazeologik birlik va gaplar, sheva, biror kasbga oid so'zlar va h.k.) orqali ifodalanadi. Hamma so'z, ibora va sintaktik qurilmalar ham ma'lum bir nutq uslubini yaratishga xizmat qilavermaydi: *qalam, kitob, daraxt* va shunga o'xshash so'zlar o'z asl ma'nosida biror uslubga betaraf so'zlardir. Ular nutqning biror turini tashkil etishi uchun ko'chma ma'noda qo'llanishi kerak. *Qalami o'tkir. Hasratim bir kitob bo'ladi. Daraxt bir joyda ko'karadi* kabi.

### Muammo



Talaba o'qituvchiga shunday dedi: «Mashg'ulotlarda aytayotgan fikrlaringiz va himoya qilayotgan g'oyalaringiz menga yoqmaydi. Menga an'anaviy ta'lif usullari ko'proq ma'qul. Men interfaol metodlarda dars o'tishingiz biror natijaga olib kelishi mumkin, deb hisoblamayman. Talabalar baribir o'qimaydi».

Bu vaziyatda siz talabaga qanday javob qaytargan bo'lar edingiz?

**Javob variantlari:**

- a) «Bu juda yomon»;
- b) «Siz balki ularning mohiyatini tushunmasangiz kerak?»;
- c) «Men keyingi mashg'ulotlar davomida sizning fikringiz o'zgaradi, deb ishonaman»;
- d) «O'qimaydigan emas, o'qishni xohlamaydigan talabalar bo'ladi».

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Uslubiy xoslangan so'zlar deb qanday so'zlarga aytildi?
2. Uslubiy betaraf so'zlar deb qanday so'zlarga aytildi?
3. Ularni farqlab bering.
4. Davrimizning umumbashariy va mintaqaviy ekologik muammolari haqida nima bilasiz?

### **22-MAVZU. ILM MASKANIMIZ HAYOTIDAN**

**Reja:**

- Matndagi nom va iboralarining ma'nosini izohlash.
- Universitet haqida taqdimot tayyorlash.
- So'zlashuv uslubi va uning xususiyatlari. Shevaga xos so'zlar.

**1-topshiriq.Matnnio'qing, mazmunini gapirib bering.**

**NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA  
UNIVERSITETI**

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti 1935-yil 14-sentabrda O'rta Osiyo davlat universitetining pedagogika fakulteti negizida tashkil topdi. 1947-yilda unga buyuk sharq mutafakkiri Nizomiy nomi berildi. 1998-yilda litsey va kasb-hunar kollejlari uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlash bo'yicha tayanch oliy ta'lif muassasasi sifatida institutga universitet maqomi berildi.

Toshkent davlat pedagogika universitetida oliy ta'lif (bakalavriyat, magistratura), oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif (doktorantura), kadrlar malakasini oshirish va ulami qayta tayyorlash bo'yicha ish olib boriladi.

Univerversitetda o'n bitta fakultet, oltmishga yaqin kafedra mavjud bo'lib, ularda 800 dan ortiq professor-o'qituvchi ishlaydi.

TDPU pedagogik kadr tayyorlovchi barcha muassallar uchun tayanch oliy mактаб hisoblanadi. Bu yerda oliy pedagogik ta'lifning barcha me'yoriy hujjatlari: davlat ta'lif standartlari, o'quv rejalarini, fan dasturlari yaratiladi.

Universitet kutubxonalarida zamonaviy darslik, o'quv qo'llanmalari, ilmiy va badiiy asarlar, elektron darslik va ishlannmalar mavjud. Shuningdek, talabalar uchun shinam turar-joy, sport inshootlari hamda umumiyl ovqatlanish tarmog'i muntazam ravishda xizmat qiladi.

**2-topshiriq.** Universitetda o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlardan reportaj tayyorlang.

**3-topshiriq. Quyidagi savollarga javob bering.**

1. Siz qaysi fakultetda tahsil olyapsiz? Qaysi yo'nalishda?
2. Fakultetda nechta kafedra bor? Ularning nomini aytинг.
3. Fakultetingiz kutubxonasi qayerda joylashgan?
4. Fakultetdagi ARMdan foydalanyapsizmi?
5. Fakultetdagi yetuk mutaxassis olimlarni eslang.
6. Universitet tarixi haqida nimalami bilasi?

**4-topshiriq.** O'zingiz o'qiydigan fakultetningilg'or talabalari haqida maqola yozing.

**5-topshiriq.** Haftalik dars jadvalingizni o'zbek tilida yozing, fanlarning o'zbekcha nomlanishiga e'tibor bering.

**6-topshiriq.** Avval adabiy tildagi so'zlarni, keyin shu so'zлarning Hazorasp shevasida qanday ekanligini qiyos qilib o'qing. So'ngra siz ham o'z shevangizdagi so'zlardan shu tarzda yozing.

**Adabiy tilda:**

<i>bushi</i>	<i>momo</i>
<i>buzoq</i>	<i>o'jak</i>
<i>yong'oq</i>	<i>g'o'z</i>
<i>yostiq</i>	<i>taka</i>
<i>chumchuq</i>	<i>secha</i>
<i>tog'a</i>	<i>doyi</i>
<i>tuxum</i>	<i>mayak, yumurta</i>
<i>chaqaloq</i>	<i>bavaq, qo'undoq bola</i>
<i>echki</i>	<i>gechchi</i>

**Xorazmnning Hazorasp shevasida:**

**7-topshiriq.** "Men sevgan kasb" mavzusida insho yozing.

**8-topshiriq.** Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti haqida klaster tuzing va shu asosida matnni gapirib bering.



**9-topshiriq.** “Universitetda”, “Maktabda”, “Kutubxonada”, “Oshxonada”, “Shifokor huzurida” inavzularida suhbat matnini tuzing va yozing. Shu sohada ishlatalidigan so‘z va so‘z birikmalarini aniqlang, ularning tagiga chizing.

**10-topshiriq.** Matnni o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

#### ILM FAZILATLARI HAQIDA

Bilginki, hayotiy maishatingni yaxshilaydigan va ishlaringni haqiqiy to‘g‘ri yo‘lga soladigan eng ulug‘ vosita bu ilmdir. Ilm buyuk qadrga va oliv fazilatga ega. Sen ilm tufayli oliv sharafga, ulug‘likka va orzu – istaklarga yetishasan. Ilm kasb va fazilatlarining eng afzali, ilm o‘rganuvchi esa shu toifaning ulug‘rog‘idir. Ilm orqali yaxshi – yomonni taniysan, halol – haromning farqiga borasan, do‘slik va qarindosh – urug‘ning fazilatlarini anglaysan, qonun – qoidalarni tushunusan, haq – huquqlaringni bilasan.

Ilm shunday boylikki, u sening aqlingni mustahkamlaydi, xulqingni poklaydi, tabiatni tozalaydi, izzatingni oshiradi. Ilm sening hayotingga tahsinga sazovor bo‘ladigan yangiliklar olib kiradi, yozishga, ijod qilishga, tasnif etishga sharoit yaratadi, bu bilan esa seni kamolga etkazib, umrini boqiy qiladi. Ilm o‘rganib, ilmga amal qilmagan kishi yer haydab, uni ekmagan kishiga o‘xshaydi.

Ilmsiz inson – mevasiz daraxt.

Ilm bir Xazina bo‘lsa, bu Xazina kaliti - savol!

Ilm – inson ziynati. («Atalar so‘zlari»).

#### Lug‘at

maishat – жизнь, наслаждение

fazilat – достоинство

afzal – лучший, предпочтительный

izzat – почесть, почтение

tasnif – классификация

boqiy – вечный, бессмертный

xazina – сокровищница, клад

ziynat – украшение

Matn mavzu bo‘yicha topshiriq.

#### “Sinkveyn” usulidagi topshiriqlarga namunalar:

1. Mavzu (ot): universitet.
2. Mavzu belgisi (sifat): katta qadimiy.

- 3 Mavzuni yorituvchi harakat(fe'l): tayyorlaydi, o'qitadi, bilim beradi.  
 4 Mavzuga oid 4 so 'zdan iborat gap: Universitet – oily dargoh.  
 5 Mavzugaoid sinonim : oily ta'lim muassasasi.

1. Mavzu (ot):
2. Mavzu belgisi (sifat): \_\_\_\_\_.
3. Mavzuni yorituvchi harakat(fe'l): \_\_\_\_\_.
4. Mavzuga oid 4 so 'zdan iborat gap: \_\_\_\_\_.
5. Mavzuga oid sinonim: \_\_\_\_\_.

So'zlashuv uslubi keng qo'llanadigan uslublardan biridir. Oilada, ko'cha ko'yda kishilarning fikr almashishi jarayonida qo'llaniladigan nutq uslubi so'zlashuv uslubi sanaladi. So'zlashuv uslubi adabiy va og'zaki so'zlashuv uslublarini o'z ichiga oladi. Adabiy til meyorlariga qat'iy amal qilingan so'zlashuv uslubi adabiy so'zlashuv uslubi, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlashuv uslubi esa o'zaki so'zlashuv uslubi hisoblanadi. So'zlashuv uslubining har ikki turi ko'pincha dialog shaklida ro'yoga chiqadi. So'zlashuv uslubida so'zlar ko'pincha kintoya, piching, ochirmalarga boy bo'ladi: - *Badbaxt, fitma! Qo'yasammi, qo'ymaysanmi axir?*

Bu uslubning yana bir o'ziga xos xususiyati gap bo'laklari tartibi erkinlidir. Bu uslubda ko'proq sodda gaplar, to'liqsiz gaplar, undalmali gaplardan foydalilanadi.

### SHEVAGA XOS SO'ZLAR

Umumxalq o'zbek tili barcha lahja va shevalarni o'z ichiga oladi. O'zbek tilida uch asosiylahja mavjud bo'lib, bular: qipchoq, o'g'uz va qarluq lahjalaridir. Lahjalar turli shevalardan iboratdir. Sheva ma'lum hududda yashovchilar nutqidagina qo'llanadigan so'zlar, til hodisalari yg'indisidir. Lahja va shevalarning o'ziga xos fonetik, leksik, grammatick xususiyatlari bor.

Quyida ayrim shevalarga xos so'zlar (dialektizmlar) keltirildi: *gashir (Xorazm)* – *sabzi (adabiy shakli)*, *barak (Buxoro)* – *chuchvara (adabiy shakli)*, *qalpoq (Samarqand)* – *do'ppi (adabiy shakli)*, *vasqarcha (Qashqadaryo)* – *nimcha (adabiy shakli)*.

Grammatik dialektizmlar: -yap(ti) – adabiy til shakli, -vot(ti), -op(ti), -ut(ti) – shevaga xos shakllar.

Quyidagi jadvalda keltirilgan adabiy til va shevaga xos so'zlarga e'tibor bering.

Nº	Toshkent shevasida	Farg'onona shevasida	Buxoro shevasida	Samarqand shevasida	Xorazm shevasida	Adabiy tilda
1.	do'ppi	do'ppi	kalpo'sh kallapo'sh	qalpoq	tahya	do'ppi
2.	garmdori	qalampir	qalampir qalamfur	qalampir	murch aji	qalampir
3.	chumoli	chumalik	mo'rcha	mo'rcha	qorinja	chumoli
4.	narvon	shoti	narvon narbon	narvon	zangi	narvon
5.	mushuk	mishiq	pishak	pishak	pishiq	Mushuk

Yozuvchilar badiiy asarlarda qahramonlarning qayerlik ekanini, tilidagi xususiyatlarni ko'rsatish uchun ularning nutqida ba'zan shevaga xos qo'shimcha va so'zlarini ishlatajilar.

- *Osilgan kim?*

- *Qiyotlik bir go'ch yigit. Nishatamiz, o'glim, taqdır, - dedi xo'rsinib ona (J.Sh.)*

Xorazm shevasiga xos g'o'ch so'zi "mard, botir" degan ma'noni, *nishatamiz* so'zi "nima qilamiz" ma'nosini bildiradi.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti qachon tashkil etilgan?
2. Universitetda nechta fakultet bor?
3. Kafedralar soni qancha?
4. Qanday akademiyalarni bilasiz?
5. O'rta Osiyo tarixidagi birinchi akademianing nomi?
6. Akademianing ish faoliyati nimalardan iborat?
7. Lahja deb nimaga aytildi?
8. Shevaga xos so'zlar deb nimaga aytildi?
9. O'z shevangizda 10 ta so'z aytинг va uni adabiy tilga o'giring
10. Jahondagi obro'li oliv o'quv yurtlardan qaysilarini bilasiz?
11. Hozirgi kunda universitet qaysi chet el turdosh universitetlari bilan hamkorlik o'matgan?

#### **23-MAVZU. BO'LAJAK KASBIM**

##### **Reja:**

- Matnni o'qish va unga munosabat bildirib so'zlash.
- Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozish.
- Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantirish.
- Matn va uning ko'rinishlari.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing va reja tuzing. Reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.

#### **ABDULLA AVLONIY**

O'zbek madaniyatining ulkan vakillaridan biri, pedagog, jamoat arbobi va yozuvchi Abdulla Avloniy 1978-yilda Toshkent shahrida to'quvchi oilasida dunyoga keldi.

Abdulla Avloniy boshlang'ich diniy mакtabda va madrasada o'qidi ilm – fanga ixlos qo'ydi. O'zbek va boshqa Sharq xalqlari adabiyotini berilib o'rgandi. Abdulla Avloniy 14 yoshidan boshlaboq sher'lар yozishni mashq qila boshladi.

Abdulla Avloniy xalqni ilm – fan nurlaridan bahramand qilishni o'zining birdan-bir burchi deb biladi va 1904-yilda o'zi yashab turgan joyda, Mirobodda mакtab ochadi.

Abdulla Avloniy maktab har tomonlama bolani o'ziga tortishi uchun ~~harakat~~ qildi.

Abdulla Avloniy ochigan maktabning shuhrati tabora ortib, o'quvchilarning soni ko'payda bordi. Xalq pedagogikasida Abdulla Avloniyning «Birinchi muallim» - «Alifbe», «Ikkinchи muallim» - «O'qish» kitoblari katta ro'l o'yndaydi.

Abdulla Avloniy 1904-yildan umrining oxiriga qadar o'qituvchi bo'lib ishladi.

Abdulla Avloniy 1934-yilda vafot etgan. U ma'nifatchi shoir dramaturg jurnalist, rejissyor, tarjimon aktyor, jamoatchi muallim sifatida xalqimiz qalbida mangu saqlanib qoladi.

#### Lug'at

vakil- представитель

ihlosqoy'moq- искренно верить

bahramandbo'lmoq- наслаждаться

burch- долг

ma'rifatchi- просветитель

mangu- вечно

**2-topshiriq. O'zbek tiliga tarjima qiling.**

#### НАКОНЕЦ ОНА СОГЛАСИЛАСЬ

Преподаватель иностранных языков Вильям Горман из английского города Норвича несколько раз делал предложение любимой девушке. Однако каждый раз получал отказ. Тогда Вильям решил доказать постоянство своего чувства и начал ежедневно посыпать ей письма, состоящие из одной фразы: «Я люблю тебя».

Однако в каждом письме эта фраза была написана на каком-то другом языке. Когда девушка получила очередное письмо с признанием в любви, написанное на сто двенадцатом языке, она согласилась стать женой учителя.

**3-topshiriq. Matnni o'qing. Mazmunini so'zlab bering.**

#### MILLIY MAKTAB

Xalqimizning ma'naviy mustaqillikka erishishishida xalq ta'limi yetakchi omildir. O'zbek xalqini va mamlakatimizda yashaydigan boshqa xalqlarni ma'naviy mustaqillik, ozodlikka chiqarishining muhim vositasini yoshlarni bolalar bog'chasidan boshlab ozodlik va mustaqillikni anglash, qadrlash ruhida tarbiyalash va milliy xususiyatlarga mos mакtablar yaratishdan iborat.

O'zbekistonda umumiy o'rta ta'lim maktabining maqsadi har bir bolada mavjud bo'lgan qobiliyat va layoqatlarni erkin rivojlantirish, ilm asoslarini, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'rganish, axloqli va odobli o'stirish, ularni mustaqil hayot va mehnat faoliyatiga yo'naltirishdan iborat.

Hozirgi kunga kelib maktablarimizni rekonstruksiya qilishga, qaytadan jixozlashga va ta'lim sifatiga katta e'tibor qaratilmoqda. Davlat dasturi asosida yurtimizdagи barcha maktablar bosqichma-bosqich kapital ta'mirdan chiqarilmoqda.

Maktabda berilayotgan ta'lim sifatini oshirish maqsadida kadrlar tayyorlash jaroyoniga chuqr yondashilmoqda. Bolalarni maktabda barcha qiziqqan fanlarini va qiziqishlarini qondirish uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgan.

## Lug'at

ma'naviy – духовный, нравственный

qobiliyat – дар, талант

layoqat – способность

dastur - программа

bosqichma-bosqich – поэтапно (-ый, ая)

1. Insoniyatning barcha mashhur kishilari o'z tarbiyachilaridan minnatdorchiliklarini faxr bilan yozganlar.

2. Insondagi hamma yaxshi fazilatlar ota – onadandir.

3. Pokiza kishi hamisha shodlik ustida, gunohkor esa g'am va qayg'u ostida.

4. Qanoatli kishida hasad bo'lmaydi.

5. Qog'ozga tushirilmagan ilm unitilib ketadi.

4-topshiriq. Quyidagi tayanch so'z va iboralarining ma'nosini izohlang.

Pedagogika, turdosh ta'lim muassasasi, yetakchi ta'lim muassasasi, pedagogik texnologiya, pedagogik artistizm, interfaol usul.

5-topshiriq. Kasb tanlovi to'g'risida esse yozing.

6-topshiriq. Kasb-hunar mavzusida o'zbek maqollaridan namunalar yozing.

7-topshiriq. Mutaxassislikka oid terminlar lug'atini shakllantiring.

## MATN VA UNING KO'RINISHLARI

Matn bu – yozilgan, ko'chirilgan yoki chop etilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat yoki shu kabilarning bir parchasi. Matn bir necha gaplardan tashkil topadi. Ular o'zaro matnidan bog'liq bo'ladi. Matn *katta yoki kichik* bo'lishi mumkin. Bitta abzatsdan tashkil topgan matn kichik matn, bir necha abzatsdan iborat matnlar katta matn deyiladi.

Matn ma'lum bir shaxs tomonidan ayrim voqeа-hodisa, ko'rinish, narsa-buyum izchil tasvirlash yoki tavsiflash maqsadida tuzilgan gapladrdan iborat. Matn biron-bir voqeа-hodisa, narsa buyum yoki shaxs haqida oddiy axborot bayonidan yoki ularga nisbatan munosabatini ham bildiradigan ijodiy tasviriylikdan iborat bo'lishi mumkin. Shunga ko'ra avvalo matnlari *bayoni* matn va tasviriy matnlarga bo'linadi. Shunungdek, mulohaza yuritishni talab qiluvchi alohida matn turi ham mavjud bo'lib, bunday matnlari *muhokamam matnlari* deb aytildi. Bunda asosiy fikr turi dalillar bilan isbot qilinishi va oxirida xulosa qismi berilishi kerak.

Bayoni matnda voqeа yoki buyum haqidagi axborot izchil bayon qilinadi. Tasviriy matnda esa muallif ijodiy yondashib, voqeа, buyum yoki qiyofani badiiy vositalar yordamida o'z munosabatini bildirgan holda tasvirlaydi.

### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Abdulla Avloniyning bolaligi qanday kechgan?
2. A. Avloniy o'z faoliyatida ma'nifat tarqatishning qanday usul va shakllariga murojaat qiladi?
3. U ta'lim sohasiga qanday yangiliklar kiritdi?
4. Matn deganda nima tushuniladi?
5. Matning ko'rinishlari haqida so'zlab bering.

## 24-MAVZU. HAYOT MENING TASAVVURIMDA

**Reja:**

- Hayotga munosabat va qiziqishlar haqida gapirib berish.
- Hayotdagi maqsad va orzular haqida dialogik matn tuzish va uni instsenirovka qilish.
- Dialogik matnning ma’no munosabatiga ko’ra turlari.

**1-topshiriq.** Matnni o’qing. Matnga nisbatan o’z munosabatingizni bildiring.

Odamlar bor ezgulikni qilarlar orzu,  
Odamlar bor yovuzlikka bo’larlar ko’zgu.

Inson zoti borki, har daqiqada tug’ilgan yangi istaklarini qondirishni, amalga oshirishni istab yashaydi. Inson orzusini na etib, na yetib tugata olasan! U shunchalar ko’p narsani istaydiki, ammo hammasi ham ushalavermaydi-da, negaki xohishning o’zi kamlik qilar ekan buning uchun. Sizdan “Eng katta orzuyingiz nima?” deb, hech so’rashganmi? Javob uchun albatta bir bahiya bo’lsa ham to’xtab qolasiz, hayolingizga kelgan birinchi fikrni aytib yubormoqchi bo’lasiz-u ,ammo aytu olmaysiz ... Qizig’-a, orzuning ham katta –kichigi bo’lar ekanda. Orzu qilishlik siz uchun shunchalar muhimki, xatto o’zingiz ham bilmaysiz, uning hayotiningizdagi o’mini . Balki uning,ba’zilar uchun hech qanday ahamiyati yo’q, deb hisoblarsiz. Xuddi shu fikrlilarga qarata deymanki. Orzu bu - hoy-u, havas emas. U insoniyatning shu bugungi kunga yetib kelishiga sababchi bo’lgan eng mustahkam tirkakdir. Inson orzusi nimalarga xizmat qilmaydi deysiz, qaboxatga ham, saodatga ham u yetaklaydi sizni. Bir vaqtlar bobomdan “Hamma narsa niyatlarga bog’liq” deganlarini eshidim, ammo unda hech nimani tushunmagam edim. Sekin - asta inson ulg’aya boshlar ekan, bolalikdagи “katta bo’lish” orzusi o’miga ,”bolalikka qaytish” istagi mavj urar ekan. Aynan shu orzuni ko’nglimga tukkan holda aytamanki, bu hayot biz uchun eng katta muallimdir, yurtning bag’rida o’tgan har bir kunim esa olayotgan darsim ekan. Orzular esa muallim hayotning pas-u ,balandiga chidashni va bu sabrimiz orqali olajak mukofotimiz ekan. Mening orzuyimga kelsak, bilmadim uni nima deb atay? Ammo tilagim,istagim shuki, insoniyatga cheksiz sabr. Vatan uchun, uni qadrlovchi va bu burchni qarz deb bilguvchi farzand. Qalb orzusi esa sir tutilmog’i lozim,deb o’ylayman ,aks holda sirli insoniyatning sirliligidan, asar ham qolmaydi...

“Orzu”, nima o’zi u? Inson orzu qilmasdan yashay oladimi? Orzular faqat yaxshilikka xizmat qiladimi? Yoki yovuzlikka hammi? Orzu va istakning qanday farqlari bor? Orzu, istakdan ustun turadimi? Siz ham bu savollarga javob axtarib ko’ring, balki orzuyingizga bo’lgan ishonchingiz mustahkamlanar.

Umida Shodiyeva

**2-topshiriq.** Matnni o’qing va reja tuzing. Reja asosida matn mazmunini so’zlab bering.

## **YOSHLIK-GO'ZALLIK**

Yoshlik. Hayotimizning bu oltin davri haqida shoiru olimlar ko'plab fikr bildirgan. Yoshlikni tarannum etadigan qo'shiq va she'rlar, ibratli fikrlarni ko'plab keltirish mumkin.

Yoshlik – umming bahori. Bahor esa yoshlik ramzidir. Bahor fasli kelib, jamiki mavjudod turfa libosga burkanadi, bezanadi. Go'yoki osuda uyguda yotgan tabiat ohista uyg'onadi... Shuning uchun ham u ko'ngilli va go'zaldir. Yoshlik bahorining o'zi bir go'zallikdir.

Yoshlik davri qanchadan-qancha ajoyib egzu niyatlar, intilishlar bilan masrur bo'lamiz. Ilmu fanga, tabiat va jamiyat taraqqiyotining qonunlarini aniqlashga, umuman koinot sirlarini bilishga intilamiz. Yoshlikda olingen ilm toshga o'yilgan naqsh kabitdir, degan gap bejiz emas albatta. Navoiy hazratlari ham

*Yoshlik chog'ida yig' ilmnning maxzanin,*

*Qarilik chog'ida savr qilg'il oni, deganlar.*

Shu bois ham ilm o'rganish, kelajak sari dalil qadamlar tashlash uchun barcha imkoniyatlar yaratilgan ozod diyorimizning o'ktam, intiluvchan yoshlariga boshqa mamlakatlardagi tengdoshlarimiz havas qilsa arziydi.

Aytishlaricha, 25 yoshgacha bo'lган umr tabiatning odamga bergen bebahvo va beg'araz ehsoni, undan oqilona foydalish esa insонning burchidir. Tarixga nazar solsak, barcha buyuk siymolar yoshlikda istedodlarini namoyish qila olganliklariga ishonch hosil qilamiz.

Alisher Navoiy 12 yoshida Lutfiuning olqishiga sazovor bo'lган buyuk g'azal bitgan, Abu Rayhon Beruniy va Ibn Sinolar yoshligidan tabiat va koinot sirlarini kashf etgan. Mashhur kompozitorlar Mosart va Betxoven ham o'lmas asarlarini yoshlikdan ijod eta boshlaganlar. Yosh qalb egasini oqar daryo kabi to'lib toshib turgan kuch - qudrat va beqiyos katta g'ayrat bezaydi. Bunday yoshlik aslo takrorlanmaydi.

Shunday, yoshlik tabiatdagi, hayotdagi go'zalliklarni, ayniqsa, insondagi ijobiy fazilatlarni sevish va ulardan zavqlanish, nafis did va nafosatning shakllanish davridir.

### **3-topshiriq. Quyidagi savollarga yozma javob bering.**

1. 20 yildan keying hayot sizning tasavvuringizda qanday?
2. Yoshlarning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. "Haqiqiy inson" deganda, kimni nazarda tutamiz?
4. Kelajakda qanday rejalaringiz bor?

### **4-topshiriq. Hayotga munosabatingiz va qiziqishlaringiz to'g'risida kichik matn tuzing.**


## **DIALOGIK MATNNING MA'NO MUNOSABATIGA KO'RA TURLARI.**

Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik. Dialogik matn ikki va undan ortiq suhbatdoshning turlicha mazmundagi fikr-axborot almashinuvidan iborat. Ikki kishi o'rtasidagi dialog nutq savol-javob, buyruq-javob, xabar-e'tiroz kabi mazmunlarda bo'lib, fikr xususidagi tasdiq yoki inkomi, ziddiyat yoki munozarani

ifodalaydi. Ko'p kishilik dialoglarda suhbat mavzusi savol-javobdan iborat bo'lmay, o'rta ga tashlangan savol, taklif, da'vat biror xabar, dalillar bilan xulosalanadi.

Dialogik matn tarkibida so'roq olmoshlari, muomala odobiga oid so'z va iboralar, yuklamalar, undovlar, kirish so'zlar keng qo'llanadi. Bunday matndagi gaplar asosan sodda gaplardan tashkil topadi, sodda gaplarning bir tarkibli turlari, to'liqsiz gaplar, so'z-gaplar faolishlatiladi. Dialogik matn so'zlashuv uslubi va badiiy uslubga xosdir.


### Klaster metodi



**5-topshiriq.** "Gid va chet ellik mehmon" mavzusida dialog tayyorlang, uni rollarga bo'lib o'qib bering

**6-topshiriq.** "Hayot mening tasavvurimda" mavzusida esse yozing.

**7-topshiriq.** Hayotdagи maqsad va orzular haqida dialogik matn tuzish va uni instsenirovka qilish.



**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Hayotga munosabat va qiziqishlaringiz haqida gapirib bering.
2. Inson barkamollikka erishishi uchun nimalar qilishi kerak?
3. Hayotdagи idealingizni tasvirlab bering.
4. Bugungi kunda o'z bilimi, iqtidori tufayli elga tanilgan insonlardan kimlarni bilasiz?
5. Siz jamiyatda munosib o'rin egallashingiz uchun, hurmat va obro' qozonishingiz uchun nimalar qilishingiz kerak?
6. Atrofingizda, kichik bo'lsa-da, foydali mehnat qilib, boshqalarga yordam berayotgan, o'rnak bo'layotgan, har kuni o'z vazifasini sidqidildan bajarib kelayotgan odamlar haqida nima deyasiz?

**25-MAVZU. USTOZ MAKTABI**

**Reja:**

- Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.
- Ustozlarga bag'ishlangan she'r yod olish.
- Monologik matn. Monologik matnda mazmun izchilligi va ohang.



Ustoz! Shu birgina so'z zamirida olam-olam ma'no va hurmat mujassam. O'qituvchi-sofdil, kamtarin, ma'naviy boy, ahloqan pok insondir. Ulaming poyiga guldastalar sochsak, doimo hurmatlarini ado etib, ardoqlasak arziydi. Chunki ustozlar butun kuchlarini, aql-idroklarini, bilim va zehnlarini, qalb qo'riyu sehrlarini shogirdlariga baxshida etgan zahmatkashlardir. Ular bizlarga oq-qorani, yaxshiyu-yomonni tanitib, qo'llarimizga ilk bor qalam tutqazib, "Ota", "Ona", "Vatan", "Ezgulik", "Baxt", "Saodat" kabi so'zlarni yozishga o'rgatgan buyuk zotlardir.

#### 1-topshiriq. Matnni o'qing. Rus tiliga tarjima qiling.

#### BIRINCHI O'QITUVCHIM

Mening birinchi o'qituvchim Po'latova Fotima opa bo'lganlar. U kishi juda ochiq ko'ngil, mehribon inson. Ulami men chinakam do'st, samimiy inson sifatida eslab qolganman. Hali o'qish-yozishni bilmaydigan bir sinf bolaga xat-savod o'rgatish uchun ular ozmuncha mehnat qilmaganlar. Jajji qo'llarimizdan tutib ilk harfni yozdirganlari sira yodimdan chiqmaydi. Endilikda o'zim ham o'qituvchiman. Men ham yoshlarga til o'rgataman. Ustozimning mashaqqatli mehnatlarini endi yana ham ko'proq qadrhayapman, anglab etyapman.

Ustozim hozir ham bolalarga bilim berib keladilar. Men ularni tez-tez yoqlab turaman. Axir aytadilar-ku, ustoz otaday ulug' deb.

#### 2-topshiriq. Savollarga javob bering, bunda ta'rif va tavsif uchun qo'llanadigan so'zlardan foydalaning:

- Birinchi ustozingizni eslaysizmi? Uni tavsiflang.
- Qaysi fan o'qituvchisi sizga ko'proq yoqadi? Nima uchun?
- Qaysi fan o'qituvchisi sizga yoqmayadi? Nima uchun?
- "Ustoz maktabi" deganda niman ni tushunasiz?
- Litsey yoki kollejning fizika (o'zbek tili va adabiyoti, kimyo, matematika, informatika) o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?

#### 3-topshiriq. Matn yuzasidan savollar tuzing.

#### USTOZ

Insonning dunyoga kelishiga sababchi ota-onasi bo'lsa, uning ilm-hunar o'rganishi, hayotda o'z o'mini topishida ustozning o'rni beqiyosdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'zbek xalqida "Ustoz otaday ulug'" - degan naql bor.

Ilm shunday narsaki unga butun kuch sarf etilmasa qo'lga kirmaydi. Insonda aql va ilm bo'lmasa uni hech kim qadrlamaydi. Hunarmand kishi hech qachon xor bo'lmaydi, og'ir kunlarda xunar tufayli o'z rizq-ro'zini topadi. Mana shu ilm va hunarga bo'lgan chanqog'imizni faqat ustoz qondira oladi.

Sharqda ustoz va murabbiylar qadimdan hurmat va e'tibor topgan. Fikrimizning tasdig'i sifatida Alisher Navoiy ustozining nabirasiga otdan tushib salom bergani haqidagi hikoyani eslashning o'zi kifoya. Shoir ahli ustozlar sha'niga ko'plab she'rlar bitsa, qo shiqchilar uning madhini kuyga solib keladilar.

Qadimdan ota-bobolarimiz ustozlarga cheksiz ishonch bildirganlar, farzandini ustoz tarbiyasiga berar ekanlar "Eti sizniki, suyagi bizniki" deb aytganlar. Ya'ni ustozdan farzandiga nisbatan ham mehribon, ham qattiqqa'l bo'lishini istaganlar. Ustozlar esa yosh avlodga nafaqat, ilm yo hunar, balki yashash tarzi, hayot mazmunidan saboq berganlar.

Istiqlol yillarda ustozlar yanada e'tibor va qadr topdi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1-oktyabrning Ustoz va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami sifatida nishonlana boshlagani fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ta'lim sohasining ko'plab vakillari davlatimizning eng yuksak mukofotlariga, xatto "O'zbekiston qahramoni" unvoniga sazovor bo'Igani ham yurtboshimizning xalqimizning ustozlarga hurmati va ishonchi namunasi, deb bilish mumkin.

Ustoz bo'lish oson emas. Muallim faqat biror narsani bilish emas, balki bilgan narsasini o'quvchiga to'g'ri yetkaza olishi zarur, bu esa - bir san'atdir. Shu tufayli mashaqqatli kasb egalari va o'z ishlarining fidoyisi bo'lmish ustozlarimizning mehnatini qadriga yetish va ularga hurmat ehtirom ko'rsatmog'imiz lozim.

#### **4-topshiriq. Kasblarga ta'rif bergan holda matnlarni davom ettiring.**

Mening otam — huquqshunos. Huquqshunoslik juda zarur kasb. Har qanday mamlakatdaadolat o'matilishi kerak.  
Huquqshunos...

Mening onam — shifokor. Shifokorlik juda oliyanob kasb.

Shifokor...

Mening akam — uchuvchi. Uchuvchilik kasbi juda qiziqarli kasb. Uchuvchi...

Men o'qituvchi bo'lmochiman. O'qituvchilik....

Mening do'stim esa tajimon bo'lmochchi. Tarjimonlik kasbi kishidan ...<sup>12</sup>

#### **5-topshiriq. Matnni o'qing va uni davom ettiring.**



Muallim shunday ulug' zotki, uning oldiga kelmagan odam to'laqonlibo'la olmaydi. O'tgan yigirma olti yillik shonli istiqlol yillarda yurtimizda olamshumul o'zgarishlar ro'y berdi. Ayniqsa, jamiyatimizning muhim bo'g'imi bo'Igan ta'lim tizimida olib borilgan tub islohotlar aziz-u mukarram ustozlarning

<sup>12</sup>Muhiddinova X.S. va b. O'zbek tili. - T.:2006,65-66r.

mehnatiga bo'lgan ulkan e'tiborning yanada oshganida, bu borada erishilayotgan mislsiz muvaffaqiyatlarda yaqqol ko'rindim.

Istiqlol bergan imkoniyatlardan unumli foydalaniб, bor ilm-u iqtidori va qalb mehrini yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga baxshida etib kelayotgan ustoz-murabbiylar juda ko'p.

Ustoz! Ustoz deganda biz avvalo, o'tmisht va kelajakni ko'z oldimizga keltiramiz. Ustoz bir yosh qalbni olam-olam ziyoga yo'llaydigan zot.

6-topshiriq.Ustozlar haqida esse yozing.

7-topshiriq.Ustoz haqidagi rivoyatlardan namunalar aytib bering.

8-topshiriq. Quyidagi she'mi yod oling. Undagi tasviriy vositalarni aniqlang.

## USTOZ

S.Soliyev

Ona suti kabi niyatingiz pok,  
Mehringiz saraton bag'riday issiq,  
Beg'ubor dilingiz nur kabi oppoq,  
Siymongiz dilimda, billurdek tiniq.

Ustozni nur deydi, sevadi inson,  
So'zlarin dur deydi, teradi inson,  
Bergan ta'limingiz quyosh nuriday,  
Yo'limiz yoritdi, yashnadi zamom.

Ustozim tilimda, dilimda mangu,  
Mehribon onamdek sevaman mudom,  
Ustozim so'zları dilimda yog'du,  
Shu sabab bo'loldim barkamol inson.

Ustozim sevaman toki hayotman,  
Nomini nur kabi saqlab pokiza,  
Ezgulik, haqlikni o'rgangan zotman,  
Bir umr ustozdan olib andoza.

## MONOLOGIK MATN. MONOLOGIK MATNDA MAZMUN IZCHILLIGI VA OHANG.

Ma'lum voqelik haqida tasavvur (ma'lumot) beradigan bir yoki bir necha sintaktik birliklardan tashkil topgan nutqiylar bunlik matn hisoblanadi. Matn ma'lum fikrlar yig'indisi hisoblangan nutq, nashrdan chiqqan asardir. U o'ziga xos asar hisoblanishi va mazmunga (ilmiy, rasmiy, badiiy va hokazo) yoki hujjat xarakteriga ega bo'ladi.

Matn ikki xil ko'rinishda bo'ladi: dialogik va monologik.

Tavsifiy(monologik)matn so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan bayon etilgan voqeal-hodisa, narsa yoki shaxs tasviri, tavsifi yoxud xabar, ma'lumot bayonidir.

Maqola, insho ham tavsify matning bir turi sanaladi. Ma'lum voqe-a-hodisalarga, narsa va shaxslarga oid fikr-mulohaza bildirish, ularni badiiy-tasviriy vositalar yoki dalillar bilan ta'riflash, izohlash, isbotlash, asoslash tavsify matnga xos xususiyatlardandir. Shuning uchun bunday matnda belgi-xususiyat ifodalovchi so'zlar, atamalar, modal so'zlar, fe'lning funksional shakllari, ravishlar faol qo'llanadi. Tavsify matni yaratishda uyushiq bo'laklar, ajratilgan gap bo'laklari, atov gaplar, sodda gaplar, qo'shma gap ko'rinishlaridan ham keng foydalaniladi.

### *Muammoli vaziyat*

O'qituvchilar xonasida ikki o'qituvchi suhbatlashayapti:

- Har bir o'qituvchi notiq bo'lishi lozim, - dedi birinchi o'qituvchi. Ikkinchisi o'qituvchi unga e'tiroz bildirdi:
- Kechirasiz, har kim ham notiq bo'la olmaydi. O'qituvchi muloqot madaniyatini puxta egallagan bo'lsa, yetarli.

**Savol :**

1. Siz qaysi o'qituvchining fikrini yoqlagan bo'lardingiz?
2. Madaniyatli o'qituvchi deganda kimni tushunasiz?
3. Sizning fikringizcha bu suhbat qanday tugashi mumkin?

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Monologik matn deb nimaga aytildi?
2. Monologik matnning o'ziga xosligi nimada?
3. Tavsify matn qanday shakllarda uchraydi?
4. Ustozlar o'z ishini qilmay qo'ysa, nima o'zgaradi?
5. Kimga o'xchagingiz, taqlid qilgingiz keladi, nima uchun?

## 26-MAVZU. KASBIM TARIXI

**Reja:**

- Matnni o'qib tushunish.
- "Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi" mavzusida matn tuzish.
- Soha lug'atlari. Ularda terminlar va birikmalarning berilishi.

**I-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.**

## USHINSKIY PEDAGOGIKA FANI VA TARBIYA SAN'ATI HAQIDA

Ushinskiy pedagogika masalalariga bag'ishlangan bir qancha maqollari bilan birga, 1861-yilda quyi sinflarda rus tilini o'qitish uchun «Detskiy mir» nomida xristomatiya nashr qildirdi.

Ushinskiyning Smolniy institutidagi ilg'or faoliyati muassasaga rahbarlik qilayotgan amaldorlarda va ayrim reaksiyon kayfiyatlardagi o'qituvchilarda norozilik uyg'otadi. Ushinskiyni daxriylikda, dvoryan qizlardan «mujiklar» tarbiyalamoqchi

bo'lganlikda ayblay boshlaydilar. 1862-yilda u ishdan bo'shatildi, chet elda boshlang'ich ta'lif va xotin-qizlar maorifining yo'lga qo'yilishini o'rghanish hamda pedagogikadan darslik tuzish bahonasi bilan chet el safariga jo'natildi.

Ushinskiy Germaniya va Shveysariyadagi xotin-qizlar o'quv yurtlarini, bolalar bog'chalari, yetimxonalar va maktablarni sinchiklab va tanqidiy o'rgandi; 1884-yilda «Rodnoe slovo» hamda o'qitivchi va ota-onalarga mo'ljallangan «Rodnoe slovo»ga qo'llanmasini yozdi va nashr qildi. 1867-yilda Ushinskiy pedagogika faniga qimmatli hissa bo'lib qo'shilgan o'zining asosiy asari –«Inson tarbiya predmeti sifatida» nomli asarini yozdi. Ushinskiy o'zining bu asarida psixologik tajriba ma'lumotlariga asoslanib, oddiy psixologik hodisalarini tekshirdi va psixologiyani odam anatomiyasini va fiziologiyasini negiziida bog'ladi. Ushinskiy bolalar psixologiyasini tadqiq etishga birinchi marta asos solgan psixologlardandir.

Tarbiyaning xalqchilligi haqidagi g'oya Ushinskiyning pedagogik nazariyasidagi eng asosiy g'oyadir. Har bir mamlakatda bolalarni tarbiyalash tizimi, Ushinskiyning fikricha, keng ma'noda olingen pedagogika ta'lif-tarbiya tajribalarining umumlashtirilgan xulosasi bo'lmog'i, falsafaga, anatomiya, fiziologiya, psixologiya, tarixga asoslanmog'i lozim.

### Lug'at

kayfiyat- самочувствие, настроение

norozilik- недовольство

sinchiklab- тщательно

xalqchil- народный

### Pedagogik artistizm

Pedagogikaga nisbatan qo'llanganda, *artistizm* quyidagilami anglatadi:

- pedagogik jarayon sharoitida organik (uyg'un) mavjud bo'lish qobiliyati;
- qiyofasini o'zgartirish qobiliyati, o'ziga torta bilish, jonlilik, keskinlik, ekspressiya;
- imo-ishoralar va mimikasining boyligi;
- hikoyachilik iqtidori;
- yoqimtoy bo'la olish;
- ilhomlanish, ruhlanish;
- ichki erkinlik hissi;
- ichki nazokat, obrazli tafakkur;
- obrazli assotsiatsiyalar orqali nostandard yechimlarga (qarorlarga) intilish;
- psixika xususiyatlari, nerv tizimi tipi.

Bayon qilinganlar *pedagogik artistizm* – pedagogik ijod jarayonining barcha bosqichlarida u yoki bu darajada faol bo'lgan fenomen ekani haqida xulosa qilishga imkon beradi. O'qitishda artistizmning o'mni va roli o'qituvchining kasbiy faoliyati takomillashgani sari o'zgarib borishi mumkin. U shaxsnинг sifati tarzida namoyon bo'lishi, kasbiy tajriba ortib borgani sari esa pedagog ishining barcha tarkibiy qismlariga integratsiyalashi, uning butun faoliyatini sintezlashi va yaxlit qilishi mumkin.

Artistik pedagogning vazifasi – ta’lim oluvchilarga emotsiyal ta’sir o’tkazish; ularning qalbida iz qoldirish, ma’lum kechinmalar uyg’otish; bolalar ongi va shuurida o’ziga ishonchni mustahkamlash; o’z munosabati, hissiyoti bilan taassurot uyg’otish; tasavvurini ishga solish. Bunda pedagogning asosiy maqsadi ta’lim oluvchida bilimlar yig’indisi, bolalarning o’quv jarayoniga ma’lum munosabati, ta’lim oluvchining o’z-o’zini realizatsiyalash uchun o’z vositalarini tanlashidangina iborat bo’lmaydigan e’tiqodlar tizimi asosida shaxsiy pozitsiyasining (nuqati nazarining) shakllanishiga ko’maklashishdan iborat.

Pedagogik artistizm ta’lim oluvchilar bilan aloqa o’matish, ma’lum ma’noda avans tariqasida bolalarning ishonchini qozonish, keyin mazkur dars, mashg’ulotning barcha holatlarini (sharoitlarini) hisobga olgan holda ish ko’rishga yordam beradigan ma’naviy va jismoniy sifatlarning murakkab qorishmasi sanaladi.

Pedagogik artistizmning tarkibiy qismlari: pedagogning o’z qiyofasini o’zgartira bilishi, ochiqligi, *bevositaligi*; o’z kechinmalari, ikkilanishlari, quvonchini boshqa kishilarga «yuqtira bilishi»; hayratga sola bilishi; estetik komponent; o’z-o’zini *presentatsiyalash* texnikasini egallaganlik; tashqi maftunkorlikning mavjudligi; improvizatsiya; ijodiy kayfiyatni safarbar qilish, o’z kayfiyatini boshqara bilish; empatiya, refleksiya; kinetik vositalar; so’zamollik (notiqlik); ovoz jarangining ifodaliligi, ishontira bilish malakasi; so’z bilan *operatsiyalay* olish san’atini egallaganlik (nutqiyl artistizm); xulq plastikasi; muloqotning noverbal vositalari (imo-ishoralar, mimika va b.).

#### *Matn yuzasidan topshiriqlar:*

Matnni o’qing.

Matnni reja asosida so’zlab bering.

Tanlagan kasbingiz haqida rivoyat yoki hikoya so’zlab bering.

#### **2-topshiriq. “Artistizm” so’ziga sinkveyn tuzing.**

#### **“Sinkveyn” usulidagi topshiriq**

“Sinkveyn” usulidagi topshiriq shartlari 5ta punktdan iborat bo’ladi:

1-punktda ma’lumot so’ralayotgan mavzu ot so’z turkumida beriladi. U bitta so’zdan iborat bo’lishi kerak.

2-punktda shu mavzuni ifodalovchi ot so’z turkumidagi so’zning belgisini ifodalovchi ikkitasifat so’z turkumidagi so’zlar yozildi.

3-punktda shu mavzuni ifodalovchi ot so’z turkumidagi so’zning harakatini ifodalovchi uchtafe’l so’z turkumidagi so’zlar yozildi.

4-punktda shu mavzuni ifodalovchi ot so’z turkumidagi so’z ishtirokida to’rtta so’zdan iborat gap yozildi.

5-punktda shu mavzuni ifodalovchi ot so’z turkumidagi so’zga sinonim so’z topib yozildi.

#### **“Sinkveyn” usulidagi topshiriqlarga namunalar:**

#### **Matn mavzu bo'yicha topshiriq.**

1.Mavzu (ot): Artistizm.

2.Mavzu belgisi (sifat): \_\_\_\_\_.

3.Mavzuni yorituvchi harakat(fe'l): \_\_\_\_\_.

4.Mavzuga oid 4 so’zdan iborat gap: \_\_\_\_\_.

5.Mavzuga oid sinonim

**“Sinkveyn” usulidagi topshiriqlarga namunalar:**

1. Mavzu (ot): \_\_\_\_\_
- 2.Mavzu belgisi (sifat): ..
3. Mavzuni yorituvchi harakat(fe'l): ..
4. Mavzuga oid 4 so 'zdan iborat gap: ..
5. Mavzuga oid sinonim: ..

**3-topshiriq. Quydag'i gaplarni rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qiling.**

1. Авлоний – основоположник национальной узбекской педагогики, драматургии, детской литературы, выдающийся общественный деятель.
2. Амир Темур был великим государственным деятелем, покровителем духовности.
3. Язык основное средство общения людей. При помощи языка люди общается друг с другом, передают свой мысли, чувства, желания.

**4-topshiriq.“Sohaning vujudga kelishi va rivojlanishi” mavzusida matn tuzish.**

**5-topshiriq.Kasb taraqqiyoti haqidagi ma'lumotlardan xronologik jadval tuzing.**

**6-topshiriq.Ish jarayonidagi muloqot vaziyatlarini aks ettiruvchi kasbiy o'yin ssenariysini tuzing va uni insenerovka qiling.**

**7-topshiriq. Tanlagan ixtisosligingizga oid terminlar isgtirokida 7-8 ta gap tuzing.**

**SOHA LUG'ATLARI. ULARDA TERMINMLAR VA BIRIKMALARNING BERILISHI.**

O'zbek tilshunosligida terminlarni o'rganish, ularni tartibga solish, terminologik lug'atlar tuzish kabi qator chora-tadbirlar XX asrning 20-yillari o'rtalaridan boshlangan. Zero, ayrim leksikografik ishlarni hisoblamaganda, o'zbek tilini ilmiy asosda o'rganish, hozirgi o'zbek tilshunosligining fan sifatida yuzaga kelishi ham shu davrdan boshlangan. Albatta, terminlarni o'rganish ehtiyoji o'z-o'zidan kelib chiqqan emas, barcha bilim sohalari bo'yicha o'zbek tilida ta'lim berishni yo'lga qo'yish, bilim sohalarining sezilarli darajada rivojana borishi, ilmiy tafakkur doirasining kengayishi, sobiq ittifoqdagi milliy tillar, jumladan, o'zbek tili lug'at tarkibining boyib borishi, binobarin, tilda terminlarning ko'payib borishi ularni (terminlarni) har tomonlama o'rganish va tartibga keltirishga turki bo'lgan edi.

O'zbek tilshunosligida turli fan sohalariga oid terminologik tizimlarni lingvistik jihatdan har tomonlama ham ilmiy, ham amaliy o'rganish, asosan, 1950-yillardan keyin izchilroq tus ola boshladi; termin va terminologiyaning nazariy masalalariga bag'ishlangan maqolalar ayrim fan sohalari terminlarini lingvistik jihatdan tahlil etishga bag'ishlangan nomzodlik dissertatsiyalari yuzaga keldi, mukammal terminologik lug'atlar yaratishga kirishildi.

Bugungi kunda terminologiyaning amaliy va nazariy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish, termin qo'llashni tartibga solish davlat ahamiyatidagi masalaga aylandi. 1984-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Prezidiumi qoshidagi Respublika Muassasalararo terminologik komissiya (RMTK)ning tashkil etilishi, O'zbekiston Respublikasining Davlat tili haqidagi Qonuni qabul qilinishi munosabati

bilan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Respublika terminologiya qo'mitasining ish boshlashi, terminologiya masalalariga bag'ishlab Respublika miqyosida bir necha ilmiy-amaliy, ilmiy-nazary konferensiyalarning o'tkazilganligi fikrimizning yaqqol dalilidir.

Muhimi shundaki, RMTK o'z faoliyati davomida "O'zbek tili terminologiyasi" nomli byulleten nashr etishni yo'lga qo'ydi, unda o'zbek tili terminologiyasining dolzarb masalalariga bag'ishlangan qator maqolalari bilan birga, har bir qo'llanuvchi terminlarning ro'yxati ham berib borildi. Shuni qayd etish lozimki, Atamaqo'm RMTK an'anasini davom ettirib, ko'rsatilgan "Byulleten" ni nashr etishni yo'lga qo'ydi. Ta'kidlash lozimki, Atamaqo'm keyingi yillarda o'zbek tili terminologiyasi tizimlarini barqarorlashtirish va terminlarni har xilligiga chek qo'yish borasida ancha-muncha ishlarni amalga oshirdi, boshqacha qilib aytganda, respublikamizda terminologiya masalalarini hal etish jonlantirib yuborildi. Xususan, uning tashabbusi bilan terminlami nomlash prinsiplari ishlab chiqildi va e'lon qilindi. Atamaqo'm mana shu prinsiplarga suyanib, ilm-fan, ishlab chiqarishning turli sohalariga oid terminologik lug'atlar seriyasiga chiqara boshladи.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Pedagoglik kasbining shakllanishi qaysi davr bilan bog'liq?
2. Dastlabki maktablar qayerda paydo bo'lgan?
3. «Akademiya», «pedagog» atamalariga to'liq izoh bering.
4. O'rta asrlar davrida, Sharqda akademiya ko'rinishidagi ta'lif muassasalaridan qaysilarini bilasiz?
5. Jadid maktablari haqida nimalarni bilasiz?

### 27-MAVZU. IQTIDOR VA MEHNAT

#### Reja:

- Matni o'qish. Mavzu bo'yicha bahs-munozarada ishtirot etish.
- Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lumot yozish.
- Matnga so'z va termin tanlash

### HAMID OLIMJON VA ZULFIYAXONIM

(Vafodorlikda tengi yoq)

Shunday insonlar bo'ladiki, ular qancha umr ko'rganidan qat'iy nazar xalq qalbida abadiy yashaydi. Ana shundaylardan biri Hamid Olimjon edi. U qisqa umri davomida o'nlab o'lmas asarlar yaratib xalqimiz yuragidan mangu joy oldi. Hamid Olimjon she'riyat maydoniga porloq yulduzdek kirib keldi. Xuddi shuningdek, uning umr yo'ldoshi Zulfiyaxonim ham shu maqomga ega bo'ldi. Xo'sh, ularning bir-biriga muhabbatlari qanday edi?

Ular 1935-yilda sevib oila qurishdi. Biroq oradan to'qqiz yil o'tgach, nogahoniylar tufayli Zulfiya ikki nafar farzandi bilan eridan beva qoldi. Keyin esa u umrining oxirigacha Hamid Olimjoniga bo'lgan muhabbatini boshi ustiga qo'yib, avaylab, asrab, gard yuqtirmay olib o'tdi. Ba'zan, Zulfiya opa to'g'risida ikki bolani otasiz katta qildi, deyishadi. Bu unchalik tog'ri emas.

Chunki Hamid Olimjon ruhan o'z xonadonini biron kun ham tark etgan emas. Devorlardagi suratlardan Hamid Olimjon yirik-yirik ko'zlari bilan muttasil Zulfiya opaga, farzandlariga qarab, ularning holidan xabar olib turardi. Javondagi kitoblardan uning salobatli ovozi eshitilib turgandek edi. Otaning ruhi tirik bo'lsa, u otaning hamma ishlarida, shu jumladan, bolalar tarbiyasida ham ishtirok etaverar ekan.

Zulfiya - atoqli shoira, yirik davlat arbobi, jamoat ishlarida faoliyat ko'rsatdi. Lekin u birinchi navbatda ayol, ayol bo'lganda ham o'zbek ayoli edi. U ayol sifatida muayyan burchga ega edi. Hamid Olimjondan erta ayrılgan farzandlarini o'stirib, odam qilib yetishtirmoq kerak edi. Bu esa dunyodagi eng qiyin, eng mashaqqatli ishlardan biri. Qizig'i shuki, siz farzandlaringizni moddiy ne'matlarga ko'mib yuborishingiz, ular yaxshi kiyinishi, yeb-ichishi, shuhratingiz shu'lasida gerdayib yurishlari mumkin, lekin bularning hech qaysisi farzandning qobil bo'lib chiqmog'i uchun yetarli bo'lmasligi hech gap emas. U aksincha o'g'ri, bezori bo'lishi ehtimoldan holi emas. Zulfiya opa 30 yoshida beva qolgan edi - u 30 yashar ayolga atalgan bu dunyoning butun qo'rini farzandlariga bag'ishladi. Buning oqibatida qizi Hulkar olima bo'ldi. Nafaqaga chiqquniga qadar O'zbekiston Milliy universitetida dars berdi, Oybek domlaga munosib kelin bo'ldi. O'g'li Omon esa - mana qirq yildan oshdiki, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisida ishlaydi. Zulfiya opa o'zining onalik burchini ham juda o'rinnatib ado etdi. Jamiyat uchun yaxshi fazilatlarga ega bo'lgan ikki ajoyib insonni tarbiyalab yetkazib berdi.

Zulfiya opa o'zbek she'riyatida o'ziga xos bir maktab yaratib ketdi. Uning shogirdlari ko'p edi. Ular Zulfiya opaning chirog'ini so'ndirmaslikka harakat qilib kelishmoqda. Shoira shogirdlari bilan birga go'zal bir she'riyat chamanini ham bunyod etdi.

Shoiraning she'rlari haqida, ularning latofati, insoniy jozibasi, teranligi to'g'risida juda ko'p gapirish mumkin. Lekin Zulfiya opani odamlarga ardoqli qilgan, adabiyotimizning yorqin yulduzlaridan biriga aylantirgan, XX asrning buyuk ayollarini qatoriga qo'shgan asosiy omil nima? Bu uning e'tiqodi, juda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlari, dili bilan tilining birligi, she'rlarida madh etgan insoniylik, vafo, sadoqat va diyonat degan narsalarga o'zi hayotda og'ishmay amal qilganida.

Onasi uni yoshligida to'rt o'g'il ichida "gul g'uncham", "shoira qizim", der ekan. Onaning mehri daryodek toshib, oftob jilvasida xalq qalbiga ham yetib bordi. Endi uni elu yurt ham "shoira qizim", deb ardoqlaydigan bo'ldi. Chunki shoira shunday she'rlar bitardiki, o'qiganlar miriqadi, yuragida quvonch bo'lsa, to'lqin urardi, dardi bo'lsa... shoira she'rlari dardiga malham bo'ladi.

Shoira umrinning so'nggi kunlarigacha sevgi, sadoqat, hijronni kuylab o'tdi. U xalqaro "Nilufar" va Neru nomidagi mukofotlarning sohibasi bo'lgandi. Lekin mukofotu unvonlar orasida bitta unvon bor ediki, bu Zulfiya opani alohida mag'rurlantirgan. U O'zbekiston xalq shoirasi edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Baxtim shulki, o'zbekning Zulfiyayasiman" deya xitob qilgandi. Shoira haqiqatdan ham o'zbek ayollarining vafo va sadoqatda buyuk timsoli bo'lib qoldi. Respublikamizda Prezidentimiz tashabbusi bilan "Zulfiyaxonim"

mukofoti ta'sis etildi. Mana bir necha yildirki, mamlakatimizdagi san'at, adabiyot sohasida o'zini ko'rsatgan eng ilg'or qizlar ushbu mukofotga sazovor bo'lishmoqda.

*Matn yuzasidan topshiriqlar:*

*1-topshiriq.*

- a) matnni o'qing.
- b) reja tuzing, reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.
- c) o'zbek shoir va yozuvchilari haqida B\B\B jadvalini tuzing.
- d) jahon adabiyoti namoyondalari haqida taqdimot tayyorlang.

**2-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma nosini izohlang.

Qalb, abadiy, mangu, umr yo'ldoshi, muhabbat, oila, beva, falokat, ruhan, xonodon, tark etmoq, bolalar tarbiyasi, javon, davlat arbobi, jamoat ishlari, ayol, qobil, onalik burchi, xalq shoirasi, "Zulfiyaxonim" mukofoti.

### BOTIR ZOKIROV

Hayotda shunday insonlar bo'ladiki, ulaming muhabbati ham buyuk bo'ladi.

To'qqizinchi sinfni bitirish arafasida Botirming yuragiga ishq mehmon bo'ldi, u Farangis ismli qizni yaxshi ko'rib qoldi. Qiz ham uni nihoyatda sevardi. Ulaming sevgisi buлоq suvidek tiniq, osmon kabi musaffo edi. Lekin Farangisning ota-onasi, akalari bundan xabar topib, uni ancha koyishdi. Negaki ularning badavlat, dovrug'i elga ketgan oilasiga Botir mos ko'rilmadi ..

Botir 1952-yili Toshkent Davlat konservatoriyaning vokal fakultetiga imtihon topshirib, muvaffaqiyatlil o'tdi. Farangis Moskva Davlat universitetining filologiya fakultetida o'qiy boshladi. Ularning orasidagi elchi - xat bo'ldi.

Kutilmaganda Botirming hayotida og'ir kunlar boshlandi. 1955-yilda qattiq betob bo'lib, Toshkent tibbiyot institutining yuqumli kasalliklar klinikasida davolana boshladi. Ahvoli og'ir, rangi za'faron, cho'pday ozib ketgandi. Uni shifokor Vali Majidov uzoq davoladi. Davolash jarayoni uzoq va og'ir kechsa-da, Botir ruhiy tushkunlikka tushmadi. Uning hayotga muhabbati, irodasi kuchli edi.

Botir Zokirov operatsiyadan so'ng ham qo'shiq kuyladi. Qiynaldi, izlandi, yo'llidagi to'siqlarni yengib, qayta-qayta kuyladi, oxiri o'z qo'shig'ini topdi. Lekin qanchalik kuyib-yonmasin, ko'zлari to'rt bo'lib axtarmasin, yuragiga armon solgan baxt yulduzini - Farangisni uchratolmadidi. Bunga ikki oshiq yurak orasiga to'siq bo'layotganlar sababchi edi. Bir safar Moskvada konsert berayotganida qo'shiqchi uni zaldagi tomoshabinlar orasida tasodifan ko'rib qoldi. O'shanda gastroloning oxirgi kunlari edi. Uni ko'rgan zahoti, o'zini sahnada bir zum yo'qotdi. Uning ko'zlariga sevgilisidan boshqa hech kim, hech narsa ko'rinasdi. Baxt yulduzi bo'lsa zalning beshinchi qatorida o'tirib, sochlari yelkalariga parishon, o'zini batamom unutgan holda xonandaning mungli qalb faryodini tinglardi. Xonanda esa undan ko'zlarini uzmay, faqat u uchungina yonib kuylardi.

Qaydasan, azizim, qaro ko'zligim,  
Sevgili yulduzim, shirin so'zligim.  
Qo'slimda senga deb quyilgan sharob,  
Ko'zlarim yo'lingda, anor yuzligim...

Konsertdan so'ng u Farangisni izladi. Topolmadi.. bir necha marta uning suratini chizishga urindi. Chizolmadi. Yana qalblarni sog'inchlarga to'ldirib kuyladi:

Qaydasan, azizim, qaro ko'zligim...

... U qo'shiq kuylayotib, zalga qaradi. Qaradi-yu, bir nuqtaga termulib kuylashda davom etdi. Bu safar ham uning yetolmag'an yulduzi o'sha qator, o'sha o'rindiqda o'tirgancha uni tinglardi. Shaloladay sochlari yelkalarini tutgan. Timqora ko'zları qo'shiq sehridan yonardi. Vujudi quloq bo'lib sahnaga aylangan. Sahnada esa sevimli xonandasi odatdagiday bo'g'zida dard bilan xonish qilib, uni chorlayapti:

Bog'imga noz ila kel,  
Quvnoq ovoz ila yor kel,  
Seniki bu chaman, bu gullar,  
Seniki kuylagan bulbullar,  
Kuy ila, soz ila kel.

Qiz ham uchib bormoqchi, lekin qanotlari yo'q, yugurib boray desa madori yetishmaydi, javob qilay desa nafasi tiqilib qolaveradi. Qo'shiq uni butunlay sehrlab tashlagan. Xonandaning savollariga xayolan javob berishdan o'zga chora yo'q.

"Sog'-omon tuzalib qaytdingmi, qo'shig'im? Seni kutaverib ko'zlarim yo'llaringda sarg'aydi, qayta ko'rarmikanman, deb sho'rlik qalbim yana porapora bo'ldi. Qaydasan, qaylardasan joni-jahonim - qo'shig'im? Yolg'iz plastinkang hamisha qalbim malhami. Uni eshitaverib-eshitaverib ovozingni tomirlarimga payvand etdim. Lekin seni qayta ko'raman, seni tinglab yana qirg'oqlariga sig'magan daryoday bo'laman deb sira-sira o'ylamagandim.

Hozir olamda mendan baxtli, mendan baxtiyor inson yo'q. Chunki sening o'tli ko'zlaringga termulib, nolayu afg'onlaringni, dardu xasratlarinigni qaytadan tomirlarimga, qalbimga jo qilyapman, qo'shig'im. Men bugun qaytadan dunyoga keldim, kelib yana seni ko'rdim, faqat seni topdim, qo'shig'im!...

Konsert tugashi bilan Botirni shifokorlar o'rab olishdi. Bu safar ham Uni ko'rolmadi, diydoriga to'yolmadi. Sog'inch hislarini bayon etmoqchi, miriqib-miriqib dardlashmoqchi edi. Bo'ljadi... 1985-yil, 25-yanvar. Motamsaro osmon uning tobuti ustiga tinimsiz qor elardi...

*Matn yuzasidan topshiriqlar:*

**1-topshiriq.**

- a) matnnio'qing, reja tuzing.
- b)reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.
- c) matnni rus tiliga tarjima qiling.

**2-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'z va iboralamingma'nosini izohlang.

Muhabbat,konservatoriya, vokal, fakultet, imtihon, tibbiyot instituti, yuqumli kasalliklar, klinika, tushkunlik, shifokor, iroda, operatsiya, qo'shiq, konserst, tomoshabin, surat, plastinka.

**3-topshiriq.** Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Qobiliyat to'g'risida tushuncha. Qobiliyatlar kishining shunday psixologik xususiyatlaridirki, bilim, ko'nikma, malakalar orttirish shu xususiyatlarga bog'liq bo'ladi, lekin shu xususiyatlarning o'zлari mazkur bilim, ko'nikma, malakalarga taalluqli bo'lmaydi. Qobiliyatlar bilim, ko'nikma, malakalarni egallahda namoyon bo'lsa ham, bilimlar va ko'nikmalarni egallah bilan bog'lanib qolmaydi. Qobiliyatlar va bilimlar, qobiliyatlar va ko'nikmalar, qobiliyatlar malakalar aynan bir-biriga o'xshash emas.

Malakalar, ko'nikma va bilimlarga nisbatan kishining qobiliyatları qandaydir imkoniyat sifatida namoyon bo'ladi. Tuproqqa tashlangan don, ana shu dondan unib chiqishi mumkin bo'lgan boshqqa nisbatan atigi imkoniyat bo'lib hisoblangani singari (lekin urug' tuproqning tuzilishi, tarkibi va namligi, ob-havo va boshqalar qulay sharoit yaratagina unib chiqadi) kishining qobiliyati bu bilimlar va ko'nikmalarni egallah uchun imkoniyat hisoblanadi, xolos. Bu bilim va ko'nikmalar egallanadimi yoki egallanmaydimi, imkoniyat haqiqatga aylanadimi yoki yo'qmi, bulaming hammasi ko'plab sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Shart-sharoitlar jumlasiga, masalan, quyidagilar kiradi: tevarak atrofdagi odamlar (oilada, maktabda, mehnat jamoasida) kishining bu bilim va malakalarni egallab olishdan manfaatdor bo'ladimi yoki yo'qmi; unga qanday ta'lif beradilar, ana shu malaka va ko'nikmalar kerak bo'ladigan va mustahkamlanadigan mehnat faoliyati qanday tashkil etiladi va hokazo. Qobiliyatlar – bu imkoniyat, u yoki bu ishda mahoratning zarur darajasi esa voqyelikdir. Bolada namoyon bo'lgan musiqiy qobiliyat uning musiqachi bo'lishi uchun biron bir darajada garov bo'la olmaydi. Bolaning musiqachi bo'lishi uchun unga maxsus ta'lif berilishi, pedagog va bola namoyish qilgan qat'iylik, salomatlikning yaxshi bo'lishi, musiqa asbobi, notalar va boshqa ko'plab shart-sharoitlar bo'lishi zarur. Bularsiz qobiliyatlar rivojlanmay turibpq so'nib ketishi mumkin.

Qobiliyatlar muammosi eng avvalo inson aqlu-zakovatining sifati, undagi malaka, ko'nikma va bilimlarning borligi masalasi bilan bog'liq. Ayniqsa, biror kasbning egasi bo'lish istagidagi har bir yoshning aqli va intellektual salohiyati uning malakali mutaxassis bo'lib yetishishini kafolatlagani uchun ham psixologiyada ko'proq qobiliyat tushunchasi aql-zakovat tushunchasi bilan bog'lab o'r ganiladi. Ilm-fandagi an'analar shundayki, aql va idrok masalasi, odamning intellektiga bog'liq sifatlar juda ko'plab tadqiqotlar obyekti bo'lgan. Odamlar qobiliyatlarining rivojlanish mexanizmlari, ularning psixologik tarkibi va tizimini aniqlashga, ishonchli metodikalar yaratib, har bir kishining aqli sifatiga aloqador bo'lgan ko'rsatgichni o'lchashga uringanlar. Ko'pchilik olimlar odam intellektida uning verbal (ya'ni, so'zlarda ifodalanadigan), miqdoriy (sonlarda ifodalanadigan) ko'rsatgichlarni aniqlab, ularga yana mantiq, xotira va xayol jarayonlari bilan bog'liq jihatlarni ham qo'shganlar.

Ch.Siprmen faktorial analiz metodi yordamida yuqorida sanab o'tilgan ko'rsatgichlar

o'rtasida bog'liqlik borligini isbot qilib, aqlning haqiqatdan ham murakkab tuzilmaga ega bo'lgan psixik xususiyat ekanligini ko'rsatdi. Boshqa bir olim Dj.Gilford esa aqlni bir qator aqliy operasiyalar (analiz, sintez, taqqoslash, mavhumlashtirish, umumlashtirish, sistemaga solish, klassifikasiya qilish) natijasida namoyon bo'ladigan xususiyat sifatida o'rganishini taklif etgan. Bu olimlar aql so'zidan ko'ra intellekt so'zini ko'proq ishlatalib, bu so'zning o'ziga xos talqini borligiga e'tibomi qaratganlar. Chunki ularning fikricha, intellektual potensialga ega bo'lgan shaxsnigina qobiliyatli, deb qarash mumkin. Intellektual potensial esa bir tomonidan hayotdagi barcha jarayonlarga, boshqa tomonidan – shaxsga bevosita aloqador tushuncha sifatida qaralgan va uning ahamiyati shundaki, u borliqni va bo'ladigan hodisalarni oldindan bashorat qilishga imkon beradi. Intellekt – lotincha so'z – intellectus – tushunish, biliш va intellectum – aql so'zlar negizidan paydo bo'lgan tushuncha bo'lib, u aql-idrokning shunday bo'lagiki, uni o'lchab, o'zgartirib, rivojlantririb bo'lmaydi. Bu – intellekt va u bilan bog'liq qobiliyatlar ijtimoiy xarakterga ega ekanligidan darak beradi. Qobiliyatlar va intellektga bevosita tashqi muhit, undagi insoniy munosabatlar, yashash davri ta'sir ko'rsatadi.

**4-topshiriq.** "Qanday qilib muvaffaqiyatga erishish nuumkin?" mavzusida esse yozing. Mamlakatimizda iqtidorli yoshlar uchun yaratilayotgan sharoitlar haqida ma'lomit to'plang.

**5-topshiriq.** Kasb sohasida muvaffaqiyatga erishish to'g'risida dialog tuzing va uni inssenirovka qiling.

#### B/B/B

**B/B/B JADVALI** - Bilaman /Bilishni xohlayman/ Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchanlikni olib borish imkonini beradi.

Tizimli fikrlash, tuzilmaga keltirish, tahlil qilish ko'nkmalarini rivojlantridi.

O'quvchilar:

Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida, kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar.

"Mavzu bo'yicha nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar. Jadvalning 1 -va 2 – bo'limlarini to'ldiradilar.

O'qituvchi bayonini tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar.

Mustaqil, kichik guruhlarda jadvalning 3 – bo'limni to'ldiradilar

#### " BBB jadvali" bilan o'tilgan mavzuni takrorlash

Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

### Ixtisoslikka oid matnga termin tanlash.

Ixtisoslikka oid matn tuzishdaesaqyidagilarga e'tiborni qaratish lozim:

- matnning qaysi nutq uslubida yozilishi kerakligini oldindan bilish;
- ixtisoslikka oid so'z va shartli belgilarni to'g'ri tanlay olish va o'rinni joylashtirish;
- so'z va terminlami imlo me'yorlariga riyoga qilgan holda yozish;

*Main tuzishda so'z va terminlarga alohida ahamiyat berish lozim. So zlarning lug'aviy ma'nosini bilgan holda ishlatalish, terminlarni to'g'ri va to'liq talaffuz eta olish, nuaviga mos terminni tanlash kerak.*

*Ixtisoslikka oid matn tuzishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:*

- nutq uslubini to'g'ri tanlash;
- imlo qoidalariga e'tibor berish;
- noma'lum terminlarning izohini berish;
- o'rinsiz takrorlarga yo'l qo'ymaslik;
- ixtisoslikka oid terminlardan o'rinni foydalanish.

- Tanish bo'limgan yoki faol qo'llanmaydigan termin, shartli belgi yoki qisqartmalarga qavs ichida izoh berish;
- ixtisoslikka oid terminlarni boshqa tillardan o'zlashtirish va so'z yasashda milliy tilning tabiatini nazarda tutish;
- terminlarni o'rinsiz takrorlanishiga yo'l qo'ymaslik, ularning ta'sirchanligini oshirish maqsadida leksik, morfologik va sintaktik sinonimiya imkoniyatlaridan o'rinni foydalanish va boshqalar.

Umuman ixtisoslikka oid so'z va terminlarni to'g'ri tanlash hamda qo'llash nutq madaniyatining, kasbiy bilmndonlikning muhim sharti hisoblanadi. So'z va termin tanlashda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- so'zning lug'aviy ma'nosini bilgan holda tanlash;
- tanlangan terminni aniq talaffuz eta olishni nazarda tutish;
- so'zning, terminning tushunarli bo'lishini hisobga olish;
- terminning ma'no xususiyatiga asoslanib, uni maqsadga muvofiq tarzda tanlash;
- baynalmilal terminlarni adabiy tilning leksik me'yoriga muvofiq holda tanlash;
- terminni matn mazmuniga mos tarzda tanlash;
- so'z va terminni matnning uslubiy xususiyatiga mos ravishda tanlash.

### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnat deganda nimani tushunasiz?
2. Mehnat – odamni hayvondan farqlovchi eng muhim belgilardan biri, degan fikrga munosabatingiz?
3. Mehnat o'zining mazmuni va xarakteri jihatidan qanday turlarga bo'linadi?
4. Mehnat tarbiyasining maqsadi nima?
5. Iqtidor bu nima?
6. Faqatgina iqtidori bilan muvaffaqiyatga erishsa bo'ladimi?

## 28-MAVZU. YETUK MUTAXASSIS

### Reja:

- Matndagi qo'shiincha fikrni ajratib so'zlab berish.
- "Sohamiz ravnaqi" mavzusida matn tuzish.
- Matn tahlili va tahriri.

### SERMAHSUL OLIM<sup>13</sup>



Nuriddinov Erkin Zuhiddinovich 1956-yil 26-dekabrda Toshkent shahrida ziyolilar oilasida tavallud topdi. Unda juda yoshlik chog'laridanoq tarix faniga qiziqish uyg'onishiga otasi Zuhiddin Rasulovich Nuriddinovning turli tarixiy voqealami tushunarli va qiziqarli tarzda bayon etishi sabab bo'ldi. Bu qiziqish uni 1974-yil o'rta maktabni tugatgach, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining tarix fakultetiga o'qishga yetakladi.

1978-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika instituti Tarix fakultetini muvaffaqiyatl tugatgach, 1978-1980-yillarda Vengriyada harbiy xizmatni o'tadi.

E. Z. Nuriddinov 1985-yilda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Tarix institutida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatl himoya qildi.

1985-yil Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika institutining "Yangi va eng yangi tarix" kafedrasida pedagogik faoliyatni o'qituvchilikdan boshlab, hozirgacha Jahon tarixi fanidan yetuk mutaxassis sifatida talabalarga saboq berib kelmoqda. Uni TDPI rahbariyati 1995-yilda uni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Tarix institutiga doktoranturaga o'qishga yubordi va uning yakunida "Mustaqillik sharoitida O'zbekistonning Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi: yuzaga kelishi, rivojanishi va mavjud muammolar" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatl himoya qildi.

E.Z.Nuriddinovning mehnat faoliyati ta'l'im-tarbiya hamda ilm bilan chambarchas bog'liq. Uning Nizomiy nomidagi TDPU o'qituvchisi, dotsenti va professori ilmiy unvonlari darajasiga yetishishi yo'llidagi pedagogik va jamoatchilik ishlardagi faoliyatini ham alohida e'tirof etish joiz. E. Nuriddinov Nizomiy nomidagi TDPI tarix fakulteti dekanining ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rnbosari (1991-1993), universitetning rus va koreys filologiyasi fakulteti dekani (2005), xorijiy mamlakatlar tarixi kafedrasi mudiri (2002-2011) lavozimlarida ishladi.

E. Z. Nuriddinov 2011-yildan beri Nizomiy nomidagi TDPU faoliyat ko'rsatayotgan "O'zbekiston-Ozarbayjon" do'stlik jamiyatining ijrochi direktori sifatida faoliyat olib bormoqda.

Professor E. Z.Nuriddinov salkam 40 yillik pedagogik tajribaga ega bo'lgan mohir pedagog. Shu muddat mobaynida bir necha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar, ilmiy monografiyalar bevosita uning muallifligida yaratilib, chop etildi. "Eng yangi tarix (1918-1945)", "Jahon tarixi". I-qism (qadimgi va o'rta asrlar tarixi)", "Jahon tarixi (yangi davr)" va "Jahon tarixi (eng yangi davr)" darsliklari, "Eng yangi tarix (1989-2008)", "Новая история (I период)", "O'zbekiston

<sup>13</sup>Ilihomov Z. Sermahsul olim// Pedagogika. -T., 2017. -№ 1. -B. 128-129.

**Respublikasining g'arb mamlakatlari bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy aloqalari** nomli o'quv qo'llanmalari, "Jahon tarixi (Qadimgi davr). I-kitob", "Jahon tarixi (Qadimgi dunyo davri). II qism" kabi metodik qo'llanmalar hamda "O'zbekiston Respublikasining Yevropa mamlakatlari bilan xalqaro hamkorligi (2002 rus tilida)", "O'zbekiston Respublikasi va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikning yuzaga kelishi va rivojlanishi tarixi (2011-yilda rus tili)", "Mustaqil O'zbekiston tarixi" (2013) monografiyalari, "Eng yangi tarix" fanidan o'quv-uslubiy majmua kabilar shular jumlasidandir.

Uning ilmiy yo'naliishi O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosiy faoliyati va xalqaro hamkorlik aloqalari bilan bog'liqligi tufayli ushbu yo'naliishda "O'zbekiston Respublikasi jahon hamjamiyati tizimida" (2004), "Xalqaro munosabatlarning yangi tizimi va O'zbekiston Respublikasi" (2009), "Xalqaro munosabatlar yangi tiziminining shakllanishi va unda O'zbekiston Respublikasining ishtiroki" (2010) kabi mavzularda ma'ruzalar to'plami chop etildi.

U yosh olimlar, ilmiy xodim, bakalavr va magistrler bilan muntazam faol ish olib bormoqda. Olinning ilmiy rahbarligida 6 nafar tadqiqotchi nomzodlik dissertatsiyasini himoya qildi va 4 nafar tadqiqotchi doktorlik dissertatsiyasi bo'yicha ishlamoqda.

E. Z. Nuriddinov bir qator xalqaro va respublika miqyosida o'tkazilgan ilmiy konferensiylarda ma'ruzalari bilan qatnashdi, jumladan, "Из опыта преподавания предметов истории в Узбекистане" (Германия, 2005), "Внешнеполитическая позиция Республики Узбекистана в Евразийском пространстве" (Россия, 2006), "Узбекистан в решении актуальных проблем Центральной Азии" (Qozog'iston Respublikasi, 2014), "Межнациональный диалог культур – как важный фактор развития народной дипломатии" (Ozarbayjon, 2014) ва бошқалар.

Professor Erkin Zuhriddinovich Nuriddinov hozir ham Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabalari uchun bakalavr yo'naliishida Jahon tarixi (Yangi va eng yangi davr) hamda magistrler uchun respublikamizning tashqi siyosiy faoliyati bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati fanlaridan ma'ruza darslarini o'tib, ularga ilmiy rahbarlik qilib kelmoqda.

## **2-topshiriq. Quyidagi savollarga o'z fikringizni bildiring.**

- XXI asr o'qituvchisi qanday bo'lishi kerak?
- U qanday xususiyatlarga ega bo'lishi lozim?
- Yurtimizda o'qituvchi-murabbiylar uchun qanday sharoitlar yaratilgan?
- O'z kasbining yetuk mutaxassisini bo'lishi uchun nimalar qilish lozim?

## **3-topshiriq. Maqollarni o'qing va yod oling.**


Ustoz otangdek ulug'.

Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar.

Otaning mehridan ustozning qahri Afzal.

Yaxshi shogird ustozdan o'tar.

**4-topshiriq.** Yetuk mutaxassis mavzusida FSMU jadvalini to'ldiring.



**5-topshiriq:** "Sohamiz ravnaqi"<sup>13</sup> mavzusida matn tuzing. Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ro'yxatini tuzish va ularni misollar bilan izohlab berish.

**6-topshiriq.** Mutaxassisning kasbiy kompetensiyalari ro'yxatini tuzing va ularni misollar bilan izohlang.

**7-topshiriq.** Gaplarni ko'chiring. Mutafakkirlarning pedagogikaga oid fikrlarini yod oling va chiqargan xulosalaringiz asosida yetuk mutaxassis qanday bo'lishi kerakligi haqida munozara qiling.

1. Bilim qaytarish va takrorlash mevasidir. (Abu Rayhon Beruniy)
2. Bilganlarimizning cheki bor, bilmagan narsalarimizning esa had-chegarasi yo'q. (P.Laplas)
3. Inson dunyoni qanchalik bilsa, o'zligini ham shunchalik anglaydi. (I.Gvote)
4. Oz bo'lsa ham bilmoq uchun ko'p o'qimoq zarur. (Sh.Monteskye)
5. Barcha kashfiyotlar ichida eng go'zali yaxshi tarbiya olgan insondir. (Epikrit)
6. Ilmdan yaxshiroq xazina bo'lmas,  
Qo'lingdan kelgancha tera olsang bas. (Abu Abdullo Rudakiy)
7. Ilmdan bir shu'la dilga tushgan on,  
Shunda bilursankim, ilm bepoyon. (A.Firdavsiy)
8. O'quv qayda bo'lsa, ulug'lik bo'lur,  
Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lur. (Yusuf Xos Hojib)



**Matn tahlili va tahriri. Matnni tahrir qilish.**

Matnni tahrir qilish uchun dastlab u bilan yaxshilab tanishib, to'lig'icha o'qib chiqish, masalaning mohiyatini tushunib olish lozim. Birinchi o'qishdanoq tuzatishlar kiritishga shoshilish xatoliklarga olib kelishi, bu tuzatishlar muallif muddaosini anglamasdan amalga oshirilgan bo'lishi mumkin. Matn haqida tasavvurga ega bo'lingandan keyin, matn til jihatdan tahrir qilinadi. Bunda so'zlarning imlosi ham,

tinish belgilari ham, uslubiy kamchiliklar ham e'tibordan chetda qoldirilmaydi. Mana shu tuzatishlar jarayonida asosiy matndagi ba'zi o'rinalar kengaytirilishi, olib tashlanishi, o'zgartirilishi mumkin.

Axborot texnologiyalari rivojlanayotgan hozirgi vaqtida matnni qiyoslash usulida yangi qadam tashlandi. Bunga muhartirming mehnati zamonaviy texnika vositalari bilan ta'minlanganligi sabab bo'ldi. Muhardtir matn talqinlarini qiyoslash uchun, ularni bir vaqtida display ekraniga chaqirish imkoniga ega bo'ldi.

Bunday qiyoslash ham qulay. Chunki ikki qiyoslanuvchi talqin muharrir ko'z o'ngida yaqqol namoyon bo'ladi va qulaylik tug'diradi.

Biror so'z yoki biror iboraning ma'nosi haqida fikr bildirishda uning turli muqobillari bilan izohlash mumkin. Tilshunoslik tajribasi shuni ko'rsatadiki, "pishib yetilmagan" so'zлами ikkinchisi, ya'ni maqbul varianti bilan almashtirib yoki o'mini, ifodasini o'zgartirib erkin birikmaga kirishida ma'naviy farqlanishini kuzatish zarur.

Muharrir matn bilan tanishar ekan, u haqiqiy mutaxassis, bilimdon sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Tafsilotlarga chuqur va keng qamrovli nazar tashlay olgolgina ishining haqiqiy ustasi sifatida muharrirlikni kasb qilib olgan « hunarmand »lardan farq qiladi. O'z ishining haqiqiy bilimdonigina arzimasdek tuyulgan g'ayriodiy narsada ham katta ma'no ko'radi, zero uni chuqur tushunadi. Muharrir mutolaasi ko'p jihatdan ilmiy mutolaaga o'xshab ko'rindi. Har ikkala o'qishda ham tushunarsiz bo'lgan hech narsa qolmasligi lozim. Bunda tushunarsiz ifoda qolmasligidan tashqari, matndagi murakkab bandlarni chuqur mulohaza qilib ko'rish, mazkur mavzu bo'yicha adabiyotlar bilan tanishish shart. Lekin shuni unutmaslik kerakki, bunday vaziyatda to'la aynanlikka erishish amrimahol.

Muharrirlik faoliyati andozaviylikni mutlaqo rad etadi. Zero, tuzatishning har qanday matnga nisbatan qo'llash mumkin bo'lgan qolipi yo'q.

Muharrir tuzatish usulini o'zi tanlash huquqiga ega, lekin bu usul to'g'ri, asoslangan bo'lishi lozim, Shuningdek, uni to'g'ri qo'llay biliishi ham kerak.

Musahhih va muharrir o'qishidagi maqsad alohida, boshqa-boshqadir. Musahhih chop etishga tayyorlangan matnni o'qish jarayonida uning tahrirdan chiqqan, muallif bilan kelishilgan va tasdiqlangan matniga to'la mos ekanligiga erishadi. Matnni imloviy, tinish belgilari bilan bog'liq xatolardan holi qiladi. Ensiklopedik asar matnidagi qisqartmalar va havolalarni bir xildaligi va aniqligini ta'minlaydi. Izohlar matndagi ko'rsatkichlarga mosligi va hokazolarni to'g'riligini tekshiradi, shuningdek, zarur tuzatishlarni amalga oshiradi.

Muharririming o'qib tuzatishidan maqsadi matnni sidirg'a o'qishdan iborat. Muharrir bu tur o'qishni amalga oshirganda uning mazmuni, tuzilishi (kompozitsiyasi)dagi, shuningdek, uslubiy xatolarni aniqlaydi. O'qish jarayonida muharrir geografik nomlar, shaxslar ismi va familiyalari, taxalluslari bir xil berilishi, iqtiboslar, raqamlar, sanalar aniq bo'lishiga e'tibor qaratadi, uzunlik, miqdor

*Tahrir usulida asosiy  
e'tibor matn talqin  
(variant)larni  
qiyoslashga qaratiladi.  
Bunda, ya'ni qiyoslash  
jarayonida, tabiyki,  
tuzatishlar kiritiladi,  
natijada matnning ikki  
talqini yuzaga keladi:  
birinchisi,  
muvaffaqiyatsiz  
chiqqani bo'lsa,  
ikkinchisi tuzatilgan  
namunasi.*

o'lchamlarining o'rnliligi va to'g'riligini tekshiradi. Shuningdek, sarlavhalarning matn bilan uyg'unligi, mosligini; tasvirlar osti yozuvlarining rasm, chizmaga mosligini tekshirish ham uning vazifasiga kiradi.

Ayrim hollarda bunday o'qish tahririyatning malakali va tajribali mutaxassisiga topshiriladi, lekin u materialni tayyorlagan muharrirning zinhor o'mini bosa olmaydi. Uning vazifasi matndagi kamchiliklarni aniqlash, ko'rsatish, tuzatish emas. Ammo, tabiiyki, aniq ko'rinish turgan punktuatsion, grammatik, imloviy xatoliklar bundan istisno. Shuning uchun bunday o'quvchining malakasi juda yuqori bo'lgan taqdirda ham mazkur jarayonda yetakchi muharrir ishtirok etadi va muammolarni hal qiladi.

Matnda qisqartirib tuzatishlarni amalga oshirishdan maqsad, avvalo, matn hajmini kichraytirish va shu yo'l bilan uni maqbul o'lchamga keltirish, qolaversa, ortiqchaliklardan holi qilishdir.

*Tahrir ma'naviyat, madaniyat va ma'rifatga bevosita daxldor jarayondir. Tahrir so'zi arabcha bo'lib, yozma ishni, asarni tuzatishlar kiritib yaxshilash, tuzatish ma'nolarini anglatadi.*

*Tahrir uslubiyatida tuzatishning to'rt turi farqlanadi. Bular quyidagilar:  
a) o'qib tuzatish;  
b) qisqartirib tuzatish;  
c) ishlov berib tuzatish; d)  
o'zgartirib tuzatish.*

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Hozirgi davr pedagogi qanday bo'lishi kerak?
2. Bugungi kunda o'qituvchi-murabbiylarga qo'yilayotgan talablar va ular uchun yaratilayotgan imkoniyatlar haqida nimalarni bilasiz? Ularga munosabatingiz qanday?
3. Yaxshi pedagog, sizningcha, nimalar qilish lozim?
4. Matn tahlili deganda nimani tushunasiz?
5. Matn tahriri deganda nima tushuniladi?
6. Muharrir kim?
7. Tahrir turlari haqida nima bilasiz?

## 29-MAVZU. KASB BAYRAMI

Reja:

- Matni o'qib tushunish.
- Kasb bayrami haqida matn tuzish.
- Matn mazmunining qisqacha bayoni (rezyume), uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

Tabrik matni O'zA tomonidan e'lon gilindi.

**O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev mamlakat o'qituvchi va murabbiylariga bayram tabrigini yo'lladi.**

Qadrli va muhtaram ustozlar!

Avvalo, siz, azizlarni, sizlarning timsolingizda ustoz degan sharaflı nomni ulug'lab kelayotgan yurtimizdagи barcha insonlami umumxalq bayrami – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan chin qalbimdan samimiyy muborakbody etaman. Bugun ushbu qutlug' ayyomni mamlakatimizda keng nishonlar ekanmiz, birinchi navbatda qadrdon maktabimiz, bizga harf o'rgatgan, ezzulikdan saboq bergen mehnibon muallimlarimiz siymosi ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Biz uchun ibrat namunasi, yuksak insoniy fazilatlar timsoli bo'lgan sizlari kabi aziz va mo'tabar zotlar sha'niga eng go'zal so'zlar, ezgu tilaklarimizni izhor etamiz. Sizlarning barchangizga hech qachon uzib bo'lmaydigan qarzdorlik hissi bilan ta'zim qilamiz. Buyuk Alisher Navoiy bobomiz aytganlaridek, dunyoning bor boylik va xazinasi bilan ham sizlarning olijanob mehnatingiz haqini ado etib bo'lmaydi. Haqiqatan ham, har bir murg'ak bolani o'z farzandidek ardoqlab, yosh avlod tarbiyasi uchun ko'z nuri, qalb qo'n, butun borlig'ini baxsh etadigan o'qituvchi va murabbiylar torn ma'noda fidoiy kasb egalaridir.

Biz bugun zamonaliv bilim va kasb-hunarlar, xorijiy tillarni puxta egallab, katta umid va ishonch bilan hayotga qadam qo'yagan hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasini 2017-2021 yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko'lamli o'zgarishlar amalga oshirilmoqda.

Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaliv davlatlar qatoridan munosib o'rinn egallashi avvalo ilm-fan va ta'lim-tarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo'la olishimiz bilan uzviy bog'liq, desak, hech qanday mubolag'a bo'lmaydi.

Ayni shu maqsadda o'tgan bir yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining bevosita ta'lim-tarbiya sohasiga daxldor bo'lgan 74 ta farmoni, qaror va farmoyishi qabul qilinganini ta'kidlash o'rinnlidir.

Albatta, soha rivojiga yuksak e'tibor natijasi bo'lgan bu hujjalarni hayotga samarali joriy qilish, ularga bamisolai jon baxsh etishda biz avvalo siz, aziz o'qituvchi va murabbiylarga, sizlarning bilim va tajribangiz, iste'dod va mahoratingizga

suyanamiz.

Bugungi kunda biz zamon talabi va xalqimizning xohish-irodasidan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimida ulkan islohotlarni amalga oshirishga kirishdiq. Jumladan, umumiy o'rta ta'lim sohasida 11 yillik tizimga o'tish, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini optimallashtirish, 5 ta yangi oliv ta'lim muassasasi va filiallar tashkil etish, 16 ta universitet va institutda 12 ta yo'nalish bo'yicha kechki va sirtqi bo'limlar ochish, maktabgacha ta'lim muassasalarini tarmog'ini kengaytirish, nodavlat ta'lim xizmati ko'rsatish, pedagog kadrlar va xalq ta'limi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimini takomillashtirish bo'yicha tatbiq etilayotgan, uzoqni ko'zlagan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini siz, hurmatli ustoz va murabbiylar, albatta, hammadan ko'ra yaxshi tushunasiz.

Ana shu ishlarimizning davomi sifatida shu kunlarda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishiga oid fanlarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab, Mirzo Ulug'bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'limi maktab-internati, "Astronomiya va aeronavtika" bog'i tashkil etilayotgani, hech shubhasiz, mamlakatimizda ta'lim sifatini jahon standartlari darajasiga ko'tarishga xizmat qiladi.

Shuningdek, Toshkent shahrida Amerika Qo'shma Shtatlarining nufuzli Webster universitetining filiali ochilishi ham ilm-fan va ta'lim sohasida ilg'or xorijiy tajriba va innovatsiyalarni joriy etish yo'lida muhim qadam bo'ladi. Ayni vaqtida biz ta'lim-tarbiya muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, muallimlar, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, xorijdag'i yetakchi ta'lim markazlari bilan ilmiy-pedagogik hamkorlikni kuchaytirish, o'quv-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim va axborot texnologiyalarini, yangi o'quv metodikalarini joriy etish bo'yicha hali oldimizda ko'plab dolzarb vazifalar turganini yaxshi anglaymiz va ularning yechimi ustida doimiy ish olib boramiz. Muhtaram do'stlar!

Bugungi kunda shiddat bilan o'zgarib borayotgan hayot oldimizga qo'yayotgan bir-biridan murakkab va muhim masalalarni hal qilish haqida o'ylar ekanmiz, ularning yechimi aynan ta'lim-tarbiya bilan, yoshlarning dunyoqarashini zamonaviy bilim, yuksak ma'naviyat va ma'rifat asosida shakllantirish bilan bog'liq ekaniga yana bir bor ishonch hosil qilamiz.

Jumladan, butun insoniyatni tashvishga solayotgan terrorizm va ekstremizm kabi balo-qazolarni bartaraf etishda faqat ularning oqibatlariga qarshi kurashish bilan cheklanmasdan, birinchi navbatda bu tahdidlarni keltirib chiqarayotgan sabablarga qarshi kurashish, yoshlarni ezgu insoniy ideallar ruhida kamol toptirish eng asosiy vazifaga aylanmoqda.

Aynan ana shunday yondashuv O'zbekiston tomonidan nufuzli xalqaro sammitlarda, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining yaqinda bo'lib o'tgan 72-sessiyasida alohida ta'kidlangani sizlarga yaxshi ma'lum, albatta.

Bu borada biz ilgari surayotgan "**Jaholat va zo'ravonlikka qarshi ma'rifat bilan kurashamiz**" degan g'oya va tashabbus xalqaro maydonda katta e'tibor va qiziqish uyg'otmoqda hamda qo'llab-quvvatlanmoqda.

Ishonchim komil, xalqimiz ziyoililarining ilg'or vakillari bo'lgan siz, hurmatli ustoz va murabbiylar mamlakatimizda ijtimoiy-ma'naviy muhitni yaxshilash, yoshlari o'rtaida sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, jamiyatimizda tinchlik va hamjihatlikni mustahkamlash bo'yicha olib borayotgan ishlarimizni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, hayotda o'zini oqlagan maktab, oila va mahalla hamkorligiga asoslangan ijtimoiy tizim samarasini oshirishda faol ishtirot etib, barchaga o'mak va namuna bo'lasizlar.

Siz, azizlarning ana shu ezu maqsadlarga erishish, inson har tomonlama erkin va farovon yashaydigan yangi O'zbekiston davlatini barpo etish, jonajon Vatanimizni yanada taraqqiy ettirishga qaratilgan og'ir va mashaqqatli, shu bilan birga, g'oyat sharaflsi mehnatingizni munosib qadrlash uchun biz davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarni safarbar etishga tayyormiz.

Sizlarni 1 oktabr – O'qituvchi va murabbiylar kuni bilan yana bir bor tabriklab, barchangizga sihat-salomatlik, baxt va omad, xonardonlaringizga tinchlik-xotirjamlik, fayzu baraka tilayman. Doimo sog'-omon bo'ling, aziz ustozlar!

Shavkat Mirziyoyev,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

***Matn yuzasidan topshiriqlar.***

**1-topshiriq:**

- a) matnni o'qing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing, mazmunini so'zlab bering.

**2-topshiriq.** Turli mamlakatlarda nishonlanadigan shu kasb egalarining bayramlari haqida ma'lumot to'plang.

**3-topshiriq.** Kasb bayrami haqida matn tuzing.

**4-topshiriq.** Kasb bayramiga bag'ishlsungan reportaj yozing. Reportaj mazmunini rezyume ko'rinishida ifodalang.

**5-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'zlar ishtirokida **damino** shakllantiring.

**Ilm - [ilm; fan]** - o'qish-o'rganish va tadqiqot, tahlil etish bilan erishiladigan bilim; ko'nikma, ma'lumot. Ish-faoliyatning ma'lum bir sohasiga oid bilim, ta'llimot, malaka. **Ilm o'rganish.** 2. Ish-faoliyatning ilm bilan bog'liq sohasi; tabiat va jamiyat haqidagi bilimlar tizimi. *Iqtisodiyot ilmi.*

**Ilmiy** - ilmga oid, ilmga qaratilgan. *Ilmiy asar.*

**Faoliyat** - [harakatchanlik; samaradorlik] - biror sohada olib boriladigan ish, mashg'ulot, harakat. *Ilmiy faoliyat.*

**Filial** - [lot filialis - o'g'ilga oid, o'g'ilniki] - biror yirik korxona, muassasa yoki jamoat tashkilotining mustaqil bo'limi, sho'ba.

**Tadqiqotchi** - tadqiqot ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs. *Ilmiy tadqiqotchilar.*

**Tashkilot** - aniq tarkib va vazifasiga, ish dasturiga ega bo'lgan ijtimoiy, xo'jalik birlashmasi yoki davlat muassasasi. *BMTning Yunesko tashkaloti.*

**Ensiklopedist** - [fr. encyclopédiste < yun. enkyklios paideytes - keng fanlar doirasi bo'yicha murabbiy] - XVIII-asrda yashagan, ilm-fanning ko'p sohalarini

egallagan ilg'or fransuz olimlari, faylasuflari, yozuvchilar va publisistlari guruhiga mansub kishi (bu guruh 1751-1780-yillarda "Ensiklopediya" tuzgan va nashr etgan). *Ensiklopedist olim*.

**Davr - [aylanish, navbat]** - jamiyat taraqqiyotida yoki tabiatda muhim voqeа, hodisa yuz bergan yoki o'ziga xos xususiyati bilan ajralib turadigan ma'lum vaqt oralig'i. *Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri*.

**Olim - [ilmli, ma'lumotli]** - fanning biror sohasi bo'yicha maxsus bilimga ega bo'lgan kishi. *Iqtisodchi olim*. 2. Umuman, bilimli kishi. *Olim bo'lsang, olam seniki*.

**Mutafakkir - [fikrlovchi, o'ylovechi]** - chuqur falsafiy fikrlash iste'dodiga ega bo'lgan kishi, tafakkur egasi. *Mutafakkir olim*.

**Homiy - [himoya qiluvchi]** - biron tadbir yoki faoliyatni amalga oshirishda moliyaviy yordam ko'rsatuvchi, moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlovchi jismoniy yoki yuridik shaxs. *Ma muniv xorazmshohlar homiyligida*.

**Akademiya - [yun. academia - afsonaviy qahramon Akadem nomi hamda Platon o'z ta'limotidan dars bergan, Afina yaqinidagi kichik o'rmon nomidan]** - ilm, fan yoki san'atni rivojlantirish uchun tuzilgan, yuqori malakali olimlariga ega bo'lgan oliy ilmiy muassasa. *O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi*. 2. Ba'zi bir oliy o'quv yurtlarining nomi. *Soliqakademiyasi*.

**Qaror - [to'xtam, hukm, xulosa; tub, asos]** - biror ishl, masala yuzasidan qabul qilingan xulosa; amalga oshirish lozim topilgan qat'iy fikr; ahd, to'xtam. *Qarorim qat'iy*. 2. Rasmiy organ, tashkilot, majlis, mansabdor shaxs va sh.k. ning biror ishl, masala yuzasidan barnaslahat qabul qilgan to'xtami, hukmi. *Kafedramajlis qarori*.

**Institut - [lat. institutum - o'rnatish, tuzish, ta'sis etish]** - ba'zi oliy o'quv yurti va ilmiy-tekshirish muassasalarining nomi.

**Iqtisodiyot - [xo'jalik masalalari; xo'jalik]** - ijtimoiy tuzumning bazasi. Xalq xo'jaligi, ishlab chiqarish kuchlarining holatiga muvofiq keluvchi ishlab chiqarish munosabatlari. 2. Xo'jalik tarmoqlarining moddiy va moliyaviy tomonlarini o'rganadigan fan. *Respublikaning iqtisodiyoti*.

**Universitet - [nem. universität<lot. universitas, universitatus - jami, barchasi; majmua]** - tarkibida bir qancha yo'nalishdagi fakultetlari bo'lgan, ayni yo'nalishlarda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlaydigan ko'p tarmoqli oliy o'quv ilmiy muassasa.

**Kafedra - [yun. kathedra - o'rindiq, kursi]** - ma'ruza o'qish, va'z aytish, axborot berish uchun mo'ljallangan baland qurilma; minbar. 2. Oliy o'quv yurtlarida bir yoki bir necha o'zaro yaqin fanlar bo'yicha ishl olib boruvchi professorlar, o'qituvchilar va ilmiy xodimlarning tashkiliy birlashmasi va shu birlashma joylashgan xona. *Bank ishi kafedrasi*.

**Fakultet - [nem. fakultät<lot. facul-tatis - qobiliyat, imkoniyat]** - oliy o'quv yurtining ma'lum ixtisoslik bo'yicha tegishli fanlar o'qitiladigan bo'limi.

**Fan - [ilm, bilim; tarmoq]** - tabiat va jamiyatning taraqqiyot qonuniyatlarini ochib beruvchi hamda o'zi erishgan natijalar bilan atrof-muhitga ta'sir ko'rsatuvchi bilimlar tizimi. *Fan yutuqlari*. 2. Shunday bilimlar tizimining alohida tarmog'i, yo'nalishlari, sohalari. *Iqtisodiy fanlar*.

**Ta'lim** - [ilm berish; ma'lumot] - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayoni. 2. Ilm-fan yoki kasb-hunar sohalari bo'yicha egallanadigan, olinadigan ma'lumot va ko'nikmalar majmui; bilim. *Oliy ta lim.*

**Talaba** - [talab qiluvchi] - oliy yoki o'rta maxsus o'quv yurti o'quvchisi. *Bank kolleji talabasi.*

**Professor** - [lot professor - muallim, o'qituvchi; murabbiy] - oliyo'quv yurtlaridagi eng malakalio'qituvchilarning, shuningdek, ilmiy-tadqiqot institutlaridagi ilmiy xodimlarning ilmiy unvoni va lavozimi; shunday unvon va lavozimli shaxs. *Kafedra professori.*

**O'quv** - o'qish va o'qitish bilan bog'liq bo'lgan, o'qish va o'qitishga taalluqli. *O'quv soati.*

**Xorijiy** - [tashqi, ajnabiylar] - mamlakatimizdan tashqaridagi, chet eldag'i. *Xorijiy davlat. Xorijiy matbuoi.*

**Yo'naliш** - Hayot, faoliyatdagi muayyan yo'l. Ilm-fan va boshqa sohalarga xos oqim, ularning sohasi, tarmog'i. *Ilm fanning biror yo'nalishi.*

**Muassasa** - [idora, korxona, tashkilot] - xo'jalik, savdo-sotiq ishlarining biror sohasini boshqaruvchi yoki ilmiy, ta'lim-tarbiya ishlarini olib boruvchi, belgili shtat va ma'muriyatiga ega bo'lgan tashkilot. *Davlat muassasalari.*

**6-topshiriq** Quyidagi gaplarni kerakli so'zlar bilan to'ldiring.

1. Mening akam juda ....., shuning uchun biz u bilan o'ylab muomala qilamiz. 2. Uning ismi Go'zal, lekin u juda ..... 3. Salim ..... talaba bo'lgani uchun hamma fanlardan «5» baho oldi. 4. Kelinimiz ....., shuning uchun onam uni juda maqtaydilar. 5. Akmal ....., shuning uchun u hech kimga yoqmaydi. 6. Boylar ....., kambag'allar esa ..... bo'ladi.

**7-topshiriq.** Guruhingizdagi do'stlarngizni fe'l-atvori, xarakter-xususiyatiga ko'ra ta'riflab bering.

#### Shaxsning fe'l-atvori, xarakter-xususiyatiga ko'ra ta'riflash

O'qituvchi kamtar kishi	Bilimli bola
Singlim chaqqon qiz	Mehmondo'st kishi
Boy juda xasis edi	Badjahl odam
Onam menga mehribonlar	Qo'pol yigit
Ukam yalqov bola	Otam bizga g'amxo'r
Karim – tirishqoq	Ustozim samimiy inson
Shohida qiziquvchan talaba	

**8-topshiriq.** Ushbu o'zbek xalq maqollarini yod oling, o'z ona tilingizdagi muqobilini toping.

Usta obro'ni hunaridan topadi.  
Dangasaning qo'li saratonda sovqotar.  
Gap bilguncha, ish bilgin.  
Qolgan ishga qor yog'ar.

## MATN MAZMUNINING QISQACHA BAYONI (PE3IOME), UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI.

*Rezyume* – [fr. *resume* ^ *resumer* – qisqacha bayon qilmoq] Yozilgan, aytilgan yoki o'qilgan matn mazmunining qisqacha bayoni. Rezyume nashr qilinadigan asar yoki himoyaga tavsiya etiladigan dissertatsiyaning g'oyatda qisqa mazmuni bo'lib, odatda ishning oxirida boshqa tillarda, masalan, hozirda rus va ingliz tillarida beriladi. Ana shu qisqa rezyume orqali asosiy matnni o'qimagan kishi ham tadqiqot haqida ayrim xulosalarga kelishi mumkin. Avtoreferatning rezyumesi.

### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Rezyume deb nimaga aytildi?
2. Qanday asarlarga rezyume yoziladi?
3. Rezyume yozishda nimalarga amal qilinadi?
4. Rezyume necha tilda yoziladi?
5. Qaysi kasb bayramlarini bilasiz?
6. Ustoz- murabbiylik kasbi haqida qanday fikrdasiz?
7. "Ustozning umri - mangu, chunki shogirdlar umri unga ulanadi", - degan jumlanı qanday izohlaysiz?

## 30- MAVZU.SHARQAKADEMIYALARI

### Reja:

- Matnni o'qib tushunish.
- Ilmga fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab berish.
- Ixtisoslik sohasining ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnomani matnnini tayyorlash.
- Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

### Xorazm Ma'mun akademiyasi

Ma'munakademiyasi 1004-1005-yillarda Xorazmda yaratilgan bo'lib, O'rta Osiyo tarixida birinchi akademiyadir. Akademianing "Ma'mun" deyilishining sababi Ma'muniy xorazmshohlar davrida (997-1017-yillar) ulaming homiyligida tashkil qilingan va ilmiy ish olib borgan. Akademiya 1017-yilda o'z faoliyatini to'xtatishining sababi Xorazmshoh Ma'mun ibn Ma'munning isyonchilar tomonidan o'ldirilishi bo'ldi. Shundan so'ng akademiya homiysiz va qarovsiz qolib, akademiya olimlari ilmiy ish uchun tinch sharoit qidirib, birin-ketin tarqalib ketdilar.

1004-yildan boshlab Gurgannda "Darul Hikma va maorif" ilmiy tashkiloti faoliyat ko'rsata boshlagan. Bu ilmiy tashkilot ko'p jihatdan Platonning Afinadagi Akademiyasini va Bag'doddagi "Bayt -ul hikma" akademiyasiga o'xshagan Xorazm Ma'mun akademiyasida o'sha davrning eng ko'zga ko'ringan ensiklopedist olimlari va mutafakkirlari xizmat qilganlar. Ular qatorida quyidagi yirik tadqiqotchilarni sanab o'tish mumkin: Abulhayr ibn Hammar, Jurjoniy, Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Muhammad ibn Muhammad as-Saxiy, Xorazmiy va boshqalar. Bular o'sha davr sharoitida haqiqiy ilmu fanlarning mashhur kimyogarları, tabiatshunosları, tibbiyotchilari, matematiklari, astronomlari, muhandis-muhosib olimlari,

mantiqshunoslar, faylasuflar, tarixchilar, geograflar va boshqa sohalarning atoqli vakillari yig'ilgan edilar.

BMTning Yunesko tashkiloti O'zbekiston Respublikasining taklifi bilan 2005-yilda Ma'mun akademiyasining 1000 yilligi anjumanini o'tkazish to'g'risida qaror qabul qildi. O'zbekiston ushbu tantanalar doirasida Xorazm Ma'mun akademiyasini O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Xorazm-Amudaryo mintaqasi filiali sifatida qaytadan tikladi. 1997-yil 11-noyabrdan boshlab, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning "Xorazm Ma'mun akademiyasini tiklash to'g'risida"gi Farmoniga binoan bu akademiya o'z tarkibida arxeologik, til va adabiyot, biologiya bo'limlarini tashkil qildi va o'z ajdodlarining nomi va ruhiga loyiq ish olib borishga intilmoqda.

#### *Matn yuzasidan topshiriq*

##### **1-topshiriq.**

- a) Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.
- b) Matnni davom ettirgan holda so'zlab berish.
- v) Ilmga fidoyilik tushunchasini misollar bilan ta'riflab berish.

**2-topshiriq.** Ixtisoslik sohasi, ahamiyati to'g'risida ilmiy uslubdagi ma'lumotnomasi matnni tayyorlang.

**3-topshiriq.** Fan rivojiga salmoqli hissa qo'shgan olimlar haqida referat tayyorlash.



**4-topshiriq.** Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing, ularni rus tiliga tarjima qiling.

Aytish lozim, chora topish, gapirish mumkin, tushuntirish uchun, maslahatlashish uchun, bajarish kerak, qolish mumkin emas, a'lo bahoga o'qish uchun, kelishim zarur, olishing mumkin emas.

**5-topshiriq.** Nuqtalar o'miga berilgan fe'llarning mazmunan mos kelganini qo'ying va tarjima qiling :

1.O'zbekiston yoshlari, xalqingiz uchun ..... 2. Avval o'qituvchimizning yoniga ..... 3. Gulchehra menga telefon ..... 4. Hamma talabalar bugun soat 3 da katta zalda ..... 5. Nodira opa ,bizga yangi qoidani yana bir marta tushuntirib ..... 6. Ertaga barcha majlisga ..... 7. Akamga aytинг, bugun kutubhonaga ..... 8. Zohida opa shanba kuni uydan ketmay .....

So'zlar: *ishlamoq, jonini fido qilmoq, bormoq, qilmoq, to'planmoq, bermoq, kelmoq, turmoq.*

### **Referat matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.**

**Referat** – badiiy yoki ilmiy manba asosida tayyorlangan, ma'lum bir mavzu yuzasidan ma'lumot beruvchi qo'llanma ma'nosida kelsa, ikkinchisi – aniq bir ilmiy ish yoki kitob haqida qisqacha tushuncha beradi. Shu bilan birga u matnning aynan ko'chirmasi emas, balki o'r ganilayotgan mavzuning mohiyatini ochib beruvchi mustaqil tadqiqot ishidir. Qoidaga ko'ra, referat ko'r ilayotgan mavzu yuzasidan bir qancha nuqtai nazarlarni o'zida jamlaydi hamda muallifning shaxsiy fikrini ham aks ettiradi.

Referat qismlarining tuzilishi va uning ustida ishlash bosqichlari:

Odatiy tartibga ko'ra referat ustida ishlashning boshlang'ich qismini tanlangan mavzuning izohi ochib berishi lozim. Unda mavzuning dolzarbliji, ushbu mavzu yuzasidan hozirgacha fanga ma'lum bo'lgan va o'z tasdiqini topgan faktlar, natijalar, olimlarning uni o'r ganish ustida olib borgan ishlari; adabiy manbalardan keltirilgan misollar, foydalaniilgan materiallar; o'r ganilayotgan mavzuning amaliy yoki ilmiy tasdiqini topgan masalalari o'z aksini topadi.

Referat quyidagi bo'limlardan tashkil topadi:

1. Titul varag'i – ma'lum tartibga ko'ra referatning nomi( mavzusi), loyihaning ilmiy rahbari, uning muallifi ismi sharifi hamda uni qaysi bir o'quv muasasasiga taalluqli ekanligini ko'rsatishi lozim.

2. Reja – o'z o'r nida, referatning bo'limlari (qismlari)ning nomlanishi va aniq raqamlar orqali belgilanishi asosida tuziladi.

3. Kirish qismi – o'r ganilayotgan mavzuning muqaddimasi bo'lib, nimaga asosan aynan shu mavzu tanlangani, uning maqsad va vazifalari, foydalaniilgan adabiyotlarning tahlilini to'liq qamrab oladi.

4. Asosiy qism – bu referatning eng muhim qisni hisoblanadi va o'zida mavzuning asl mohiyatini aks ettiradi. U bo'limlardan iborat bo'lib, har birida alohida bir muammo yoki mavzuning aniq bir tomoni ko'rib chiqiladi, hamda unga muvofiq nazariy mulohazalar, muallifning shaxsiy mushohadalari va tadqiqotlari keltiriladi.

5. Xulosa – bu qism referat uchun umumlash turuvchi so'nggi so'z vazifasini bajaradi. Unda amalga oshirilgan ilmiy ishning natijasi keltirib chiqariladi va kelgusida tavsiyalar beriladi.

6. Adabiyotlar ro'yxati – foydalaniilgan adabiyot va ilmiy ishlari ( kitoblar, matnlar, jurnal va monograflar)ni qamrab oladi.

7. Referat hajmi - 14-15 bet (A4 format) daniborat bo'lishi kerak.

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Sharq mamlakatlari dagi dastlabki akademiyalar qachondan tarkib topa boshlagan va ular qaysilar?

2. Xorazm Ma'mun akademiyasi haqida nimalarni bilasiz?

3. Hozirda O'zbekistondagi qaysi akademiyalarni bilasiz?

4. Referat nima?

5. Referatning tuzilishi qanday?

## 31-MAVZU. ILM SARI YO'L

**Reja:**

- Matnni o'qib tushunish.
- Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozish.
- Taqriz matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

### AKADEIK MAHMUD SALOHIDDINOV

Mahmud Salohiddinovich Salohiddinov – **atoqli** matematik olim, fizika-matematika fanlari doktori, professor, akademik. O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan **fan arbobi**, Beruniy nomidagi O'zbekiston Davlat mukofoti sovrindori. U O'zbekistonda differential tenglamalar sohasidagi hozirgi zamон ilmiy maktabining tashkilotchisi va rahbari, respublikada fan va ilmiy ta'limi tashkil etish va rivojlantirishga ulkan **hissa qo'shgan** jamoat va davlat arbobidir.

M.S.Salohiddinov 1933-yil 23-noyabrda Namangan shahrida tavallud topdi. 1950- yil O'rta Osiyo davlat universitetining fizika-matematika fakultetiga o'qishga kirdi, uni **imtiyozli diplom** bilan tamomladi. U 1958-yilda nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyat bilan **himoya qildi**. Shu bilan butun umrini O'zbekistonda matematik bilimlarni rivojlantirishga bag'ishladi. 1967-1985-yillarda O'zFA vitse-prezidenti, 1988-1994-yillarda esa prezidenti bo'lib ishladi.

Mahmud Salohiddinovich **sermazmun** ilmiy, ijodiy faoliyatini doim pedagogik va davlat ishlari bilan birga olib bordi. U 1985-1988-yillarda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri vazifasida ishlab, **oliy maktabni** rivojlantirish va uning kadrlar salohiyatini ko'tarishga katta hissa qo'shdi. Toshkent davlat universitetida o'zi asos solgan differential tenglamalar kafedrasi mudiri bo'lib ishladi. **Ajoyib pedagog**, ilmga chanqoq yoshlarning sevimli murabbiyi, shu bilan birga, juda **talabchan**, mehribon, xushfe'l, **adolatparvar** inson.

Matematikani va oliy ta'limi rivojlantirishga qo'shgan hissasi, sermahsul pedagogik faoliyati va yuqori malakali ilmiy mutaxassislarni tayyorlagani uchun M.S.Salohiddinov "Hurmat belgisi" ordeni va medallar bilan taqdirlandi.

**1-topshiriq.** Mavzuga oid matnni o'qib tushunish.

**2-topshiriq.** Ilmiy ishlarning fan va soha rivojiga qo'shadigan hissasi haqida gapirib bering.

**3-topshiriq.** "Soha rivojida fanning o'rni" mavzusida matn tuzing. Ilmiy ishlarning turlari haqida qisqacha tavsiflar yozing.

**4-topshiriq.** Nuqtalar o'miga o'ng tomonda berilgan fe'llarni kelasi zamон maqsad feli shaklida yozing va tarjima qiling.

1. Men bir oydan keyin chet elga ....	ketmoq
2. Sen shu daftarni sotib ...?	olmoq
3. Do'stim bilan darsdan keyin kinoga ...	bormoq
4. Men o'zbek tilini juda puxta ....	organmoq
5. Bu yil opam universitetga o'qishga ....	kirmoq
6. Ertaga o'gituvchimizning yoniga ....	jo namoq
7. U ertaga mening kitobimni uyiga olib....	ketmoq
8. Ular nega bu to'garakka a'zo ....	bo'lmoq

## **TAQRIZ MATNI, UNING TUZILISHI VA IFODA MATERIALINING XUSUSIYATLARI.**

**Taqriz** - saylannia bayonning bir turi. U badiiy, ilmiy, metodik va boshqa asarlarga berilgan bahodir. Taqrizda asar tanqidiy tahlil etiladi, shu nuqtai nazardan baholanadi. Asarning yutuqlari ham, nuqsonlari ham ko'rsatiladi. Taqrizchi o'zining da'volarini turli dalillar asosida isbotlay boradi, asarga ilmiy izohlar beradi.

Taqriz yozish odobi xolislikni, haqiqatdan chetlashmaslikni talab etadi. Taqriz qilinayotgan asarning yutuq va kamchiliklari, nazariy va amaliy ahamiyati haqqoni y ko'rsatilishi lozim. Asarga baho berishda muallifning shaxsiyati, obro'si emas, balki uning (asarning) xususiyatlari, ahamiyati ko'zda tutiladi.

Taqriz yozishda quyidagi sxemaga amal qilinadi:

1. Tezis (umumiyl holati) va uni ochib berish.
2. Kitob (film, teatr)ning baholanishi.

Taqrizning boshlang'ich qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalilanildi:

Kitob (film, teatr)da hikoya qilinadi.

Kitob (film, teatr)da muammolar ko'tariladi.

Taqrizni baholash qismida quyidagi konstruksiyalardan foydalilanildi:

Men ... hisoblayman - Я считаю...

Mening fikrimcha... - Помоему...

Mening nazarimda... - На мой взгляд...

... mengayoqdi. - Мне понравился (-лась)...

... menda katta taassurot uyg'otdi. - Большое впечатление на меня оказало...

Kitob (film, teatr) ...o'rgatadi. - Книга (фильм, театр) учит...

**O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti  
Sh.R.Qobilov va boshqalar tomonidan Akademiya kunduzgi ta'limg  
tinglovchilari uchun tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariysi" o'quv dasturi hamda  
ushbu dastur asosida tayyorlangan ishchi o'quv dasturiga**

### T A Q R I Z

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti Islom Karimovning "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Taraqqiyotimizning har bir yo'nalishi bo'yicha maxsus adabiyotlar yaratish to'g'risida fikr yuritib, ko'pchilik darsliklar, o'quv qo'llanmalari savyiasi talab darajasida emasligini" qayd etgan edi. Yaratilgan darsliklar, qo'llanmalarining barchasi yangicha qadriyatlar va demokratik prinsiplar hamda biz barpo etishga intilayotgan erkin fuqarolik jamiyatni talablariga javob beradigan munosabatlar sifatida ijtimoiy gumanitar fanlarning asosiy tadqiqot mavzulariga aylanishi lozim.

Mualliflar tomonidan tuzilgan o'quv dasturi yuqoridagi talablarni inobatga olib, taraqqiyotning umumiyl asoslari, bozor iqtisodiyoti mohiyati va uning qonun-qoidalari, mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot hamda bugungi jahon xo'jaligi va unda O'zbekistonning o'mi kabi masalalarni o'rghanish ehtiyojidan kelib chiqqan.

O'quv dasturi hamda u asosida tuzilgan ishchi o'quv dasturi kirish, o'n to'rtta mavzuni o'z ichiga olgan to'rt bo'limdan iborat. Mualliflar tinglovchilarning

iqtisodiy taraqqiyotning mazmuni, umumiy asoslari, jamiyatda ro'y berayotgan demokratik islohotlar va modernizatsiya jarayonlari mohiyatini tushunib yetishi, iqtisodiyotning sir-asrorlarini idrok etishi hamda O'zbekiston va jahon mamlakatlari iqtisodiy taraqqiyotining o'ziga xos jihatlari, mohiyati, rivojlanish bosqichlari haqidagi bilimlarni shakkantirish maqsadini ko'zlagan.

Shuningdek, o'quv dasturi "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rghanishda nazariya bilan amaliyotning uzviy bog'lanishi, O'zbekiston iqtisodiyotida yuz berayotgan hodisalar talqin etilishi va izohlanishi talablari ham inobatga olingan. Iqtisodiy bilimlarni berishda va tinglovchilarining mustaqil ravishda o'zlashtirishlarida umumiylilik va milliylikning uyg'unligini ta'minlash nazariyasi real iqtisodiy hayot bilan uzviy bog'lash nazarda tutilgan.

Mualiflar har bir mavzuni o'rghanishda tinglovchilarining mustaqil ishlashlarini e'tiborga olib, yangi avlod adabiyotlari ham keltirganlar. Bu tinglovchilarining adabiyotlar bilan mustaqil ishslashlarida qulaylik yaratadi. O'quv dasturi tinglovchilarni amalda qonunlarni o'rghanishga ham undaydi.

Mualiflar fan bo'yicha o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturini iqtisodiyot nazariyasidagi ilg'or tafakkur assosida tuzganlar. Ayniqsa bozor iqtisodiyotiga o'tish davri, mamlakatimizda demokratik 1991-yildan 2000-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga oladigan birinchi bosqich, iqtisodiyotni barqaror rivojlanтирish, qonunchilik, sud-huquq tizimi va ijtimoiy-gumanitar sohalarni izchil isloh qilish, aholi turmush darajasining muntazam oshib borishini ta'minlash, 2001-yildan 2010-yilgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan ikkinchi bosqich-mamlakatimizni faol demokratik yangilash, isloh etish va modernizatsiya qilish bosqichlari o'z aksini topgan. Ishchi o'quv dasturida esa mamlakatimizning hozirgi rivojlanish bosqichi O'zbekiston taraqqiyotining yangi rivojlanish strategiyasi, deb qarash, uning ahamiyatini olib berish masalalari o'rinn olgan.

Yuqoridagilarni inobaga olib, O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi "Iqtisodiy fanlar" kafedrasi dotsenti, polkovnik Sh.R.Qobilov va boshqalar tomonidan tayyorlangan "Iqtisodiyot nazariyasi" fanini o'rghanish bo'yicha o'quv dasturini chop etishga tavsiya etaman.

**Toshkent moliya instituti**

**"Iqtisodiyot nazariyasi" kafedrasi mudiri**

**Iqtisod fanlari doktori, professor T.Jo'rayev**

#### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Taqriz nima?
2. Taqriz yozish odobi qanday bo'ladi?
3. Taqriz yozishda qanday sxemalarga amal qilinadi?
4. Taqrizni baholash qismida qanday konstruksiyalardan foydalilanadi?

## 32-MAVZU. KASB ETIKASI

### Reja:

- Soha xodimlarining odob-axloq qoidalari bilan tanishish va ular haqida gapirib berish. Odob-axloq mavzusidagi hikmatlami yod olish.
- Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotatsiya yozish.
- Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.

**1-topshiriq.** Matnni o'qing. Matnning asosiy mazmunini 6-7 ta gap bilan (o'zbek tilida) publisistik uslubda bayon eting.

Yosh avlodni tarbiyalashdek o'ta mas'uliyati vazifani o'z zimmasiga olayotgan talabaning o'z fanini chuqur o'rganishining o'zi yetarli emas. Chunki «O'qituvchining nutqi o'tmas, nochor bo'lsa, uning bilimi qanchalik chuqur va tugal bo'lmasin, o'ziga ham azob, o'quvchi sho'rlikka ham azob. Ona tilida puxta, lo'nda va shirador nutq tuzaolish malakasi va mahorati matematikao'qituvchisi uchun ham, ona tili o'qituvchisi uchun ham birday zaruriy fazilatdir. O'qituvchi go'zal, o'zni ham, so'zni ham qiynamaydigan ravon va ifodalarga boy nutqi bilan o'quvchilarni mahliyo etib, bermoqchi bo'lgan bilimini yosh inson shuuriga osonsolik bilan olib kiradi. Zotan, ona tili milliy ma'naviyatimizning, dunyoni teran idrok etishimizning zaminidir».

Hozirgi o'zbek adabiy tilining to'liq shakllanganligi va ulkan ijtimoiy vazifani bajarayotganligi ayni haqaqatdir. Bu til xalqimiz uchun umumiy til sifatida shakllandi.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi Respublikamizda davlat ishlaring, o'qish-o'qitish, ta'lim-tarbiya, targ'ibot-tashviqot ishlaring shu tildaolib borilishi uchun juda katta imkoniyat yaratdi. Tilga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi, uning barcha imkoniyatlarini o'rganish ishlari keng ko'lamdaolib borilmoida. Ayni vaqtida, shuni ham aytish joizki, tilning ijtimoiy vazifasining bajarilish darajasini belgilovchi omillardan biri bo'lmish nutq madaniyati sohasini chuqurroq o'rganish oldimizga qo'yilgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutqimizdagи nuqson va kamchiliklarni bartaraf qilish, nutq madaniyatini har qachongidan ham yaxshiroq rivojlanadirish umum davlat ahamiyatiga ega bo'lgan siyosiy va ijtimoiy masaladir. Bu masala bilan shug'ullanish ishiga faqat tilshunoslargina emas, respublikamizda istiqomat qiluvchi barcha soha vakillari e'tibor berishlari maqsadga to'la muvofiqdir. Chunki, nutq madaniyati umuminsoniy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, kishilarni yuksak madaniyat sohibi bo'lishlarni belgilaydi. Bu masalaning bir jihatni bo'lsa, ikkinchi jihatni biz xalqaro doirada ikki qarama - qarshi ijtimoiy guruh o'rtaida mafkuraviy kurash niyoyatda keskinlashgan bir davrda yashamoqdamiz. Bu narsa ham mafkuraviy kurashning asosiy quroli bo'lgan tilning har qachongidan ham o'tkir va keskin bo'lishini taqozo etadi. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov ham bungaalo hida e'tibor berib shunday degan: «G'oyaga qarshi faqat g'oya, fikrga qarshi faqat fikr, jaholatga qarshi faqt ma'rifat bilan bahsga kirishish, olishish mumkin».<sup>1</sup>

<sup>1</sup>I.A.Karimov. Barkamol avlod orzusi.-T.:2000. 35-bet.

«O'qituvchi vao'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'mini ongli intizom egallashi juda qiyin kechyapti. O'qituvchining bosh vazifasi o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iboratligini ko'pincha yaxshi tushunamiz, lekin, afsuski, amalda, tajribamizda unga rioya qilmaymiz.

Demokratik jamiyatda bolalar, umuman, har bir inson erkin fikrlaydigan etib tarbiyalanadi. Agar bolalar erkin fikrlashni o'rganmasa, berilgan ta'lif samarasi past bo'lishi muqarrar. Albatta, bilim kerak. Ammo bilim o'z yo'liga. Mustaqil fikrlash ham katta boylikdir».<sup>142</sup> Maktabda nutq tadbirkorligini singdirish o'qituvchining bosh vazifasidir. U birinchi soatdan boshlab to oxirgi mashg'ulotgacha o'quvchilarda nutq madaniyat (tadbirkorligi)ni tarbiyalashga xizmat qilishi kerak.

Boshqacha aytganda «Ayni paytda nutqiy madaniyat tarbiyasi bilan maktabdagi, hech bir istisnosiz, barcha o'quv fanlari ham bilvosita shug'ullanishi kerak. Matematika bo'ladimi, fizika yoki tarix bo'ladimi, o'qituvchi o'z nutqiy madaniyat bilan namuna ko'rsatishi, tegishli fan sohasining tugal tilini namoyish etishi va shu yo'l bilan o'quvchidagi so'z sezgisiga kuch berishi maqsadga muvofiq. Ta'lif amaliyotida ko'rgazmalilik azaldan eng zaruriy omil sifatida qarab kelinadi, shuning uchun o'qituvchi juda ko'p vaqtini turli ko'rgazmali qurollar tayyorlashga sarflaydi.

Bu ma'qul, ammo, unutmaslik kerakki, nutqiy madaniyatni o'rgatish, chiroqli so'z zavqini o'stirish, umuman, til estetikasi tarbiyasida, asosiy, jonli ko'rgazmali quroq o'qituvchining o'zidir»,<sup>3</sup> uning nutqidir, nutq ma'naviyatidir.

**2-topshiriq.** Soha xodimlarining odob-ahloq qoidalari bilan tanishing va ular haqida gapirib bering.

**3-topshiriq.** Odob-ahloq haqidagi hikmatlarni yod oling. Mavzu bo'yicha baxs-munozarada ishtirok eting.

**4-topshiriq.** "Mutaxassisning odobi va ahloqi" mavzusida diolog tuzing va uni inssenirovka qiling.

**5-topshiriq.** Matnni o'qing. Matnga sarlavha toping. Bugungi yoshlarning kiyinish madaniyatni va odobi haqida rolli suhbat tuzing.

Madaniyatilikning asosiy belgilardan biri - bu kiyinish madaniyatidir. Kishining qanday kiyunganligiga qarab, uning did-farosati, moddiy va ma'naviy darajasini, hatto kasbini aniqlab olish mumkin.

Insoniyat ongida boshqalardan istihola qilish, uyalish, andisha tushunchalari paydo bo'lgandan boshlab, ular kiyinishni odat qilishgan.

Kiyinishni ilk bor zaif jins – ayollar boshlaganlar. Shuning uchun ham xotin-qizlar tabiatida kiyinish, bezanish, taqinish tushunchalari turmushning asosiy ko'rinishlari qatorida turadi. Shu sabab xalqimizda, onangni otangga bepar doz ko'rsatma, degan naql bor. Kiyinish madaniyati jins, yosh, fasl, millat, urf-odatlar, kasb-kor, zamon va taraqqiyotning muayyan bosqichi, darajasi bilan bog'liqdir.

<sup>2</sup>J.A.Karimov. O'sha asar. 17-bet.

<sup>3</sup>N.Mahmudov. Ma'rifat manzillari. -T.: 1999. 52 - bet.

Bolalar, qizlar, yoshlar, o'rtta yoshlilar, keksa odamlarning kiyinish madaniyati mazmuni va shakl-u shamoyili jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Kiyinish har bir xalqning qadim zamonlardan buyon yashab kelayotgan mintaqasi, shart-sharoiti, turmush tarzi, udum, urf-odatlari, tabiat bilan ham chambarchas bog'liq bo'lgan. Masalan, serquyosh o'lkalarda yashovchi xalqlarda qadim zamonlardan beri oq matodan kiyim kiyishni odat qilishgan. Chunki oq mato quyosh nurlarini bir qadar qaytarib, kishilarni issiq ta'siridan saqlagan.


Aksincha, iqlimi sovuq o'lka va yurtlar xalqlari esa odatda qora matodan kiyim kiyishga odatlanishgan. Chunki bu kiyim sal bo'lса-da chiroy ko'rsatgan quyosh nurlarini o'ziga singdirib, kiyim egasiga rohat baxsh etgan.

#### **Annotatsiya matni, uning tuzilishi va ifoda materialining xususiyatlari.**

**Annotatsiya** - badiiy, ilmiy, metodik asarlarning muallifi, mavzusi, manbasi, unda ko'tarilgan asosiy masalani ko'rsatishga qaratilgan qisqa xabardir. Annotatsiya o'zining kamso'zligi, hajm jihatidan nihoyatda kichikligi bilan bayonning boshqa turlaridan ajralib turadi. Batafsil yozilgan annotatsiya quyidagi savollarga javob bera olishi lozim.

- Ishda nima haqda so'z boradi?
- Muallif qanday savollarni o'rtaga qo'yadi?
- Bu savollar qanday yoritib berilgan?
- Ishning tuzilishi qanday?
- Ishni qanday baholash mumkin?
- Yozilgan ish kimlarga mo'ljallangan? v.h.

**6-topshiriq.** Annotatsiya yozishda ishlataladigan konstruksiyalarni daftaringizga yozing va uchta misol topib, qatorni to'ldiring.



**7-topshiriq.** Darslik yoki o'quv qo'llanmaga annotatsiya yozing.

**8-topshiriq.** Odob-axloq mavzusidagi kitobga annotassiya yozing

Tushunchalar tahlili metodi	
Tushunchalar	Tushunchalar tahlili
Til madaniyati	
Nutq madaniyati	

**9-topshiriq.** O'qing. Nuqtalar o'miga mos qo'shimchalarni qo'yib annotatsiyani ko'chiring.

Lug'at hozirgi o'zbek adabiy tili... keng iste'mol... bo'lgan 80 ming... ortiq so'z va so'z birikmalari..., fan, texnika, san'at va madaniyat sohalari... oid terminlar..., bir necha sheva... qo'llanadigan so'zlar..., ba'zi tarixiy va eskirgan atamalar... o'z ichi... oladi. Lug'at... berilgan qo'llanadigan so'zlar... amal... qo'llanishi XX asr o'zbek adabiyoti va matbuoti... olingan misollar bilan dalillangan. Lug'at o'zbek tilshunosligi va turkiyshoslik bo'yicha mutaxassislar, tarjimonlar, ommaviy axborot vositalari xodimlari, oily ta'lif muassasalari... o'qituvchilar va talabalari, shuningdek, keng o'quvchilar ommasi uchun mo'ljallangan.

**10-topshiriq.** Berilgan sxemani o'zbek tiliga tarjima qiling va uni matn ko'rinishida bayon qiling.

#### СОЦИАЛЬНЫЙ ЗАКАЗ НА ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ КАДРЫ

Закон «Об образовании».

Национальная программа по подготовке кадров.

Указы, постановления Президента Республики Узбекистан.

Общечеловеческие, морально-нравственные, профессионально-значимые

ценности в формировании личности педагога.

Государственные образовательные стандарты.

#### ЛИЧНЫЕ КАЧЕСТВА

1. Политико-правовые знания и культура
2. Нравственное совершенство
3. Идеологический иммунитет и идеяная борьба
4. Религиозная толерантность
5. Экологические знания и культура
6. Здоровый образ жизни и физическая культура
7. Экономические знания,

#### ПРОФЕССИОНАЛЬНЫЕ КАЧЕСТВА

1. Мотивационные качества
2. Интеллектуальный потенциал
3. Волевые качества
4. Эмоциональные качества
5. Практические навыки
6. Самообладание



## ПРАКТИЧЕСКАЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНАЯ КОМПЕТЕНТНОСТЬ

1. Психолого-педагогическая подготовка
2. Мастерство организации и проведения занятий
3. Владение методами и средствами воспитания в образовательном процессе
4. Организация самостоятельной и творческой работы
5. Профессиональное саморазвитие
6. Осуществление мониторинга успеваемости
7. Профессиональное мастерство

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. "Kasb etikasi" deganda nimani tushunasiz?
2. Axloqiy talablar umumiyligi bo'lishiga qaramay, ba'zi bir kasbiy faoliyatlarni olib borishda qanday xulq-atvor normalari mavjud?
3. Barcha kasb vakillari ham, sizningcha, yutuqqa erishish uchun qaysi axloqiy me'yorlarga amal qilishi kerak?
4. Pedagoglik etikasi, sizning fikringizga ko'ra, qanday normalarni o'z ichiga oladi?

## 33-MAVZU. NUTQ ODOBI

### **Reja:**

- Matnni o'qib tushunish.
- Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapirib berish.
- "Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzish.
- Me'yor tushunchasi.

### **NUTQ ODOBI NIMA?**

Nutq – tildagi ifoda vositalardan foydalangan holda voqelikka aylangan fikrdir.

Nutq, nutq odobi insonning manaviyatini – ma'rifatini belgilovchi asosiy mezondir. Demak kishining odobi, eng avvalo, uning nutqida ko'rindi. Nutq odobi nima? Nutq odobi deganda aytilishi zarur bo'lgan xabarlarni tinglovchini hurmat qilgan holda, uning ko'ngliga mos holda adabiy me'yordagi ifodalar bilan yetkazishdir. Xunuk xabarni ham tinglovchiga beozor yetkazish mumkin. Buning uchun so'zlovchi tilni mukammal bilishi kerak. Muloyim, yoqimli, odobli so'zlash ham o'z-o'zidanpaydo bo'lmaydi. Unga yoshlikdan ibratlari kishilarga taqlid qilish, ulardan o'rganish orqali erishiladi. O'quvchi uchun eng yaxshi namuna o'qituvchidir. buni o'qituvchi har doim his qilib turishi kerak.

Nutq odobi salomlashishdan boshlanadi. Salomlashishdagi xushmuomalalik undan keyingi yaxshi suhbatga debocha bo'ladi, tinglovchida yaxshi kayfiyat paydo qiladi. Salomlashishning ahamiyati boshlanadi. Salomlashishning ahamiyati haqida hindlarda shunday naql bor: "Bitta salom bilan beshta narsaga – o'zini yengil sezish,

shon-shuhrat topish, qut-barakali, ilmli bo'lish va niyoyat uzoq umr ko'rishga erishiladi ". Ha, salomda gap ko'p, salomlashish, salom berishning ham o'ziga yarasha qonun-qoidalari bor.

Madaniyatli kishi o'z aybini bo'yniga ola bilishi, aybi uchun kechirim so'rashni ham bilishi lozim. O'z aybi uchun uzr so'rash o'z g'ururini yerga urish emas, balki odoblik va xushmuomalalik alomatidir.

Yetuk kishiga yana xos fazilatlardan biri xayrlashuv odobidir. Tilimizda xayrlashganda ishlataligan "xayr", "sog' bo'ling", "xayr, ko'rishguncha", "xayr, omonlikda ko'rishaylik" kabi ta'sirchan iboralar mavjud. O'qituvchi xonadan chiqayotganda "xayr, "sog' bo'linglar", "xayr, yaxshi qolinglar" ishlatsa o'rinli bo'ladi.

#### *Matn yuzasidan topshiriq.*

##### **1-topshiriq.**

- a) Mavzuga oid matnni o'qing.
- b) Matndagi termin va iboralarning ma'nosini izohlang.
- v) Matnga munosabat bildirib so'zlang.

**2-topshiriq.**Kasbiy faoliyatda nutq madaniyatining ahamiyati haqida gapiring.

**3-topshiriq.**"Mutaxassisning nutq madaniyati" mavzusida matn tuzing.

**4-topshiriq.**Ish jarayonidagi muomala madaniyati haqida kasbiy o'zin senariysini tuzing va uni insenirovka qiling.

**5-topshiriq.**Nutq etiketiga rioya qilgan holda "So'zlashish odobi" mavzusida nutq tayyorlang.

**6-topshiriq.** Nuqtalar o'miga mos qo'shimchalarni qo'ying.Gaplarni rus tiliga tarjima qiling.

1. Quyosh charaqla.. chiqdi. 2. Nazira xonadan yugur.. chiq.. ketdi. 3. Salima indama.. bosh chayqadi. 4. Hakimjon so'qmoqlarda yur... ber..., oyog'ida oyoq qolmadi. 5. Mehmon kul..-kul.. bo'lgan voqeani gapiri... berdi. 6. O'ktam dadasini qidir..-qidir.. qo'shninikidan topdi. 7. Nazirqul titra..-qaqsha... o'midan turdi. 8. Ey, sen, mahmadona, bir pas bidirla... tur!

**Ushbu maqollarni o'qing, daftaringizga ko'chirib oling va ularga amal qiling.**

Yaxshi yetar murodga, yomon qolar uyatga.

Yaxshidan bog' qoladi, yomondan dog'.

Yaxshining qo'lidan yaxshilik, yomonning qo'lidan yomonlik keladi.

Yaxshilik qilgan odam minnat qilmasligi zarur.

## ME'YOR TUSHUNCHASI.

Nutq madaniyati to'g'risida gap borar ekan, tabiiyki, nutqda so'zlamning o'rini va o'rinsiz ishlatalishi to'g'risida ham bahs boradi. Qo'llangan til birligini to'g'ri yoki noto'g'ri deyilganda, albatta, ma'lum bir o'Ichov (mezon) ga asoslanishimiz tayin. Mana shu o'Ichov (mezon) tilshunoslikda **adabiy til me'yori** deb yuritiladi.

Har bir lahjaning, so'zlashuv tilining, adabiy tilning o'z me'yorlari bo'lganidek, nutqning alohida ko'rinishlari bo'lgan argolar, jargonlar ham o'z me'yoriga ega. Xususiy me'yorlar quyidagicha ko'rsatiladi: 1. Dialektal me'yor. 2. So'zlashuv nutqi me'yori. 3. Argolar, jargonlar me'yori. 4. Adabiy til me'yori (adabiy me'yor).

**Adabiy me'yor.** Ma'lum bir hududda tarqalgan uzus imkoniyatlari o'sha hududda yashovchi aholi uchun istisnosiz tushunarli bo'ladi, ya'ni aloqani yengil amalga oshirishga imkon beradi. Bu- tilning o'zi me'yordan iboratligini ko'rsatadi. Me'yor - tilning yashash shaklidir.<sup>1</sup>

Adabiy me'yor uzusga asoslanadi, undan olinadi. Adabiy me'yor adabiy til bilan birga tug'iladi, badiiy adabiyotning, xalq madaniyatining taraqqiyoti bilan rivojlanib, o'z qonun-qoidalarini mustahkamlab boradi.

Adabiy me'yor uzusdan olinganligi sababl hamma uchun tushunarli bo'ladi. Shuning uchun jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyat a'zolarini yushtirishda, katta vazifalarga otlantirishda adabiy til, uning me'yorlari jamiyat uchun nihoyatda zarurdir.<sup>2</sup>

O'zbek adabiy tili me'yorlari ilmiy asarlarda quyidagicha tasnif qilinadi:

1. Leksik - semantik me'yor.
2. Talaffuz – (orfoepik) me'yor.
3. Yozuv (grafika) me'yori.
4. Fonetik me'yor.
5. Aksentologik (urg'uni to'g'ri qo'llash) me'yor.
6. Grammatik (morfologik va sintaktik) me'yor.
7. So'z yasalish me'yorlari.
8. Imloviy me'yor.
9. Uslubiy me'yor.
10. Punktuatson me'yor.<sup>3</sup>

Adabiy me'yorning og'zaki va yozma ko'rinishlari mavjud bo'lib, og'zaki adabiy me'yorning rivojlanishiga xalq qiziqchilari, askiyachilar, latifago'y xalq shoir - baxshilari katta hissa qo'shsalar, yozma adabiy me'yorning shakllanishida belgilangan yozuv shakli asosida yozib qoldiriladigan yozma adabiyotning xizmati cheksizdir. Umuman olganda, adabiy til me'yorini o'rganish yangi hodisa emas. Til me'yori va adabiy me'yor muammo sifatida nutq madaniyati ilmiy soha deb tan olingunga qadar ham o'rganib kelgingan. Adabiy til me'yori, uning shakllanish,

<sup>1</sup>T.Qudratov. O'sha asar 38-bet.

<sup>2</sup>T.Qudratov. O'sha asar 1993, 40-bet.

<sup>3</sup>R.Qo'ng'urov, E.Begmatov, Yo.Tojiyev Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. -T.: 1992. 38-bet.

rivojlanish, stabillashuv qonuniyatlarinutq madaniyati sohasining tekshirish obyekti hisoblanadi.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. "Kasb etikasi" deganda nimani tushunasiz?
2. Axloqiy talablar umumiyl bo'lishiga qaramay, ba'zi bir kasbiy faoliyatlarini olib borishda qanday xulq-atvor normalari mayjud?
3. Barcha kasb vakillari ham, sizningcha, yutuqqa erishish uchun qaysi axloqiy me'yorlarga amal qilishi kerak?
4. Pedagoglik etikasi, sizning fikringizga ko'ra, qanday normalami o'z ichiga oladi?
5. Nutq odobi tushunchasiga izoh bering
6. So'zlashuv odobiga rioya qilish ko'nikmasi qanday shakllanadi?

### 34-MAVZU. SAN'AT VA MA'NAVIYAT

#### Reja:

- Matnni o'qib tushunish. Matnni ijodiy so'zlash.
- "San'at mening hayotimda" mavzusida esse yozish.
- Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlari.

#### O'ZBEKİSTON SAN'ATI

O'zbekiston tasviriy san'ati o'zining qadimiy ildizlariga ega. XV-XVI asrlarda Behzod, Mirak Naqqosh, Qosimali kabi buyuk rassomlar asos solgan an'analar hozirgacha davom etib kelmoqda. Respublika tasviriy va amaliy san'at bilim yurtida qadimiy hunarmandchilik turlarining san'at darajasiga ko'tarilgan ganchkorlik, zargarlik, yog'och o'ymakorligi, naqqoshlik, kulolchilik sirlari yosh avlodga o'rgatilayotgan bo'lsa, rassomchilik kollejida tasviriy san'atning rang-tasvir, portret, peyzaj, miniatyura, natyurmort kabi turlari o'qitilmoxda. O'zbek rassomlari Chingiz Ahmarov, Abdulhaq Abdullayev, Bahodir Jalolov, Ro'zi Choriyev, Muzaffar Abdullayevlarning asarlari dunyodagi ko'pgina nufuzli ko'rgazmalarda namoyish qilingan.

Kino san'ati ham O'zbekistonda juda yuqori darajada rivoj topgan. Kinoning barcha turlari – badiiy film, hujjatlari film, teleseriallar, multiplikatsiya, ilmiy-ommabop filmlar sanoatining shuhrati MDH mamlakatlarida mashhur. Har yili «O'zbekfilm» kinostudiyasida tarixiy, sarguzasht, detektiv, sevgi va hayot hamda mehr-vafo haqidagi o'nlab filmlar suratga olinadi. «Mahallada duv-duv gap», «O'tgan kunlar», «Kelinlar qo'zg'aloni» kabi filmlarni o'zbekistonliklar juda sevib tomosha qilishadi.

O'zbek teatr san'ati ham o'z tarixiga, rivojlanish bosqichi ham o'ziga xos an'analariga ega. Teatr san'ati darg'alarini Abror Hidoyatov, Sora Eshonto-rayeva, Shukur Burhonov, Nabi Rahimov, G'ani A'zamov, Soyib Xo'jayev kabilar o'zbek teatr san'atini yuqori pog'onaga ko'targanlar. Ular ishtirokidagi har bir spektakl tomoshabinlarga olam-olam ma'naviy ozuqa bergen.

O'zbekistonda, shuningdek, opera, balet, estrada, me'morchiilik kabi san'at turlari ham katta yutuqlarga ega bo'lgan holda rivojlanib bormoqda.

### Kamoliddin Behzod

Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri. U 1455-yilda Hirotda kambag'al hunarmand oilasida tug'ilib, ota-onasidan juda erta yetim qoldi. Behzodning musavvirlikdagi iste'dodini payqagan Amir Ruhillo (Mirak Haqqosh) uni o'z tarbiyasiga oladi. Behzod musavvirlikni Pir Said Ahmad Tabriziydan o'rgandi Musavvirlardan Shoh Muzaffar, Qosim Ali, Mavlono Hakim Muhammad kabi Behzod ham Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan. Ijodi 1470-yillarda boshlangan.

Alisher Navoiy va Sulton Husaynning vafotidan so'ng Hirotni Shayboniyxon, 1512-yilda esa Eron shohi Ismoil I bosib oldi. Ko'p san'atkorlar Hirotdan chiqib ketdi. 1520-yillaming boshida shoh Ismoil I Behzodni Tabrizga chaqirtirib, katta imtiyoz berdi. Shoh Ismoil I dan keyin uning o'g'li Tahmos taxtga chiqdi. Behzod Tahmosga musavvirlikni o'rgatadi. Lekin shoh Behzodning san'atini qadrlamaydi. Rassom ona yurti Hirotg'a qaytadi.

Shayx Sa'diyning "Bo'ston"iga ishlagan miniaturalari (1478) musavvirming ilk asarlaridir. 1488-yilda Sulton Husayn buyurmasi bilan u 4 ta miniatura ishlagan. Behzod asarida hayot manzaralarini jo shqin tasvirlaydi. Turli ranglar bir-biriga mos, asarlaridagi shaxslar harakatchan, tabiatan jonli. Ilk asarlaridayoq Behzod mohir manzarachi rassom sifatida ko'zga tashlandi.

Nizomiy Ganjaviyning "Xamsa", "Layli va Majnun", Xisrav Dehlaviyining "Majnun va Layli" asariga ishlagan miniaturalari butun dunyoga mashhur.

Behzod miniatura san'ati tarixida maxsus - "Behzod maktabi"ni yaratdi. Darvesh Muhammad, Maqsud Muzahhib kabi rassomlar uning maktabida ta'lim olganlar. Behzod ustoz san'atkor sifatida Markaziy Osiyo, Eron, Ozarbayjon va boshqa o'lkalar tasviri san'atining taraqqiyotiga samarali ta'sir etdi. Miniatura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod miniaturalari uning tirikligidayoq bu san'atning oliv yutug'i deb tan olingan.

Buyuk musavvir Kamoliddin Behzod 1535-yilda Hirotda vafot etgan.

**Yunus Rajabiy**



O'zbek xalqi dunyoga fan va madaniyatning boy yodgorliklarini berdi. Sharq olimlari qoldirgan asarlar hali ham o'z ahamiyatini yo'qtgani yo'q. Bular fan va

madaniyatning rivojlanishiga katta ta'sir etmoqda.


Boshqa ilmlar qatorida musiqa ilmi ham fanning yirik tarmog'i - xalq merosidir.

Xalq yaratgan kuy va qo'shiqlar avloddan-avlodga o'tib hozirgi kungacha yetib keldi.

O'zbek musiqasining bilimdonlaridan biri bastakor va olim Yunus Rajabiy bu sohada faol ish olib bordi. U o'zbek musiqasini o'rgandi, to'pladi.

1960-yilda Yunus Rajabiyning "O'zbek xalq musiqasi" nomli besh tomlik kitobi nashr etildi. Bu besh tomlik kitob o'zbek musiqa madaniyatida katta voqeа bo'ldi.

Xalq madaniy merosini hurmat bilan saqlab kelgan, o'zbek musiqasini yanada rivojlanтирган akademik Yunus Rajabiy haqiqiy olim edi.



#### *Matn yuzasidan topshiriqlar.*

##### **1-topshiriq.**

- Mavzuga oid matnni o'qing.
- Matndagi terminlarning ma'nosini izohlang.
- Matnni ijodiy so'zlang.

## INSERT JADVALI

Grafik tashkil etuvchining turi,  
abamiyati va xususiyatlari

### "INSERT" jadvali

Mustaqil o'qish vaqtida olgan  
ma'lumotlarni, eshitgan  
ma'ruzalarni tizimlashtirishni  
ta'minlaydi; olingen  
ma'lumotni tasdiqlash,  
anuqlash, chetga chiqish,  
kuzatish. Avval o'zlashtirgan  
ma'lumotlarni bog'lash  
qobiliyatini shakllantirishga  
yordam beradi.

O'quv faoliyatini tashkillashtirishning  
jarayonli tuzilmasi

Insert jadvalini to'ldirish qoidasi bilan  
tanishadilar. Alohida o'zlarini o'ldiradilar.

O'qish jarayonida olingan ma'lumotlarni alohida o'zlarini  
tizimlashtiradilar - jadval ustunlariga "Kirishdarlar" matnida  
belgilangan quyidagi belgilarga muvofiq:

"V" - men bilgan ma'lumotlarga mos;

"+" - men bilgan ma'lumotlarga zid;

"Q" - men uchun yangi ma'lumot;

"?" - men uchun tushunmaysiz yoki ma'lumotni aniqlash,  
to'ldirish talab etiladi.

Abzats №	Bilaman V	Men uchun yangi ma'lumot +	Men bilgan ma'lumotni inkor qildi	Mazkur ma'lumotni tushunma- dim, izoh kerak?
1.				
2.				
3.				
4.				

2-topshiriq. Quyidagi tayanch so'zlamini yod oling:

Iste'dod [moyillik] - nihoyatda zo'r ijodiy qobiliyat, layoqat. *Iste'dodli rassom.*

Miniatura [umal] miniature - nafis, nozik qilib ishlangan rasm <lot. minium - qizil yoki qizg'ish-jigarrang bo'yoq> - O'rta asr qo'lyozma asarlarini va kitoblarda bo'yoqlar bilan chizilgan nafis rasm, surat. *Behzod ishlagan miniaturalar o'rta asr tasviriy san'atining qimmatbaho durdonalaridandir.*

Musavvir [rassom] - turli tasvirlar ishlovchi, rasm chizuvchi ijodkor. *Kamoliddin Behzod - buyuk o'zbek musavviri.*

Mohir [mahoratl, malakali, usta] - yuksak mahoratga ega bo'lgan, mahorat qozongan, usta. *Mohir rassom.*

Kambag'al [qashshoq, yo'qsil] - muhtojlikda yashovchi, tirikchilik uchun kerakli narsasi yetarli bo'limgan; qashshoq, faqir, bechora. *Kambag'al hunarmand oilasida tug'ilgan.*

San'atkor [san'at bilan shug'ullanuvchi] - san'at sohibi, san'atning biror

sohasini egallagan ijodkor. Yuksak mahoratga ega bo'lgan yaratuvchi. *Mashxur san'atkor*.

**Bahramand bo'lmoq** - bahra olmoq; biror foyda, naf ko'rmoq. *Behzod Alisher Navoiyning rahnamoligidan bahramand bo'lgan*.

**Ijod [yaratish, kashf etish; vujudga keltirish]** - badiiy, ilmiy, san'atga oid asar yoki moddiy boylik yaratish, vujudga keltirish; yaratuvchilik faoliyati. *Kamoliddin Behzod ijodi*.


**Qadrlamoq** - obro'-e'tiboriga, qadr-qimmatiga yarasha izzat-hurmat ko'rsatmoq. *Ustozlarini qadrlamoq*.

**Yetim [ota-onasiz, yakkayu yagona]** - otadan, onadan yoki har ikkovidan ajralgan. *Ota-onasidan juda erta yetim qoldi*.

**Hunarmand** - uyida yoki o'z do'konida mahsulot ishlab chiqarish bilan shug'ullanuvchi kasb-hunar egasi, kosib. *Hunarmand oilasi*.

**3-topshiriq.** Xalq amaliy san'ati haqida taqdimot tayyorlang.

**4-topshiriq.** "Nima uchun?" sxemasini chizib, javoblariningizni yozing.



**5-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'zлarni yod oling:

**Tarmoq** - asosiy yo'l, oqimdan bo'linib, ajralib chiqqan qism. Asosiy tashkilot yoki birlashma shaxobchasi. *Fanning yirik tarmog'i*.

**Kuy** - ma'lum musiqa asari. Ashula, qo'shiq hosil qiluvchi musiqiy tovushlar birligi, ohang. *Quvnoq kuy*.

**Bastakor [ish, mashg'ulot]** - an'anaviy mumtoz musiqa asarlari ijodchisi; kompozitor. *O'zbek bastakorlari*.

**Dunyo [jahon, olam]** - butun borliq, koinot. *Dunyoga mashxur*.

**Jahon** - yer yuzi va undagi butun borliq, dunyo, olam.

**Yodgorlik** - esdalik, eslab yuriladigan narsa; sovg'a. Yodgor bo'ladigan, esdalik sifatida saqlanadigan narsa. *Ulkan yodgorlik*.

**Qo'shiq** - keng ma'noda she'riy-musiqiy janr, ashula. *Xalq qo'shiqlari*.

**6-topshiriq.** B/B/B jadvalini to'ldiring.

(v) - Bilaman (-) - Bilishni xohlayman (+) - Bilib oldim

San'at va ma'naviyat		
Bilaman	Bilishni xohlayman	Bilib oldim

### Tushunchalar tahlili

Tushunchalar		
Musiqa san'ati		
Xalq amaliy hunarmandchiligi		
Kino san'ati		
Teatr san'ati		



**7-topshiriq.** San'atkorlarni ta'riflab, reklama matmini tayyorlash.



**8-topshiriq.** "San'at mening hayotimda" mavzusida esse yozish.

**9-topshiriq.** Quyidagi aktyorlar (aktrisalar) qaysi spektakl va kinofilmarda rol ijro etishgan?

Lutfixon aya Sarimsoqova, Nabi Rahimov, Razzoq Hamroyev, Baxtiyor Ixtiyorov, Sora Eshonto'rareva, Amin Turdiyev, Nozim To'laxo'jayev, Pirmat Pirmuxamedov, Rixsi Ibrohimova, Mehnii Bekjonova, To'ti Yusupova, Obid Jalilov, Gulchehra Jamilova, To'lqin Tojiyev, Saida Rametova, Yoqub Ahmedov, Obid Yunusov, Murod Rajabov, Yodgor Sa'diyev, Fatxulla Ma'sudov, Hojiakbar Nurnatov, Alisher Uzoqov, Ulug'bek Qodirov, Dilnoza Kubayeva, Alisher Xamroyev, Farrux Soipov, Asal Shodiyeva.

### UMUMXALQ LEKSIKASIGA KIRGAN SAN'ATSHUNOSLIK TERMINLARI

*Sujet, janr, rang-tasvir, palitra, dutor, avj, epizod, gravyura, pa, dubl* kabi so'zlarning ma'nosini tushunasizmi? Ularga lug'atdan foydalanmagan holda izoh bera olasizmi? Nima uchun? Umumxalq leksikasiga kirgan san'atshunoslik terminlaridan yana qaysilarini bilasiz? Shunday so'zlarning kichik izohli lug'atini tuzing. Ular ishtirokida "San'at bizning hayotimizda" mavzusida davra suhbati o'tkazing.

### **Mustahkamlash uchun savollar**

1. San'atning qanday turlarini bilasiz?
2. Musiqa san'ati tarixi haqida qanday ma'lumotga egasiz?
3. Hunarmandchilikning qanday turlarini sanay olasiz?
4. O'zbekistonda naqqoshlik san'ati qaysi hududlarda ayniqsa rivojlangan?
5. Milliy zargarlik buyumlariga bugungi kunda talab qay darajada?
6. Bizga zamondosh rassomlardan kimlarni bilasiz?
7. Kamoliddin Behzodning nomi nima uchun asrlar osha yashab kelayapdi?
8. O'zbek xalqi dunyo sivilizatsiyasiga qanday hissa qo'shgan?
9. Madaniy yodgorliklar rivojlanishga qanday yordam bermoqda?
10. Yunus Rajabiv kim edi?
11. 1960-yilda Yunus Rajabiining qanday kitobi nashr etildi?
12. Nima uchun Yunus Rajabiyni haqiqiy olim deymiz?

### **35-MAVZU. MEN SEVGAN ASAR**

**Reja:**

- Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni gapirib berish.
- Mashhur o'zbek shoirlari ijodidan namunalar yod olish.
- "Adabiyotning kishi ruhiy dunyosiga ta'siri" mavzusida esse yozish.
- Yangi kitoblar haqida polilog matnini tuzish va uni instsenirovka qilish.
- Badiiy tasvir vositalari.



Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili, mohir tarjimoni va jamoat arbobidir.

U 1941-yil 21-martda Qashqadaryo viloyatining Neko'z qishlog'ida tug'ilgan. 1958-yili o'rta maktabni bitirib, shu yili Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetiga o'qishga kiradi.

A.Oripov o'quvchilik yillaridayoq she'rlar yozishni mashq qila boshlagan. Uning ilk she'rlari dastlab tuman gazetalarida e'lon qilinadi.

Talabalik yillarida esa she'rlari respublika matbuotida bosilib chiqib, adabiy jamoatchilik e'tiborini tortdi.

Shoiring ilk to'plami 1965-yili "Mitti yulduz" nomi bilan nashr qilingan. Shundan so'ng 1966-yilda "Ko'zlarim yo'lingda", 1969-yili "Onajon", "Ruhim", 70-yillarda "Buloq", "O'zbekiston", "Yurtim shamoli", "Hayrat", "Yuzma-yuz", 80-yillarda esa "Najot qal'asi", "Yillar armoni" kabi qator to'plamlari chop etildi.

1968-yil Abdulla Oripov Oybek, Uyg'un, Mirtemir tavsiyalari bilan O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zoligiga qabul qilinadi. U avval "Yosh gvardiya" nashriyotida, keyinroq, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida bo'lim muharriri, "Sharq yulduzi" jurnalining she'riyat bo'limi mudiri, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining adabiy maslahatchisi, Yozuvchilar uyushmasi Toshkent bo'limi mas'ul kotibi, "Gulxan" jurnali bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi raisi lavozimlarida ishladi.

Abdulla Oripov O'rta asr italyan shoiri Dantening "Illohiy komediya" sidan "Do'zax" dramasini, venger dramaturgi Xeltonning "Soqov ritsar" nomli she'ny dramasini, Pushkin, Nekrasov she'riyatini o'zbek tiliga tarjima qilgan.

A.Oripov 1983-yili Hamza nomidagi Respublika Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. U adabiyot sohasidagi xizmatlari uchun 1989-yili "O'zbekiston Xalq shoiri", 1999-yilda esa "O'zbekiston Qahramoni" yuksak unvonlari bilan taqdirlandi. Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabrda vafot etdi.

#### ONA

Ko'kda yulduz uchsa nogahon,  
Bitdi, - derlar, -qaysi bir taqdir.  
Bunday g'amni ko'tarmoq oson,  
Bu, ehtimol, bizlar haqdadir.

Ba'zi tunlar ko'kka tikib ko'z,  
Eslab deyman onamni shu on,  
Ona ketsa, yulduz-ku yulduz  
Qulab tushsa arzirdi osmon.

#### DORBOZ

Bulutlarga yondosh, osmon ostida kiprikdag'i yoshday turibdi dorboz  
Qilichning damiday arqon ustida ko'zlarini yumib yuribdi dorboz  
Odamlar, odamlar, uni olqishlang, qarang, u naqadar epchil va o'ktam  
Biz-chi, ey, ba'zi bir ko'zi ochiqlar eplab yurolmaymiz katta yo'lida ham.

#### SEN BAHORNI SOG'INMADINGMI

Uyg'onguvchi bog'larni kezdim,  
Topay dedim qirdan izingni.  
Yonog'ingdan rang olgan dedim -  
Lolazorga burdim yuzimni,  
Uchratmadim ammo o'zingni,  
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

Mana, bugun Navro'zi olam,  
Do'stlarimga gullar tutarman.  
Qaylardasan, sevgilim erkam...  
Qo'limda gul, seni kutarman,  
Umrin bo'yi chorlab o'tarman,  
- Sen bahorni sog'inmadingmi?

O'tkir Hoshimov



O'tkir Hoshimov 1941-yili Toshkentda ishchi oilasida tug'ildi. U o'rta maktabni bitirgach, 1959-1964-yillar Toshkent Davlat universitetining filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida ta'lif oldi. O'tkir Hoshimov "Toshkent xaqiqati", 1966-yildan "Toshkent oqshomi" gazetasi muharriyatida bo'lim mudiri, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida bosh muharrir o'rinnbosari, "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri vazifalarida ishladi.

O'tkir Hoshimovo'z ijodini she'r va ocherklar yozishdan boshladi. Uning birinchi ocherklar to'plami 1962yilda "Po'lat chavandoz" nomi bilan nashr etildi. So'ngra "Cho'l havosi" (1963), "Odamlar nima derkin...", "Shamol esaveradi", "Bahor qaytmaydi" (1970), "Qalbingga qulq sol" (1973), "Uzun kechalar" (1975), "Nimadir bo'ldi" (1976), "Quyosh tarozisi" (1980), "Dunyoning ishlari" (1982) hikoya va qissalar to'plamlari hamda "Nur borki, soya bor" (1979), "Ikki eshik orasi" (1986) romanlari bosilib chiqdi. 1974-yili esa "Birovning tashvishi" nomli psixologik dramasi sahnalashtirildi.

Muhammad Yusuf



Muhammad Yusuf iste'dodli shoirlardan biri edi. U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Umrining so'nggi yillarda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi. 1998-yilda shoirga «O'zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi.

Muhammad Yusuf 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyati Marhamat tumanining Qovunchi qishlog'ida dehqon oilasida tavallud topgan.

O'rta maktabdan so'ng Rus tili va adabiyoti institutiga kirib, uni 1978-yilda tamomladi. 1978-1980-yillarda respublika Kitobsevarlar jamiyatida, 1980-1986-yillarda «Toshkent oqshomi» gazetasida, 1986-1992-yillarda G'afur G'ulom

nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, «O'zbekiston ovozi» gazetasida ishladi. Umrining so'nggi yillarida O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi vazifasini bajardi.

U o'nga yaqin she'riy to'plamlar, ko'plab qo'shiqlarning muallifi sifatida keng kitobxonlar qalbiga kirib ulgurdi. Uning dastlabki she'rlari «O'zbekiston adabiyoti va san'ati» gazetasida 1976-yilda e'lon qilindi.

U rostgo'y shoir, halol va pokiza qalb egasi edi. Shoir muhabbat haqidagi kuylaydimi, bevafo yor haqida qo'shiq to'qiydimi yoki tariximiz sahifalarini qalamaga oladimi, ularda hamisha hayotga, haqiqatga hamnafaslik sezilib turadi.

Uning she'rlari ravon va soddaligi bilan xalqonadir. 1998-yilda shoirga «O'zbekiston xalq shoiri» degan yuksak unvon berildi. Afsuski, u 2001-yilning 1-avgust kuni 47 yoshida bevaqt vafot etdi.

Muhammad Yusuf vafotidan keyin «Tanish teraklar» (1985), «Bulbulga bir gapim bor» (1987), «Iltijo» (1988), «Uyqudag'i qiz» (1989), «Halima enam allalar» (1989), «Ishq kernasi» (1990), «Ko'nglimda bir yor» (1991), «Bevafo ko'p ekan» (1991), «Erka kiyik» (1992) kabi she'riy to'plamlari nashr etildi. 1989-yilda esa «Uyqudag'i qiz» nomli she'riy to'plami uchununga respublika Yoshlar tashkilotining mukofoti berildi.

Shoirming «Yolg'onchi yor» (1994) she'riy to'plami keyingi yillardagi eng sara asarlandan tashkil topgan

#### *Matni yuzasidan topshiriqlar*

##### **1-topshiriq.**

- a) Sevimli asar haqida so'zlab bering.
- b) Zamonaviy o'zbek adabiyoti haqidagi ma'lumotlarni gapiring.
- v) Mashhur o'zbek shoirlari ijodidan namunalar yod oling.

##### **2-topshiriq. Matnni o'qing.**

**Unvon** [nom, belgi, ramz] - biror ish-faoliyat sohasidagi alohida xizmatni yoki mutaxassislik darajasini rasman e'tirof etadigan, vakolatli organlar tomonidan belgilanadigan va beriladigan nom. *Xalq shoiri unvoni*.

**Kotib** [yozuvchi, ko'chiruvchi] - ro'yxat tuzish, qo'lyozmalarni ko'chirish bilan shug'ullangan shaxs, mirza. 2. Idora va muassasalarda, lavozimlik ishlari, yozuvchilar huzurida yozuv-chizuv ishlari va yozishmalarni olib boruvchi xodim. *Yozuvchilar uyushmasi Toshkeni bo'limi mas'ul kotibi*.

**To'plam** - ma'lum tartibda to'plangan bir turdag'i narsalar yig'indisi. 2. Ma'lum tartibda to'plangan va nashr etilgan asar, qonun, qaror va sh.k. majmui. *She'rlar to'plami*.

**Tarjima** [bir tildan ikkinchi bir tilga o'girish] - bir tildagi matnni boshqa tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. *Asar tarjimasি.*

**Tarjimon** [tarjima qiluvchi] - tarjima qiluvchi shaxs. *Mohir tarjimon.*

**Matbuot** [bosma, nashrlar] - sanoatning bosma asarlar chiqaradigan tarmog'i, nashriyot va bosmaxona ishlari. 2. Bosma asarlar; gazeta, jurnal majmui. *Chet el matbuoti.*

**Mashq** [husnixat, rasm chizish uchun namunalar] - biror faoliyatni puxta o'rghanish, malaka hosil qilish uchun bajariladigan ish, tayyorgarlik mashg'uloti. *Shyer yozishni mashq qilardi.*

**Mukofot** [taqdirlash, to'lov] - biron-bir faoliyat sohasidagi alohida yutuqlar uchun rag'batlantirish shakli (qimmatli buyum, pul, medal, orden va sh.k.). *Davlat mukofoti.*

**Muharrir** [tahrir qiluvchi] - nashriyot yoki boshqa mas'ul nashrlarda muayyan matnni turli jihatdan tahrir qilib, bosmaga tayyorlovchi xodim. Ayrim matbuot organlariga rahbarlik qiluvchi shaxs. *Bo'lim muharriri.*

**Yozuvchi** - Badiiy asar yozish ishi bilan shug'ullanadigan shaxs, adib. *Talantli yozuvchi.*

**Nashr** [chop etish, bosib chiqarish] - bosma asar chop qilish, chiqarish. *Ilmiy nashr.*

**Nashriyot** [nashr va targ'ibot ishlari] - bosma asarlar tayyorlash va nashr etish ishlari bilan shug'ullanuvchi muassasa. *"Fan" nashriyoti.*

**Bo'lim** -Idora va turli ishxonalarning ma'lum ish bilan shug'ullanadigan bir qismi, muayyan idoraga qarashli quyi idora. *Bo'lim mudiri.*

**Jamoatchilik** - xaloyiq, xalq, omma, jamoat, ko'pchilikka aloqador ishlarda faol qatnashish, faollik. Jamoatchilik asosida yoki jamoatchilik yo'li bilan jamoat, xalq kuchi, faoliyati bilan, hashar yo'li bilan, pulsiz. *Jamoatchilik asosida qurilgan maktab.*

**Jurnal** [fr. journal - gazeta; kundalik daftар] - kitobcha yoki majmua shaklida belgili vaqtida chiqib turadigan davriy nashr. *Moliya jurnali.*

**Vakil** [ishonchli, vakolatli shaxs] - biror kishi, muassasa, tashkilot manfaatlarini ko'zlovchi va himoya qiluvchi shaxs. *Abdulla Oripov hozirgi o'zbek she'riyatining yirik vakili.*

**3-topshiriq.**O'zingiz yoqtirgan badiiy asardan (she'r) parcha aytib bering

**4-topshiriq.**O'zbek adiblari va shoirlari haqida taqdimot tayyorlang.

**5-topshiriq.**"Men sevgan asar" mavzusida insho yozing.

**6-topshiriq.**She'mi ifodali o'qing va yod oling.

### Ayol

Yigitlar maktubin bitganda qondan  
Kelinlar firoqdan chekkanda yohu,  
Uning ham panohi qaytmadi jangdan  
O'n to'qqiz yoshida beva qoldi u.

Sevgidan yetimu umrdan yarim,  
Qurigan ko'ksida yolg'iz belanchak.  
Abadiy firoqni, hayhot, do'stlarim,  
Abadiy visol deb bildi kelinchak.

Qaqragan lablarda olovli nafas,  
Kechalar kechmishin ayladi ko'mir.  
Parishon sochlari yor ko'ksi emas,  
Muzdayin bolishda qoldi bir umr.

Yillar ham o'tdilar, hamon u yolg'iz,  
Mung'ayib termular botguvchi kunga.  
Ey nomard tabiat, bormi senda his,  
Qaytadan baxt bersang b\*olmasmi unga?!

Nahot ishq qismati buncha berahm,  
Bunchalar buyuksan vafo shevasi.  
Sengadir hurmatim, senga sharafig,  
Qahramon jangchining sodiq bevasi.

Siz-chi ey, sadoqat satridan nolib,  
Nadomat komida qolganlar, aytinq.  
O'zini ming bitta bozordan olib,  
Ming bitta bozorga solganlar, aytinq.

Shu cho'lpon ko'zlarning buyuk hurmati,  
Shu aqiq lablarning rost so'zi deya,  
So'ylang-chi, vafoning nadir qimmati,  
Siz ham kutganmisiz biror soniya?!

Ba'zida timoqlar bezagi uchun  
Sahardan shomgacha qilursiz toqat.  
Biroq yoringizni kutgali nechun  
Topilmas timoqcha sabru qanoat.

Nazokat paytimas, yaqinroq kelng,  
Buyuk zot qoshida aylangiz salom.  
Shu sodiq bevaga sajdalar qiling,  
Shu sodiq bevaga aylang ehtirom.

Hatto zeb-ziynatni yulqib ziyoda,  
Haykal ham qo'yingiz bamisli xayol.  
Shundaylar bo'lmasa agar dunyoda,  
Bu qadar muhtara'n bo'lmasdi ayol.

**7-topshiriq. She'mi ifodali o'qing va yod oling.**

**Shunday yashar odatda odam**  
Yo'q, kerakmas, qo'ying, kerakmas,  
Menga orom istamang, do'stlar,  
Xilvat soz deb qistamang, do'stlar,

Qo'ying, bunday orom kerakmas.  
 Nogohonda xayolga botsam,  
 Yo uxlasm, uyg'otung darrov,  
 Nomim tutib, so'z qoting darrov.  
 Behudaga bir yoqqa borsam,  
 Qo'llarimdan ushlab o'shal dam,  
 Kurashlarning safiga qo'shing,  
 Qur, yarat deng, hayqir deng, jo'sh deng,  
 Shunday yashar odatda odam.

**8-topshiriq.** Gaplami to'ldiring.

- 1) .... Abdulla Oripov 1941-yili Qashqadaryo ... dehqon ..... tug'ildi.
  - 2) 1965-yilda Abdulla Oripovning birinchi ... "Mitti yulduz" ....
  - 3) Uning "Birinchi muhabattim", "Yo'lim boshlar", "Yoshligimiz" kabi .....  
..... qo'shiqlar xalqimizning sevimli ... aylangan.
  - 4) Abdulla Oripov mustaqil O'zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasining ....
- 9-topshiriq.** Venn diagrammasidan foydalaniб mumtoz va zamonaviy she'riyatni taqqoslang va tahlil qiling.



**10-topshiriq.** Berilgan iboralarining ma'nolarini izohlang va gaplar tuzing.

Otni qamchilamoq, otning qashqasiday, oshig'i olchi, og'ir tabiatli, popugi pasaymoq, pushaymon yemoq, rangida qon qolmadi, yuzi yorug'bo'ldi, to'ydan oldin nog'ora chalmoq, tuyaning dumri yerga tekkanda, tuyaning ustida ham it qopadi, to'nini teskari kiyib olmoq, to'rt tarafli qibla.

**11-topshiriq.** Matuni o'qing. Tarjima qiling.

**Oyi, dadam nega yig'layaptilar?**

Yetti-sakkiz yoshlik chog'laram, shahar hovlida yashar edik. Dadam mudom o'tirib "O'tgan kunlar"ni yozardilar. Bir kun oyim, odatimizcha, ertalabki choyni bibimning uyiga hozirladilar-da, erta turib o'z xonasida yozib o'tirgan dadamni choyga chaqirgani chiqib ketdilar. Biz dasturxon tevaragida u kishining chiqishini kutamiz... Bir vaqt oyim negadir indamay chiqdilar va o'tirib bizga choy quyib bera boshladilar.

- Abdullani chaqirdingmi, Rahbar?- dadam chiqavermagach, oyimdan so'radilar bibim.

- Yo'q.

- Nega?

- O'g'lingiz yig'lab o'tiribdilar,- dedilar oyim.

Bibim bechora sakrab o'rinnaridan turib dadamning xonasiga yo'l oldilar. Kappa katta kishining yig'lashidan hayratga kelib men ham bibim ortidan ergashdim Kirsak, darhaqiqat, u kishi yum-yum yig'lar, kursiga tirsaklanib olib, to'xtovsiz yozar edilar. Bibim dadamning bu holiga biroz qarab turdilar-da, bir narsani tushundilar, shekilli, indamay meni boshlab orqaga qaytdilar va o'tirib choyni icha boshladilar. Men bibimdan so'radim:

- Dadam nega yig'layaptilar?
- Dadang jinni bo'lib qolibdi... - javob qildilar bibim va boshqa so'z aytmadilar.

Keynchilik anglasam, o'shanda dadam o'z sevikli qahramoni Kumushning fojeali o'limi paytini tasvirlayotgan ekanlar...

*Habibulla Qodiriy*

**12-mashq.** Sevib oqiydigan badiiy asarlariningizda frazeologik ibora va gaplardan daftaringizga 20 ta namuna yozing.

#### *Eslab qoling!*

**Ma'naviyat.** Bu – insonni ruhan poklanish, qalban ulg'ayishga chorlaydigan, odamning ichki dunyosi, irodasini baquvvat, imon-e'tiqodini butun qiladigan, vijdonini uyg'otadigan beqiyos kuch, uning barcha qarashlarining mezonidir.

**Erkin fuqaro ma'naviyat.** Bugungi kunda mamlakatimizda yangi hayot, yangi jamiyat poydevorini barpo etishda "Erkin fuqaro ma'naviyat"ni shakllantirish masalasi biz uchun g'oyat dolzarb ahamiyatga ega.

#### **BADIY TASVIR VOSITALARI.**

Trop nutqda so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatilishidir. Qandaydir hususiyati bilan bir-biriga yaqin ikki tushunchani qiyos qilish troplarga asos qilib olinadi.

Quyidagi troplarning turlariga to'xtalamiz.

**Metafora.** Grekcha so'z bo'lib, ko'chim degan ma'noni bildiradi. Nutqqa obrazilik ekpressiv bo'yoq berish niyatida narsa va hodisalar o'rtasida o'hshashlilikka asoslanib, so'z yoki iboralarni ko'chma ma'noda ishlatish metaforadir. Masalan: "*hazon bo'lmoq*", "*bahor*", "*g'uncha*" kabilar. Misol:

*Dunyoga keldi-yu, bir zumda so'ldi.*

Metafora tuzishilishga ko'ra ikki hil: sodda va kengaygan bo'ladi. Sodda metafora birligina so'zdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so'zdan tashkil topsa, kengaygan metafora ikki yoki undan ortiq so'zlardan tuziladi. Masalan, *gumbaz (osmon)*, *ilon (sovruq odam)* va h.k. metaforalar sodda; *po'lat qush (samolyot)*, *oq olin (pahta)* kabilar esa kengaygan metaforalardir.

**Metonimiya.** Grekcha so'z bo'lib, boshqacha nom berish degan ma'noni bildiradi. Bundan tashqari yoki ichki tomondan bir-biriga aloqador narsaga ko'chiriladi. Metonimiya ham so'zlarining ko'chma ma'nosiga asoslanadi. Masalan, 1. Narsa ichidagi narsaning ma'nosini o'sha narsaga o'tkaziladi. Masalan: Bir tovoqni paqqos tushirdim. 2. Muallifning nomi asarning nomi bilan qo'llaniladi. Masalan: *Boburni o'qidim, Navoiyni o'qidim*.

**Sinekdoha.** Sinekdoha narsalaming son yoki butun va qismlari orasidagi munosabat nazarda tutiladi. Sinekdohaning quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1. Butun o'mida qism. Misol: "*G'ilay*" *hassasini qidira-qidira zo rg'a stulining orqa tomonidan topdi*. 2. Qism o'mida butun: 3. Ko'plik o'mida birlik ishlatish:

*Talabaning vazifasi, domlaning so'zini erda qoldirmaslik. 4. Jins o'mida tur: bedana-qush, sazan-baliq, kobra-ilon, Mars-planeta.*

**Epitet (sifatlash).** Grekcha so'z bo'lib izohlovchi degan ma'noni anglatadi. Epitet poetik izohlovchi. U boshqa doimiy aniqlovchilardan ekspressivlik hosil qilishi, ko'chma ma'noda ishlatilishi bilan farq qiladi. Predmet sifatida tasvirli, obrazli ifodalash uchun ishlatiladigan so'z.

Stiliy epitetda muallif tasvirlanayotgan narsa yoki voqeanning o'zi zarur hisoblangan tomonini ma'lum nuqtai nazardan turib baholaydi. Masalan,

*Men bir qora tunda tug'ildi,*

*Tug'ildimu shu on bo'g'ildim. (Hamid Olimjon)*

**O'xshatish-** bunda ikki narsa yoki voqeа –hodisa o'rtaqidagi o'xshashlikka asosanib ularning biri orqali ikkinchisining belgisi, mohiyati to'laroq, bo'rttiribroq ko'rsatiladi. O'hshatishda quyidagi tushunchalar bo'ladi:

- 1) O'xshatilgan predmet;
- 2) O'xshatiladigan narsa;
- 3) O'xshatish asosi;
- 4) O'xshatish vositasi.

*Ezgulikni asrang, olamda u ham*

*Tojdar turna kabi bo'lmasin kamyob.*

*...Hayoni asrangiz, kuymasin hayo*

*Otashga duch kelgan polapon misol. (A. Oripov)*

Bu misollarda ezgulik va hayo –o'xshatilgan predmet, turna va polapon – o'xshatiladigan narsa, kamyob va otashga duch kelish–o'xshatish asosi, kabi va misol–o'xshatish vositasi.

O'xshatish vositalari vazifasida sifatida, kabi, go'yo, huddi, misoli, singari, qadar, aynan; -day, -dek, -simon, -ona, -omus, -larcha, -chasiga kabilar ishlatiladi. O'xshatish chog'ishtirish orqali ham ifodalanadi. Bunda o'xshatish vositasi ishtirok etmaydi. Masalan:

*Meni shersiz, deding, yovlar quyondir,*

*Quyonlarning ishi senga ayondir. (Uyg'un va I. Sultonov)*

Bu misolda o'hshatilgan predmet o'hshatiladigan narsaga hech qanday vositasiz nisbat berilmoqda: *Men –sher bilan, yovlar- quyon* bilan chog'ishtirilmoqda.

**Ironiya** –yunoncha bilib bilmaganga olish degan ma'noni bildiradi. Bu tropda muallif voqeani bamaylihotir, jiddiy holda hikoya qiladi, ammo so'zлarni o'z ma'nosiga nisbatan qarama-qarshi ma'noda ishlatadi. Bu bilan o'zining biror kishi yoki hodisa ustidan ustunligini ko'rsatadi. Ironiya shunday tropki, sirtdan qaralganda, so'zlovchi jiddiy gapirayotganga o'hshaydi, ammo uning tagida kesatiq, piching, yashirin kulgi yotadi. Uyg'un va Izzat Sultonlarning "Alisher Navoiy" dramasida Navoiy hizmatkorga nisbatan shunday deydi: "Qo'rqma! (uzukni olib tomosha qiladi) Qimmatbaho uzuk. Katta hizmatlar evaziga mukofot qilib bersa, arziydig'an uzuk. Ma!"

**Antifraza** –ironyaning bir ko'rinishi bo'lib, biror shahs yoki predmetga hos bo'lgan u yoki bu hususiyat kulgili intonastiya bilan inkor qilinadi: *Ertasiga*

*ellikhoshi Qobil boboni boshlab qaynotasi –Egamberdi pahufurushning oldiga olib bordi. Pahtafurush cholning holiga ko'p achingan bo'ldi va erni haydab olgani bitta emas, ikkita ho'kiz berdi, lekin kichkinagina sharti bor. Bu sharti kuzda ma'lum bo'ladi.* (A. Qahhor) Bu misolda ajratib ko'rsatilgan jumla antifrazadir.

**Sarkazm** –yunoncha qiyash, ozor berish degan ma'noni bildiradi. Bunda tasvirlanayotgan narsa yoki murojaat qilinayotgan kishidan muallifning ustunlik hususiyatiga asoslanib, achchiq zaharhanda, istehzoli ta'na, piching bilan gapiriladi. Sarkazm satirik asarlarda qo'llanib shahsning voqe-a-hodisaning salbiy tomonlari fosh qilinadi. Uyg'un va Izzat Sultonning "Alisher Navoiy" dramasida Navoiy shunday deydi: "*Rahnamo iblis bo'lgach, yanglinish tabiiydir Tushgan yo'lingiz g'oya mudhish yo'l. Bu yo'ldan boruvchining qonlarni kechib, kallalarnidepsib o'may iloji yo'q.*"

**Perifraz-** grekcha aylana, atrof, boshqacha gapiraman demakdir. Narsa va hodisaning nomlarini ularning muhim belgi yoki hususiyatini tasvirlab ko'rsatuvchi vosita yordamida bayon qilish perifraz deyiladi. Masalan: *Sohibqiron bobokalonimiz – deganda ko'z oldimizga Amir Temur keladi* yoki yana bir misol: *tibbiyot olamining asoschisi – Ibn Sino va shu kabilar.*

Bu misolda *Sohibqiron bobokalonimiz*, *tibbiyot olamining asoschisi* perifrazdir. Bunday perifrazlar nutqda ko'plab ishlataladi: *g'azal mulkinining sultonii Alisher Navoiy, shodlik va bahti kuychisi – Hamid Olimjon, yor va diyor kuychisi – Z.M. Bobur, Qadimgi So'g'diyonanining markazi – Samarqand* kabilar.

#### Mubolag'a va litota.

Mubolag'a yunoncha giperbola so'zidan olingen bo'lib, bo'rttirish, orttirib ko'rsatish degan ma'noni bildiradi. Litota esa, uning aksi bo'lib haddan tashqari kichraytirish ma'nosini bildiradi. Litota termini o'mida mumtoz adabiyotda tafrit san'ati deb ishlataladi. "Alpomish" dostonida shunday mubolag'a bor.

*Shomurti yogalab har yonga ketgan, ichida sichgonlar bolalab ketgan, izidan tushgan pishak ularga olti oyda etgan*

Litotaga misol:

*Ul sanamkim suv yaqosinda paritek o'lturur,  
G'oyati nozuklukindin suv bila yutsa bo'fur. (Atoiy)*

**Allegoriya** –yunoncha so'z bo'lib qochiriq, kesatiq degan ma'noni bildiradi. Bu trop ham so'zlarning ko'chmia ma'nosiga asoslanadi. Ijodkor mavhum tushunchalar to'g'risida aniq tasavvur hosil qilish niyatida uni biror hususiyati bilan yaqinlashadigan narsalar orqali tasvirlaydi. Mumtoz shoir Gulhaniyning "Zarbulmasal" asari allegoriyaga asoslangan. Unda "Tuya bilan bo'taloq", "Toshbaqa bilan chayon", "Maymun bilan najor" kabi masallardagi obrazlar allegorik obrazlardir.

Maqollarda allegoriya ko'plab uchraydi. Masalan, *ko'rpannga qarab oyoq uzat, bo'yingga qarab to'n bich, men ne deyman, qo'bizim ne deydi* kabilar.

Simvol-qadimgi yunonlarda mahfiy bir tashkilot a'zolarining bir –birlarini bilishlari uchun qo'llangan shartli belgi.

Hayotiy voqeа, tushuncha va narsalarning ifodasi uchun so'zлarni ma'lum ravishda ko'chma ma'noda ishlatalishga simvol deyiladi. Ko'chma ma'noda ishlataligan nom qanedaydir bir hususiyati bilan ma'lum hayotiy voqeа va tushunchalarni eslatib

turishi kerak maalan: tong – quvnoqlik, yoshlik, baht ramzi. Akademik shoir G'afur G'ulomda tong g'alaba ramzi. U "Sen etim emassan" she'rida

"Tong yaqin, tong yaqin, oppoq tong yaqin" deb g'alaba yaqinligiga ishonishga chiqiradi. Hayotda simvol ko'p ishlataladi. O'zbekiston gerbidagi Humo qushi-baht ramzi. Olimpiadadagi besh halqa-beshta qit'a ramzi, non-to'qchilik ramzi va hakozo.

**Jonlantirish-** jonsiz narsalarning inson kabi harakat qiladigan, fikrlaydigan, so'zlaydigan qilib tasvirlanishi jonlantirish deyiladi: Masalan:

*SHamollar esmoqda sovuq, berahm.*

*YAproqlar parishon kezar darbadar*

*Qani kim biladi? Qani aytar kim?*

*Kimning yo'llarini mo'l tirab kutar*

*Uzilmasdan turgan uzumilar? (Hurshid Davron)*

**Apostrofa.** Bunda jonsiz narsa harakat qilmaydi, balki unga jonli narsadek murojaat qilinadi. YA'ni bu o'rinda jonlantirilayotgan narsa murojaat qilayotgan kishiga nisbatan nofaol holatda bo'ladi. Masalan,

Boshin eggay hamisha

Ostonangda Abdullo

Eng oliv bahtim mening,

Onajonim, she'riyat,

Topgan toj-tahtim mening,

Jonajonim, she'nyat (A. Oripov)

Bu misolda she'riyat-apstrofa. Unga shoir jonliday murojaat qilyapti.

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. O'tkir Hoshimovning qaysi asarlarini sevib o'qigansiz?

2. Abdulla Oripov haqida nimalarни bilasiz?

3. Muhammad Yusuf she'rlarining jozibasi nimada?

### 36-MAVZU. IQTISOD VA HAYOT

**Reja:**

- Matnni o'qib tushunish. Matndagi termin va iboralarining ma'nosini izohlash.
- Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash.
- Iqtisodiy terminlar tarkibidagi qisqartma otlar lug'atini tuzish. Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlarni topib yozish.
- Umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlar

**Inflatsiya**

Inflatsiya – iqtisodiyotga tegishli jarayon bo'lib, bunda muomaladagi qog'oz pulning haddan tashqari ko'payib ketishi ro'y beradi. U chiqarolgan qog'oz pullar miqdori o'zgarmagan sharoitda ishlab chiqarishning pasayishi natijasi ham ro'y berishi mumkin. Inflatsiya baholar o'sishi, aholi turmush darajasining pasayib ketishi tufayli ham yuz beradi.

"Inflatsiya" so'zi qayerdan kelib chiqqan?

Shimoliy Amerikada 1861-1865-yillardagi fuqarolar urushi davrida grinbek deb ataluvchi qog'oz pullarning haddan ortiq miqdori (450 mln.qog'oz pullar) muomalaga chiqarilgan, ammo ularning xarid qobiliyati 2 yil ichida 60 foizga tushgan. Natijada **inflation** - bo'rtib chiqish ma'nosini beruvchi lotin so'zidan paydo bo'lgan "Inflatsiya" tushunchasi ilk bor ishlatila boshlangan.

Inflatsiya – iqtisodiy organizmning paydo bo'lgan moliyaviy buzilishga tezkor reaksiyasi, uning oldini olish harakati, tovarlar va pul o'rtasida muvozanatni saqlashga erishish lozimligini ko'rsatuvchi belgidir.

Yoyilish joyini hisobga olgan holda quyidagi inflatsiya bo'lishi mumkin:

- lokal (bir mamlakat doirasida);
- jahon (bir necha davlatlar yoki mintaqalarda);
  - Rivojlanish tavsifiga bog'liq holda quyidagi inflatsiyani ajratish mumkin:
  - ochiq (hech kim uni ushlab turmaydi va boshqarmaydi);
  - yashirin (bu holda davlat sun'iy yo'l bilan baholar o'sishini ushlab turadi va yangi deb aytiladigan tovarlarga baholarni oshradi va h.k.).

Baholar o'sish sur'atlanni hisobga olgan holda inflatsiya quyidagicha bo'ladi:

- o'rmalovchi, me'yorida bo'ladi inflatsiya, bunda baholar sekin, lekin to'xtovsiz o'sadi;
- sakrab boruvchi. Bunda baholar keskin o'sa boshlaydi. Sakrab boruvchi inflatsiyada uzoq muddatli va ayrim o'rta muddatli bahosi qimmat loyihalarning amalga oshirilishi to'xtatiladi.

Inflatsiyaning yana bir turi – giperinflatsiyadir.

Bunda kreditlar faqat o'ta qisqa muddatga beriladi. Giperinflatsiya ro'y bersa, aholi puldan qochadi, pullar o'ta qadrsizlanadi. Aholi esa o'z mablag'larini pul shaklida tutib turishga bo'lgan xohishini yo'qotadi va ularni moddiy ne'matlarga sarflaydi.

Inflatsiya, naqd pullarning qadrini yo'qotib, har xil sinflar o'rtasida daromadlar va boylikning qayta taqsimlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, mehnatkashlar ahvolining yomonlashiviga olib keladi, ularning hayot darajasini pasaytiradi, ishsizlikni ko'paytiradi.

Davlat pul siyosatini mustahkamlash, daromadlarni tartibga solish, baholami cheklash bilan inflatsiya o'sishiga bardosh beradi.

### ***Matn yuzasidan topshiriqlar.***

#### **1-topshiriq.**

- a) matnni o'qing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering;
- c) matnni so'zlab berishga tayyorlaning;
- d) matnni qismlarga ajrating va har bir qismga sarlavha toping.

### **URF-ODAT VA RASM-RUSUMLAR**

Urf-odat va rasm-rusumlar - kishilar turmushiga singib ketgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar (masalan, o'zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy-hovlini supurib-sidirib, tartibga keltirib qo'yish, mehmonlarga alohida hurmatda

bo'lish, bayram arafasida betob, ojiz va qiyalganlardan xabar olish, yordamga muhtojlarga hasharga borish va shu kabilar).

Urf-odat va rasm-rusumlar bir-birlariga juda yaqindan bog'liqdir, biri ikkinchisining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bugungi kunda ajdodlarimiz tomonidan qoldirilgan rasm-rusum va urf-odatlarni har tomonlama tiklash va rivojlantirish, ularni yosh avlodni tarbiyalashda samarali ravishda qo'llash kengayib bormoqda.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millat va elatning tarixi, turmush tarzi va boshqa omillar ta'sirida o'ziga xos ravishda shakllanadi. Ular millat yoki elatning o'ziga xos qiyofasini belgilovchi xususiyatlaridan biridir. O'zbeklarda, masalan, qudashilik nihoyatda katta e'tibomi talab qiladi. "Kuyovni payg'ambarlar siylagan", deyiladi va shunga yarasha kuyovga hurmat-ehtirom bildiriladi. O'tmishda ota o'z qizi kelin bo'lib tushgan mahalladan otdan tushib, piyoda o'tgan. "Beshik to'yil" eskilik sarqiti, deb taqiqlangan edi. Holbuki, endilikda beshikning diqqatga sazovor kashfiyotlardan biri ekanligi ma'lum bo'limoqda. Shunday urf-odat va rasm-rusumlar ko'p. Ular milliy an'analar, milliy til va milliy ruh bilan bir qatorda milliy mustaqillik ma'naviyati va madaniyatining muhim qirrasini tashkil qiladi.

Urf-odat va rasm-rusumlar har bir millatda o'ziga xos tizimni tashkil qiladi, millat tomonidan turmush tarzinining zururiy sharti deb qabul qilinadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga befarq kishi o'zini o'z millatidan uzoqlashtirib, uzib qo'yadi. Urf-odat va rasm-rusumlarga hurmat o'z millatiga hurmatning tarkibiy qismidir. Ko'pmillatli davlatda o'z millatining rasm-rusum, urf-odatlariga rioya qilish boshqa millatlar bilan bo'lgan do'stlik va totuvlik munosabatlariiga putur yetkazmasligi kerak.

#### *Matn yuzasidan topshiriqlar:*

##### **2-topshiriq.**

- a) matnni o'qing.
- b) matnni kichik qismlarga ajratib reja tuzing, reja asosida matn mazmunini so'zlab bering.
- c) o'z millatingizga xos urf-odat va rasm-rusumlar haqida ma'lumot to'plang.
- d) o'zbekurf-odat va rasm-rusumlari haqida taqdimot tayyorlang;
- e) mavzu doirasida iqtisodiyot terminlarini qo'llagan holda bahs-munozara yushtiring, bunda dolzarb muammolarni ko'taring.

##### **3-topshiriq.** Quyidagi tayanch so'z va iboralarning ma'nosini izohlang.

Xulq-atvor qoidalari, ko'nikmalar, bayram, betob, muhtoj, ajdod, avlod, turmush tarzi, qudashilik, o'tmishda, eskilik sarqiti, befarq kishi, totuvlik munosabatlari, shart.

##### **4-topshiriq.** Quyidagi matnning asosiy mazmunini o'zbek tiliga tarjima qiling.

#### **Интеграция Узбекистана в мировую экономику**

В XXI веке интеграция становится доминирующей тенденцией мирового развития. Фактически весь мир сегодня – это совокупность региональных блоков. Особенностью современного этапа развития мировой экономики является то, что регионализация экономических процессов происходит на фоне глобальной интернационализации производства.

Мировое хозяйство движется к единству путем сближения и объединения экономики регионов и отдельных стран в целостный мировой хозяйственный комплекс.

Среди факторов и условий, способствующих усилению интеграционных связей Узбекистана в мировую экономическую систему можно выделить:

- выгодное географическое положение республики на Евразийском континенте;
- стабильная политическая обстановка в стране. Это является существенным гарантом притока иностранного капитала, взаимовыгодного экономического сотрудничества;
- значительные запасы земельных, минерально-сырьевых и растительных ресурсов. Также имеются уникальные почвенно-климатические условия, благоприятные для развития сельского хозяйства;
- значительный экспортный потенциал;
- крупный производственный потенциал, позволяющий производить конкурентоспособную продукцию высокой степени готовности;
- наличие развитой производственной инфраструктуры. Имеются автомобильные и железнодорожные магистрали, системы телекоммуникаций, связывающие республику с другими государствами.

О масштабах интеграции Узбекистана в мировую экономику можно судить на основе изучения географии глобальных и региональных притоков прямых иностранных инвестиций.

**5-topshiriq.Matnini o'qing.** Matndan foydalanib "Mulk shakllari" mavzusida diologga kirishing.

#### Xususiy mulk

Xususiy mulk – bu ayrim kishilarga tegishli, fuqaro daromad olish maqsadida foydalanadigan mulk turi. Mulkdan foydalanib, daromad olish maqsadida ishlab chiqarish, fuqaroning o'z mehnati bilan yoki boshqa birovlarni yollash yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. O'zbekiston Respublikasining "Mulkchilik to'g'risida"gi qonunining 7-moddasiga binoan, xususiy mulkchilik mulkni o'zlashtirish, o'z mol-mulkiga xususiy tarzda egalik qilish, undan foydalanish va uni tasarruf etish huquqidan iboratdir.

Xususiy mulk boshqa mulk shakllari kabi daxlsiz va davlat tomonidan himoya qilinadi. Barcha shaxslar, ularning kim va qanday lavozimda bo'lishlaridan qatiy nazar, mulkdoming huquqini hurmat qilishlari, unga asossiz hech qanday putur yetkazmasliklari lozim. Mulkdor o'z mukidan faqat qonunda ko'rsatilgan hollarda va qonunda belgilangan tartubdagina mahrum etilishi mumkin.

Xususiy mulkchilikni keng yoyish, fuqarolarda mulkchilik tuyg'usini shakllantirish va mustahkamlash - O'zbekistonning hozirgi davrdagi dolzarb vazifalaridan biri. Xususiy mulk ishlab chiqarishni rivojlantiruvchi ichki kuch va cheksiz manbadir. Shu boisdan xususiy mulknинг turli shakllarda rivoj topishiga keng yo'l ochib qo'ygan mamlakatlар qatoridan zamonomizning rivojlangan davlatlari yetishib chiqishi tabiiydir va mantiqan asoslidir. Xususiy mulkchilikni inkor etish - sho'ro tuzumi barbod bo'lishining asosiy sabablaridan biridir.

**6-topshiriq.** “Narx” so’ziga sinkveyn tuzing va umumlashtiruvchi xulosa chiqaring.

**“Sinkveyn” (5 qator) texnikasi**

Maqsad – kategoriyaga tavfsif berish

- 1-qator – tushuncha - ot
- 2-qator – 2 so’zdan iborat sifat
- 3-qator – 3 so’zdan iborat fe’l
- 4-qator – 4 so’zdan iborat munosabat
- 5-qator – 1 so’zdan iborat sinonim

**7-topshiriq.** “Iqtisodiyotimiz ravnaqi” mavzusida 200 ta so’zdan iborat matn tuzing.

**8-topshiriq.** “Zanjir o‘yini”. Ikki guruhgaga bo‘lining. Iqtisodiyotga oid atamalardan foydalaniib, tez aytish bo‘yicha so’z zanjiri tuzing. Bunda so’zning oxiridagi tovushga qarab 2-guruh shu tovushdan boshlanuvchi so’z aytadi.

I guruh	II guruh
divident	tovar
rentabillik	kredit
terminal	likvidlik
kapital	limit
to’lov balansi	inflyatsiya

**9-topshiriq.** Quyidagi atamalar asosida ilmiy uslubga xos matn tuzing. Ilmiy uslubning o’ziga xos xususiyatlarini tushuntiring.

Aksiya, limit, inflatsiya, audit, sug’urta, soliq, sof foyda, buxgalteriya, kredit, balans, avans, valuta, auditor, bank, sarmoya, bankrot, bank hisobvarag‘i, budget, valuta bozori, moliya.

**Pul nima?**

Pul – bu maxsus tovar, u hamma boshqa tovarlar uchun umumiyl tekvivalent vazifasini bajaradi. Hamma tovarlar singari pul ham, qiymat ham iste’mol qiyamatiga ega. Shu ma’noda u boshqa oddiy tovarlardan farq qilmaydi.

Pul shunday kuch kasb etadiki, umumiyl ijtimoiy qiymatga ega bo’lgan hamma tovarlarni xarid qilish vositasi sifatida xizmat qiladi. Pul tovar ishlab chiqarish va ayirboshlash jarayonida iste’molchilar o’rtasidagi ijtimoiy munosabatlarni ifoda etadi. Shu sababli tovar – pul munosabatlari paydo bo’ladi. Mohiyatan pul uchun ijtimoiy mehnat qaysi sohada sarflanganligi va qiymat qayerda yaratilganligi farqsizdir. Kimning puli bo’lsa u ijtimoiy mehnatning tegishli qismini o’zi istagan

natural (tovar) shaklida olish huquqiga ega bo'ldi. Pulning hamma narsadan qudratli ekanligi ham shundan kelib chiqadi.

Umuman pul o'z taraqqiyotida 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:

Tovar shaklida "qo'yma" meloddan avvalgi VII asrgacha

Tanga pullar – "tanga" meloddan avvalgi VII-XIX asrlar

Qog'oz pullar – "banknot" XIX-XX asrlar


Elektron pullar – "kartochka" XX - asr o'rtalaridan.

#### *Matn yuzasidan topshiriqlar.*

##### **10-topshiriq**

- a) matnni o'qing;
- b) matn yuzasidan savollar tuzing va yozma javob bering;
- c) pul so'zining sinonimlarini toping;
- d) pul haqida yana qo'shimcha ma'lumot to'plang va so'zlab bering.

**11-topshiriq.** Klaster uslubidan foydalanib pulning xususiyatlarini ochib bering.



**12-topshiriq.** Matnni o'qing. Iqtisodiy atamalarni daftaringizga yozing va ularni izohlang.

##### **Bozor iqtisodiyoti**

G'arbda bozor iqtisodiyoti deganda, iqtisodiy yechimlar asosan markazlashmagan tarzda qabul qilinadigan iqtisodiyot tushuniladi. Bozor iqtisodiyotining faoliyat ko'rsatishi asosan bozor mexanizmlari orqali amalga oshiriladi. G'arb adabiyotida bozoring ko'pgina ta'riflari mavjud. Lekin ularning hammasi shundan iboratki, bozor mustaqil ravishda qarorlar qabul qiluvchi alohida xo'jalik yurituvchi subyektlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, aloqalar shakli hisoblanadi. Har doim ham bozor iqtisodiyoti sharoitida erkin bozor bo'lmay, balki raqobatli bozor o'z faoliytini ko'rsatadi. Uning faoliyat ko'rsatishi uchun dastavval mulkchilikning xilma-xil shakllarini (xususiy, kooperativ, aksiyadorlik, davlat va boshqalarni) ro'yobga chiqarishini va bozor infrastrukturاسини vujudga keltirishini talab etadi.

**13-topshiriq.**Lug'atdan foydalanib mutaxassisligingizga oid kichik atamalar lug'atini tuzing. Ularning ma'nosini puxta o'zlashtiring.

**14-topshiriq.**O'qing. Atamalarni aniqlab qaysi sohaga oidligni aytинг.  
Valuta, depozit, budjet, lizing, marketing, menejment, kredit, kelishik, kesim, huquq, prezident, istiqlol, affiks, duet, final, ring, sinonim, dealekt, tilshunoslik, adabiyot, bank, sug'urta.

**E'tibor bering!**

**Tosap.** Bu so'z jonli va jonsiz mol ma'nosida o'zbek va boshqa turkiy tillarda qadimdan ishlatilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "Devoni lug'atit-turk" (XI) asarida keltirilishicha, tovar o'g'uz lahjasida ishlatilgan va tovar shaklida bo'lgan.

Turk va ozarbayjon tillarida dovar shaklida yuritiladigan bu "tovar" so'zi rus tiliga XII-XIII asrlarda o'zlashgan.

**Tosapuu.** Rus tilidagi bu so'z asli turkiy "tovar" (mol-merek va ish, turkiycha "o'rtoq", "yaqin", "hamkor") so'zidan tashkil topgan va dastlab "savdo qiluvchi o'rtoq, savdodagi hamkor" ma'nolarini bildirgan. U XIV asrdan ishlatila boshlandi, keyinchalik ma'nesi kengaydi. "Товарищ" so'zi hamkor, hamdam ma'nolarida ham ishlatila boshlandi.

**15-topshiriq.**Mamlakat iqtisodiyotida yuz bergan yangiliklar haqida xabar tayyorlash.

**16-topshiriq.**Iqtisodiyotga oid qiziqarli ma'lumotlar to'plang.

**17-topshiriq.**Berilgan matndagi bir bosh bo'lakli gaplarni va ikki bosh bo'lakli gaplami aniqlang. Qoshma gaplarni ikki bosh bo'lakli sodda gaplarga aylantiring.

**Biznes nima?**

"Biznes" so'zi birinchi marta XVIII - XIX asrlarda paydo bo'lgan. Amerika lug'atlarida "biznes" tushunchasi insonning erkinligi va tirikchiligini ta'minlovchi tijorat faoliyati deb talqin qilinadi.

Biznes - bu insonning daromad olib, hayot kechiradigan vositasi.

Ibtidoiy jamoa davrida odamlar o'zining va jamoasining foydasi uchun baliqni teriga almashtirib biznes qilishar edi.

Bir tovarning ikkinchi tovarga almashtirilishidan boshlab bank, ombor, zavod, birja, dilerlar, biznesmenlar bilan bog'liq tarmoqlangan faoliyatga aylandi. Shu bilan birga, ma'lum bir shaxsga tegishli kapitalning maqsadli ishlatilishi bilan bog'liq bo'lgan turli faoliyat biznes deb ataladi.

Biznesmen o'zining faoliyatida yollanma ishchilar va xizmatchilarining mehnatidan foydalanadi. Mustahkam va kuchli biznesga ega bo'lish uchun tadbirkorlik xususiyatiga va biznes bilan bog'liq bo'lgan predmet haqida chiqur bilinga ega bo'lish kerak. Biznesmen tovami kim uchun va nima uchun ishlab chiqarayotganini, kimga va qanday sotishni, sotishdan tushgan tushimni nimaga sarflashni aniq bilishi kerak.

Shunday qilib, biznes biror kishining iste'molchi uchun foydali bo'lgan tovarni ishlab chiqarishga yo'naltirgan bilimi va tijoriy faoliyatlar tizimidir.

Biznes tadbirkorning aniq faoliyatiga bog'liq. Biznesmenlar o'zining bilimi va qobiliyatiga tayanib, daromad keltiruvchi sohagagina investitsiya kiritishadi.

## **UMUMXALQ LEKSIKASIGA KIRGAN IQTISODIY TERMINLAR**

Iqtisodiyot terminlarning ayrimlari keng xalq ommasi tomonidan faol qo'llaniladi, masalan, *pul, inflatsiya, kredit, biznes, iste'molchi, valutava boshqalar*. Bu holat, albatta, xalqning hayoti, iqtisodiyotning muhim soha ekanligi kabilar bilan izohlanadi.

Turli lug'atlardan umumxalq leksikasiga kirgan iqtisodiy terminlami ko'chirib yozing, ularni izohlang, ular bilan gaplar tuzing.

### **Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Bozor iqtisodiyotining eng muhim umumiy belgilari qaysilar?
3. Bozor iqtisodiyotini tarixan shakllangan ikki turni farqlab bering.
4. Bozor munosabatlariga o'tishning "o'zbek modeli"ni izohlang.

## **37-MAVZU.ISH YURITISH TILI VA USLUBI**

### **Reja:**

- Hujjat – ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ (me'yoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.
- "Hujjatlar tarixi" mavzusida matn tuzish.
- Ish yuritish terminlarining lug'atini tuzish.

*Hujjat ish yuritishning asosi. Hujjatchilik tarixi. Normativ (me'yoriy) hujjat tushunchasi. Hujjat aylanishi. Elektron hujjatlar.*

Vazirlar Mahkamasining 2012-yilda respublikani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013-yilgi iqtisodiy dasturning asosiy ustuvor vazifalariga bag'ishlangan yig'ilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish sohasida kerakli chora-tadbirlarni va loyihalarni amalga oshirish lozimligini ta'kidlab o'tdi. Yig'ilish yakuni bo'yicha mamlakatda "Elektron hukumat" tizimini shakllantirish Konsepsiysi va kompleks dasturini ishlab chiqishni jadallashtirish bo'yicha tegishli qaror qabul qilindi.

Elektron hujjat aylanish tizimi «Elektron hukumat» ning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Chunki ushbu tizimning muvaffaqiyatli yo'lga qo'yilishi nafaqat davlat hukumati va boshqaruvi organlari, xususiy sektor va aholi o'rtaqidagi samarali hamkorlikni ta'minlaydi, balki mamlakatda axborot jamiyatini shakllantirishga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 4-maydag'i №126-soni «Vazirlar Mahkamasining Ijro etuvchi apparatida, davlat va xo'jalik boshqaruvi, mahalliy davlat hokimiyati organlarida yagona himoyalangan elektron pochtani va elektron hujjat aylanishi tizimini joriy etish hamda ularidan foydalanish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorini qabul qilinishi elektron hujjat aylanish tizimini O'zbekistonda tadbiq etishning muhim bosqichi bo'ldi. Mazkur qarorni ijro etish doirasida «UNICON.UZ» markazi tomonidan vazirlik va idoralarni yagona himoyalangan «e-Hujjat» tizimiga uzviy bog'lash bo'yicha ishlar olib borilib, hozirgi kunda 150 dan ziyod tashkilotlar ushbu tizimga bog'landi.

Yuqorida zikr etilgan Vazirlar Mahkamasining qaroridan kelib chiqqan vazifalarni sifatlari ijrosini ta'minlash maqsadida «UNICON.UZ» markazi O'zbekiston Respublikasi Hukumati va BMT Taraqqiyot Dasturining «Mahalliy boshqaruv tizimini qo'llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik» qo'shma loyihasi ko'magida «e-Hujjat» tizimini takomillantirdi.

Qo'shma loyiha tomonidan Jizzax va Namangan viloyatlarida «e-Hujjat» tizimini tadbiq etish, eski tizimda mavjud kamchiliklarni tahlil qilish, tizimni qo'llash uchun AKT texnik jihozlarini sotib olish va o'matish hamda «e-Hujjat» ning yangi versiyasini yaratish bo'yicha tegishli tavsiyalar ishlab chiqishda amaliy yordam ko'rsatildi.

«e-Hujjat» tizimining yangi versiyasi zamonaviy platforma bazasi asosida sanoat standartlari va texnologiyalarini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan bo'lib, bu tizim qonuniy elektron hujjatlarni ayirboshlash, mavjud ish yuritish tizimi va tashkilotlarda qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish va takomillashtirish, yagona qayd qilish tizimini yaratish hamda hujjatlarni tizimlashtirish va ularning ijrosini nazorat qilishga qaratilgan.

«e-Hujjat» tizimi platformasi boshqa elektron hujjat aylanish tizimlariga moslikni hamda vazirliklar, davlat idoralari va tashkilotlarda mavjud yoki yangi ishga tushirilgan dasturlar bilan uyg'unlikni ta'minlaydi.

Mustaqil davlatimizning asosiy qonuni konstitutsiyamizda "Davlat tili haqida"gi Qonun va boshqa rasmiy hujjatlarda o'zbek tilining huquqiy maqomi va istiqboli aniq ko'rsatib berilgan.

O'zbek tili Davlat tili maqomini olgach, hujjatlarning barchasi o'zbek tilida yuritilmoqda. Endi O'zbekistonda yashovchi va faoliyat ko'rsatuvchi fuqorolar qanday kasb egasi bo'lislardan qat'i nazar ishlab chiqarishning barcha sohalarida, albatta, o'zbek tilidagi hujjatlarga duch keladilar. «O'zbekiston Respublikasining davlat tili haqida»gi Qonunning 19-moddasida: «Muassasalar, tashkilotlar va jamoat birlashmalari muhrani, tamg'alarini, ish qog'ozlarining matnlari davlat tilida bo'ladi», deb belgilab qo'yilganligini inobatga olsak, bu borada ko'pgina amaliy ishlarni bajarishga to'g'ri keldi.

Bugungi kunda iqtisodiy islohotlarni jadal amalga oshirishda yozma manbalarning, hujjatlarning roli beqiyosdir.

Bobilning miloddan avvalgi 1792-1750-yillardagi shohi Xammurapining adolatpesha qonunlar majmui, undan ham qadimroq shoh Ur-Nammu (miloddan avvalgi 2112-2094-yillarda)ning qonunlari va boshqa manbalarning mavjudligi «hujjatlar» deb ataladigan tartibot vositalarining nechog'li olis va murakkab tarixga ega ekanligini ko'rsatadi. Albatta, kishilik jamiyatining taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy tuzumlarning almashina borishi, aniqrog'i, kishilar o'rtaсидаги ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy munosabatlarning shakllanishi barobarida hujjatlar ham takomillashib borgan. Bugungi kunda fanga tariximizning turli davrlarida o'rxun-enasoy, so'g'd, eski uyg'ur, arab va boshqa yozuvlarda bitilgan juda ko'plab hujjatlar, umuman yozma manbalar ma'lum.

Sharqda X-XIX asrlarda yorliq, farmon, noma, bitimlar, arznama, qarznomalar, vasiqa, tilxat yoki mazmunan shunga yaqin hujjatlar nisbatan keng tarqalgan. Yorliqlar mazmunan xilma-xil bo'lgan: xabar, tavsif, farmoyish, bildirish, tasdiqlash

va h.k. Bu o'rinda To'xtamishxonning 1393-yilda polyak qiroli Yag'aylaga yo'llagan yorlig'i, Temur Qutlug'ning 1397-yildagi yorlig'i, Zahiriddin Boburning otasi Umarshayx Mirzoning marg'ilonlik Mir Sayid Ahmad ismli shaxsga 1469-yilda bergen yorlig'i, Toshkent hokimi Yunusxojaning 1779-yil 2-iyunda Peterburgga - Rossiya podshosiga o'z elchilar orqali yuborgan yorlig'i va boshqalarni eslab o'tish mumkin.

O'rtal Osiyo hududidan topilgan qadimgi madaniy obidalar, turli moddiy jismlarga bitilgan ma'lumotnomalar ajodolarimizning qadimdan o'ziga xos hujjatchilik an'analariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi. O'rtal asrlarda ish yuritish huquqiy maqomga ega bo'ldi, davlat mahkamalasida munshaot tizimi shakllandi va qator hujjat turlari paydo bo'ldi.

O'zbek tilining rasmiy idoraviy til sifatida qo'llanishi qoraxoniylar hukmronligi davrida boshlandi. XX asrdan so'ng o'zbek xonlari va amirlari saroylarida yozilgan turli xil hujjatlar o'ziga xos mazmuni, muayyan tartibi va nutqiyl qolipi bilan ajralib turadi. Sho'ro hukmronligi davrida o'zbek va rus tillarida ish yuritish huquqi qonunlashtrilgan bo'lsa-da, amalda o'zbek tilining ijtimoiy mavqeい past edi. Ma'lumki, tariximizda saroy va umuman yirik mahkamalarda yozuv ishlarini olib boruvchilar "munshiy" (arabcha) deyilgan.

**Hujjat** – rasmiy uslubda yozilgan, imzolangan, kelishuv va rozilik belgilari olingan, davlat standart talablariiga javob beradigan qog'ozlardir. Hujjat matni aniqlik, ixchamlik, lo'ndalik, mazmuniy to'liqlik kabi talablarga javob berishi kerak. Hujjatlar matniga qo'yiladigan eng muhim talablardan yana biri – xolislik. Bu talablarga javob bermaydigan hujjat chinakam hujjat bo'la olmaydi, bunday hujjat ish yuritish jarayoniga xalaqt beradi, uning samaradorligini keskin pasaytiradi.

Hujjatchilik tilining o'ziga xos uslubi, mazmuniy to'liqlikdan iborat zaruriy sifatlar, o'ziga xos so'z qo'llash, morfologik va sintaktik xususiyatlar orqali ta'min etiladi. Hujjatlar o'ziga xos uslubga ega. Hujjatda ot va fe'lga tegishli so'zlar ko'proq qo'llaniladi. Sintaktik xususiyatidan kelib chiqib asosan, darak va buyruq gaplar ishlataladi. Hujjatlar tilida turg'unlashgan, qoliplashgan so'z birikmalaridan ko'proq foydalanimadi. Masalan, buyruqda quyidagicha qoliplashgan tuzilmalar qo'llanishi mumkin:

- 1) "... so'm maosh bilan ... lavozimiga tayinlansin";
- 2) "... o'z xohishiga ko'ra ... lavozimidan bo'shatilsin";
- 3) "... boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ... lavozimidan bo'shatilsin";
- 4) "... ga ... dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin";
- 5) "... ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin" va h.k.


Yoki xizmat yozishmalarida mana bunday qoliplashgan so'zlardan foydalanish mumkin:

- 1) "Sizga ... ni ma'lum qilamiz"; "Sizga ... ni bildiramiz"; "Sizga ... ni eslatamiz";
- 2) "... yordam tariqasida ...", "... munosabat bilan ...", "... qaroriga muvofiq ravishda ..."
- 3) "... ga zavod ma'muriyati qarshi emas"; "... ga zavod kafolat beradi" va h.k.

O'zbek tilidagi hujatchilik takomillasha borgani sari, bunday qoliplashgan binkmalar ham ko'payib, mukammalashib boradi. Buning natijasida hujjatlarni tuzish va nesmiylashtirish ishi ham bir qadar yengillashadi. Ana shu qoliplashgan birkmalarning ishtirokiga ko'ra, hujatchilar "hujjatlar yozilmaydi, balki tuziladi" deyidilar.

**1-topshiriq.** "Hujjatlar tarixi" mavzusida matn tuzing. Ish yuritish terminlarining lug'atini tuzing.

**«Hujjat turlari» nomli klaster tuzing.**



**2-topshiriq.** Quyidagi buyruqda qo'llanadigan qoliplashgan tuzilmalarga e'tibor bering. Ulardan foydalanib, turli buyruq matni tuzing.

- 1) "... so'm maosh bilan ... lavozimiga tayinlansin";
- 2) "... o'z xohishiga ko'ra ... lavozimidan bo'shatilsin";
- 3) "... boshqa ishga o'tganligi munosabati bilan ... lavozimidan bo'shatilsin";
- 4) "... ga ... dagi faol va samarali ishtiroki uchun tashakkur e'lon qilinsin";
- 5) "... ga o'z bo'limida intizomni bo'shashtirib yuborganligi uchun hayfsan e'lon qilinsin".

**3-topshiriq.** Xizmat yozishmalarida qo'llanadigan quyidagi qoliplashgan so'zlardan foydalanib, hujjat matnlari tuzing.

- 1) "Sizga ... ni ma'lum qilamiz"; "Sizga ... ni bildiramiz"; "Sizga ... ni eslatamiz";
- 2) "... yordam tariqasida ..."; "... munosabat bilan...", "... qaroriga muvofiq ravishda..."
- 3) "... ga zavod ma'muriyati qarshi emas"; "... ga zavod kafolat beradi".

**4-topshiriq.** Nuqtalar o'rniiga kerakli fe'llarni qo'yib ko'chiring.

1. Kecha Lola va Aziz aeroportga .....
2. Nigora bilan o'qituvchimiz sport klubiga .....va yo'l-yo'lakay do'konga ham.....
3. Buvam bilan buvim har doim xiyobonda sayr.....
4. Yozda talabalar dam olish uchun toqqa .....
5. Ertaga talabalar o'z ustozlarini tabriklagani .....
6. Biz bugun ertalabdan beri ....., lekin bir qarorga kelganimiz yo'q.

**5-topshiriq.** Elektron hujjat aylanish tizimidan 10 ta ma'lumot to'plang va ularni izohlang.

### Mustahkamlash uchun savollar

1. Ish yuritish hujjatlarining qanday ahamiyati bor?
2. Hujjatlar tarixi haqida nimalarni bilasiz?
3. O'zbekiston Respublikasining «Davlat tili haqida»gi qonuni 8-14-moddalarini o'qib o'rganing.
4. Normativ (me'yoriy) hujjat tushunchasi.
5. Hujjat aylanishi qanday amalga oshiriladi?
6. Elektron hujjatlar haqida nimalarni bilasiz?

### 38-MAVZU.HUJJAT TURLARI VA XUSUSIYATLARI

#### Reja:

- Hujjatlarning tasniflanishi.
- Hujjat rekvizitlari.
- Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.
- Ish yuritish hujjatlarning ro'yxatini tuzish. Ularni klaster shaklida tasniflash.

#### *Hujjatlarning tasniflanishi. Hujjat rekvizitlari. Hujjat tayyorlashning asosiy qoidalari.*

Hujjatshunoslikda hujjatlar bir necha jihatlarga ko'ra tasnif qilinadi. Tasnifnomada mutlaqo bir xil guruhlantirish mavjud bo'lmasa-da, har qalay ularni bir qadar yagonalashgan holda guruhlantirish mumkin. Hujjatshunoslikdagi ana shu an'anaga ko'ra ish yuritishdagi hujjatlar quyidagicha tasniflanadi:

1. Tuzilish o'miga ko'ra ichki va tashqi hujjatlar farqlanadi:

*Ichki hujjat* – muassasa yoki korxonani o'zida tuziladigan va shu korxona ichida foydalilanidigan hujjatlardir. Bularga xodimning shaxsiy varaqasi, majlis bayonnomasi, ichki buyruq va boshqalar kiradi.

*Tashqi hujjat* – korxonaga, boshqa tashkilot va ayrim shaxslardan keladigan hujjatlardir. Bularga taklifnomalar, ishonchnoma, yo'rqnoma, kafolat xati, tavsiyanoma va boshqalarkiradi.

2. Mazmuniga ko'ra sodda va murakkab hujjatlar farqlanadi:

*Sodda hujjat* – bir masalani o'z ichiga oladigan hujjatdir. Bularga ariza, e'lon, tilxat, kafolat xati va boshqalar kiradi.

*Murakkab hujjat* – bir necha masalani o'z ichiga olgan hujjatdir. Bularga shartnomalar ma'lumotnomalar, rejalashtirilgan hisobot hujjatlari va boshqalar kiradi.

3. Mazmun bayonining shakli jihatidan xususiy, namunaviy, qoliplihujjatlar farqlanadi.

*Xususiy hujjatlar* – tashkilotlarda matnning o'ziga xosligi, betakrorligi, mazmun bayoni erkin bo'ladigan hujjatlardir. Bularga xizmat, sorov, iltimos, javob, kafolat, axborot xatlariga boshqalarkiradi.

*Namunaviy hujjatlar* – boshqaruvning muayyan bir vaziyatlari bilan bog'liq, bir-biriga o'xshash va ko'p takrorlanadigan masalalar yuzasidan tuzilgan matnlarni o'z

ichiga oladigan hujjatlardir. Bularga *tavsiyanoma*, *ariza*, *e'lon*, *taklifnomma* va boshqalar kiradi.


**Qolipli hujjatlar** – odatda, oldindan tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladigan hujjatlardir. Butur hujjatlarga nisbatan ko'pincha «yozmoq» emas, balki «to'ldirmoq» so'zi ishlataladi. Bularga *ish haqi yoki yashash joyi haqidagi na'lumotnomalar*, *mehnatga layoqatsizlik varaqasi*, *ayrim dalolatnomalar*, *xizmat safari guvohnomalar* va boshqalar kiradi.

4. Tegishlilik jihatiga ko'ra xizmat (rasmiy) va shaxsiy hujjatlar farqlanadi:

**Xizmat (rasmiy) hujjatlari** – tayyorlanishiga ko'ra tashkilot yoki mansabdon shaxslarga tegishli hujjatlardir. Bularga *ishga qabul qilish buyruqlari* va boshqalar kiradi.

**Shaxsiy hujjat** – yakka shaxs tomonidan yoziladigan, ularning xizmat faoliyatlaridan tashqaridagi yoki jamoat ishlarini bajarish bilan bog'liq masalalarga tegishli bo'ladigan hujjatlardir. Bularga *shaxsiy ariza*, *shikoyat* va boshqalar kiradi.

Hujjatlarning tayyorlanish xususiyati va darajasi ham benihoya katta. Bu jihatiga ko'ra hujjatlar quyidagicha tavsiflanadi:



**Asl nusxa** – asli birinchi rasmiy nusxasidir.

**Nusxa** – asl nusxaning aynan qayta ko'chirilgan shakli, uning o'ng tomonidagi yuqori burchagiga «Nusxa» degan belgi qo'yiladi.

**Ikkinchchi nusxa** – asl nusxa yo'qolgan hollarda hujjatning ikkinchi nusxasi (dublikati) beriladi va u asl nusxa bilan teng huquqlidir.

**Ko'chirma nusxa** – ba'zan muayyan hujjatga emas, uning bir qismiga ehtiyoj tug'iladi, bunda ko'chirma olinadi. Nusxa va ko'chirmalar notarius, kadrlar bo'limi va shu kabilar tomonidan tasdiqlangach huquqiy kuchga ega bo'ladi.

**Erkin nusxa** – hujjatda axborot to'la ifodalansa-da, u asliga muvofiq kelmaydi. Erkin nusxada muhr o'miga "muhr" deb, imzo o'miga "imzo" deb, gerb o'miga «gerb» deb yozib qo'yiladi.

Aksar hujjatlar dastlab qoralama nusxada tayyorlanadi, bu hujjat tayyorlovchining qo'lyozma yoki mashinalangan dastlabki nusxasidir. Bu nusxa tuzatilib, qayta ko'chirilishi mumkin. Qoralama hujjat huquqiy kuchga ega emas.

Hujjat qat'iy belgilangan rekvizitlar tarkibiga ega bo'lishi, ularning joylashish va rasmiylashtirish tartiblari 6,38-90 GOST ga muvofiq kelishi kerak. Hujjatlarni

tayyorlash borasida bugungi kunda shakllangan umumiyl qoidalarga ko'ra, boshqaruv hujjatlari zaruriy qismlar (rekvizitlar)ning belgilangan majmuiga va ulaming barqarorlashgan joylashish tartibiga ega. Tashkiliy-farmoyish hujjatlari zaruny qismlarining to'liq, ro'yxati quyidagicha:

1. O'zbekiston Respublikasining gerbi.
2. Tashkilot yoki korxonaning ramziy belgisi (emblemasi).
3. Mukofot tasviri.
4. Vazirlik yoki yukori idoranining nomi.
5. Muassasa, tashkilot yoki korxonaning nomi.
6. Tarkibiy tarmoqning nomi.
7. Aloqa muassasasining shartli raqami (indeksi), tashkilot yoki korxona manzili, telefon raqami, faks raqami, bankdagi hisob-kitob raqami.
8. Matn sarlavhasi.
9. Sana.
10. Shartli raqam.
11. Keladigan hujjatlarning sanasi va shartli raqamiga havola.
12. Tuzilgan yoki nashr qilingan joyi.
13. Hujjatni oluvchi (adresat).
14. Tasdiqlash ustxati.
15. Munosabat belgisi (rezolyutsiya).
16. Hujjat turning nomi.
17. Nazorat haqidagi qayd.
18. Matn.
19. Ilova mavjudligi haqidagi qayd.
20. Imzo.
21. Kelishuv ustxati.
22. Rozilik belgisi (viza).
23. Muhr.
24. Nusxaning tasdiqlanishi haqidagi qayd.
25. Ijrochining familiyasi va telefon raqami.
26. Hujjatning bajarilganligi va uni hujjatlar yig'majildiga yo'naltirilganligi haqidagi qayd.
27. Axborot mashinaga ko'chirilganligi haqidagi qayd.
28. Hujjat kelib tushganligi haqidagi qayd.

Albatta, hujjatning har bir turi mazkur zaruriy qismlarning barchasini o'z ichiga olmaydi. Hujjatning muayyan turiga muvofiq ravishda bu qismlarning ayrim bir turkumi huquqiy talablarni ta'minlash darajasida qo'llanadi. Shu narsa ham muhimki, ayni qismlarning hujjatda joylashishida qat'iy tartib mavjud, ular joylashishidagi qat'iy ketma-ketlik hujjatning huquqiy kuchini ta'minlash, hujjatni zudlik bilan ishslash, bajarish, undan osonlik bilan foydalanish uchun muhimdir.

Mazkur 29 ta zaruriy qismning o'ntasi nisbatan ko'p qo'llanadi, shuning uchun ular asosiy zaruriy qismlar deb ham yuritiladi: hujjat muallifi (muassasa nomi yoki shaxsiy hujjatda imzo quyuvchi shaxs), hujjat turining nomi, sarlavha, hujjatni oluvchi (adresat), kelishuv va rozilik belgilari, matn, tasdiqlash, imzo, muhr, ilova mavjudligi haqidagi qayd.

**1-topshiriq.** Ish yuritish hujjatlarning ro'yxatini tuzing. Ulami klaster shaklida tasniflang.  
**2-topshiriq.** Quyidagi birikmalar ishtirokida gaplar tuzing, ulami rus tiliga tarjima qiling.

Aytish lozim, chora topish, gapirish mumkin, tushuntirish uchun, maslahatlashish uchun, bajarish kerak, qolish mumkin emas, a'lo bahoga o'qish uchun, kelishim zarur, olishing mumkin emas.

**3-topshiriq.** Quyidagi qoidalar hujjatning tayyorlanish xususiyati va foydalanish darajasiga ko'ra qaysi turiga oidligini aniqlang va qoida raqamini jadvaldagi namuna kabi o'z o'miga qo'ying.

1. Hujjatda axborot to'la ifodalansa-da, u asliga muvofiq kelmaydi. Bu hujjat turida muhr o'miga "muhr" deb, imzo o'miga "imzo" deb, gerb o'miga «gerb» deb yozib qo'yiladi.

2. Ba'zan muayyan hujjatga emas, uning bir qismiga ehtiyoj tug'iladi va u notarius, kadrlar bo'limi va shu kabilar tomonidan tasdiqlangach huquqiy kuchga ega bo'ladi.

3. Aynan qayta ko'chirilgan shakli, uning o'ng tomonidagi yuqori burchagiga belgi qo'yiladi.

4. Asli birinchi rasmiy nusxasidir.

5. Asl nusxa yo'qolgan hollarda kerak boladi va u asl nusxa bilan teng huquqlidir.

<i>Asl nusxa hujjatlar</i>	<b>4</b>
<i>Nusxa hujjatlar</i>	
<i>Ikkinci nusxa hujjatlar(dublikat)</i>	
<i>Ko'chirma nusxa hujjatlar</i>	
<i>Erkin nusxa hujjatlar</i>	

**4-topshiriq.** Ushbu o'zbek xalq maqollarini yod oling, ularning rus tilidagi muqobilini toping.

*Do'st – do'sting tayanchi.*

*Hamarding bo'lsa – darding yarimta.*

*Do'st bilan uying obod bo'ladi,*

*Do'stsiz uying barbod bo'ladi.*

*Mingta yolg'on do'stdan bittagina xaqiqiy do'st yaxshi.*

**5-topshiriq.** Ketayotgan, maslahat (yordam, ruxsat) olayotgan, ishlayotgan, yozayotgan so'zlaridan foydalanib, biror shaxsni hamda dumalab yotgan, turgan, ochilib qolgan, sifatdoshlari yordamida biron predmetlarni tavsiflab yozing.

**6-topshiriq.** Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Я видел предпринимателей, уезжающих заграницу.
2. Студентка, которая занимается в читальном зале, завтра будет делать научный доклад.
3. Здесь собирались банкиры, управляющие банками Узбекистана.
4. Мой друг,

хорошо знающий узбекский язык, помог мне перевести этот текст. 5. Принципа преподавательница, принимающая вступительные экзамены. 6. Поющая на сцене песню красивая девушка - моя сестра.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Ichki va tashqi hujjatlarning farqi nimada?
2. Sodda va murakkab hujjatlar qanday farqlanadi?
3. Xususiy hujjatlar haqida nima bilasiz?
4. Namunaviy hujjatlar qanday bo'ladi?
5. Qolipli hujjatlar haqida fikringiz qanday?
6. Qoralama, asl nusxa, ikkinchi nusxa (dublikat) va ko'chirma hujjatlarning farqi nimada?

### 39-MAVZU.TASHKILY HUJJATLAR VA ULARNING TURLARI

#### Reja:

- Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo'rqnoma.
- Mehnat shartnomasi matnini tuzish. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlamni ajratib yozish. Oliy ta'lim muassasasi Nizomining tuzilishini yozish.

*Tashkiliy hujjatlarning vazifasi. Tashkiliy hujjatlarning turlari. Tashkiliy hujjatlarning leksik va stilistik xususiyatlari. Shartnoma. Mehnat shartnomasi. Nizom. Yo'rqnoma.*

Ma'muriy-boshqaruv faoliyatida xizmat mavqeyiga ko'ra hujjatlar hozirgi kunda asosan, quyidagicha tasniflanadi:

1. Tashkiliy hujjatlar
2. Farmoyish hujjatlar
3. Xizmat bilan bog'liq hujjatlar

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtiroking qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalami aks ettiradi. *Guvohnoma, yo'rqnoma, nizom, qoida, ustav, shartnomalar* ana shunday hujjatlar turiga kiradi.

Ikki yoki undan ortiq tomonning fuqarolik huquqlari va majburiyatlarini belgilash, o'zgartirish yoki to'xtatish yo'lidagi kelishuv shartnoma hisoblanadi. Boshqacha qilib aytganda, shartnoma tomonlarning biron bir munosabatlar o'matish haqidagi kelishuvini qayd etuvchi va bu munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatdir. Shartnoma fuqarolik huquqiy bitimlarning turlaridan biri hisoblanadi. Uning farq qiluvchi xususiyati shundaki, u ikki yoki ko'p tomonlama bitimdan iborat bo'ladi.

Shartnoma davlat, kooperativ va jamoat tashkilotlari, korxonalar, muassasalar, shuningdek, fuqarolar o'rtasida tuzilishi mumkin. Shartnoma munosabatlari muassasa bilan ayrim shaxs yoki shaxslar o'rtasida o'rnatilayotgan bo'lsa, bunda tuzilajak hujjat mehnat bitimi deb ataladi.

Shartnomalar o'z mazmuniga ko'ra juda xilma xil ko'rinishga ega:

Shartnomalar yozma, og'zaki ko'rinishda bo'lib, notarial idoralar tomonidan tasdiqlanishi lozim.

Shartnomalar korxonalarga tegishli bo'lganida tomonlar imzolagunga qadar korxona hisobchisi yoki adliya maslahatchilarining rozilik belgisi bo'lishi lozim. Shundan so'ng tomonlar shartnomaga imzo qo'yadi. Shartnomalar 2 nusxadan kam tuzilmasligi lozim.

Pul mablag'lari va moddiy-tovar boyliklarini saqlash uchun mas'ul bo'lgan shaxslar bilan to'liq shaxsiy moddiy javobgarlik haqida yozma shartnoma tuziladi.

Oddiy xo'jalik shartnomalarining zaruriy qismlari quyidagilar:

1. Shartnoma nomi.
2. Shartnoma tuzilgan sana.
3. Shartnomaning tuzilgan joyi.
4. Shartnoma tuzayotgan tomonlarning aniq va to'liq nomi.
5. Shartnomaning matni.
6. Tomonlarning huquqiy adreslari.
7. Tomonlarning imzo va muhurlari.

Shartnomalar ularni tuzishga vakil qilingan shaxslar tomonidan imzolanadi: bunda "imzo" degan zaruriy qismda imzo qo'yuvchilarning lavozimlari emas, balki shartnomaviy munosabatlar o'natajotgan huquqiy shaxslarning nomi ko'rsatiladi.

Shartnomalar ikki nusxadan kam tuzilmasligi lozim, chunki har bir huquqiy shaxs hujjatlardan yig'majildida kamida bir nusxasi bo'lishi lozim. Shartnomaning barcha turlari bir xil huquqiy kuchga ega bo'ladi.

Shartnoma matni varaqning har ikkala tomoniga kompyuterda bir oraliq bilan yoziladi, boblarning bandlari esa o'zarlo bir yarim oraliq bilan yoziladi. "Shartnoma" so'zini katta harflar bilan orasini ochiq qilib yozish tavsiya etiladi.

Shartnoma va kontraktlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra nihoyatda xilma-xil bo'lib, ular quyidagilardan iborat:

1. Yetkazib berish shartnomasi. Reja topshiriqlariga muvofiq moddiy boyliklar va imkoniyatlarga ega bo'lishi uchun yetkazib beruvchi korxona iste'molchi korxonaga mahsulot yetkazib berish bo'yicha o'zarlo munosabatlar o'matadilar. Bu munosabatlar mamlakat xo'jalik hayotida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan yetkazib berish shartnomasi orqali rasmiylashtiriladi.

Mahsulot yetkazib berish shartnomasi ikki tomonning kelishuvi bo'lib, unga ko'ra yetkazib beruvchi korxona muayyan mahsulotni belgilangan muddatlarda iste'molchi tashkilotga mol-mulk sifatida yoki amaliy boshqarish uchun yetkazib berish majburiyatini oladi; iste'molchi tashkilot esa mahsulotni qabul qilib olish va uning qiymatini belgilangan narxlar bo'yicha to'lash majburiyatini oladi.

Yetkazib beruvchi korxona va iste'molchi tashkilot xo'jalik shartnomalarini tuzishda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan «Ishlab chiqarish - texnika mahsulotlarini etkazib berish haqidagi Nizom»ga va «Xalq iste'moli tovarlarini etkazib berish haqidagi nizom»ga amal qilishlari kerak.

Barcha yetkazib berish shartnomalariga yetkazib beruvchi va iste'molchi korxonalarining mas'ul xodimlari (moddiy texnika ta'minoti va sotish bo'limlarining xodimlari, bosh yoki katta hisobchilar, adliya maslahatchilar) oldindan ruxsat

belgilarnini qo'yishi kerak. Shartnomalar tegishli ravishda rasmiylashtirilgandan keyin maxsus daftarda ro'yxatga olinadi. Bu shartnomalar loyihasi yetkazib beruvchi korxonalar tomonidan ikki nusxada tuziladi, imzolanadi va kelishishi hamda imzolash uchun iste'molchi korxonaga yuboriladi. Iste'molchi korxona shartnomalar loyihasini olgach, bir kun ichida imzolash va uning bir nusxasini yetkazib beruvchi tashkilotga qaytarishi kerak.

Bu shartnomalar tomonlarning undagi har bir bob, har bir bandi bo'yicha to'la kelishilganidan keyin tuzilgan deb hisoblanadi.

2. Ijara shartnomasi. Omborxonalar va turar joylar asbob uskunalar va boshqalarni ijara olishda bir tomoniga qarashli mol-mulkdan ikkinchi tomonning vaktincha foydalanishi yuzasidan kelishuv va o'zaro majburiyatlar ijara shartnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

Ijara shartnomalari ikki korxona, tashkilot o'rtaida, shuningdek, korxona, tashkilot bir tomon va huquqiy shaxs ikkinchi tomon bo'lib ham tuzilishi mumkin.

Ijara shartnomasi mazmuniga quyidagi zaruriy qismlar kiradi:

1. Shartnomalar mazmuni va ijara olinayotgan mol-mulkning tavsifi.
2. Ijara muddati.
3. Ijara muddatlarini.
4. Ijara va hisob-kitob tarkibi.

Bularidan tashqari, shartnomalar uchun xos bo'lgan zaruriy qismlar (tomonlarning adreslari, imzo, muhrlari, qoshimcha shartlar) aks ettiriladi.

3. To'liq moddiy javobgarlik haqida shartnomalar. Pul mablag'lari va moddiy - tovar boyliklarini saqlash uchun ma'sul bo'lgan shaxslar bilan to'liq shaxsiy moddiy javobgarlik haqida yozma shartnomalar tuziladi. To'liq moddiy javobgarlik haqidagi yozma shartnomalar korxona bilan 18 yoshga to'lgan va bevosita moddiy boyliklarni saqlash, qabul qilish va tarqatish, tashish bilan bog'liq ishlarni bajaruvchi yoki shunday lavozimni egallab turgan shaxslar o'rtaida tuziladi. Bu shartnomaga ko'ra, moddiy javobgar shaxs o'zi qabul qilib olgan moddiy boyliklar uchun to'liq moddiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi va ularni qabul qilish, saqlash, tarqatish va hisobga o'tkazish yuzasidan belgilangan qoidalarga rivoja qilish majburiyatini oladi. Korxona esa moddiy javobgar shaxslarga unga ishonib topshirilgan qimmatbaho buyumlarning saqlanishini ta'minlovchi qulay sharoitlar yaratib berishni zimmasiga oladi.

4. Mehnat shartnomasi. Mehnat shartnomasi - mehnatkashlar bilan korxona muassasa, tashkilot, firma hamda xususiy tadbirdorlar o'rtaida tuziladigan bitim. Bunga ko'ra, mehnatkashlar muayyan ixtisos, malaka yoki lavozimiga oid ichki mehnat tartibiga buysungan holda bajarishni o'z zimmasiga oladilar. Korxona, firma esa mehnat qonunlarida, jamaa shartnomasida va tariflarning o'zaro bitimida ko'zda tutilgan ish haqini mehnatkashlarga to'lab turadi va mehnat sharoitini ta'minlab berish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Xususiy tadbirdorlik bilan shug'ullanayotgan fuqarolar bilan ham mehnat shartnomasi tuzilishi mumkin.

Mehnat shartnomasi fuqarolik huquqiy shartnomalaridan (ijara, jamaa pudrat, oilaviy pudrat, shaxsiy pudrat, mualliflik shartnomasi mehnatning natijasiga qarab haq to'lashdan) farq qiladi.

Davlatimiz har bir fuqaro mehnatiga uning miqdori va sifatiga belgilangan minimumdan past bo'lmasan mehnatga qarab haq to'lashni ta'minlab beradi.

va

Mehnat shartnomasining qo'shimcha shartlari korxona muassasa, tashkilot, fermaning imkoniyatiga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Jumladan qo'shimcha shartlar xodimga yotoqxonadan joy berilishi, ishga transport bilan qatnash to'g'risida, bolalarni maktabgacha bolalar muassasasiga joylashtirish, ishga qabul qilish vaqtida dastlabki sinov belgilash, yangi kasbga o'rgatish xodimga boshqa biror ishda ishlashga ruxsat berish va hokazolar bo'lishi mumkin. Mehnat shartnomasining qo'shimcha shartlari qonunlarga xilof bo'lmasligi lozim. Mehnat shartnomasi og'zaki yoki yozma shaklda tuzilishi mumkin. U odatda fuqarolar va ma'muriyat o'tasida og'zaki kelishuv tarzida tuziladi.

Mehnat bitimi shartnomaga turlaridan biri bo'lib, u orqali muassasalar bilan ularning hisobida turmaydigan xodim(lar) o'tasidagi o'zaro munosabatlar rasmiylashtiriladi. Xodim (ishchi) aniq bir ishni bajarishni zimmasiga oladi, muassasa esa ish haqini to'lash va shu ishni bajarish uchun sharoit yaratib berish majburiyatini oladi.

Ayrim hollarda korxona hisobida turuvchi xodimlar bilan ham mehnat bitimi tuziladi. Bunda xodimlar bevosita o'z asosiy vazifalarini doirasiga kirmaydigan ishni bajarish majburiyatini oladilar (ma'ruba o'qish, faroshlik). Mehnat bitimi asosida haq to'lash korxonaning hisobdan tashqari (shtatsiz) xodimlar uchun tasdiqlangan ish haqi fondi hisobiga amalga oshiriladi.

Mehnat bitimi ikki nusxada tuziladi. Bir nusxasi bajaruvchi(lar)ga beriladi, ikkinchisi esa hisob bo'limi yoki boshka tarkibiy bo'linma hujjatlar yig'masida saqlanadi.

Tashkiliy hujjatlar mazmunan tashkilot, muassasa va korxonalarning huquqiy maqomi, tarkibiy tarmoqlari va xodimlari, boshqaruv jarayonida jamoa ishtirokining qayd qilinishi, boshqa tashkilotlar bilan aloqalarning huquqiy tomonlari kabi masalalami aks ettiradi.

Guvohnoma muayyan shaxsning xizmat va boshqa holatlarini, shuningdek, biror ishga oid vakolatini ko'rsatuvchi hujjatdir. Uning ikki turi bor : lavozimi ko'rsatilgan guvohnoma va xizmat safari guvohnomasi.

**Yo'riqnom** qonun yoki boshqa me'yoriy hujjatlarni tushuntirish maqsadida chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Korxona, tashkilot, muassasaning tashkiliy, ilmiy-teknikaviy, moliyaviy va boshqa faoliyat tomonlari xususida tartib-qoida o'rnatish maqsadida davlat yoki jamoa boshqaruv organlari tomonidan chiqariladi, ularning rahbarlari tomonidan tasdiqlanadi.

**Nizom-ustav** tashkilot yoki uning tarkibiy bo'linmalari, kichik yoki qo'shma korxona va shu kabilar tuzilishi, huquqi, vazifalari, burchlari, ishni tashkil qilishlari tartibini belgilaydigan huquqiy hujjatdir. Nizom turli tadbirlarga nisbatan ham tuzilishi mumkin. Nizom muassasalar tashkil topishi paytida tuziladi va yuqori tashkilotlar farmoyishi bilan (yoki tegishli hokimiyat tomonidan) tasdiqlanadi.

Muvaqqat komissiyalar, guruhlar va shu kabilarning huquqiy maqomlari ham nizom bilan belgilanadi.

Ustav muayyan munosabat doirasidagi faoliyat yoki biror davlat organi, tashkilot, muassasaning tuzilishi, vazifasini yo'naltirib turadigan asosiy nizom va qoidalar majmuidir. Ustav biror organ yoki muassasa vazifalari va huquqiy holatini tavsiyaydigan me'yoriy ahamiyatga ega Binobarin, ustav nizomga nisbatan keng

tushunchadir. U ko'proq ma'lum bir tarmoq, sohalar, yirik muassasalar bo'yicha tuziladi. Chunonchi, davlat nashriyotlari bo'yicha namunaviy ustav qabul qilingan, shu asosda har bir nashriyot o'z nizomini qabul qiladi. Ustavning zaruriy qismi o'xshash bo'ladi. Lekin ustavning mazmun qismida moliyaviy va moddiy bazalari, hisobot berish, taftish organlari hisoboti va shu kabilar ko'rsatiladi. Tarmoq (soha)ning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, uning ustavida qo'shimcha qismlar ham bo'lishi mumkin.

**1-Topshiriq.** Mehnat shartnomasi matnni tuzing. Mehnat shartnomasidagi tayanch so'zlarни ajratib yozing.

**2-Topshiriq.** Oliy ta'lif muassasasi Nizomining tuzilishini yozing.

**3-Topshiriq.** Nazary ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. Shartnoma turlari bilan tanishib, ularning biridan namuna tayyorlang.

**4-topshiriq.** Quyidagi so'zlardan foydalanan gaplar tuzing.

O'ynab, so'zlay, uxlamay, to'ldirib, kuldirib, ko'rsatib, yura-yura, ko'ra-ko'ra, ishlay-ishlay, ishlab, gapirib, sanab, bajara, kurashib, o'qiy, o'qib, boshlamay, aytib.

**5-topshiriq.** «Talabalar olimpiadasida» mavzusida suhbat tuzing, unda imkonim boricha ravishdoshlarni ko'proq qo'llang.

**6-topshiriq.** Namunaga qarab savollarga javob bering.

Namuna : – Malika vazifani qanday bajardi?

– U bu vazifani vijdonan bajardi.

Akang qanday so'zlaydi?

Bolalar yozuvchini qanday kutib oldilar?

Bu matnni siz qanday o'qidingiz?

Ular futbolni qanday o'ynayaptilar?

Siz o'zbek estradasi yulduzlarini qo'shiqlarini qanday tinglaysiz?

Siz pulni qanday ishlatasiz?

Siz qaysi ishni qanday qilasiz?

### Mustahkamlash uchun savollar

1. Shartnoma nima?
2. Yetkazib berish shartnomasi nima va u qanday rasmiylashtiriladi?
3. Ijara shartnomasi haqida nima bilasiz?
4. To'liq moddiy javobgarlik haqida shartnoma qanday tuziladi?
5. Mehnat shartnomasi qanday rasmiylashtiriladi?
6. Mehnat bitimi nima?
7. «Ish yuritish» kitobidan shartnoma turlari haqidagi materiallar bilan tanishing. O'zingiz shartnoma turlaridan birini tanlab olib, namuna tayyorlang.

## 40-MAVZU.FARMOYISH HUJJATLARI VA ULARNING TURLARI

### Reja:

- Farmoyish hujjatlarining vazifasi. Farmoyish hujjatlarining turlari. Buyruq. Farmoyish, Ko'rsatma. Farmoyish hujjatlarining leksikasi va stilistik xususiyatlari.
- Oliy ta'lif muassasasi buyruqining matnini tayyorlash.
- Farmoyish hujjatlarida qo'llanadigan tayanch so'zлами yozish.

*Farmoyish hujjatlarning vazifasi. Farmoyish hujjatlarning turlari. Buyruq, Farmoyish, Ko'rsatma, Farmoyish hujjatlarining leksik va stilistik xususiyatlari.*

Iqtisodiyotni boshqarishda tashkiliy-farmoyish hujjatlarining ahamiyati kattadir. Har kanday firma yoki korxonani boshqarishda tashkiliy farmoyish hujjatlaridan to'liq foydalanadi.

**Farmoyish hujjatlari** rahbarlar tomonidan chiqariladigan hujjatlardir. Farmoyish hujjatlariga buyruq, farmoyish, ko'rsatma kiradi.

**Buyruq** doimiy ravishda shaxsan rahbar tomonidan tayyorlanadi, ko'rsatma va farmoyishlar rahbar muovinlari tomonidan beriladi.

Buyruqlarning bir qator turlari mavjud bo'lib ularga:

- a) umumi masalalar bo'yicha
- b) shaxsiy tarkib bo'yicha
- v) asosiy faoliyat bo'yicha buyruqlar kiradi.

Buyruqning asosiy qismlari quyidagilardan iborat: Vazirlik, korxona yoki muassasa nomi, buyruqning nomi, sanasi, raqami, buyruq chikkan jooning nomi, sarlavxasi, buyruq matni, rahbar yoki o'rinnbosar imzosi va hokazo. Buyruqning farmoyish qismi yangi satrdan, bosh harflar bilan yoziladigan "BUYURAMAN" so'zi bilan boshlanadi. Buyruqda ishning bajarilish muddati mazmunidan kelib chiqib umumiy tarzda yoki xar bir farmoyishda aniq ko'rsatish mumkin.

Buyruqda adliya maslahatchisi imzosi ham bo'lishi kerak. Adliya maslahatchisi buyruqni ko'rishda quyidagilarga etibor beradi: masalan, buyruq bilan rasmiylashtirish maqsadi qanchalik to'g'ri kelishi; buyruq loyihasining amaldagi qonunlarga, hukumat qarorlariga qanchalik muvofiq kelishi; mazkur idoraning ilgari berilgan buyruqlari bilan ziddiyat yo'qmi yoki ularning qisman takrorlanishi va boshqalar.

Buyruqning asosiy matni asoslovchi va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asoslovchi qismda buyruqdan maqsad, shart-sharoitlar, sabablar ko'rsatiladi, asos qilib olinayotgan buyruqqa havola qilinadi. Ayrim hollarda buyruqqa asos bo'lgan hujjat uning farmoyish qismi tegishli bandida ham ko'rsatiladi.

Ba'zi buyruqlarni asoslashga hojat bo'lmaglii mumkin, bunday hollarda ular to'g'ridan-to'g'ri farmoyish qismi bilan ham berilaveradi.

Farmoyish korxona ma'muriyati hamda bo'limlar rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda farmoyishlarda harakat muddati cheklangan bo'lib uning kuchi bo'limlarning tor doirasiga ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyishning matni xuddi buyruqniki singari zaruriy qismlardan tashkil topadi. Faqat uning kirish qismida "BUYURAMAN" so'zi o'miga "TAVSIYA QILAMAN", "RUXSAT BERAMAN" kabi so'zlar ishlataladi.

Ko'rsatma korxonalarda axborot metodik tusdagi masalalar, shuningdek buyruqlar, yo'riqnomalar va boshqa hujjatlarning ijrosi bilan bog'liq bo'lgan tashkiliy masalalar yuzasidan chiqariladigan huquqiy hujjatdir. Ko'rsatmaga birinchi bo'lib rahbar bosh muhandis ularning o'rinnbosarlari imzo chekish huquqiga ega. Ko'rsatma korxonaning xos ish qog'oziga bosiladi. U ham buyruq kabi, odatda, sarlavha bilan yoziladi, asos va farmoyish qismlaridan tarkib topadi. Asos qismida, falon "maqsadda", falon "buyrujni bajarish uchun" kabi taomilga kirgan iboralar qo'llanadi va "YUKLAYMAN", "TAVSIYA ETAMAN" so'zlari bilan farmoyish qismi boshlanadi. Muayyan xodimga uning xizmat lavozimi vazifalariga kirmaydigan ishlar yuklatilsa "TAVSIYA ETAMAN" so'zi qo'llanadi. Ko'rsatmaning farmoyish qismi buyruqning farmoyish qismiga o'xshash bo'ladi.

**Farmoyish** - muassasa ma'muriyati, shuningdek, bo'limlarning rahbarlari tomonidan amaliy masalalar yuzasidan qabul qilinadigan hujjatdir. Odatda farmoyishlar amal qilish muddati cheklangan bo'lib, bo'limlarning tor doirasiga, ayrim mansabdor shaxslar va fuqarolarga taalluqli bo'ladi. Farmoyish matni xuddi buyruqdagi kabi zaruriy qismlardan tarkib topadi faqat uning asos (kirish) qismida "BUYURAMAN" so'zi o'miga "TAVSIYA ETAMAN", "RUXSAT BERAMAN" kabi iboralar ishlatalidi.

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi. Ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlatalidi. Bu guruhga ariza, bayonnama, bildirishnama, vasiyatnama, dalolatnama, ishonchnoma, ma'lumotnama tavsifnama, tafsianoma, taklifnama, tarjimai hol, tushuntirish xati, e'lon, hisobot kabi hujjatlarni o'z ichiga oladi.

**Dalolatnama**- muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyati bilan bog'liq biron bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqeа, hodisa, ish harakatni yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjatdir. Dalolatnama tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqeа hodisalar yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Dalolatnama deyarli barcha hollarda pul mablag'lari va moddiy boyliklarga bog'liq tuziladi, binobarin, u ko'proq tadbirkorlik, moliya – xo'jalik faoliyatida, hisob- kitob, oldi – sotdi va savdo sohalarida keng qo'llanadi. Dalolatnomalar voqeа – hodisalami haqqoniy aks ettirish maqsadida bir necha shaxslar yoki maxsus vakolatlari yakka shaxs (taftishchi, nazoratchi) tomonidan tuziladi.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1.Idora, muassasa va tarkibiy bo'linma nomi. 2.Tuzilgan sanasi va joyi; 3.Tartib raqami va tasdiq belgisi, 4.Matn sarlavhasi, 5.Hujjat turi nomi (dalolatnama), 6.Hujjat tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar). 7. Komissiya tarkibi (raisi va a'zolar).8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar). 9. Dalolatnama matni. 10. Ilovalar.11. Tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari. 12. Ijro vaqtidagi belgi.

Dalolatnama oddiy bichimdagи varaqda yoki umumiy bosma ish qog'ozida rasmiylashtirilishi mumkin. U oddiy varaqda tuzilganda to'rtburchak muhurni qo'llash maqsadga muvofiqdir. Chunki bir qancha doimiy zaruriy qismlar ana shu muhrda aks etishi mumkin. Dalolatnama tuzilgandan keyin komissiya voqealarga aloqador va

nomi ko'rsatilgan shaxslarni hujatning mazmuni bilan tanishirishi va bu haqda ulardan tasdiq yoki guvohlik imzosini olishi kerak.

Yuqorida aytganimizdek, dalolatnomalar turli xil voqealarni holatlar munosabati bilan tuziladi, binobarin, ularning xillari, mazmuni va shakliy tuzilishi ham bir-biridan o'zaro farqlanadi:

- topshirish - qabul qilish dalolatnomalari;
- moliyaviy – xo'jalik faoliyatini taftish etish dalolatnomasi;
- kassani taftish qilish paytida tuziladigan dalolatnomalar;
- uy-joy sharoitini tekshirish asosida tuziladigan dalolatnomalar.

**1-Topshiriq.** Oliy ta'lim muassasasi buyrug'ining matnini tayyorlang.

**2-Topshiriq.** Farmoyish hujatlarda qo'llaniladigan tayanch so'zlarni yozing.

**3-Topshiriq.** Quyidagi fe'llami majhul nisbatda yozing va rus tiliga tarjima qiling.

Qurmoq, to'kmoq, o'qimoq, o'rgatmoq, tuzmoq, aytmoq, bajarmoq, ulamoq, mukofotlamoq.

**4-Topshiriq.** «Ish yuritish» kitobidan buyruq, buyruqdan ko'chirma, farmoyish va ko'rsatma namunalari bilan tanishing. O'zingiz ishga qabul qilish haqidagi buyruq, farmoyish va ko'rsatma loyihasini tayyorlang.

**5-Topshiriq.** Quyidagi so'zlarni zarur grammatik shakllarga qo'yib, rasmiy uslubga xos gaplar tuzing.

Eshitmoq, qaror qilmoq, ma'lumot bermoq, bo'lim boshliqlari, tavsiya qilmoq, faol ishtirok etmoq, hurmatli, guruh rahbari, tashrif buyurmoq, qonunga binoan, ilova qilmoq, nazorat qilmoq, kasaba uyushmasi, javob yozmoq, navbatchilik qismi, taklif kiritmoq, ruxsat bermoq.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Buyruq qanday tayyorlanadi?
2. Uning asosiy qismlari nimalardan iborat?
3. Buyruqdan ko'chirma qanday rasmiylashtiriladi?
4. Farmoyish nima?
5. Ko'rsatma qanday tayyorlanadi?
6. «Ish yuritish» kitobidan buyruq, buyruqdan ko'chirma, farmoyish va ko'rsatma namunalari bilan tanishing. O'zingiz ishga qabul qilish haqidagi buyruq, farmoyish va ko'rsatma loyihasini tayyorlang.

## 41-MAVZU.MA'LUMOT-AXBOROT HUJJATLARI

**Reja:**

- Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot hujjatlarining turlari. Tarjimayi hol. Bildirgi. Tavsifnomma.
- Tarjimayi hol yozish. Tavsifnomma yozish.

*Ma'lumot-axborot hujjatlarining vazifasi. Ma'lumot-axborot turlari.  
Tarjimayi hol. Bildirgi. Tavsifnomma.*

Ma'lumot-axborot hujjatlari anchayin katta guruhni tashkil qiladi, ular ish yuritish jarayonida ayniqsa ko'p ishlataladi. Bu guruh ariza, bayonnoma, bildirishnomma, vasiyatnomma, tarjimai hol, bildirgi, tavsifnomma...

**Tarjimayi hol** ma'lum bir shaxs tomonidan o'z shaxsiy hayoti va faoliyati haqida bayon qilingan yozuvdir. Tarjimayi hol bir xil andozaga ega emas, mufassal yoki muxtasar yozilishi mumkin. U muallif tomonidan mustaqil tuziladigan hujjatdir. Garchi u erkin (ixtiiyor) tuzilsa-da, biroq tarjimai holda ayrim qismlarning bo'lishi shart.

Trajimai holning asosiy zaruriy qismlari :

1. Hujjatning nomi (Tarjimayi hol).

2. Matn :

a) muallif familiyasi, ismi va otasining ismi ;

b) tug'ilgan yil, kun, oy va tug'ilgan joyi ;

v) millati, ijtimoiy kelib chiqishi ;

g) ota-onasi haqida qisqacha ma'lumot (familiyasi, ismi va otasining ismi, ish joyi);

d) ma'lumoti (qaerda, qanday o'quv yurtini tugatganligi va ma'lumotiga ko'ra mutaxassisligi );

e) ish faoliyatining turlari ;

yo) oxirgi ish joyi va lavozimi ;

j) mukofot va rag'batlanirishlar ;

z) jamoat ishlardida ishtiroki ;

i) oilaviy ahvoli va oila a'zolari ;

y) pasport ma'lumotlari ;

k) turar joyi (uy adresi), telefonи.

3. Sana.

4. Imzo.

Tarjimayi hol oddiy qog'ozga, ayrim hollarda, ya'ni ishga, o'qishga kirishda maxsus bosma ish qog'ozlariga qo'lda yoziladi. Matnni bayon qilish shakli hikoya uslubida bo'lib, birinchi shaxs tilidan yoziladi.

Barcha ma'lumotlar davriylik (xronologiya) asosida, aniq sanalar bilan (iloji boricha yili, oyi, kuni ko'rsatilgan holda) beriladi. Barcha raqamlar arab raqamlarida ifodalanadi. Tarjimai hol shunday tuzilishi kerakki, u bilan tanishgan kishi muallifning hayot yo'li, faoliyati haqida muayyan tasavvurga ega bo'lsin.

**Tavsifnomma** ma'lum bir shaxsning mehnat va ijtimoiy faoliyati, shuningdek, uning o'ziga xos xislat va fazilatlarini aks ettiruvchi rasmiy hujjatdir.

Tavsifnomma muassasa ma'muriyati yoki jamoat tashkilotlari (agar ular mavjud bo'lsa) tomonidan xodimga bir qancha maqsadlar uchun (o'quv yurtiga kirishda,

xoniy mamlakatlarga ishlash va boshqa yumushlar uchun ketishda, lavozimga tayinlashda yoki shahodatlantirish va boshqa hollarda) beriladi.  
Tavsifnomada xodimning jamoatchilik va xizmat faoliyati, uning ishchanligi va sxloqiy sifatlari ham ko'rsatib o'tiladi.

Tavsifnomaning asosiy zaruriy qismlari quyidagilardan iborat:

1. Tavsiflanayotgan shaxs haqida asosiy ma'lumotlar:

- a) ismi, otasining ismi va familiyasi ;
- b) tug'ilgan yili ;
- v) millati ;
- g) partiyaviyligi ;
- d) ma'lumoti ;
- e) lavozimi ;

yo) ilmiy darajasi va unvoni.

2. Hujjat nomi (Tavsifnomasi).

3. Matn.

4. Imzolar.

5. Sana.

6. Muhr.

Tavsifnomasi matnini o'zaro mantiqan bog'langan uch tarkibiy qismiga ajratib ko'rsatish mumkin.

Birinchi qismda shaxsning mehnat faoliyati, ya'nini mutaxassisligi, aynan shu korxona, tashkilot va boshqa joylarda qaysi muddatdan buyon ishlayotganligi, xizmat vazifasidagi o'zgarishlar va boshqalar haqida ma'lumot beriladi.

Ikkinci qismda xodimning shaxsiy tavsifi, ya'nini ishga munosabati, mutaxassislik bo'yicha mahorati, siyosiy saviyasi, tashkilotchilik qobiliyati, jamoat ishlarida ishtiropi, oilaviy ahvoli, xulq-atvori, hatto ba'zida siyrati, jamoa a'zolariga munosabati, qanday mukofotlarga sazovor bo'lganligi va boshqa asosiy rag'batlantirishlari qayd etiladi. Xolis bo'lish uchun kamchiligi ham ko'rsatilib, istak bildiriladi.

Uchinchi qismda esa yuqorida bayon qilinganlardan xulosa chiqariladi va tavsifnomasi qanday maqsadda yoki nima uchun berilayotganligi ko'rsatiladi.

Tavsifnomasi matni uchinchi shaxs tilidan bayon qilinadi. Xodimni tavsiflashda «halol», «topshiriqlarni vaqtida bajaradigan», «mehnatsevar», «talabchan», «tashabbuskor», «tezkor», «printsipial», «kintizomli» kabi sifatlardan foydalilanadi. Agar tavsifnomasi jamoat tashkilotlari yig'ilishida tasdiqlangan bo'lsa shu yig'ilish bayonnomasi raqami va sanasi havola bo'ladi. Qoidaga ko'ra tavsifnomaga ikki shaxs : muassasa (yoki bo'linma) boshlig'i va kasaba uyushmasi tashkilotining raisi imzo chekadi va ular imzosi yumaloq muhr bilan tasdiqlanadi.

Tavsifnomasi xodimning qo'liga topshiriladi yoki uni shaxsan xabardor qilgan holda, tavsifnomani talab qilgan muassasaga jo'natiladi.

Tavsifnomalarning «ishlab chiqarish tavsifnomasi», «tavsifiy tavsiyano», «xizmat tavsifnomasi» kabi turlari mavjud bo'lib, ular ayrim xususiyatlari jihatidan o'zaro farqlanadi.

### TARJIMA YI HOL

**Men**, (familiyasi, ismi vaotasingning ismi). (tug'ilgan sanasi, joyi) \_\_\_\_\_  
oilasida tug'ildim.

Oilaa'zolarining familiyasi, ismi vaotasingning ismi, ish (o'qish) joyi, lavozimi)  
(O'zining o'qish, mehnat va jamoatchilik faoliyati, olgan mukofotlari)

**Bo'ydoqman (turmushga chiqqanman, \_\_\_\_\_ ta farzandim bor)**

**Mening turar joyim:**

### 1-topshiriq. Tarjimayi holingizni yozing.

Tavsifnoma shaxsnинг исми, оғизи, туг'илга жили, мурлати, ма'lумоти, лавозими

TAVSIFNOMA  
MATN

Tavsiflanayotgan shaxsning o'qish (mehnat) faoliyati, o'z ishiga munosabati,  
kasbiy mahorati, dunyoqarashi, axloqi, oilaviy sharoiti, mukofotlari haqidagi  
ma'lumot beriladi va xulosalanadi, tavsifnoma nima maqsadda berilgani  
ko'rsatiladi.

### 2-topshiriq. Guruh murabbiyi nomidan kursdoshingizga tavsifnoma yozing.

#### TAVSIYANOMA

##### Matn

Tavsiya etilayotgan shaxsning xususiyatlari: kasbiy malakasi, oilaviy, axloqiy  
jihatlari va faoliyati baholanadi; tavsiya etilayotgan lavozim, a'zolikka  
iunosisligiga ishonch bildiilradi.

### 3-topshiriq. Kursdoshingizni O'zbekiston Yoshlar Ittifoqia' zoligiga tavsiya qilib, tavsiyanoma yozing.

**4-topshiriq.** Quyidagi fe'llarning o'tgan zamondagi majhul nisbat (bo'lishli va bo'lishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: *gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlarida faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi.*

imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, noya qilmoq, amalga oshirmoq.

**5-Topshiriq** Shaxsnı tavsiflashda qo'llanadigan so'z va so'z birikmalarni yozing. Ular ishtirokida do'stingiz faoliyatiga haqqoniy tavsif bering.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Tavsifnomma nima va u qanday tuziladi?
2. Tavsiyanoma nima va u qanday tuziladi?
3. Tarjimayi hol qanday yoziladi?
4. Tavsifnomma va tavsiyanoma tayyorlang. O'z tarjimayi holingizni yozing.
5. Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. O'ttob'ingizga beriladigan tavsifnomma va tavsiyanoma namunalarini tayyorlang.

### 42-MAVZU. ISONCHNOMA. TILXAT. TUSHUNTIRISH XATI.

#### Reja:

- Rasmiy va shaxsiy ishonchnomalar.
- Tilxatning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar.
- Tushuntirish xatining turlari.
- Tilxat matnini tuzish. Tushuntirish xati yozish.

#### *Rasmiy va shaxsiy ishonchnomalar. Tilxatning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Tushuntirish xati turlari.*

Ishonchnoma muayyan muassasa yoki ayrim shaxs o'z nomidan ish ko'rish uchun ikkinchi bir shaxsga ishonch bildiradigan yozma vakolatli hujjatdir. Ishonchnomalar o'z mazmuniga ko'ra mol-mulkni boshqarish, pul va moddiy-buyum boyliklarini olish, sud hamda notarial idoralarida, shuningdek boshqa davlat va nadovlat idoralarda ish olib borish va boshqa ishlarni amalga oshirishni ifodalaydi.

«O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi»ning 134-moddasida ishonchnomaga quyidagicha ta'rif berilgan: «Bir shaxs (ishonch bildiruvchi) tomonidan ikkinchi shaxs (ishonchli vakil) ga uchinchi shaxslar oldida vakillik qilish uchun berilgan yozma vakolat ishonchnoma hisoblanadi. Ishonchli vakil o'ziga ishonchnoma bilan berilgan vakolatlar doirasida ish olib boradi».

Muayyan ish-harakatni bajarishga vakolat berish kim tomonidan (muassasa tomonidanmi yoki ayrim shaxs tomonidanmi) rasmiylashtirilishiga qarab, ishonchnomalar rasmiy (xizmat) va shaxsiy turlarga bo'linadi.

Rasmiy (xizmat sohasidagi) ishonchnomalar davlat muassasalari, kasaba uyushmasi, jamoa xo'jaligi, jamoat tashkilotlari muayyan lavozimli shaxsga uning

muayyan tashkilot tomonidan ish yuritishga vakil qilinganini bildirish uchun beriladi. Bunday ishonchnomalar muassasa rahbari tomonidan imzolanishi va muhr bilan tasdiqlanishi kerak. Ayrim hollarda ishonchnoma qonun talabiga ko'ra notarial tasdiqdan o'tishi zarur bo'ladi.

Rasmiy ishonchnomalar, odatda, yuqori statistika idorasasi tasdiqlagan tayyor, namunaviy shakldagi bosma ish qog'ozida rasmiylashtiriladi. Bunday bosma ish qog'ozlarida ishonchnomaning barcha zaruriy qismlarini to'g'ri va aniq rasmiylashtirish (to'ldirish) uchun maxsus o'rinni va ko'rsatmalar mavjud. Bosma ish qog'ozlari bo'limgan chog'da ishonchnomalar oddiy qog'ozga yoziladi va uning yuqori chap tomoniga ishonchnoma beruvchi muassasaning to'rburchak muhri qo'yiladi.

Moddiy-buyum boyliklarini olish uchun ishonchnomalarni rasmiylashtirish va berish borasida alohida qoidalar belgilangan. Bunday ishonchnomalar belgilangan shakldagi bosma ish qog'ozlarida korxona rahbari va bosh hisobchisining imzosi bilan rasmiylashtirilib, faqat shu korxona xodimlariga berilishi mumkin.

#### **Rasmiy ishonchnomaning zaruriy qismlari:**

Ishonchnoma beruvchi muassasaning nomi.

Ishonchnoma tartib raqami va berilgan vaqt (sanasi).

Ishonchnoma berilayotgan (ishonchnoma bildirilayotgan) shaxsning lavozimi va to'liq nomi (ismi, ota ismi, familiyasi).

Qimmatli buyumlar olinadigan (beradigan) muassasaning nomi.

Ishonchnomaning berilish sababi.

Ishonchnomaning amal qilish muddati.

Ishonchnoma berilayotgan shaxs imzosining namunasasi.

Moddiy-buyum boyliklarini oluvchining shaxsiyatini tasdiqlovchi hujjatning nomi (pasport, guvohnoma).

Ishonchnomalarning ikkinchi xili shaxsiy, ya'ni ayrim shaxs tomonidan boshqa bir shaxsga muayyan ishni bajarish uchun ishonch bildirib berilgan yozma hujjatdir. Muayyan tashkilotdan pul yoki qimmatli buyum, zaruniy hujjatlarni olish, avtomobilni boshqarish, oldi-sotdi shartnomalarini rasmiylashtirish, mulkni boshqarish va boshqa xususiy ishlarni bajarish uchun ishonch bildiriladi.

**Shaxsiy ishonchnomalaring eng ko'p tarqalgani pul (maosh, nafaqa va boshqalar) olish uchun yozilgan ishonchnomadir. Bunday yozma vakolat ba'zan vakolat beruvchining talabi, xohishi bilan notarial tasdiqlanishi ham mumkin, lekin uni majburiy notarial tasdiqdan o'tkazish shart emas. Ishonch bildiruvchi shaxsning imzosi u ishlayotgan yoki o'qiyotgan joy rahbariyati, u yotib davolanayotgan tibbiy muassasa ma'muriyati, harbiy qism qo'mondonligi va shu kabilar tomonidan tasdiqlanishi mumkin.**

Shaxsiy ishonchnoma erkin usulda, odatda, qo'lida yoziladi, lekin unda, albatta, quyidagi zaruriy qismlar bo'limg'i kerak:

Hujjatning nomi (Ishonchnoma).

Ishonch bildiruvchining to'liq nomi (ismi, ota ismi, familiyasi).

Ishonchli shaxs (ishonchnoma berilgan shaxs)ning to'liq nomi.

Ishonchnoma mazmuni (topshirilgan vazifalarni aniq ko'rsatish).

Topshirilgan vazifalar amalga oshirilishi zarur bo'lgan muassasaning nomi.

Ishonch bildiruvchining imzosi.

Berilgan (yozilgan) vaqt.

Ishonch bildiruvchining imzosini tasdiqlagan shaxsning lavozimi va imzosi.

Ishonch bildiruvchining imzosi tasdiqlangan sana va yumaloq muhr.

**Tilxat** pul, hujjat, qimmatbaho buyumlar yoxud boshqa biror narsa olinganligini tasdiqlovchi rasmiy yozma hujjatdir.

Tilxat bir nusxada tayyorlanadi hamda pulli va qimmatbaho hujjat sifatida saqlanadi.

Tilxatning asosiy zaruriy qismlari :

1. Hujjatning nomi (Tilxat).

2. Matn :

a) tilxat beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi.

b) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsani beruvchi shaxsning lavozimi, ismi va otasining ismi, familiyasi (zaruriyat bo'lganda muassasa nomi);

v) pul, hujjat, buyum yoki boshqa biror narsaning nomi va ularning miqdori (zaruriyat bo'lganda bahosi) ;

g) olinayotgan buyumning texnik holati (agar u mashina, apparatlar va sh.k. bo'lsa).

3. Tilxat berilgan sana.

4. Tilxat muallifining imzosi.

Olinadigan pul miqdori yoki buyumning bahosi va uning soni tilxatda raqamlar bilan ko'rsatiladi, qavs ichida esa so'zlar bilan ham berilishi shart.

Matn va imzo oralig'idagi bo'sh joylar chiziladi. Tilxatdagi youvlarni o'chirish yoki tuzatish mumkin emas, aks holda, bunday hujjatning haqiqiyligi shubha ostiga olinishi mumkin.

**Tushuntirish xati** xizmat sohasidagi, xizmatga aloqador masalani, uning ayrim jihatlarini yozma izohlovchi va muassasa (bo'lim) rahbariga (ichki) yoki yuqori tashkilotga (tashqi) yo'llanuvchi hujjatdir.

Yuqoridaq ta'rifdan ko'rindiki, tushuntirish xati xuddi ma'lumotnomasi va bildirishnomasi singari ichki va tashqi xususiyatga ega. Keyingi holatda, ya'ni tushuntirish xati yuqori tashkilotga yuborilayotganda, u ko'pincha biror asosiy hujjat (rejalar, hisobotlar, loyhalar)ga ilova tarzida bo'lib, mazkur hujjatni umuman yoki uning ba'zi o'rinalarini qisman izohlab, tushuntirib beradi. Bu xildagi tushuntirish xati, shuningdek, muassasada bo'lib o'tgan voqe-a-hodisaga, rahbarning ba'zi xatti-harakatiga, rejalashtirilgan ishlarning bajarilmay qolishiga ham izoh beradi yoki dalillaydi. U muassasa xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va rahbar tomonidan imzolanadi.

Ichki, boshqacha aytganda, shaxsiy tushuntirish xatlari asosan xodim (ishchi, xizmatchi, jamoa xo'jaligi a'zosi, talaba) tomonidan muassasa rahbari nomiga yoziladi. Unda ish (o'qish) jarayonida xodim (talaba) tomonidan sodir etilgan ba'zi xatti-harakatlar (masalan, ish yoki o'qishga kech qolish, kelmay qolish, reja yoki ayrim topshiriqni bajarmaganlik, belgilangan tartib-qoidalarga rioya qilmaganlik va boshqalar) va ularning sabablari izohlanadi, dalillanadi. Bevosita xodim (muallif) tomonidan imzolanadigan bunday tushuntirish xati oddiy qog'ozga yoziladi. Shaxsiy tushuntirish xatlari odatda mansabdor (rahbar) shaxsning talabi bilan yoziladi, chunki

u keyinchalik xodim haqida muayyan qarorga kelish, unga nisbatan tegishli intizomiy jazo chorasi qo'llash yoki dalillar asosli (uzrli) bo'lsa, qo'llamaslik uchun asos vazifasini o'tashi mumkin.

Tushuntirish xati quyidagi zaruriy qismlardan iborat bo'ladi :

1. Hujjat yo'llanayotgan tashkilot yoki mansabdar shaxsning to'liq nomi.
2. Hujjatni tayyorlagan (yozgan) muassasa yoki shaxsning to'liq nomi.
3. Hujjat turnining nomi (Tushuntirish xati).
4. Hujjat matni (mazmuni).
5. Imzo
6. Sana (hujjat yozilgan vaqt).

Tashqi, xizmat yuzasidan korxona, muassasa va hokazolar nomidan yoziladigan tushuntirish xatlari xos ish qog'ozida rasmiylashtiriladi va ulaming to'liq nomi ushbu ish qog'ozida aks etadi. Ichki tushuntirish xatlarida esa rahbar yoki xodimning to'liq nomi deyilganda, u ishlaydigan (o'qiydigan) bo'linmaning nomi, shaxs lavozimi, ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi nazarda tutiladi.

#### Tushuntirish xati shakli

kimga
kimdan
<b>TUSHUNTIRISH XATI</b>
Matn
O'qish (ishga) kelmaganligi, topshiriqni bajarmaganligi va boshqa holatlar izohlanadi.
Asoslovchi hujjat ilova qilinadi (agar bo'lsa) (Illova: _____)
Sana
Imzo
I.O. Familiyasi

**1-topshiriq.** Talaba nomidan fakultet dekaniga topshirilgan vazifa vaqtida bajarilmagani va buning sabablari haqida tushuntirish xati yozing.

**2-topshiriq.** Guruh yig'ilishi o'tkazilmagani va uning sabablari keltirilgan tushuntirish xati yozing.

**3-topshiriq.** Quyidagi so'z va birikmalar tarjimasini yozing va ularni yod oling.  
betobligim tufayli  
noqulay ob-havo tufayli  
xomashyo vaqtida etkazib berilmaganligi sababli  
ma'lumot o'z vaqtida berilmaganligi sababli  
oilaviy sharoitlarimga ko'ra

### Shaxsiy ishonchnoma shakli

#### ISHONCHNOMA

Men, (ishonch bildiruvchining F.I.O.), (ishonchli shaxsning F.I.O.) ga (qavsda pasport ma'lumotlari) (ishonch mazmuni, ya'ni topshirilayotgan vazifa bayoni (ba'zan muddati bilan) ... uchun ishonch bildiraman.

Ishonch bildirgan shaxsning lavozimi, imzosi, ism-familivasi

sana

yumaloq muhr

### Rasmiy (xizmat) ishonchnoma shakli

#### ISHONCHNOMA

Tashkilot, idoraning uchburchak  
muhri, ishonchnoma raqami va  
berilgan sana

#### Matn

Ishonch bildirilgan shaxsning lavozimi, familiyasi, ismi va otasining ismi  
(to'liq), narsalar olinadigan muassasa nomi, nimalar olinishi, ishonchnoma  
berilishi sababi

Ishonchnoma (sana) gacha amal qiladi

Rahbar lavozimi (imzo) I.O. Familiyasi  
(muhr)

**4-topshiriq.** Oylik stipendiyangizni olish uchun kursdoshingiz nomiga ishonchnoma yozing

#### Mustahkamlash uchun savollar:

##### Savollar va topshiriqlar:

1. Ishonchnoma qanday hijyat va u qanday tuziladi?
2. Tilxat qanday yoziladi ?
3. Tushuntirish xati qanday yoziladi?
4. O'rtoq'ingizdan pul olganingiz haqida tilxatni qanday yozasiz?
5. Darsga kech qolganingiz haqida tushuntirish xatining matni qanday yoziladi?

#### **43-MAVZU. DALOLATNOMA. MA'LUMOTNOMA.**

**Reja:**

- Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Ma'lumotnoma turlari. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish
- Talabalar guruhiining o'zlashturish ko'rsatkichlari haqida ma'lumotnoma tuzish. *Dalolatnomaning zaruriy qismlari va uni tuzuvchi shaxslar. Ma'lumotnoma turlari. Ma'lumotnomani rasmiylashtirish.*

Dalolatnoma muassasa yoki ayrim shaxslar faoliyat bilan bog'liq biron-bir bo'lib o'tgan (sodir bo'lgan) voqeas, hodisa, ish-harakati yoki mavjud holatni tasdiqlash, unga guvohlik berish maqsadida bir necha kishi tomonidan tuzilgan hujjatdir. Dalolatnoma tuzishda xilma-xil maqsadlar ko'zlanadi, lekin uni tuzishdan asosiy maqsad sodir bo'lgan voqeas-hodisalarni yoki mavjud holatni qonuniy-huquqiy jihatdan isbotlash yoki tasdiqlashdir. Bir qancha hollarda dalolatnoma tuzish maxsus huquqiy me'yorlar bilan qat'iy belgilanadi. Masalan, korxonalarning hisob-kitob bo'limlari faoliyatida dalolatnomalar avvaldan belgilangan mazmun va davriylikka asosan tuziladi va huquqiy jihatdan muhim o'rinn tutadi.

Dalolatnomalar tegishli taftish o'tkazilgandan keyin, rahbarlik almashayotganda, moddiy boyliklarni bir xususiy yoki yuridik shaxsdan ikkinchisiga o'tkazishda, qurib tugallangan inshootlarni qabul qilishdan oldin va keyin, mashina va uskunalarining yangi nuxxalarini sinovdan o'tkazish chog'ida, qimmatli buyumlarni hisobdan o'tkazish yoki hisobdan chiqarishda, tovarlarni miqdor va sifat bo'yicha qabul qilib olishda, baxtsiz hodisalar yoki tabiiy ofatlar oqibatlarini tekshirishda, sud-tergov ishlari va tibbiyot sohasida, xodimlarning moddiy, yashash sharoitlarini o'rganishda va boshqa hollarda tuziladi.

Dalolatnomaning zaruriy qismlari:

1. Idora, muassasa va tarkibiy bo'linma nomi.
2. Tuzilgan sanasi va joyi.
3. Tartib raqами va tasdiq belgisi (zarur hollarda).
4. Matn sarlavhasi.
5. Hujjat turi nomi (Dalolatnoma).
6. Hujjatni tuzish uchun asos (muassasa rahbarining buyrug'i, idoraning qarori yoki ko'rsatmasi kabilar).
7. Komissiya tarkibi (rais va a'zolar).
8. Ishtirok etuvchilar (guvohlar).
9. Dalolatnoma matni.
10. Ilovalar (har bir ilovanining necha betligi ko'rsatiladi).
11. Tuzgan va ishtirok etganlarning imzolari.
12. Ijro haqidagi belgi.

Har bir dalolatnomaning ushbu zaruriy tarkibiy qismlari qatoriga ayrim hollarda boshqa ma'lumotlarni ham ko'shish mumkin. Chunonchi, ishni qabul qilish-topshirish chog'ida tuziladigan dalolatnomalarda xodimlar tomonidan topshirilayotgan qimmatli buyumlar, hujjatlar sanab o'tiladi (ilovalar tarzida), topshirish vaqtidagi ish ahvoliga baho beriladi, bajarilmagan ishlar qayd etiladi va hokazo.

Dalolatnoma matni murakkab tuzilishga ega bo'lib, kirish va ta'kid (qayd, tasdiq) qismlaridan tashkil topadi.

Kirish qismi quyidagi tartibga ega : asos (dalolatnomalar yuqori idoralarining me'yoriy hujjatlari yoki muassasa rahbarining yozma buyrug'iga asosan tuziladi ishtirokchilarining shaxsiy tashabbusiga ko'ra tuziladigan dalolatnomalarda bu qism bo'lmasligi mumkin); tuzildi (kim tomonidan – yakka xususiy shaxsmi yoki komissiyami); Ishtirok etganlar (asosiy tuzuvchilardan tashqari guvoh sifatida hozir bo'lganlar yoki taklif etilganlar). Dalolatnomalar tuzishda qatnashgan shaxslarni sanaganda, ularning lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyalari ko'rsatiladi. Agar dalolatnomalar komissiya tomonidan tuzilsa, birinchi bo'lib komissiya raisi, keyin shu tartibda komissiya a'zolari ko'rsatiladi. Komissiya a'zolarining familiyalari, shuningdek, ishtirokchilarining familiyalari, odatda, alifbo tartibida yoziladi.

Dalolatnomanining ta'kid qismida komissiya tomonidan amalga oshirilgan ishlarning maqsad va vazifalari, mohiyat va xususiyatlari bayon etiladi, ishlarning amalga oshirishiga asos hujjatlar ko'rsatib o'tiladi, aniqlangan holatlar qayd etiladi. Zaruriy hollarda dalolatnomanining ta'kid qismida aniqlangan holatlar yuzasidan xulosalar va takliflar qilinadi.

Dalolatnomalar matni so'ngida uning necha nusxaligi ko'rsatiladi. Dalolatnomalar, odatda, uch nusxada tuzilib, birinchisi – yuqori idoraga, ikkinchisi – muassasa rahbariga jo'natiladi, uchinchisi esa hujjatlar yig'majildiga solib qo'yish uchun topshiriladi.

Ma'lumotnomalar bo'lgan voqealar yoki mavjud holatlarni bildirish, axborot berish mazmunida ifodalaydigan hujjatdir. Ma'lumotnomalar, odatda, yuqori idora, mansabdar, xususiy va yuridik shaxslar hamda oddiy kishilarning ko'rsatmasi, talabi yoki iltimosiga ko'ra tuziladigan hamda biron-bir masalada iltimosni qondiradigan axborot va ma'lumotlarni o'zida aks ettiradi.

Ma'lumotnomalar o'z xususiyati va mazmuniiga ko'ra ikkiga : xizmat ma'lumotnomasi va shaxsiy ma'lumotnomaga bo'linadi.

Xizmat ma'lumotnomasi – muassasa faoliyatiga doir voqealari-hodisalarini rasmiy ravishda aks ettiradi va tasdiqlaydi, axborot xususiyatiga ega bo'lgan xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, zarur hollarda esa raqamli jadvallar ko'rinishida tayyorlanadi. Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyat, xodim (shtat)lar soni, topshiriqlarning bajarilishi, moddiy-tovar boyliklarining saqlanishi, mehnat intizomining ahvoli haqida va boshqa xilma-xil masalalar to'g'risida hozirlanadi.

Rasmiy xizmat ma'lumotnomasida bosma ish qog'ozidagi yozuvlardan tashqari, yana quyidagi zaruriy qismlar bo'ladi:

Hujjat jo'natiladigan yuqori idora yoki mansabdar shaxsning nomi (bosma ish qog'ozining yarmidan o'ng tomonga yoziladi).

Hujjat nomi (Ma'lumotnomalar).

Ma'lumotnomalar matniga sarlavha (xat boshidan yoziladi).

Asosiy matn (ma'lumotnomalar mazmuni).

Mansabdar shaxs (tuzuvchi yoki korxona rahbari) imzosi.

Moliyaviy masalalami aks ettiruvchi rasmiy ma'lumotnomalarda bosh (katta) hisobchining imzosi va muhri bo'ladi.

**Shaxsiy ma'lumotnomasi** – muassasalar tomonidan fuqarolarning turmushi va ish faoliyatidagi aksar voqealari va holatlarni tasdiqlab beradigan hamda talab qilingan joylarga ko'rsatiladigan rasmiy hujjatdir. Masalan, muassasa xodimga uning qaerda, kim bo'lib va qancha maosh olib ishlashi haqida, o'quvchi va talabaga esa qaerda o'qishi haqida; fuqarolik holati hujjatlarini qayd qilish (FHHQ-ZAGS) va notarial idoralar hamda fuqarolar yig'irlari raislari shaxsning tug'ilganligi yoki vafot etganligi to'g'risida, nikohda bo'lganligi yoki ajralganligi haqida (hujjatlar yo'qolganda); tuman va shahar ijtimoiy ta'minot bo'limi shaxsning nogironligi, nafaqasining miqdori, avtomobilga ega emasligi haqida; shifoxonalar kishining sog'lig'i (kasal emasligi) haqida; mahalla qo'mitasi yig'irlari yoki uy-joy boshqarmalari shaxsning yashash joyi, egallab turgan uy-joyining maydoni yoki oila a'zolining soni haqida ma'lumotnomalar beradi. Bularidan tashqari, ichki ishlar va adliya idoralari tomonidan ham fuqarolarga tasdiqlovchi, guvohlantiruvchi ma'lumotnomalar beriladi.

Shaxsiy ma'lumotnomasi o'zining zaruriy qismlari jihatidan rasmiy xizmat ma'lumotnomasiga yaqin turadi, chunki u ham aksar hollarda xos ish qog'oziga yoki oldindan tayyorlangan bosma ish qog'oziga (blanka)ga yoziladi. Ushbu ish qog'ozlarda bir qancha zaruriy qismlar va takrorlanuvchi iboralar o'z aksini topgan bo'ladi. Shaxsiy ma'lumotnomalarda ular yo'llangan idora yoki shaxs nomi bo'lmaydi. Buning o'rniiga ma'lumotnomaning asosiy matnidan so'ng uning maqsadi: «Ish joyiga» (yashash joyiga) ko'rsatish uchun berildi», «Toshkentdagi 507-bolalar bog'chasiga taqdim etish uchun berildi» tarzida ko'rsatiladi. Bosma ish qog'ozlari bo'limgan hollarda ma'lumotnomalar oddiy qog'ozga qo'lda yoki kompyuterda yoziladi va uning chap burchagiga korxona yoki jamoat tashkilotining to'rtburchak muhri qo'yiladi, uning qarshisiga, o'ng tomoniga ma'lumotnomasi so'zi yoziladi.

Shaxsiy ma'lumotnomalar quyidagi zaruriy qismlarni o'z ichiga oladi:

Ma'lumotnomasi beruvchi tashkilotning nomi.

Ma'lumotnomaning tartib raqami va berilgan sanasi.

Hujjat turining nomi (Ma'lumotnomasi).

Ma'lumotnomasi berilayotgan shaxsning ismi, otasining ismi va familiyasi.

Ma'lumotnomasi matni (u tasdiqlayotgan voqealari yoki holat bayoni)

Ma'lumotnomaning maqsadi (ma'lumotnomasi ko'rsatiladigan, taqdim etilayotgan joy nomi).

Mansabdor shaxs(lar)ning imzosi (lavozimi va familiyasi).

Muhr.

Dastlabki uch zaruriy qism bosma ish qog'ozida (bosma ish qog'oziga bo'limgan hollarda to'rburchak muhrda) o'z aksini topgan bo'ladi.

Ish haqini tasdiqlash haqidagi va pul bilan bog'liq boshqa shaxsiy ma'lumotnomalarga tegishli muassasasining bosh (katta) hisobchisi ham imzo qo'yishi kerak.

Ma'lumotnomalarning bu turi ham jo'natma hujjatlar daftarida qayd etilib, xodim qo'liga beriladi.

**1-Topshiriq.** Talabalar guruhining o'zlashtirish ko'rsatkichlari haqida ma'lumot tayyorlang.

**2-Topshiriq.** Quyidagi so'z va so'z birligmalari ishtirokida gaplar tuzing, fe'llarni hozirgi-kelasi zamон shaklida qo'llang.

Talaba hisoblanmoq, iqtisodchi, lavozimida ishlamoq, yashamoq, ijara da yashagan, tikuvchi, ushlanib qolmoq, taqdim etish uchun, muhandis, universitet ma'muriyatiga, asos, topshiriq uchun, qabul qilinmoq, tibbiy ma'lumotnoma, dorishunos, ko'rsatish uchun, oylik maoshi, ijtimoiy ta'minot bo'limiga.

**3-Topshiriq.** Quyidagi gaplarni rus tiliga yozma tarjima qiling, rus tilida o'rinn ravishlarining ifodalishiga diqqat qiling.

1. Bahorda hamma yerda gullar ochiladi.
2. Bu maqolaning muallifi shu yerda, marhamat, tanishing.
3. Bilimsiz kishi hech qayerda yutuqqa erisha olmaydi.
4. Senga bo'lgan muhabbatim tufayli bu yerga keldim.
5. Har yerda va har qachon insonga ilm kerak.
6. O'rtada ketayotgan qiz mening singlim bo'ladi.

**4-Topshiriq.** Savollarga og'zaki javob bering, so'ngra javoblarizingizni daftaringizga yozing.

- Nanuna :*
1. Siz yashaydigan uy qanday?
  2. Yotoqxonangiz haqida nima deya olasiz?
  3. Siz qaysi ko'chadan kelasiz?
  4. Bu daftar qanday shaklda?
  5. Sizga qanday shakldagi buyum kerak?

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Dalolatnoma nima?
2. Dalolatnoma qaysi hollarda tuziladi?
3. Dalolatnoma qanday tuziladi?
4. Ma'lumotnoma nima?
5. Xizmat ma'lumotnomasi qanday yoziladi?
6. Shaxsiy ma'lumotnoa, qanday yoziladi?
7. Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. Dalolatnoma namunasini tayyorlang. Mahalla fuqarolar yig'ini tomonidan sizning shu joyda yashashingiz haqida ma'lumotnoma namunasini tayyorlang.

## **44-MAVZU. MAJLIS BAYONI. HISOBOT.**

Reja:

- Bayonnomalarning turlari. Majlis bayoni. Majlis bayonidan ko'chirma.
  - Hisobot turlari. Davriy hisobotlar. O'quv amaliyoti hisoboti.
  - Majlis bayonini tuzish. O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozish.

*Bayyonomalarning turlari. Majlis bayoni. Majlis bayonidan ko‘chirma. Hisobot turlari. Davriy hisobotlar. O‘ayv amalivoti hisoboti.*

Bayonnomma turli yig'ilish, kengash va boshqa tur anjumanlarning borishini majlis qatnashchilarining chiqishlari va ular qabul qilgan qarorlarni qayd qiluvchi rasmiy hujjatdir. U vogelikning o'mi, vaqt va holati haqida ma'lumot berish bilan birgalikda, qarorlarning to'g'ri qabul qilinganligini tekshirish va ularning bajarilishini nazorat qilishga imkon beradi. Doimiy ish ko'ruvchi organlar (ilmiy kengash, hay'at va boshqalar), shuningdek, vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar (konferentsiyalar, yig'ilishlar, anjumanlar, komissiyalar) faoliyatida, albatta, bayonnomma yozilishi kerak. Bayonnomani yozishni tashkil qilish kotibning asosiy vazifalaridan biridir. Bayonnomma doimiy ish ko'ruvchi organlarning yig'ilishlarida doimiy kotiblari tomonidan tuziladi va rasmiylashtiriladi. Vaqtinchalik ish ko'ruvchi organlar majlislerida esa yig'ilish jarayonida saylangan kotib aynan shu ishni bajaradi.

Bayonnomada o'z aksini topgan axborotlarning aniqligi uchun butun mas'uliyat va javobgarlik majlis raisi va kotibi zimmasiga yuklatiladi.

Bayonnomma yozib olinishiga ko'ra qisqa, to'liq, stenografik, fonografik shakllarda bo'lishi mumkin. Qisqa bayonnomada faqatgina kun tartibi, ma'ruzachi va muzokarada qatnashuvchilar familiyasi va qabul qilingan qaror ko'rsatiladi. Ularda ma'ruzalar mazmuni batafsil bayon qilinmaydi. Bunday bayonnomalar masalaning muhokama qilinishi haqida to'liq tasavvur bera olmaydi. Shu nuqtai nazardan yig'ilishda so'zga chiqqan barcha qatnashchilarning bayon qilgan fikr va mulohazalarini qamrab olgan to'liq majlis bayonnomasi afzaldir. Majlis bayonnomasining to'liq shakli faqat yig'ilish xususida emas, balki o'sha jamoaning faoliyati to'g'risida ham fikr yuritishga imkoniyat beradi.

Yig'ilish stenografiya usulida (stenografik) yoki magnitofon yordamida yozib olinayotgan (fonografik) bo'lsa, qisqa bayonnomma tuzilib, stenogramma rais va kotib tomonidan imzolanadi va asosiy bayonnomaga ilova qilinadi.

## Bayonnonamaning asosiy zaruriy qismlari:

## Muassasa nomi.

Sarlavha (bamaslahat ish ko'ruvchi organ yoki yig'ilishning nomi)

## Hujjatning nomi (Bayonнома).

## Yig'iliş sanası.

## Shartli raqami.

## Yig'lish joyi.

Tasdiqlash ustxati (agar bayonnomma tasdiqlanishi zarur bo‘lsa).

## Yig'ilish raisi va kotibining familiyasi.

Matn:

a) qatnashchilar ro'yxati yoki soni ;

- b) kun tartibi;
  - v) eshitildi;
  - g) so'zga chiqdilar;
  - d) qaror qilindi.
10. Ilvalar (agar ular mavjud bo'lsa)
11. Imzolar.

Bayonnomani tuzishda ularning huquqiy jihatdan to'laqonliligin ta'minlash kerak. Buning uchun bayonnomada barcha asosiy zaruriy qismlar mavjud bo'lishi, ular to'g'ri rasmiylashtirilishi lozim.

Doimiy maslahat organi yig'ilishining bayonnomasida yig'ilishda ishtirok etuvchilar soni ko'rsatilishi juda muhimdir, chunki bu huquqiy ahamiyatga ega. Majlis qarorlarini qabul qilish va uning qonuniy bo'lishi uchun ishtirokchilarning nizom bo'yicha etarli ekanligi (kvorum) asosiy shart hisoblanadi.

Ma'muriy idoralarda bayonnomma umumiy yoki maxsus bosma ish qog'ozlarida rasmiylashtiriladi. Bayonnomma bir necha sahifadan iborat bo'lsa, faqat birinchi sahifa bosma ish qog'ozida, qolgan betlari esa oddiy qog'ozda yoziladi. Yig'ilish o'tkazilgan kun bayonnomaning sanasi hisoblanadi. Muntazam ish ko'ruchchi organlar bayonnomasining tartib raqami kalendar yili bo'yicha izchil davom etadi.

Majlis bayonnomasida qatnashchilarning ro'yxati berilganda, doimiy a'zolar va taklif etilganlar familiyasi alohida-alohida alifbo tartibida qayd etiladi. Taklif etilganlar soni 15 kishidan oshmasa, ularning familiyasini, qavs ichida esa ish joyini ko'rsatish kerak.

Kengaytirilgan majlislarda ishtirok etuvchilarning soni ko'rsatiladi va qatnashchilar ro'yxati majlis bayonnomasiga ilova qilinadi.

Majlis bayonnomasi kirish va asosiy qismidan iborat bo'lib, kirish qismi kun tartibi bilan tugaydi. Kun tartibidan so'ng ikki nuqta qo'yilib, ko'rildigan masalalar tartib raqami bilan beriladi. Har qaysi masala alohida satrdan yoziladi. Ularning o'zaro tartibi masalaning dolzarbligi va muhimligiga qarab belgilanadi. Majlis bayonnomasida kun tartibini bosh kelishikda ifodalash va katta harflar bilan yozish kerak.

Kun tartibidagi masalalarni bayon qilishda ma'ruzachining ismi, familiyasi, lavozimini alohida jumla bilan yozish maqsadga muvofiqdir.

Ba'zan kun tartibining oxirgi qismida «Turli masalalar» sarlavhasi bilan alohida qism beriladi, bu maqsadga muvofiq emas, chunki kun tartibidagi har bir masala aniq va ravshan bo'lishi lozim.

Matning asosiy qismi kun tartibi masalalariga muvofiq joylashadi. Har bir bo'lim uch qismidan iborat bo'ladi : ESHITILDI, SO'ZGA CHIQDILAR, QAROR QILINDI. Bu so'zlar bosh (katta) harflar bilan yoziladi. Agar kun tartibida ikki yoki undan ortiq masala ko'rildigan bo'lsa, «ESHITILDI» so'zidan oldin kun tartibidagi masalalarning raqami qo'yiladi, so'zdan keyin esa ikki nuqta qo'yilib, yangi satrdan ma'ruzachining ismi, familiyasi bosh kelishikda yoziladi. Familiyadan so'ng chiziqcha (tire) qo'yilib, ma'ruza yoki xabarning qisqacha mazmuni bayon qilinadi. Agar ma'ruza matni tayyor holda bo'lsa, tiredan keyin «Matn ilova qilinadi» deb yozib qo'yiladi.

«SO'ZGA CHIQDILAR» birkmasi ham aynan shu shaklda yoziladi. Zaruriyat bo'lganda, qavs ichida har bir so'zlovchining ish joyi va lavozimi ko'rsatiladi. Masalan : SO'ZGA CHIQDILAR : A.I.Rahimov (litsey direktori) - --

Majlisda berilgan savollar ham bayonnomada yoziladi. Ma'ruzachiga savollar va ularga beriladigan javoblar «SO'ZGA CHIQDILAR» bo'limiga kiritiladi va ko'rsatilgan tartibda rasmiylashtiriladi («savol» va «javob» so'zları o'mida so'rovchining ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi ; javob beruvchining ismi, ota ismining bosh harflari va familiyasi esa faqat savolga ma'ruzachining o'zi javob bermagan hollardagina ko'rsatiladi).

Matning uchinchi qismida muhokama etilgan masala bo'yicha qaror qabul qilinadi. «QAROR QILINDI» birkmasi ham bosh harflar bilan yoziladi.

Kun tartibidagi har bir masala yuzasidan alohida-alohida «ESHTITLDI», «SO'ZGA CHIQDILAR», «QAROR QILINDI» sarlavhalari qo'yiladi va so'zlovchilar nutqining qisqacha mazmuni, qabul qilingan qaror rasmiylashtiriladi.

Zaruriyat tufayli majlis davomida qabul qilingan qarorlardan ko'chimlar rasmiylashtiriladi. Buyruqdan ko'chirma bo'lganidek, bayonnomadan ko'chirma ham imzo bilan tasdiqlanadi.

Ba'zan bayonnomadan ko'chirmalarda yig'ilishda qatnashuvchilarning familiyasi yoki soni, shuningdek ko'rilgan masala bo'yicha muhokama da ishtirot etganlar familiyasi ham ko'rsatib o'tiladi.

Bayonnomaning matn qismidan faqat tashkilot yoki shaxsga etkazilishi kerak bo'lgan bo'laklarga olinadi. Agar kun tartibida uch masala muhokama etilgan bo'lsa, kerakli masala bo'yicha qabul qilingan qaror olinadi.

Hisobot muayyan vaqt uchun rejalashtirilgan ish yoki vazifa, topshiriqlaming bajarilishi, amaliy dolzarb ishlari, xizmat va ilmiy safarlar yakuni haqida ma'lumot beruvchi hujjat.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlar aniq, ishonarli bo'lishi kerak.

Hisobotda quyidagilarga e'tibor beriladi : nima mo'ljallangan yoki topshirilgan edi, u qanday bajarildi, nimalarga e'tibor berildi, qanday etishmovchiliklar bo'ldi, ulami bartaraf etish uchun nimalar qilish kerak. Hisobot oxirida muayyan topshiriq bajarilmagan bo'lsa, uning sababi ko'rsatiladi, bu borada takliflar qayd etiladi. Rejalashtirilgan ish haqidagi hisobotlar amalda keng qo'llanadi. Hisobot shakl jihatdan ham, mazmun jihatdan ham bildirishnomaga hujjatiga o'xshaydi.

#### **Uning zaruriy qismlari:**

1. Sarlavhasi: hisobot qaysi davr uchun, qanday bo'lim yoki shaxs tomonidan berilyapti.

2. Hujjatning nomi (Hisobot).

3. Hisobot matni.

4. Lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.

5. Sana.

6. Hisobotni tasdiqlovchi rahbar imzosi.


Xizmat safari va rahbarining muayyan topshirig'ini bajarish bo'yicha hisobotlar ma'lum davr ishlari bo'yicha hisobotdan qisman farq qiladi. Zaruriy qismlari:

1. Sarlavhasi : idora rahbarining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, kim tomonidan qanday topshiriq uchun hisobot berilyapti.

2. Hujjatning nomi (Hisobot).
3. Hisobot matni («Sizning topshirig'ingizga binoan» kabi iboralar bilan boshlanadi, topshiriq qanday bajarilganligi aniq ma'lumotlar bilan bayon qilinadi ; xulosa yasaladi).
4. Ilovalar ko'rsatiladi (ko'p hollarda).
5. Hisobot beruvchining lavozimi, ismi va ota ismining bosh harflari, familiyasi, imzo.
6. Sana.

**Majlis bayoni shakli**

Tashkilot nomi — sonli MAJLIS BAYONI
Joyi              Sana Rais Kotib Qatnashdilar: <b>KUN TARTIBI</b> 1. 2. 3...
<b>ESHITILDI:</b> Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi) <b>SO'ZGA CHIQDILAR:</b> So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi — <b>QAROR QILINDI:</b> 1. 2...
<b>ESHITILDI:</b> Ma'ruzachining ism-familiyasi (ma'ruza ilova qilinadi) <b>SO'ZGA CHIQDILAR:</b> So'zga chiqqanlarning ism-familiyasi — <b>QAROR QILINDI:</b> 1. 2...
Rais    imzo    Familiyasi.I.O. Kotib    imzo    Familiyasi.I.O.



**1-topshiriq.** Majlis bayonidan ko'chirma rasmiylashtirish tartibini ko'rib chiqing va uning namunasini tayyorlang.

**2-topshiriq.** Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslabqolning, ularni q'llabgaplartuzing: zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo'yilsinki, yuqori tashkilotlardan so'ralsin, ...ning ... -bandi o'z kuchini yo'qtgan deb hisoblansin.

**3-topshiriq.** O'tkazilgan tadbir to'g'risida hisobot yozing.

**4-Topshiriq.** Majlis bayonini tuzish va to'garak hisobotini yozish.

**5-Topshiriq.** Quyidagi so'z(birikma)larni tarjima qiling va yod oling.

taklif kiritdi  
qo'llab-quvvatladi  
bekor qilindi  
ma'qullashni so'radi  
... ni tasdiqlashni so'radi  
belgilab qo'yilsinki, ...

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Bayonnoma nima?
2. Bayonnomaning zaruriy qismlari nimalardan iborat?
3. Bayonnoma qanday rasmiylashtiriladi?
4. «Lsh yuritish» kitobidan bayonnoma namunalari bilan tanishing. O'z guruhingizda o'tkazilgan yig'ilish bayonnomasini yozing. Yig'ilish bayonnomasidan ko'chirma namunasini tayyorlang.
5. Hisobot nima?
6. Hisobot tayyorlashda nimalarga e'tibor beriladi?
7. U qanday tuziladi?
8. Hisobot namunasi bilan tanishib chiqing.
9. Xizmat safari yakuni bo'yicha hisobot tayyorlang.
10. O'z guruhingiz yig'ilishi bayonnomasini tayyorlang

## 45-MAVZU. XIZMAT YOZISHMALARI. XATLAR.

**Reja:**

- Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'rovxati. Iltimosxati. Javobxati. Illova xat. Tasdiqxati. Eslatmaxat. Da'voxati. Talabxati. Axborotxati. Kafolatxati.
- Xizmat xatlanining matnlarini tuzish.

*Xizmat yozishmalarining vazifasi. Xizmat xatlarining turlari. So'rov xati.*

*Iltimos xati. Javob xati. Illova xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati.*

Xizmat yozishmalari - mazmunan xilma-xil bo'ladi. Ularda muassasa faoliyatining turli masalalar bilan bog'liq talab, iltimos, taklif, kafolat kabilar aks ettiriladi. Bu ma'noda xizmat yozishmalari hujjatlarning yuqorida ko'rsatilgan guruuhlari bilan uzviy aloqadordir. Shularni hisobga olib, xizmat yozishmalari hozirgi zamон hujjatshunosligida mazkur guruhlardan keyin alohida guruh sifatida tasniflangan va bu mantiqan o'rinni. Har qanday yozishmada, umuman ko'p hujjatda adres yozishga to'g'ri keladi. Adres aksariyat hujjatlarning tarkibiy qismi - rekvizitidir.

Taklifnomalar - biror bir tantanali tadbirga taklif etish uchun qo'llaniladigan yozma axborot. Taklifnomaning zaruriy qismlari:

1. Nomi (taklifnomalar).
2. Matn:
  - a) taklifnomalar turiga qarab: taklif qilinayotgan shaxsnинг familiyasi yoki ismi va otasining ismi;
  - b) taklif qiluvchi muassassanining nomi;
  - v) qanday tadbirga taklif qilinayotganligi.
3. Tadbimi o'tkazilish sanasi va vaqt.
4. O'tkazilish joyi.
5. Imzo (tadbirni tashkil etgan tashkilotning nomi).

Xatlar-muassasalar orasidagi xizmat aloqalarini amalga oshiruvchi asosiy hujjatdir. Xat orqali bajariladigan masalalar ko'lami keng bo'lib, bunday yozishmalar tushuntirishlar, xabarlar, taklifnomalar, iltimoslar, kafolatlar beriladi yoki qabul qilinadi. Mazmun jihatdan tullichha bo'lgan bunday hujjatlar umumlashtirilgan holda xizmat xatlari xususiyatlariga ko'ra o'zaro farqlanadi. Xatlami bajaradigan vazifasiga qarab quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

- 1) javob xatni talab qiluvchi xatlari (da'vo xatlar, so'rov xatlar, iltimos xatlar).
- 2) javob xatni talab qilmaydigan xatlari (illova xat, tasdiq xat, eslatma xat. axborot xat, kafolat xat va boshqalar).

Xizmat xatlari odatda xatlari uchun tayyorlangan bosma ish qog'ozlariga yoziladi. Maxsus bosma ish qog'ozlari bo'lmagan hollarda xizmat xatlari xos ish qog'oziga yoki oddiy qog'ozga yoziladi. Xizmat xatlari quyidagi zaruriy qismlarni o'z ichiga oladi:

1. O'zR gerbi.
2. Muassasaning ramziy belgisi.
3. Mukofotlar.
4. Vazirlik, boshqarma nomi.

- 5.Tashkilot nomi.
- 6.Bo'linma nomi.
- 7.Tasniflagich bo'yicha hujjatning xos raqami.
- 8.Muassasaning xos raqami.
- 9.Pochta, telegraf adresi,bankdagi hisob- kitob raqami.
- 10.Sana.
- 11.Shartli raqam (indeks).
- 12.Kelgan hujjat shartli raqami.
- 13.Hujjatning kelish sanasi.
- 14.Hujjat jo'natiladigan adres.
- 15.Munosabat belgisi(rezalyutsiya).
- 16.Nazorat haqida belgi.
- 17.Matn sarlavhasi.
- 18.Matn.
- 19.Ilovalar haqida belgi.
- 20.Imzo.
- 21.Rozilik belgisi (viza).
- 22.Kelishuv haqida belgi.
- 23.Bajaruvchi haqida belgi va uning telefon raqami.
- 24.Bajarilganlik haqida belgi.

**Axborot xati** –ko'zlangan maqsad ma'lum tashkilot yoki shaxsni amalga oshirilayotgan tadbirdan xabardor qilishdir.Axborot xatlarining hajmi oddiy ma'lumotnomaga ko'rinishida bo'lib, bir jumladan to bir necha sahifagacha bo'lishi mumkin. Ba'zan axborot xatlardan ayrim tashkilotlar o'z faoliyatini targ'ib qilish maqsadida ham foydalanadi.

**Da'vo xati** – ma'lum bir muassasaningboshqa bir idora yoki transport tashkilotlariga nisbatan talab va e'tirozları bayon qilingan xatlardir. Da'vo xatlari tovar yetkazib berish, qurulish ishlari, ijara, yuk tashish va shu kabi bir qancha ishlar bo'yicha tuzilgan shartnomalar bajarilmay qolganda, o'z qonuniy huquqlarini va manfaatlarini himoya qilish maqsadida tuziladi. Da'vo xatlarida asosan shartnomaga ko'ra o'z zimmasiga olgan majburiyatini buzgan tomon yetkazgan zarami qoplash talab qilinadi. Odatda da'vo xatlari uch nusxada tayyorlanadi.

Da'vo xatlarining zaruriy qismlari:

- 1.Da'vo qiluvchi muassasa nomi va adresi.
- 2.Xatning yozilish sanasi va tartib raqami.
3. Da'veni qabul qiluvchi muassasa nomi va adresi.
4. Da'vo bahosi (qiymati).
- 5.Xat matni.
- 6.Ilovalar ro'yxati.
- 7.Mansabdar shaxslarning imzosi.

**Ilova xat** – xatni qabul qilib oluvchilarni jo'natilidigan hujjatlar haqida yozma xabardor qilish uchun qo'llanuvchi qisqacha xabar qog'ozidir. Ilova xat ish yuritishda keng tarqalgan bo'lib, shartnomaga loyihibalarini, ziddiyatlar bayonnomalarini, da'vo materiallarini jo'natishda qo'llaniladi.

**Iltimos xati** – muassasalar ma'lum bir ishni amalga oshirish yoki tugatish maqsadida boshqa muassasalarga rasmiy xat orqali iltimos qilishi mumkin. Iltimos xatlarining asosiy zaruriy qismlari:

1. Xat oluvchi tashkilot va mansabdar shaxsnig nomi.
2. Matn.
3. Illova (zurub bo'lgan hollarda).

**Kafolat xati** – muayyan bir shart yoki va'dani tasdiqlash maqsadida tuziladi. Xatlarining bu turi, qoidaga ko'ra bajarilgan ish uchun haq to'lashda, ishning bajarilish muddati haqida, turar joy bilan ta'minlashda, ishga qabul qilishda, bajariladigan ishning sifati haqida kafolat berish uchun tayyorlanadi va tashkilot yoki alohida shaxslarga jo'natiladi.

**So'rov xati** - javob talab qiladigan bunday yozishmalarda ma'lumotlar hujjatlar yoki boshqa zarur narsalar so'raladi. Birgina xatda turli masalalarga doir bir necha so'rov aks etmasligi, unda bayon qilinayotgan masalalar aniq va ravshan ifodalanishi lozim. Faqat shu holdagini, yo'llangan so'rovga tez va mukammal javob olish mumkin. So'rov xati, odatda, ikki asosiy qismidan- kirish va xulosadan iborat bo'ladi.

**Tasdiq xati** - ma'lum bir muassasa tomonidan yuborilgan iltimos va so'rovlarga javob tarzida yoziladigan xatlarining bir turi.

**Farmoyish xati** - bir tarmoqqa tegishli quyi muassasalarning barchasiga yo'llangan rasmiy hujjatdir. Ularning asosiy vazifasi ayni bir mazmundagi xabarni bir necha manzilga yetkazishdir.

**Eslatma xati** – jo'natilgan iltimos va so'rov xatlariga javob olinmasa, shuningdek, tuzilgan shartnomalar muddati buzilganda yoki unga amal qilinmagan hollarda eslatma xati yuboriladi.

Mazkur xatlar mazmun jihatidan uncha katta bo'lmaydi. Ular mazmun va hajm jihatdan telegrammalarga yaqin turadi. Odatda, eslatma xat bir yoki bir necha jumladan iborat bo'lib, kotib yoki referent tomonidan tasdiqlanadi.

**1-Topshiriq.** Xizmat xatlarining matnlarini tuzing.

**2-Topshiriq.** Xizmat xatlarining turlaridan birini yozing.

**3-Topshiriq.** Quyidagi qoliplashgan birliklarni eslab qoling, ulami qo'llab gaplar tuzing:

zimmasiga yuklatilsin, belgilab qo'yilsinki, yuqori tashkilotlardan so'ralsin, ...ning ... -bandi o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**4-Topshiriq.** Quyidagi fe'llaming o'tgan zamondagi majhul nisbat (bo'lishli va bo'lishsiz) shakllarini hosil qiling, ular bilan gaplar tuzing. Masalan: gapirmoq - gapirildi, gapirilmadi; Majlisda talabalar jamoat ishlari faol ishtirok etishlari kerakligi haqida gapirildi. Aynan qanday tadbirlarni o'tkazish rejalashtirilgani haqida gapirilmadi:

imzolamoq, qurmoq, ajratmoq, bajarmoq, baholamoq, rioxo qilmoq, amalga oshirmoq.

**5-Topshiriq.** Mavzuga oid so'zlardan krossvord tuzing.

**6-Topshiriq.** Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. So'rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Illova xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati namunasini tayyorlang.

#### Mustahkamlash uchun savollar:

1. Mavzuga oid so'zlardan krossvord tuzing.
2. Nazariy ma'lumotlar bilan tanishib chiqing. So'rov xati. Iltimos xati. Javob xati. Illova xat. Da'vo xati. Talab xati. Axborot xati. Kafolat xati namunasini tayyorlang.

### MUSTAQIL O'QISH UCHUN MATNLAR

#### VATAN

(T. Sodiqovadan)

Vatan o'zi nima? Vatan – onaning allasi taralgan, beshigingning izlari chizilgan zamin. Ajdodlaring ko'milgan qabriston, ota-onangning izlari qolgan ko'chalar, sening lahjangda so'zlashadigan, qosh-u ko'zi xuddi sening kabilau yashaydigan miqaddas zamin Vatandir.

Ilk bor bahorni tanigan, birinchi marta varrak uchirgan, ilk bor hayitlik olgan joying, birinchi o'qituvchi, birinchi muhabbatingni tanitgan muqassan makon Vatandir.

O'z jondan yaratgani uchun ham ona yaxshi-yu yomon bolasini tishida tishlab o'tadi Vatan ham shunday: qadamlaringni ko'ksiga qo'yib, suyab yashaydi seni. Osmoni ko'rpan,maysasi dimog'ingni bosib yotadigan muqaddas bolishingdir. Vatan mung'aygan tandirli, pastakkina tomlı kulbangdan boshlanadi. Unga bo'lgan muhabbating ham shu ostonada tug'iladi.

#### QADRIYATLAR QADR TOPMOQDA

Xalqimizning bayramlari ko'p: Navro'z, Mehrjon, Hosil bayrami. Bu bayramlarda xalq sayllari o'tadi.

Navro'zga bag'ishlangan xalq sayllari ayniqsa, zo'r o'tadi. Katta-katta doshqozonlarda osh, sumalak kabi taomlar tayyorlanadi.

Lekin muhimmi bu emas. Shahar markazlari, dalalarda, bog'larda xalq sirk artistlarining tomoshalari boshlanadi. Masxarabozlar, dorbozlar yig'ilganlarga xush kayfiyat ulashadi.

Sayllar milliy o'yinlarsiz o'tmaydi. Uloq, qizquvdi kabi o'yinlar hech kimma befarq qoldirmasa kerak.

Polvonlar ham shu kuni o'zlarining nimaga qodirligini ko'rsatish uchun gilamga chiqishadi. Dunyoga yuz tutayotgan o'zbek milliy kurashisiz sayl bo'larmidi axir.

Saylda hamma xursand. Har kim miriqib dam oladi. Bayramlar ertangi kunimizga ishonchimizni mustahkamlaydi.

Xullas, ozod yurtga bayramlar yarashadi. Ona O'zbekistonimizning har kuni bayram bo'laversin.

## IBN SINO VA TARBIYA

Yigit bilan qiz turmush qurishibdi. Oradan to'qqiz oy, to'qqiz kun, to'qqiz soatu to'qqiz daqiqa o'tgach, farzand ko'rishi. - debdi ona.

Uni shunday tarbiya qilaylikki, katta bo'lganda el-yurtga foydasi tegadigan bo'lsin, - debdi ota. Xotini:

- To'g'ri aytasiz, men ham shuni o'ylab turgan edim. Yaxshisi, ustoz Ibn Sinodan so'rab ko'raylik-chi, u kishi nima derkin, - debdi.

Bu gap eriga ham ma'qul tushibdi. Er-xotin bolani ko'tarib, Ibn Sinonikiga kelishibdi. U bir kichik tor kulbada yashar, shunday bo'lsa-da, dong'i olamga ketgan ekan.

Ibn Sino ularni yaxshi kutib olibdi, nima ish bilan kelganliklarini so'rabdi.

- Bolamizning tarbiyasi haqida bizga maslahat bersangiz. Toki katta bo'lgach, el-yurtga foydasi tegadigan kishi bo'lsa? - debdi eri.

- Qachon tug'ildi? - deb so'rabdi Ibn Sino.

- Erta bilan tug'ildi, - deb erining o'miga xotini javob beribdi.

- Ey bolalarim, - debdi Ibn Sino, - bola erta tongda tug'ilgan ekan, hozir choshgoh bo'ldi, kechikibsizlar. Bola tug'ilishi bilan uning tarbiyasi haqida qayg'urish kerak edi.

## SHAHIDLAR XIYOBONIDA

Bizning o'ziga xos hikmat va ibratga boy bayramlarimiz juda ko'p. Istiqlol yillarda qadimiy qadriyatlarimiz va bugungi ma'naviy ehtiyojimizga asoslangan yangi bayramlarimiz ham paydo bo'ldi. Masalan, Prezidentimiz farmoniga binoan 9-may Xotira va qadrlash kuni deb e'lom qilindi.

O'tganlami xotiralash, ularni yod etishni xalqimiz insoniylikning muhim bir sharti deb bilgan. Xotira va qadrlash kuni bizni o'z farzandlik burchimizni, insonlik burchimizni sharaf bilan ado etishga undaydi, insonning Vatan ozodligi yo'lidagi jasoratini qadrlashga da'vat etadi.

Shu bois mamlakatimiz poytaxtining qoq markazida Xotira maydoni barpo etildi. Bu maydonda milliy me'morlik ruhidagi ayvonlar qad rostladi, Motamsaro ona siymosi bunyod etildi, maxsus kitoblarda ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan va halok bo'lganlar nomi qayd etilgan. Bu kitoblarda nomi tilga olingan ota-bobolarmiz yurtning kelajagi uchun jon fido qilganlar, ularni xalqimiz hech qachon unutmaydi.

Shuningdek, Prezidentimiz tashabbusiga binoan, shahrimizning Yunusobod dahasida ham qatag'on qurbanlarining ruhini shod aylash maqsadida shahidlar xotira maydoni ham barpo etildi. Barchaga ma'lumki, ilgari bu joylar odam kam yuradigan, xosiyatsiz joy sifatida nom olgan edi, ammo hozirgi kunda u barcha ziyorat qiladigan maydonga aylantirildi. Maydonda Shahidlar xotirasi muzeyi ochildi. Bu muzeyda xalq ozodligi uchun kurashganlikda ayblab qatag'onga uchragan buyuk yozuvchi shoirlar, san'at arboblari va olimlarga oid ma'lumotlar mavjud. Abdulla Qodiri, Fitrat, Abdulla Avloniy, Cho'lpion, Behbudiy va boshqalar shular jumlasidandir.

Yurtimizda ajdodlarimizni yodlab qilinayotgan ishlarning barchasi millat xotirasi uyg'onayotganidan, insonning qadr-qimmati tiklanayotganidan dalolat beradi.

Xotira uygongan, ajdodlar ruhi e'zozlangan yurtda tinchlik barqarorlik mustahkam bo'ladi, avlodlar savobli va xayrli ishlarga qo'l urishga shoshiladilar. Bulaming barchasi esa oxir oqibatda Vatanning kelajagini yanada nurafshon etadi.

## MARDLIK

Mardlik bu ezgu tuyg'u, muqaddas fazilat, tabarruk meros. Mardlik – inson qalbidagi quyosh, u mardlarga nur sochadi. Mard kishida, haqiqat, qanoat, sabr, ezgulik, vijdon,adolat, diyonat, insof, nomardlarda yolg'izlik, yomonlik, ojizlik, makkorlik, xasad, adovat, razolat, yuzsizlik, xiyonat, tubanlik, noinsoflik kabi sifatlarni uchratish mumkin.

Mard kishi bir so'zli, jasoratli, botir bo'ladi. O'z orzu-niyatlarini amalga oshinishda faqat iqtidoriga, bilim, kuch-g'ayratiga ishonadi. Zinhor-bazinhor ottonasining davlatiga uchmaydi.

Mard kishi o'z obro'-e'tiborini, nomini va sha'nini hamisha ulug' qo'yadi. Mard kishi yurtining qalqoni va xalqining suyanchig'i bo'ladi. O'g'il-qizlarini voyaga yetkazadi, ulaming o'zi yetolmagan armonlari, amalga oshmagan ishlarini ro'yobga chiqarishini orzu qiladi.

## XIVA

Xivani bejiz Sharq durdonasi deb atamaydilar. Bu Al Xorazmiy, Shayx Najmaddin Kubro, Paxlavon Mahmud, Ogahiy va Feruzni voyaga keltirgan va taqdim etgan mo'jizaviy makondir. 1997 yil 20 oktyabrdagi Xivaning 2500 yilligi nishonlandi. Xiva mana necha davrlardan buyon gullab yashnab kelmoqda. Kun sayin husniga husn qo'shilib kelayotgan bu shahar o'zining baland minoralari-yu, sharqi me'morchiligi bilan dunyoning turli chekkalaridan sayyoohlarni o'ziga jalb etadi.

Xiva tarixi Xorazm tarixi va uning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy voqealari bilan chambarchas bog'liq. Xorazm yoki Xvarizm, tarjimada quyosh shaxri ma'nosini anglatib, u tarixda Tuproq qal'a, Qirqqiz qal'a, Quyqirilgan qal'a, Xazorasp kabi qadimiy shaharlarning tarixiy va madaniy markazi hisoblangan. Bu yerdan eramizdan avvaligi 2000 (ikki minginch) yillar, neolit davriga tegishli qishloq xo'jaligidagi foydalilanigan birinchi sug'orish qurilmalari topilgan. Bu uning tarixi qanchalar uzoq ekanligidan darak berib qoladi.

Xivaga eramizdan avvalgi 5 asrda asos solingen bo'lib, kup asrlar davomida u Sharq bilan G'arbni bog'lab turgan, Buyuk Ipak yulining nuqtalaridan biri hisoblangan. Afsonalardan biriga ko'ra, karvonsaroymda to'xtagan savdogarlar u erda joylashgan zilol buloqlardan suv ichib lazzatdan "Xey Vax" – iborasini kup qo'llaganlar va shu tufayli Xeyvak so'zi paydo bo'lgan.

Boshqa afsonaga ko'ra esa, Nuh payg'ambarning o'g'li Sim katta g'arqlikdan keyin cho'lda kezib yurib uxlab qoladi va tushida 300 ta yonib turgan ma'shalani ko'radi. Uyg'onib u xursandligidan

## TOSHKENT

Toshkent – juda qadimiy va navqiron shahar. Uning yoshi 2000 yildan oshib ketgan. U tarixda Choch, Shosh, Binkent kabi nomlar bilan atalgan.

Toshkent - go'zal shahar. Ayniqsa, mustaqillik yillarda uning chiroyi yanada ortib bormoqda. Ko'plab yangi binolar, ko'chalar barpo etilmuoqda.

1997-yilda Toshkent metrosining birinchi yo'nalishi ish boshlagan. Hozirda uning Chilonzor, O'zbekiston va Yunusobod yo'llari bo'ylab poyezdlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Uning Alisher Navoiy, Amir Temur xiyoboni, Chorsu, Chilonzor kabi go'zal va ozoda bekatlari kishi ko'zini quvontiradi.

Toshkentda ko'plab madaniy muassasalar mavjud. Bog'lar, teatrlar, konsert zallari xalqimiz xizmatida. Toshkentda bir qancha muzeylar faoliyat yuritmoqda. Alisher Navoiy nomidagi adabiyot muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, Olimpiya shuhrati muzeyi shular jumlasidandir. Ular xalqimizning boy tarixi va bugungi yutuqlari haqida hikoya qiladilar.

Toshkentga har kuni minglab sayyoohlar, chet ellik ishbilarmonlar, xalqaro delegatsiyalar tashrif buyuradilar. Shahrimiz mehmonlarni iliq qarshi oladi. Ular uchun shinam mehmonxonalar qurilgan. Muhimi mehmondo'st O'zbekiston xalqi ularni ochiq chehra bilan kutib oladi.

Jahonga yuz tutgan O'zbekistonimizning qadimiy va hamisha navqiron poytaxti Sharq yulduzi deb bejiz tarannum etilmasligini mehmonlarimiz ham ta'kidlashmoqda.

## MAHALLALAR TARIXI HAQIDA

XVIII asrga kelib Toshkent ma'muriy hududiy jihatdan 4 qism – dahalariga bo'lingan. Dahalar o'z navbatida bir qancha mahalla va guzarlardan tashkil topgan: dahalarda mahallalar soni va ularning katta-kichikligi turlicha bo'lган. Ba'zi yirik mahallalar bir nom bilan atalsa ham, uning keyinroq paydo bo'lган qismlari tartib raqami bilan masalan 1-Eshonguzar, 2-Eshonguzar yoki hududiga qarab Katta Kamolon va Kichik Kamolon kabi. Aholi soni o'sgan sayin mahallalar kengaygan yoki yangilari paydo bo'lган.

Mahalla ma'muriy holati jihatidan o'z ichki tartib-qoidalariga ega jamoa tashkiloti sanalgan va uni mahalla aholisi tomonidan saylangan boshliq (oqsoqol) boshqargan. 20-asr boshlariga kelib ular yuzboschi mavqeida ko'rilgan. Oqsoqollarga mahallaning jamoat ishlari, marosimlari, yig'inlarini boshqarish hamda manfaatlarini himoya qilish vakolati berilgan. Bir mahallada 50tadan 150tagacha xonodon bo'lган. Shahar markazidagi mahallalar chekkalaridagiga nisbatan qadimiy bo'lib, aholi ham zinch yashagan. Ba'zi mahallalarning nomlari o'sha joyda rivojlangan kasb-hunarni anglatgan (Pichoqchilik, Etikdo'z), boshqalari etnik atamalar (O'zbekmahalla, Tojikko'cha, Mo'g'ulko'cha) yoki relyefi orqali ifodalangan (Sassiqhovuz, Chuqur ko'pri, Balandmasjid va h.k.).

Mahallalarning masjidi va choyxonasasi uning gavjumroq erida joylashgan, aholining turli ma'rakalari uchun zarur umumiy mulki saqlangan. Bir nechta

mahallaga bir umumiyy markaz – guzar, unda masjid, hunarmindchilik ustaxonalari, Choyxona, nonvoyxona, do'konlar hamda bozorcha xizmat ko'rsatgan.

Mustaqilllik yillarda “Fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlarini qo'llab-quvvatlash haqida”gi farmon va qonun asosida mahallalar o'z huquqiy maqomiga ega bo'ldi. Ularning faoliyat doirasi kengaydi. Mahallalar yuridik shaxs sifatida o'z mulkiga, moliyaviy byudjetiga, bankdagi hisob raqami – jamg ‘armasiga ega bo'ldi. Rahbaniyat (rais, kotib)ning nufuzi ortdi, vazifalari aniq belgilandi. Mahallalar o'z xududlarida savdo va maishiy xizmatni, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash, to'lovlardan sistemasida ishtirok etib, mahalla va aholi ahvolini yaxshilashga ko'maklashish kabilarda faol qatnashish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Mahalla oilalardan tashkil topadi. Farzandlar oila bag'rida kamol topganlari kabi oila ham mahalla ichida ravnaq topadi.

## USTOZ

Insonning dunyoga kelishiga sababchi ota-onasi bo'lsa, uning ilm-hunar o'rghanishi, hayotda o'z o'mini topishida ustozning o'mi beqiyosdir. Shu bois bo'lsa kerak, o'zbek xalqida “Ustoz otaday ulug” - degan naql bor.

Ilm shunday narsaki unga butun kuch sarf etilmasa qo'lga kirmaydi. Insonda aql va ilm bo'lmasa uni hech kim qadrlamaydi. Hunarmand kishi hech qachon xor bo'lmaydi, og'ir kunlarda xunar tufayli o'z rizq-ro'zini topadi. Mana shu ilm va hunarga bo'lgan chanqog'imizni faqat ustoz qondira oladi.

Sharqda ustoz va murabbiylar qadimdan hurmat va etibor topgan. Fikrimizning tasdig'i sifatida Alisher Navoiy ustozining nabirasiga otdan tushib salom bergani haqidagi hikoyani eslashning o'zi kifoya.

Shoir ahli ustozlar sha'niga ko'plab she'rlar bitsa, qo'shiqchilar uning madhini kuyga solib keladilar.

Qadimdan ota-bobolarimiz ustozlarga cheksiz ishonch bildirganlar, farzandini ustoz tarbiyasiga berar ekanlar “Eti sizniki, suyagi bizniki” deb aytganlar. Ya'ni ustozdan farzandiga nisbatan ham mehribon, ham qattiqqo'l bo'lishini istaganlar. Ustozlar esa yosh avlodga nafaqat, ilm yo hunar, balki yashash tarzi, hayot mazmunidan saboq bergenlar.

Istiqlol yillarda ustozlar yanada etibor va qadr topdi. Yurtboshimizning tashabbuslari bilan 1-oktyabming Ustoz va murabbiylar kuni sifatida umumxalq bayrami sifatida nishonlana boshlagani fikrimizning yorqin dalilidir. Bugungi kunda ta'lim sohasining ko'plab vakillari davlatimizning eng yuksak mukofotlariga, xatto “O'zbekiston qahramoni” unvoniga sazovor bo'lgani ham yurtboshimizning, xalqimizning ustozlarga hurmati va ishonchi namunasi, deb bilish mumkin.

Ustoz bo'lish oson emas. Muallim faqat biror narsani bilish emas, balki bilgan narsasini o'quvchiga to'g'ri etkaza olishi zarur, bu esa - bir san'atdir. Shu tufayli mashaqqatli kasb egalari va o'z ishlarining fidoisi bo'lmish ustozlarimizning mehnatini qadriga etish va ularga hurmat ehtirom.

## TOSHKENT METROPOLITENI

Poytaxtimizda transportning barcha turlaridan keng foydalaniladi. Shahrimizda eng yangi rusumli avtomobillardan tortib ot aravalarni ham uchratish mumkin. Lekin shularning ichida eng qulay transport vositalaridan biri Toshkent metrosidir.

1966-yil Toshkent zilzilasidan so'ng zilzila oqibatlarini bartaraf etish maqsadida Toshkentga sobiq ittifoq shaharlaridan juda ko'p mutaxassislar keladilar. Buning natijasida ikki yil ichida Toshkent aholisi bir yarim barorar oshadi, hududi esa uch barobar kengayadi. 1968-yilda metro loyihasi tuziladi. Loyihada Toshkentning seysmik holati va yozgi issiq harorati inobatga olinadi.

Toshkent shahar yo'lovchilar transporti korxonalari uyushmasi tarkibida Toshkent metro qurilishi 1972-yilda qurila boshlagan. Uning asosiy yo'naliishi shaharning markazidan o'tgan.

Toshkent metrosining birinchi yo'naliishi 1977-yil 6-noyabrda ish boshlagan, o'shanda atigi yettita bekat mavjud bo'lib, metro shahar markazini Chilonzor dahasi bilan bog'lagan. Uning uzunligi 12 km.

Metro qurilishi va loyihalashirishda Moskva, Kiyev, Leningrad, Tbilisi, Baku shaharlarining mutaxassislari yordam berdilar.

2001-yil 26-oktabrda esa Yunusobod metropoliten liniyasi ishga tushib, uning uzunligi 6,4 km tashkil etadi.

Endilikda Toshkent metrosining uzunligi 36,2 km, va 29 ta stansiyani tashkil etadi.

Shahar metro quruvchilari Sergeli turmanida uzunligi 18 km. bo'lган to'rtta yerusti va ikkita yerosti metro stansiyalarini qurishni rejalashtirganlar.

Hozirda Toshkent metrosining uchta yo'naliishi bo'ylab poezdlar qatnovi yo'iga qo'yilgan. Ular "Chilonzor", "O'zbekiston" va "Yunusobod" deb nomlanadi.

Metroning har bir bekatining bezagi bekat nomining mazmunidan kelib chiqib qurilgan. Ayniqsa, Navoiy, Hamid Olimjon, Kosmonavtlar bekatlari antiqa usullarda bezatilgan.

Bizning Toshkent metrosi dunyodagi eng chiroyli va ozoda metrolardan biri bo'lib hisoblanadi. Bu qulay va zamonaviy transport xizmatidan shahrimiz aholisi va mehmonlari juda mammunlar.

## KIM BIRINCHI BO'LIP SALOM BERISHI KERAK?

Yoshi katta odam bilan yoshi kichik odam uchrashsa, albatta, kichik odam birinchi bo'lib salom beradi. Lekin qo'l uzatish hamisha kattadan. Odamlar to'plangan xonaga kirsangiz bunda, shubhasiz, siz salom berishingiz shart. Bir kishi olddiga ikkinchi kishi kelsa, albatta kelgan kishi salom beradi.

Bu yaxshi odat qadimdan insoniylik ziynati hisoblanadi. Bir misol keltiraylik, taxminan 2000 yil ilgari Hindistonda "Mangu qonunlar" kitobi yozilgan. Yoshi kattalarga birinchi bo'lib salom beruvchilar to'rt narsaga erishadi: uzoq umr ko'radi, obro'li, bilimli va kuchli bo'ladi deyilgan.

Aslida esa kamtar, odobli kishi qachon men salom berishim kerag-u, qaysi paytlarda boshqalar menga salom berishi lozim, deb o'ylamaydi. Bunday kishilar birinchi bo'lib salom beraveradilar.

### TRANSPORTDA YURISH QOIDALARI

Ko'chada, jamoa orasida yurgan-turganda amal qilinishi lozim bo'lgan bir qator odob qoidalari mavjud. Ularga amal qilish har bir kishining vazifasidir. Inson uzoq-yaqin yo'lga otlanganda, avvalambor, ham jismoniy, ham ruhiy jihatdan poklanishi kerak. Uzoq safarlarga asosan jamoat transportlarida qatnaymiz. Jamoat transportlarida yurishning esa o'ziga xos tartibi bor:

- o'zingizga qulay bo'lishi barobarida o'zgalarga ham qulay vaziyat yarating.
- jamoat transporti ichida chekilmaydi, spirlti ichimliklar ichilmaydi.
- hammaning ko'zi oldida yog'li taomlar tanavvul qilinmaydi.
- baland ovozda gapirilmaydi, chunki yo'lovchi sheringinzning salomatligi zaif bo'lishi mumkin. Baland ovoz, shovqin-suron ularga malol keladi.
- jamoat transportiga o'tkir atirlardan foydalaniib chiqilmaydi. Hammaning didi har xil, sizga yoqqan hid, boshqa birovga yoqmasligi mumkin.
- nojoya so'zlar tilga olinmaydi, bu odobdan emas. - uzoq yo'lga chiqqanda har bir inson kiyinish odobiga rioya qilishi lozim.

Jamoat transportida ochiq-sochiq kiyinish atrofdagilarga nisbatan humatsizlik bo'lishi bilan birgalikda, o'sha insonning naqadar didsiz, tarbiyasiz ekanligini ko'rsatib turadi.

Yana bir mulohazali masala ustida to'xtalib o'tamiz. Hozirgi kunda qo'l telefonlaridan foydalanish keng urf bo'lgan. Yoshlarimiz unutmasligi kerakki, qo'l telefonlari o'yinchoq, ko'z-ko'z qilinadigan matoh yoki maqtanish vositasi emas. Telefon - ehtiyoj. Uni ehtiyoj darajasida ishlatish lozim. Ko'pchilik yoshlarimiz o'z telefonlarini noo'rin paytda, noo'rin joylarda bo'lmasga baralla qo'yib foydalanadilar. Vaholanki, telefondan foydalanish ham madaniyatni talab qiladi.

Olis yo'llarda keta turib, ufqli osmonga, bepoyon dalalarga, orqangizdan munayyib qolayotgan dov-daraxtlarga qarab xayolingizdan nimalar kechadi?!

Oq yo'll! Safaringiz bexatar bo'lsin!

Yuqoridagi mavzu bo'yicha aytilgan fikr-mulohazalarni davom ettiring.

### SOVCHILIK

Vatan ostanadan, hovli bo'sag'adan, oila sovchilikdan boshlanadi. Sovchi ikki xonadonga qarindoshlik iplarini bog'lashga da'vat etilgan kishidir. Sovchi kamida ikki, yo'qsa uch-to'rt kishidan iborat bo'lib, ikki jinsdagisi erkak va ayol sovchilar ham bor. Har ikki to'p alohida, mustaqil harakat qiladi.

Odatda sovchilar kayvon, el orasida obro'-e'tiborli, tagli-tugli, oqilu fozil kishilardan tanlanadi. Chunki ularning vazifasi og'ir, mas'uliyatlari. Sovchining gapso'zi mantiqli, ishonarli, "tosh bosadigan", zalvorli bo'lmos'i lozim.

Sovchilar yigitning oilasi nomidan qiznikiga, bo'lajak kelinnikiga elchilik qilib, uning qo'lini so'rab borishadi. Umr savdosining pishish-pishmasligi, avvalo, kuyov

bo'lmishning o'zi, ota-onasi, qarindosh-urug'i, qolaversa, sovchilarning mahoratiyu tajribasiga, quda bo'lmishlar ko'ngil qulfiga kalit sola olishiga ko'p jihatdan bog'liq. Ayni paytda o'z vazifalarining butun mas'uliyatini bo'yniga olgan bunday kishilar, har ikki oilani, ularning farzandlarini yaxshi bilganlar. Bilishmasa so'rabsurishtirishgan. Muayyan tasavvur qilishgach, undan so'ng vazifalariga kirishganlar. Bo'lmasa, birovning guldek farzandi umriga zomin bo'lib, bir tomonni o'tday kuydirib, bir umr o'zgalar domongirligida yashashni katta gunoh deb bilishgan.

Sovchilar "qizi borning nozi bor" degan naqlga amal qilib, vaqt o'tkazib, kelin bo'lmishnikiga uch-to'rt marta boradilar. Odatda sovchilikdan qaytgan mutasaddilarni "bo'rimi yo tulki" deb qarshi olinadi. Agar ular ishni o'rinalatib, xushxabar bilan qaytishsa, sovchilar "bo'ri" deb javob berishadi. Bu gal ish pishmagan bo'lsa, "tulki" deyishadi.

Ayl sovchilar ham qizning "ostonasini cho'ktiradilar". Yigit bilan qiznikiga bo'zchining mokisidek qatnayverib, kovushlarini to'zitadilar. Ayol va erkak sovchilarning maqsadlari ro'yobga chiqqach, o'sha zahotiyon non sindiriladi. Ya'ni "non sindirish" fotiha bilan sovchilik taomili o'z vazifasini o'tab bo'ladi.

Holva - ko'pincha, go'daklikdan qiz bolaga nisbatan brriladi. Vaqt o'tib unga sovchi kelishi, fotiha o'qilishi, holvayu patir ushatilishi ko'zda tutilib, shunday deyiladi.

Ilgari zamonalarda sovchilar to'ppadan-to'g'ri, dabdurustdan kirib borishni odat qilmaganlar. Ayol sovchilardan biri to tong sahardayoq, hali hamma uyqyda ekanligida qiznikiga borib, uning ostanasi ostini supurib qaytganlar. Ertalab turib bunga ko'zi tushgan ota-onalar nima voqeа ekanligini anglashgan, o'zlarini bilmaganlikka solib, zimdan tayyorgarlik ko'ra boshlangan. So'rab kelishi ehtimoli bo'lgan xonadonlarning ahvol-ruhiyasi bilan ham kishi bilmas tanishib olganlar. Shundan so'ng sovchilarning kelishini kuta boshlashgan. Sovchilarning birinchi elchiliklaridayoq hech kim rozilik berib qo'yavermagan, garchand, ko'ngillarida moyillik bo'lsada, qizlarining, qolaversa, o'zlarining qadr-qimmatlarini, sha'nlarini yuqori ko'tarishga uringanlar.

## AYLANA VA DOIRA

Atrofimizda dumaloq narsalar juda ko'p. Ularning ba'zilari doirani eslatadi. Bular — obi non va quymoq, medal va tangalar, limon bo'lagi... Yana boshqalari, masalan, halqa, velosiped g'ildiragi, uzuk kabilar aylanaga juda o'xshaydi.

Aylananing doiradan nima farqi bor? Aylana bilan cheklangan narsalarning hammasi — doira. Aylana esa shu doiraning chetlarigina, xolos.

Aylana — faqat chiziq. Oq qog'oz ustiga stakanni qo'yib, atrofidan qalam yurgizib chiqsak, hosil bo'lgan ingichka dumaloq chiziq aylana bo'ladi. Aylana chizish uchun sirkuldan ham foydalanish mumkin. Agar sirkul bo'lmasa, qog'oz varag'ini yog'och taxtacha ustiga qo'yib, o'rtasiga bitta knopka qadang, tagiga pishiq ip bog'lab qo'ying, ipning ikkinchi uchiga qalam bog'lang. Qalamni ip bog'langan joyidan ushlab, tarang torting-da aylanma chiziq chizib chiqing, shunda aylana hosil bo'ladi.

Doira — yassi shakl, uni qirqib tayyorlash mumkin. Hali chizgan aylanangizni atrofidan qaychi bilan qiyib chiqsangiz, doira hosil bo'ladi. Sirkul qo'yiladigan yoki haligi knopka qadaladigan nuqta aylana va doira markazi hisoblanadi.

Limon bo'lagi va ve=losiped g'ildiragi markazini topish oson.

### MASOFAVIY TA'LIM

Masofaviy ta'lism — bu masofadan Internet tarmog'i orqali o'qitish usuli bo'lib, uning asosida respublikamizda ma'lum sohalar bo'yicha test-tajribalar o'tkazilmoqda. Bunday kurslarga qabul qilinish uchun talaba, yashash joyidan qatui nazar, o'z kompyuterida Internetdagi «Masofaviy ta'lim» sahifasiga joylashtirilgan anketani to'ldiradi. So'ng tizimdagisi kurslar ro'yxatidan zarurini tanlaydi, ariza yozib yuboradi. O'qituvchi arizani ko'rib chiqadi va talabani o'qishga qabul qiladi, o'qish haqidagi ma'lumotlarni (o'qituvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, kurs materiallari, kurs jadvali va hokazolarni) talabaning elektron pochtasiga yuboradi. Talabalar barcha topshiriqlarni mustaqil ravishda kurs materiallarini o'rsgangan holda bajaradilar va virtual auditoriyada muhokama etadilar. Ushbu ta'lism shaklining e'tiborga loyiq jihatlari ko'p. Masalan, masofaviy ta'lism talabaga o'qitish shartlarini tanlash erkinligini beradi, bu esa zamonaviy jamiyatda shaxsnинг erkin shakllanishi tamoyiliiga muvofiqdir. Bundan tashqari, masofaviy ta'lism axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining barcha yutuqlarini qo'llagan holda katta hajmdagi ma'lumotni bera oladi, tez va sifatlari nazorat qiladi, axborot uzatish bilan birga muloqotni ham ta'limning asosiy komponenti darajasiga ko'taradi. Masofaviy ta'lism kursini ishlab chiqish va tatbiq etish metodist, dasturlovchi, dizayner, menejer kabi kasb egalaridan iborat bo'lgan katta jamoaning birgalikda olib boradigan ish jarayoni natijasi bo'lishi kerak.

### KARTON KOMPYUTER

Amerikalik dizayner Brendon Makaluso dunyodagi eng g'ayrioddiy kompyuterni yaratdi. Uning g'ayritabiyligi shundaki, ustki qismi kartondan yasalgan va u «Rekompyut» deb ataldi. Ushbu ixtironing yaqin kunlarda Nyu-Yorkda bo'lib o'tadigan «Griner Gadgets Dizayn» tanlovida birinchi marta qatnashishi rejalashtirilmoqda.

Ixtirochining so'zlariga qaraganda, yangi mahsulotning ustki tuzilishida na plastika, na metall bor, faqatgina ko'p taxlamli kartondan tashkil topgan xolos. Buning yordamida ishlab chiqarishning o'zida nafaqat arzon narxga erishiladi, balki atrof-muhitga ham sezilarli foyda keltiriladi. Shuningdek, karton kompyuter ichida havo aylanishiga to'sqinlik qilmaydi, bu esa tashkil etuvchi qismlarni samarali sovutish imkonini beradi. Quvvati bo'yicha ShK oddiy kompyuterlardan farq qilmaydi.

Stanford universiteti Quyosh energiyasi, elektr zahiralarini yig'ish hamda yashil energiyaning boshqa manbalarini tadqiq qilish uchun yangi institut tashkil etdi. Buning uchun 100 mln. dollardan ortiq mablag' sarf etilgan "IANS" (IANS) axborot agentligi bu haqda San-Frantsiskodan xabar tarqatdi.

Institut tashkil etgan "Silikon vodiysi"da «Xyulet Pekard» (Hewlett Packard), «Gugl» (Google) kabi axborot texnologiyalarini tadqiq etuvchi dunyoning yirik kompaniyalari faoliyat yuritadi. Shuningdek, bu yerda Kaliforniya universitetining 500 mln. dollarlik energiya tadqiqtot instituti ham joylashgan.

— Eng katta quvvat manbai bu Quyoshdir, — deydi yangi institutning direktori Lin Or. — Lekin biz Quyosh nurini elektr energiyasiga aylantirish jarayonini arzonlashtirishimiz kerak. Yangi markaz ayni shu faoliyatni amalga oshirishga mo'ljallangan. Biz bu yerda Quyosh energiyasini qayta ishlashda kerak bo'ladigan nanotuzilmali mahsulotlarni tayyorlash borasida tadqiqtolar olib boramiz”.

### NIMA SABABDAN QUYOSH TUTILADI?

Quyoshning tutilishida uch samoviy jism: Oy, Yer va Quyosh ishtirot etadi. Ma'lumki, Oy Yer atrofida aylanadi, Yer esa o'z navbatida to'xtovsiz Quyosh atrofidagi orbita bo'ylab harakat qiladi. Shunday qilib, vaqtqi-vaqt bilan Oy Yer va uni yoritadigan Quyosh o'rtafiga tushib qoladi. Shu holatda quyosh tutilishi degan hodisa ro'y beradi. Quyosh faqat yangi oy chiqqan kezlar tutiladi, chunki ayni shu vaqtida Oy Yerning Quyoshga qaragan tomonida joylashgan bo'ladi. Agar Oyning orbitasi ham Yerning orbitasi joylashgan tekislikda bo'lganida edi, Quyosh har yangi oy chiqqanida kech tutilar edi. Biroq Oy Yer atrofidagi 29,5 kunlik harakati vaqtida, odatda, Yer bilan Quyosh o'rtafiga to'g'ri chiziqni chetlab o'tadi.

Munajjimlar Quyosh tutilishi boshlanishini va u qancha davom etishini oldindan sekund-sekundigacha aniq aytib bera oladilar. Shuningdek, ular oldindan bu tutilish to'la, qisman yoki halqasimon bo'lishini ham aytalishadi.

Agar Oy Quyoshni butunlay to'sib qo'ysa, bu to'la tutilish deyiladi. Ammo Yer bilan Oy o'rtafiga masofa doimo bir xil bo'lmaydi va u ko'pincha juda uzoq bo'ladi. Bu esa Quyosh tutilishiga hamisha ham imkon beravermaydi, shunda Oyning qora gardishi butun Quyoshni to'sib qo'yadi, biroq uning aylanasi bo'ylab ingichka ko'rinish turadi. Bu quyoshning halqasimon tutilishini bildiradi. Oyning Quyosh yuzasini qisman to'sib qo'yishi qisman tutilish deyiladi.

Quyosh har yili kamida ikki marta tutiladi. Ularning soni beshtagacha ham yetishi mumkin. Yer sharining ma'lum bir qismida quyoshning to'la tutilishini har 250—300 yilda bir marta kuzatish mumkin. Shuning uchun munajjimlar butun Yer yuzi bo'ylab Quyoshning to'la tutilishi ortidan «quvib» yurishadi.

### AKKUMULATOR

«Akkumulator» so'zi lotincha bo'lib, «to'plagich», «yig'gich» degan ma'nolarni bildiradi. Akkumulator elektr quvvatini to'playdi. Eng oddiy akkumulyator sul'fat kislotaga botirilgan ikki qo'rg'oshin plastinkadan iborat. Elektr quvvatini to'plash uchun akkumulyator «zaryadlanadi», ya'ni u orqali elektr toki o'tkaziladi. Shunda qo'rg'oshin plastinkaning sirtqi qavati boshqa moddaga — qo'rg'oshin oksidiga aylanadi. Endi akkumulatorga elektr motor yoki lampochkani ulash mumkin. Qo'rg'oshin oksid yana qo'rg'oshinga aylana Boshlaydi, to'plangan elektr quvvatini «qaytarib» beradi va lampochka yonadi, elektr motor ishlay Boshlaydi. Akkumulator

o'zi to'plagan elektr quvvatini «qaytarib» bo'lgach, u yana zaryadlanadi va elektr to'plagich qaytadan ishlay boshlaydi.

### XALQ OG'ZAKI IJODIDAN

Afsonalar dunyodagi deyarli hamma xalqlar og'zaki ijodining eng qadimgi, aziz va ommaviy janrlaridandir. Ularda tarixiy hayot ro'y bermagan bo'lsa-da, ro'y berishi mumkin bo'lgan voqealar hikoya qilinadi. Badiiy to'qima bu janr asarlarining asosiy xususiyati hisoblanadi. Shuning uchun olimlar afsonalarning ayrimlarini ertaklarga tenglashtirganlar. Ayrim afsonalar esa miflarga o'xshab ketadi. Bunday namunalarda biror narsa-predmetning paydo bo'lishi, rasm-rusum yoki odatlarning boshlanishi haqida ma'lumot beriladi.

Bu janr namunalariga aytib beruvchi shaxs asar mazmunini saqlagan holda ma'lum o'zgartirishlar kiritishi mumkin. Afsonalarda mazmun jihatidan xilma-xil voqealar hikoya qilinadi. Ular xalqimiz tarixini o'rganishda turli urf-odatlar, rasm-rusumlar, an'analarni sharhlashda, joy nomlarini izohlashda muhim ahamiyatga ega.

Rivoyatlar afsonalardan hayot haqiqatiga anchayin yaqinligi bilan farq qiladi. Agar afsonalar to'laligicha ajdodlarimiz tomonidan o'ylab topilgan to'qima hikoyatlardan iborat bo'lsa, rivoyatlar hayotda ro'y bergan qandaydir tarixiy voqealarga asoslanadi. Ular mazmunan afsonalardan deyarli farq qilmaydi, ammo bu asarlar zaminida aniq tarixiy dalil ildizi mavjud bo'ladi. Bu asarlar ko'pincha sodir bo'lgan tarixiy voqeа ishtirokchisi tomonidan yozib qoldiriladi yoki aytib beriladi, Ajdoddan avlodga meros sifatida o'tib bizgacha yetib keladi. Shuning uchun rivoyatlar o'tmish voqealari haqida bizga ma'lumot berishi bilan qiziqarlidir. Ularda tariximiz sahifalari, mashhur allomalar hayotidan lavhalar, ayrim joy nomlarning paydo bo'lishi o'z askini topadi.

O'zbek xalqi orasida Imom Buxoriy, Beruniy, Burhoniddin Marg'iloni, Ibn Sino, Ulug'bek, Navoiy kabi buyuk allomalar haqida yaratilgan o'nlab rivoyatlar hamon saqlanib kelmoqda.

Yuqoriga aytilganlardan quyidagi xulosalarga kelish mumkin: rivoyatlar xalq og'zaki ijodini epik tunga kirgan ommaviy janrlardandir.

Bunday asarlar voqeaga guvoh bo'lgan shaxslar tomonidan yozib qoldiriladi yoki avloddan- avlodga og'zaki tarzda merosga aylanadi.

### NUTQ O'STIRISHDA BARMOQ MASHQLARIDAN FOYDALANISH

Bolaning qo'l kafsi va barmoqlarini harakatlantirish o'ziga xos rivojlanuvchi ta'sirga ega. Mutaxasislarning ta'kidlashicha, qo'l va barmoqlar ishtirokida o'yinlar tana va ongging o'zarbo'liqligini ta'minlaydi.

Qo'lning oddiy harakatlari nafaqat qo'lning balki, lab, yuz mushaklari zo'r qishlarini susaytiradi, aqliy nuqsonlarning kelib chiqishini oldini oladi, tovushlar talaffuzini yaxshilashga ham yordam beradi.

Barmoqlarning mayda harakatlari bo'g'inlar artikulyatsiyasiga o'ziga xos ta'sir etadi. Barmoqlar rivojlantishi evaziga miyada nutqning ravon bo'lishi kuzatiladi. Barmoq mashqlari nafaqat qiziqarli, balki maroqli hamdir.

Tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni bartaraf etishda barmoq, mashqlaridan foydalanish bolaga kompleks yondashishga imkon beradi. Barmoq mashqlarining nutq ishtirokida bajarilishiga yordam beradi.

## DUNYO TILLARI VA O'ZBEK TILI

Mustaqillik sharofati bilan respublikamiz dunyoning barcha mamlakatlari bilan siyosiy-iqtisodiy, madaniy aloqa qilish imkoniyatiga ega bo'ldi. Respublikanizning turli mamlakatlarida bo'lib, o'rganib – o'rgatib qaytmoqdalar. Agar siz Toshkentdan poezdga o'tirib, Moskva va u orqali Parijga safar qilsangiz, yo'lingizda qozoq, tatar, rus, belarus, frantsuz, singari tillardagi gaplarni eshitasiz.

Bu jarayonda ularning odatlari ona tilingizga qaysi bir jixati bilan yaqin, shu bilan birga nimasi bilandir farqli ekanligi ona tilimizga o'xshamasligini guvoxi bo'lamic. Bir – biriga yaqin, umumiy jixatlari ko'p bo'lgan tillar qarindosh, biri- biridan uzoq, umumiy jixatlari bo'limgan tillar qarindosh bo'limgan tillar hisoblanadi. Hozirgi kunda yer yuzida mavjud bo'lgan 3000 dan ortiq til hind-evropa, turkiy, xom-som, xitoy-tibet singari bir necha til oilalariga bo'linadi. Masalan o'zbek, turk, turkman, qirg'iz, qozoq, tatar, uyqur, ozorbayjon, qoroqolpoq, bolgar singari tillar bir oilaga mansub bo'lib, ular turkiy tillar oilasi nomi bilan yuritiladi. Qarindosh kishilar bir ajdoddan tarqalgani kabi, qarindosh tillar ham bir tilidan kelib chiqqandir. Ko'rinish turibdiki, o'zbek tili Dunyo tillari tizmida turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, O'zbekiston Respublikasining davlat tili sifatida erkin rivojlanib o'sib bormoqda.

## AVLONIY TIL VA SO'Z ODOBİ HAQIDA

Tilga, madaniyatga muhabbat har bir kishining xalqiga bo'lgan muhabbatidir. Avloniying uqtirishicha, har bir millatning dunyoda borligini ko'rsatadigan oynai hayoti til va adabiyotidir.

Avloniy so'zning inson qadr-qimmatini belgilashdagi mavqeiga umuminsoniy nuqtai nazardan baho berdi. Uning o'qtirishicha So'z insonning daraja va kamoli, ilm va fazlini o'lchab ko'rsataduron tarozisidur. Aql sohiblari kishining fikr va niyatini, ilm va quvvatini, qadr va qimmatini so'zlagan so'zidan biladilar.....

Avloniy rostgo'ylik va to'g'riso'zlikni insonning eng insoniy sifatlaridan biri sifatida baholadi. Uning fikricha, haqqoniyat deb ishda to'g'rilik, so'zda rostlikni aytilur. Inson bo'stoni salomatga, gulzori saodatga, haqqoniyat yo'li chiqar. Insoniyatning ildizi bilan rahmdillik, haqshunoslik, odillik kabi eng yaxshi sifatlarning onasi haqqoniyatdir. Kishilarni yaxshilikka undash, yomonlikdan qaytarish, dunyodagi barcha insonlarga ezungulik istagi bilan yashash chinakam oljanoblikdir. Odamlar umr bo'yi bir-birlari bilan aloqada bo'ladilar. O'zaro yordamga, hamkorlikka hojat sezadilar. Shunday ekan, rostgo'ylik, to'g'riso'zlik insonlar hayotida katta ahamiyat kasb etadi.

Avloniy o'zining butun pedagogik faoliyatini va ma'rifatparvarlik faoliyatda o'z xalqining baxt-saodati yo'liga bag'ishladi. Xalqi Vatani oldidagi farzandlik burchini sharaf bilan bajardi. O'zbek pedagogikasi rivojiga salmoqli ulush qo'shdi. Mana shu ma'noda Avloniy siyoshi, faoliyatini biz uchun g'oyat qadrlidir.

## IBN SINO JISMONIY VA AQLIY TARBIYA HAQIDA

Ibn Sino «Tib ilmlari qonuni» asarida bola katta bo'lib, yetilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi. Uning o'qtirishicha, odamning yig'itlik, yetuklik yoshida hamda ulg'aygan yoshida sog'lik-salomatligini saqlash uchun zarur bo'lgan jismoniy mashg'ulot bilan shug'ullanishi kerak. Ulug' mutaffakir jismoniy tarbiya deb inson salomatligi uchun zarur bo'lgan badanni turli xil mashg'ulot harakatlariiga o'rgatishni nazarda tutadi. Uning fikricha, jismoniy mashg'ulotlar bilan o'z vaqtida va mustaqil shug'ullanib boruvchi odam xech qanday davolanishiga muhtoj bo'shamaydi.

Ibn Sinoning aql va aqliy tarbiyaning tabiiy va psixilogik asoslarni aniqlashga harakat qiladi. Uning fikricha, hayot, hayotiy quvvat uch shaklda: o'simlik, hayvonot va inson shaklida namoyon bo'ladi.

Ibn Sino bolaning ilm-fan yoki hunar egallashga intilishida o'qituvchining unga bilini, hunar o'rgatishi zarurligini uqtiradi.

Ilm-fanga intilish insonning eng oliv ma'naviy harakatlaridandir. Chunki ilm odamni ma'naviy yuksaklikka ko'taradi, jamiyat ravnaqining asosiy omili bo'lib xizmat qiladi.

## MUSIQA

Tabiatan nozikta'b, san'atsevar va san'at ahliga talabchan o'zbek xalqining musiqa keng ko'lamli ma'naviyat ko'zgusidir. O'tmishda musiqa ziyolilikning albat namunasi bo'lgan. Ma'rifat va ma'naviyat axlining jonkuyar xomisi Alisher Navoiy bolalik chog'larida alifbo qatori musiqa nazariyasini Xoja Burxonidan puxta o'zlashtirgan, ustoz, tog'asi Muhammad Ali G'aribiy, yaqin do'stlari bilan musiqiy ijod va ijro sohalarida muntazam suxbatlar o'tkazib kelgan.

Turli yo'nalishdagi musiqa maktablari paydo bo'ldi: Buxoroda «Shoshmaqom» ijrochilik maktabi, Samarqandda maqomchilik va bastakorlik, Farg'onada sozandalik va katta ashulachilik maktablari.

Hozirgi kunda musiqa ta'limi tizimi O'zbekiston Respublikasi Madaniyat ishlari vazirligi tasarrufida bo'lib, 300 dan ziyod bolalar musiqa maktablari, 5 o'rta maxsus musiqa muktab-internatlari, 14 musiqa (san'at) bilim yurtlari va Toshkent davlat konservatoriyasida amalga oshiriladi.

## MUXTOR ASHRAFIY

O'zbek musiqa san'tining atoqli namoyondalaridan biri mashxur kompozitor va dinijyor, murabbiy va jamoat arbobi Muxtor Ashrafiy o'zbek musiqa madaniyatini rivoj topishiga katta xissa qo'shgan san'atkordir.

Muxtor Ashrafiy 1912-yili 11-iyunda Buxoro shahrida sozanda oilasida tug'ildi. Daslab sharq musiqa maktabida, keyinchalik musiqa texnikumida o'qib etuk sozanda va maqomdon ustalardan dutor chalishni va maqom ijrochiligi yo'llaridan ta'lim oladi. 1928- yilda esa Samarqand musiqa va xoreografiya institutini talabasi bo'ldi va bu dargohda etnograf va kompozitor N.N.Mironovdan kompozitarlik va dirijyorlik

ilmini, nazarny va notalashirish uslublarini o'rganadi. Shu yillari Samarqand radiosida ham ishlaydi, qushiqlar hamda ko'p ovozli asarlar yaratadi. Institutni bitirgach, 1931 yilda Toshkentdag'i o'zbek davlat musiqiy teatriga dirijyor va musiqa raxbari qilib tayinlandi. 1943-1947-yillari M Ashrafiy o'zbek opera teatri dirijyori, musqa rahbari va direktori, 1947-1962, 1970-1966- yillari Samarqand opera va balet teatri direktori, badiiy rahbari, bosh direjyori, 1966-1975-yillarda Alisher Navoiy nomidagi akademik katta opera va balet teatri musiqa raxbari va bosh dirijyori lavozimlarida ishiladi. M. Ashrafiy 1926-yildan boshlangan dirijyorlik faoliyatida «Farhod na Shirin», «Gulsara», «Arshin mololon» musiqali drama komediylaridan boshlab, «Zaynab va Omon», «Maysaraning ishi», «Uluqbek», «Layli va Majnun», «Zulmatdan ziyo», «Karmen», «Aida», «Traviata» operalari, «Jizel», «Shopeniana», «Shelkunchik», «Spartak», «Paxta» baletlari singari o'zbek kompozitorlari va jaxon klassik kompozitorlarining yuzdan ortiq asarlariga dirijyorlik qildi.

M.Ashrafiy jahonning ko'p sahnalarida o'z dirijyorlik mahoratini namoyish etgan bo'lib, uning asarları ham turli davlatlarda musiqa jamoalarida ijro etilgan.

Ustochning san'atimiz rivojiga tushgan buyuk ishlari munosib taqdirlangan bo'lib, 1939 -yili O'zbekiston va 1951- yili sobiq ittifoq xalq artisti faxriy unvonlariga, uch marta davlat mukofotlari, Javoharlal Neru (1972) va Jarmol Abdul Nosir (1973) nomli xalqaro mukofotlarga sazovor bo'lgan. Muxtor Ashrafiy 1975 -yili Toshkentda vafot etdi.

### **QASAMYODGA SODIQ BO'L, O'G'LON!**

Qasamyod maqaddas. Unga amal qilish, axdiga sodiq qolish sharaflı burchdir. Buni anglagan, tushunib yetgan har bir o'g'loning ko'zida bu kun shijoat, o'ziga ishonch tuyg'usi chaqnab turadi. Birin - ketin yurt o'g'lonlari Vataniga, xalqiga, yurtboshiba sodiq bo'lish uchun qasamyod qabul qila boshlaydi. Onalarning ko'zidagi sevinch yoshlari, otalar chehrasidagi yorqin tabassum tadbirga fayz bergandek, shukuh bag'ishlaganek....

Bundan buyon zimmaga g'oyat mas'uliyatlari vazifalar yuklatiladi. Bunday sharaflı vazifalarni a'lo darajada bajarish uchun esa o'tkir zehn, izlanish, nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tartib intizomga rioya etish talab qilinadi. Kelajakda fidokorona hizmat bilan xalqimiz ishonchini hamda qabul qilgan qasamyodlarini oqlashlariga ishonch bildiriladi.

Ulaming eng ulug', eng aziz ayyom kuni qasamyod qabul qilishlarida ulkan ramziy ma'no bor. Bu Vatan hurriyati buyuk baxt ekanligi, tinchlik va osoyishtalik eng oliv ne'matligi hamda bularni asrashga mas'ul ekanliklariga ishoradir. Yurtga bo'lgan mehru – muhabbatini, sadoqatini qasamyodda bitilgan so'zlar bilan uyg'un tarzda izhor etishga, ona Vatan sha'nini yuksaklarga ko'tarishga tayyor ekanligi, Vataniga, xalqiga, Prezidentiga sodiq bo'lishga qasamyoddir.

### **KURASH**

Juda qadimiy o'yin - odatlarimizdan biri kurashdir. Bu o'yin - odat haqida siz yaxshi tasavvurga egasiz. Chunki kurash odatimiz, hayriyatki, yo'qolib izesiz ketgan udumlarimiz qatoriga kirmay qolgan. Buning sababi, obrazli qilib aytganda, har bir

zamon, ayniqsa, bizning zamonomizda kundalik turmush, hayot kechirishning o'zi kurashdan iborat bo'lib qolganligi tufayli shunday bo'lqandir...

Kurash qadimiy va erkin kurash turlariga bo'linadi. Bu odatning tarixi bir qadar uzundir. Kurash bizning xalqimiz orasida paydo bo'lib taraqqiyot yo'liga kirgandan buyon tarkib topib, rivojlanib, takomillashib bordi. Milliy kurashni biz hozirgi kunda sport turni sifatida qayd etamiz. Aslida esa, bu odat xalq hayotining juda muhim tarmog'i bo'lib, uning taqdiri - a'molini belgilagan.

Qadimda yalpi qirg'in, o'llim qurollari bo'lmagan paytlarda, pahlavonlari u yoki bu xalq, qo'shin, katta lashkar g'alabasini, bu bilan esa shu podsholikning taqdirini hal qilganlar. Polvonlik bitta - ikkita shaxs misolida emas, balki umumxalq siyosida ommalashgan. Yaxshi chavandozlik, kamondan bexato o'q otish, chapdastlik bilan qilich chopish, epchillik, jasurlik, tantilik va mardlik, xalollik kurashchilarning bosh fazilatlari sanalgan.

## O'ZBEKISTON

O'zbekiston Markaziy Osiyoning o'rta va shimoliy qismida joylashgan. Shimoli-sharqda Qirg'iziston, Shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston, janubi-g'arbda Turkmaniston, Janubi-sharqda Tojikiston Respublikalari bilan, Janubda qisman Afg'oniston bilan chegaradosh.

Respublika hududi janubi-sharqdan shimoli-g'arba cho'zilgan va yer yuzasi ham shu yo'nalishda yirik daryolar oqimiga mos pasayib boradi. Shimoli-g'arbida Orol dengiziga tutash. Maydonining ko'p qismi tekislik, oz qismi tog', adir va tog' oldidan iborat. O'zbekiston hududidan Markaziy Osiyoning eng katta daryolari – Amudaryo va Sirdaryo oqib o'tadi. Bu ikki azim daryo orasidagi hudud Turon past-tekisligi deb ataladi. Bu tekislikning ko'p yeri Qizilqumdan iborat, ba'zi joylarda qirlar uchraydi. Respublikaning sharqi va janubi-sharqiy qismida Tyanshan, Oloy, Turkiston, Zarafshon va Xisor tog'lari bor.

Bu tog'lar orasida Farg'ona, Zarafshon, Kitob-Shaxrisabz, Surxon-Sherobod, Chirchiq-Ohangaron kabi katta cho'kmalar - vodiylar joylashgan. To g'larning cho'qqilari muzliklar, doimiy qor qatlamlari bilan qoplangan.

O'zbekiston turli foydali qazilmalarga boy. Vatanimiz o'zining paxtasi, pillasi bilan mashhur.

## O'ZBEKISTON DURDONASI

Farg'ona tabiiy-geografik o'liasi Respublikamizning eng sharqiy qismida, Farg'ona vodiysida joylashgan bo'lib, uning atrofi baland tog'lar bilan o'ralgan. Vodiylar qadimiy madaniyat maskanlaridan biri, Ahmad Farg'oni, Zahiriddin Muhammad Bobur, Habib Abdullayev kabi olim va davlat arboblarining vatanidir. Aholisi milliy an'analmi yaxshi saqlab qolgan, juda mehmondo'st. Vodiylar tabiatini juda go'zal va maftunkor hamda noz-ne'matlarga boy. Shuning uchun ham xalqimiz Farg'ona vodiysini "O'zbekiston durdonasi" deb ataydi.

Farg'ona vodiysi foydali qazilmalarga boy. Bu yerda neft, tabiiy gaz, ko'mir, oltingugurt, tog'mumi, oltin, slanest va boshqa xil boyliklar mavjud.

Vodiyning deyarli barcha soy va daryolari baland tog'lardan oqib tushadi. Vodiya eng ko'p suv keltiradigan daryo Norin bilan Qoradaryodir. Vodiya ko'llar ko'p emas. Oloy tizmasining shimoliy yon bag'rida Qurban ko'li joylashgan. Ko'l suvi juda tiniq,sovutq, atrof tabiat esa juda go'zal. "Ko'li qurban" tabiat yaratgan mojiza, go'zallik ramzidir.

Farg'ona vodiysiga ko'plab sayyoohlar kelib turishadi. Vodiy tabiatining viqorli tog'lari, daryo ko'llari hamda mehmondo'st xalqining shaydolari ko'p. Farg'ona vodiysini chet ellik sayyoohlar ham ziyorat qilib turishadi.

Xalqimiz dasturxonidan oltin vodiy dehqonlarining mehnatlari samarasini bo'lmish noz - ne'matlar ham joy olgan.

## BUYUK IPAK YO'LI

Buxoro, Xiva, Samarcand, Toshkent, Farg'ona vohasi, Qarshi cho'llari – qadimiy Buyuk Ipak yo'lidagi asosiy manzillardir. Arxeologlarning ta'kidlashicha, uning tarixi eramizgacha bo'lgan II asrga borib taqaladi. Karvon yo'llari Markaziy Osiyoning ikki asosiy daryosi – Amudaryo va Sirdaryo yoqalab Qizilqum va Qoraqum qumloqlari bilan borib, Tyan-Shan tog' devonlari va Pomir – Oloy tizmalari osha Sharqni G'arb bilan, Yaponiyani Hindiston va Xitoy bilan, Angliya, Fransiya va Portugaliya bilan ulangan. Qadimiy o'zbek tuprog'i hududidagi necha-necha shaharlar, vohalar, sahrolar, daryolar, tog'lar va cho'llar bu yo'l ular oralig'ida ko'priq vazifasini o'tagani madaniyatning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Tarixning shoxidlik berishicha, Ipak yo'li necha ming yillar mobaynida ikki qit'adagi necha-necha xalqlarning bir-biriga integratsiyasida yaqinlashishida eng muhim rol o'ynagan. Mahsulot, bilim, texnologiya va madaniyat almashinuvini aynan shu yo'l orqali sodir etilgan va natijada shaharlar hudud, davlatlar rivojlanib borgan.

## CHOTQOL QO'RIQXONASI

Respublikamizning yirik qo'rrixonalaridan biri – Chotqol tog'-o'rmon qo'rrixonasidir. Qo'rrixona Toshkent shahridan 70 km. Sharqda Chotqol tizmasining janubi - g'arbiy qismida joylashgan. Qo'rrixona 1947 - yilda tashkil etilgan, maydoni 35,3 ming hektar.

Qo'rrixonaning tabiatini go'zal, havosi musaffo, o'simlik va hayvonot dunyosi o'ziga xos, unda noyob o'simlik va hayvonlardan tashqari, ajdoddardan qolgan tarixiy yodgorliklar ham uchraydi. Mazkur tabiat maskanida ilmiy tadqiqot ishlari ham olib boriladi.

Qo'rrixona iqlimi sermam va salqin. Iyul oyining o'rtacha havo harorati 24 daraja issiq, yanvar oyida 2 daraja issiq bo'ladi.

Qo'rrixona hududidan Boshqizimsoy, Shovvozsoy kabi soylar oqib o'tadi.

Chotqol tog'-o'rmon qo'rrixonasi o'simliklari, xilma xil, 600 turga yaqin o't o'simliklari, 10 tup daraxt va butalar o'sadi. Asosan lola, chuchmoma, bo'tako'z, toshkarra, agra kabi gullar o'sadi. O'rmonlarda archa va mevali daraxtlar uchraydi.

Bodom, o'rik, olma, nok, tog'olcha, do'lana kabi mevali daraxtlar, irg'ay, na'matak kabi mevalar o'sadi.

Daryo vodiylarida tol, terak, jingil, tog'olcha va xandon pista o'sadi.

Qo'riqxonaning hayvonot dunyosi boy va xilma xil. Oddiy kaltakesak, sariq ilon, suvilon va parrandalaming 93 turi mavjud. Bundan tashqari suvsar, bo'rsiq, bo'ri, t ulki, ayiq, qor barsi kabi noyob hayvonlar ham yashaydi.

Qo'riqxonada yashlovchi qor barsi (irvis) YUNESKOning "Qizil kitob"iga kiritilgan.

## VODOROD

Ingliz olimi Kavendish bir kuni kishiga qiziq tuyiladigan ish bilan mashg'ul bo'ldi. Kavendish temir kukuniga sulfat kislata ta'sir ettirilganda qandaydir gaz pufakchalarini hosil bo'lishini kuzatgan. Olim bu gazni idishdan naychalar orqali chiqarib ko'rdi. Gaz ko'zga ko'rinnmadni, ya'nini rangsiz edi. Hidi ham yo'q edi. Shunda Kavendish naychalarini sovun ko'pikchalri bilan to'ldirdi. Pufakchalar osonlik bilan havoga ko'tarilib chiqdi. Demak, gaz havodan yengil ekan. Gazni yoqib ko'rilsa nima bo'lar ekan? Gaz zangori tusda alanganlib yondi. Gaz yonganda suv hosil bo'ldi. Kavendish yangi gazni "Yonuvchi havo" deb atadi. U oddiy havo kabi rangsiz, hidsiz bo'lib, ta'mi ham yo'q edi. Bu tekshirishlar 18 -asning ikkinchi yarmida amalga oshirildi. Keyinroq farang kimyogari Lovoaz'e yangi gazni Vodorod "Suvchil" deb atadi.

Vodorod tabiatda juda keng tarqalgan bo'lib, u kosmik fazoda, tumanliklarda, yulduzlarda va quyoshda ham bor. Vodorodning yuksak bosim va o'n millionlarcha harakatda geliyga aylanishi quyoshning issiqlik nuri va yorug'lik tarqatishiga imkon beradi. Vodorod yerda ham juda ko'p. U barcha tirik organizmlarda, o'simliklarda, tog' jinslarida va albatta suvda mavjud.

## GIPPOKRAT

Gippokrat (Hippokrates) (mil.av. 460, Kos oroli-377, Fessaliya), Buqrot, Abuqrot – yunon vrachi, ilmiy tibbiyat asoschilaridan biri. Gippokrat Yunonistonda mashhur bo'lgan shifokor gippokratlar sulolasining o'n sakkizinchiligi avlodid. U tibbiyatga oid ma'lumotni otasi Geraklitdan olgan. Gippokrat asarlari G'arb va Sharq vrachlari qo'lida mo'tabar qo'llanma bo'lib keldi. Gippokratga 75 ga yaqnin asar nisbat beriladi. "Majmuayi Buqrotiya" ("Buqrot to'plami") nomi bilan mashhur bo'lgan bu asarlarning aksarisini Gippokrat vafotidan keyin o'g'illari va shogirdlari yozgan. Gippokrat asarlarini va ularga Galen bergan sharhlami Hunayn ibn Ishoq (809-877) suryoniy va arab tillariga tarjima qilgan.

Gippokrat tibbiyotni kohinlar ta'siridan qutqardi va uning mustaqil rivojlanish yo'llarini ta'rifladi, vrach kasallikni emas, balki bemorni davolashi kerak, deb ta'lim berdi. Tashqi muhit omillari (iqlim, tuproq, suv kishilarining hayot yo'sini, mamlakat, qonunlari va b.)ni odamga, unda jismoniy va ruhiy xususiyatlarning shakllanishiga ta'siri jihatdan ajratdi. Shifokor xulq-atvorining qisqacha ta'rifi bo'lgan qasamyod

(“Gippokrat qasamyodi”) matmini ham Gippokrat yozgan deyiladi. Gippokratni “tibbiyatning otasi”, deb ataydilar.

## SUV - NOYOB TABIIY BOYLIGIMIZ

Hozirgi vaqtida atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim muommolaridan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta'minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalarini mavjud suv manbalarining 20% ni tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishdan chiqqan oqava suvlari tarkibida o'ta zaharli moddalar, og'ir metallar mavjud. Kon-ruda sanoati korxonalarini oqava suvlarida og'ir metallar ruxsat etilgan me'yordan 50 barobar, neft undan ham ko'p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat inspeksiyasi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, 626 sanoat korxonalaridan ko'p miqdorida yetarli tozalanmagan oqavalar chiqib turibdi.

Sayyoramizning to'rtadan uch qismini okean, dengiz, ko'l va daryolaming suvi egallagan. Ammo istemol qilishga yaraydigan toza ichimlik suv miqdori juda oz yerdagi jami suv zahirasining o'rtacha 0,6%-ni tashkil etadi.

Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri uni tejamli sarflashdir. Suvni tejashta oqava suvlari yig'ib uni tozalash va qayta ishlash katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalananidan suvni tejaydi, yerni suv sho'rланishi va suvni ifloslanishini oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xerosi Noma: “Mabodo kelgusida xayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, suv etishmovchiligidan bo'ladi”, degan edi.

Shuning uchun ham biz hayot manbai bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralarini ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. -T.: Aloqachi, -2005.
2. Rasulov R., Mirazizov A. O'zbek tili. O'rta maxsus ta'lif muassasalari uchun o'quv qo'llanma. -T.: Aloqachi, -2007.
3. Adilova S. Mirazizov A. Amaliy o'zbek tili. Oliy o'quv yurtlarining amiq fanlar va informatika yo'nalishlari uchun qo'llanma. -T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
4. Adilova S., Mirazizov A., Quvondiqova I., Siddiqova M. Amaliy o'zbek tili. Oliy o'quv yurti rus guruhlari uchun metodik qo'llanma. -T.: TDPU. 2010.
5. Adilova S., Mirazizov A., Mirazizova D., Yunusova Sh. Amaliy o'zbek tili. Oliy o'quv yurti rus guruhlari uchun metodik qo'llanma. -T.: TDPU. 2010.
6. Adilova S., Narimova G., Quvondiqova I., Mirazizov A., Yunusova Sh. O'zbek tili. Oliy o'quv yurti rus guruhlari uchun metodik qo'llanma. -T.: TDPU. 2016.
7. Asqarova M. va boshq. O'zbek tili praktikumi. -T.: TDPU, 2007.
8. Azimov I., Saparniyozova M. Ona tilidan ma'ruzalar va testlar majmuasi. -T.:TDPU, 2008.
9. Siddiqova M., Mutualipova M. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlarining ta'lif boshqa tillarda olib boriladigan guruhlari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. -T.: TDPU, 2004.
10. Saparniyozova M., Ahmedova N., Abdullayeva D. Bitiruv malakaviy ishlarini bajarish bo'yicha metodik tavsiyanoma. -T.: TDPU. 2011.
11. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po'latova X. O'zbek tili. Oliy o'quv yurtlari bakalavriatning rusiyabon guruhlari uchun darslik. – T.: O'qituvchi, 2006.

### **Internet saytlari**

12. <http://teachyourselfuzbek.com/resources/coursebooks/> – Самоучитель узбекского языка . 13.<http://solver.uz/translate.php> – Русско-узбекский переводчик . 14.[http://sahifa.tj/russko\\_uzbekskij\\_razgovornik.aspx](http://sahifa.tj/russko_uzbekskij_razgovornik.aspx) – Русско-узбекский разговорник
15. [http://sahifa.tj/uzbeksko\\_russkij.aspx](http://sahifa.tj/uzbeksko_russkij.aspx) – Узбекско-русский переводчик
- 16.<https://my.gov.uz/> – Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalı
17. <https://www.lex.uz.> – Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари маълумотлари миллий базаси
- 18.<http://library.ziyonet.uz/> – ta'lif portalı

Times New Roman garniturasi. Qog'oz bichimi: 60x84 <sup>1</sup>/<sub>16</sub>  
bosma tabog'i 15. Adadi 50 nusxa.  
OOO "AKTIV PRINT" bosmaxonasida chop etildi.  
Toshkent, Chilonzor 25, Lutfiy 1A.

